

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

**“TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI”  
fanidan**

**O‘QUV – USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT – 2018**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

**KARALIYEV TURABOY MAMATQULOVICH  
QURBONOV RUFAT BAXTIYOROVICH**

**“TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI”  
fanidan  
O‘QUV – USLUBIY MAJMUA**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	230000 – Iqtisod
<b>Ta‘lim yo‘nalishlari:</b>	5230700 – Bank ishi 5111000 – “Kasb ta‘limi”( 5230700 – “Bank ishi”)

**TOSHKENT – 2018**

**Karaliyev T.M., Qurbonov R.B. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanidan o‘quv–uslubiy majmua. – T.: TMI, 2018. 398 b.**

Ushbu o‘quv–uslubiy majmua Toshkent moliya instituti Kengashining 2018-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanining o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

- Karaliyev T.M. – “Bank hisobi va audit” kafedra professori, i.f.n.  
Qurbonov R.B. – “Bank hisobi va audit” kafedra katta o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

- Karimov N.G – TDIU, “Bank ishi” kafedra professori, i.f.d. (*turdosh OTMdan.*)  
Marpatov M.D. – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Buxgalteriya hisobi va hisoboti” departamenti direktori o‘rinbosari (*kadrlar buyurtmachisi*).

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanning O‘quv uslubiy majmuasi kafedraning 2018 yil “\_\_” \_\_\_dagi “\_\_” -sonli yig‘ilishi muhokamasidan o‘tkazilgan va Kredit–iqtisod fakulteti Kengashiga ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**Z.Umarov**

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanning O‘quv uslubiy majmuasi Kredit–iqtisod fakultetining Kengashi muhokamasidan o‘tkazilgan va institut O‘quv–uslubiy Kengashiga ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilgan. (2018 yil “\_\_” \_\_\_dagi “\_\_” -sonli qaror)

**Fakultet dekani**

**R.Saidov**

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanidan O‘quv–uslubiy majmua institut O‘quv–uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va institut Kengashi tasdig‘iga tavsiya qilingan (2018 yil “25” \_\_08\_\_\_dagi “01” -sonli bayonnoma).

**Kengash raisi**  
**O‘quv–uslubiy bo‘lim boshlig‘i**

**I.Qo‘ziyev**  
**T.Baymuratov**

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanidan O‘quv–uslubiy majmua Toshkent moliya instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil “28” \_\_\_08\_\_dagi “01” -sonli bayonnoma).

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>O‘quv materiallari</b>	
<b>I. MA‘RUZA MATNLARI.....</b>	<b>5</b>
1-mavzu. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanining predmeti va vazifalari...	6
2-mavzu. Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish .....	17
3-mavzu. Bank majburiyatlarining tahlili .....	49
4-mavzu. Tijorat banklari aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili .....	66
5-mavzu. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili...	99
6-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari tahlili.....	120
7-mavzu. Bank daromadlari va xarajatlarining tahlili .....	132
8-mavzu. Tijorat banklari likvidliligi va uni tahlil qilish .....	148
9-mavzu. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili .....	166
<b>II. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI.....</b>	<b>184</b>
1-mavzu. Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining predmeti va vazifalari...	189
2-mavzu. Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish .....	193
3-mavzu. Bank majburiyatlarining tahlili .....	204
4-mavzu. Tijorat banklari aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili .....	210
5-mavzu. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili...	219
6-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari tahlili.....	224
7-mavzu. Bank daromadlari va xarajatlarining tahlili .....	228
8-mavzu. Tijorat banklari likvidliligi va uni tahlil qilish .....	237
9-mavzu. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili .....	243
<b>III. ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>282</b>
<b>IV. MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARI.....</b>	<b>288</b>
Talaba portfoliosini yaratish bo‘yicha tavsiyalar.....	289
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>315</b>
<b>VI. ILOVALAR.....</b>	<b>321</b>
Fan dasturi.....	322
Ishchi fan dasturi .....	332
Kalendar reja.....	347
Texnologik xarita.....	350
Tarqatma materiallar.....	353
Testlar.....	392
O‘quv–uslubiy majmuaning elektron varianti (diskda).....	

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyatining barqarorligi, uning raqobatbardoshligi va istiqbollari ko'p jihatdan o'tgan davrda erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga bog'liq. Istiqbolni belgilash tahlilga asoslanmog'i lozim.

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fani bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni uzluksiz ravishda o'rganadi. O'rganishda ko'rsatkichlarni guruhlash, taqqoslash, bog'lash, induksiya, deduksiya, sintez, korrelyatsion – regression tahlil kabi usullardan foydalaniladi.

Tahlil natijasida erishilgan yutuqlarning sabablari, faoliyatning samarali va samarasiz qirralari o'rganiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatlari yaratiladi. Tahlil jarayoni faoliyatning asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi va u bankning likvidligi, daromadligini oshirish va mijozlar ishonchini qozonishga asos bo'ladi.

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanida o'z va chetdan jalb etilgan mablag'lari tarkibi tuzilmasi, dinamikasi va ular o'rtasidagi mutanosibliklar o'rganiladi.

Bank aktivlari tahliliga keng e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad yuqori foyda olishdan iboratligini inobatga olgan holda bank daromadlari va xarajatlari tarkibini o'rganadi. Foydani tashkil etish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Keyingi yillarda banklar tomonidan to'lanadigan soliqlarning turlari, ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri chuqur talqin qilinadi.

Banklarning raqobatbardoshligini aniqlashda ularning likvidligi va to'lov qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadli.

Tahlil davomida banklarning likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'liq o'rganiladi.

Har qanday tahlildan maqsad kamchiliklarni aniqlash va ularni tugatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**



**“TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI” fanidan  
2018/2019 o‘quv yili  
uchun mo‘ljallangan**

**MA‘RUZALAR**

**Toshkent – 2018**

# **1 -mavzu: Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining predmeti va vazifalari**

## *R e j a:*

- 1. Tijorat banklari faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati***
- 2. Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining maqsad va vazifalari***
- 3. Tijorat banklari faoliyati tahlilining shakllari***

### **1. Tijorat banklari faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati**

Har qanday jarayonning keyingi taqdiri uni har tomonlama chuqur tahlil etilishiga asoslanadi. Ayniqsa iqtisodiy jarayonlarning takomillashuvi va rivojlanishini iqtisodiy tahlilsiz tasavvur etish mumkin emas.

Bozor iqtisodiyoti davrida banklar Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek iqtisodiyotning qon tomirlari hisoblanar ekan, ular faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirish muhim masalalardan bir bo'lib qolaveradi. Chunki, banklar iqtisodiyotda kredit munosabatlari va hisob-kitoblarda vositachi vazifasini bajarar ekan, barcha iqtisodiy subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi bank tizimining barqarorligi bilan chambarchas ravishda bog'liq bo'lib qoladi. Banklar ish yurituvchilar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash maqsadida ularni doimiy ravishda kredit mablag'lari bilan ta'minlab turadilar. Bundan tashqari barcha iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini bank faoliyatisiz, uning barqaror rivojisiz amalga oshirish mumkin emas.

Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o'z faoliyatini uzluksizligini ta'minlashning iloji bo'lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko'p jihatdan banklarning likvidligi, to'lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatini qamrab olgan, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining asosiy sabablaridan biri sifatida, "...banklar likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining etishmasligi bilan izohlanadi"<sup>1</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi tijorat banklari faoliyati bilan butun iqtisodiy jarayonlarning uzluksiz ravishda bog'liqligini bildiradi.

Shunday ekan, banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash muhim iqtisodiy masalalardan bir bo'lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T. O'zbekiston, 2009 - 8-bet.

Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo'ladi. Buning uchun esa eng avvalo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidliligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, bank faoliyati tahlili fanining predmeti, bank faoliyatini o'zida aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni uzluksiz ravishda o'rganishdan iboratdir.

Bank faoliyati tahlili fani banklarga muomaladagi bo'sh mablag'larni jalb etish, o'z mablag'larini to'plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadi.

Har qanday tahlil kabi, bank faoliyati tahlili jarayonida birinchidan, haqiqiy holat o'rganiladi, ikkinchidan, haqiqiy holat normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi, uchinchidan, olingan natijalarga ta'sir etuvchi omillar va ularning bank faoliyatiga ta'siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviga takliflar tayyorlanadi. Shunday ekan, Bank Boshqaruvi tomonidan bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlar albatta bank faoliyati tahlil natijalariga asoslanadi. Qabul qilingan qarorlarning samarasi faoliyat tahlili natijalarining nechog'lik to'g'riligiga proporsional ravishda bog'liqdir.

Bank faoliyati tahlilining asoslari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- birinchidan, bank balansi ma'lumotlari (1 – ilova);
- ikkinchidan bank daromadlari va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi (2 – ilova);
- uchinchidan bank buxgalteriyasi analitik va sintetik hisob raqamlari ma'lumotlari (hisobvaraqlar rejasi 3 – ilova);

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan bir bo'lib, banklarda kunlik balans hisobotlari tuziladi. Har bir ish kuni oxirida, bankning har bir filiali tomonidan balans tuziladi va u Respublika Boshqaruvi tomonidan umumlashtiriladi. Bu holat bank faoliyatini tezkor ravishda tahlil qilib borish imkoniyatini yaratadi.



Bankning daromadlari va xarajatlari balans ma'lumotlariga asosan uning daromadlari manbalari, miqdori, xarajatlarining turlari va hajmi hamda faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Bank faoliyatini operativ (tezkor) tahlil qilishda analitik va sintetik hisob raqamlar oboroti va qoldig'idan foydalanadi. Shunday ekan, 1,2,3 – ilovalarda keltirilgan ma'lumotlar bank faoliyatini tahlil qilishning asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, bank faoliyati tahlilining huquqiy asoslari bo'lib, uning faoliyatini asoslovchi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qaror va yo'riqnomalari hisoblanadi. Ulardan eng asosiylari "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi", "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonunlar hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatini to'g'ri tahlil qilishda Markaziy bankning, banklar faoliyatiga bog'liq bo'lgan talablari, Nizomlari, Normativ hujjatlarini bilish va ularga to'liq rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgani kabi tahlil natijalari Bank Boshqaruvi, Bankning kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib, xizmat qiladi.

## **2. Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining maqsad va vazifalari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyati tahlilidan asosiy maqsad faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Bank faoliyatini tahlil qilishning bosh maqsadi ham bank faoliyati samaradorligini oshirishga erishishdan iboratdir.

Bank faoliyati natijasida olinadigan sof foydaning miqdori oshishini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlarning ishonchini qozonish va bank aksiyadorlariga to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirib borish demakdir. Shuning uchun ham, bank faoliyati doimiy va uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi lozim.

Bosh maqsadga erishish uchun bank faoliyatining barcha jihatlari uzluksiz ravishda tahlil etilishi, uning natijalari to'g'ri va aniq talqin qilingan holda Bank Boshqaruviga xulosa chiqarish va qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda taqdim etib borilmog'i lozim. Bank strategiyasini belgilash, Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari ham bank faoliyati tahliliga asoslanadi va ushbu qabul qilingan qarorlar samaradorligini belgilab beradi.

Bank faoliyati tahlilining bosh maqsadiga erishish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

– **birinchidan**, bank kreditorlari va omonatchilarining manfaatlarini himoyalash. Ma'lumki, Banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri

bo'lib, ular faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini qariyb 70–85 foizini bank kreditorlari va omonatchilarining mablag'lari tashkil etishi hisoblanadi. Shunday ekan, kreditorlar va omonatchilar manfaatlari bankning manfaatlari bilan uyg'unlashgan tarzda faoliyat yuritilishi lozim. Omonatchilar o'zlarining bankka ishonib topshirgan mablag'larini va ular uchun to'lanishi lozim bo'lgan foiz shaklidagi daromadlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarib olishlari kreditorlar ham bankdagi mablag'laridan qonun doirasida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lmog'i zarur. Bunga erishish uchun esa, bank faoliyati kreditorlar va omonatchilar manfaatlari nuqtai-nazaridan uzluksiz ravishda tahlil etilib borilishi lozim. Bunda doimiy ravishda kreditorlar va omonatchilarning talablarini o'z vaqtida va to'la – to'kis bajarmoq uchun yetarli miqdorda mablag'lar bo'lishi talab etiladi. Buning uchun bankning to'lov qobiliyati uning omonatchilari va kreditorlari talablarini qondirish maqsadida doimiy ravishda tahlil qilinishi talab etiladi.

– **ikkinchidan**, bank oborotiga chetdan jalb etilgan va bankning o'z mablag'laridan samarali foydalanishi. Ushbu maqsadga erishish uchun albatta, doimiy ravishda chetdan jalb etilgan va o'z mablag'lari dinamikasi va barqarorligi nuqtai-nazaridan tahlil etilishi talab etiladi. Shu bilan birga, ushbu mablag'lar qaysi maqsadlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilganligi va natijada ulardan qay darajada samara olinishi kuzatib boriladi. Chetdan jalb etilgan va o'z mablag'laridan samarali foydalanish uchun bankning yangi xizmatlarini joriy etish va uning bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirib borish yo'llarini izlash talab etiladi. Bank faoliyati tahlili natijasida chetdan jalb etilgan va o'z mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari aniqlanadi va u faoliyatga tatbiq etiladi.

– **uchinchidan**, bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash va ularni oqilona boshqarish. Bank oborotiga jalb etiladigan resurslar tahlili natijasida uning barqarorligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday bank oborotga jalb etilgan mablag'larning kam xarajat talab etilishi va ushbu resurslarning bank oborotida imkon darajasida uzoq muddat xizmat qilishini istaydi. Barqaror resurslar albatta barqaror daromad manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, bank oborotiga jalb etilgan resurslarni oqilona boshqarish ham bankning samarali va xavfsiz faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bank faoliyati tahlili asosida resurslar va bank aktivlari o'rtasida mutanosiblikka erishiladi. Bank resurslari muddat va hajm jihatidan aktiv operatsiyalarga yo'naltirilishi muvofiqlashtiriladi. Natijada bank resurslaridan samarali foydalanishning optimal variantlari ishlab chiqiladi.

– **to'rtinchidan**, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 50 – moddasiga muvofiq Markaziy bank moliya–bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoyalashni ta‘minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.

Ushbu qonunning 52– moddasiga muvofiq Markaziy bank banklar uchun majburiy bo‘lgan iqtisodiy normativlarni, shu jumladan;

- kapitalning monandlik koeffitsientini;
- bir qarz oluvchi yoki bir–biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorini;
- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko‘p miqdori;
- likvidlilik koeffitsientlari;
- aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va umidsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;
- qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni;
- ochiq valyuta mavqei limitlarini belgilaydi.

Ushbu normativlarning doimiy ravishda bajarilishini ta‘minlash uchun bank faoliyati uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi talab etiladi.

Albatta normativlar bank tizimining barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Normativlar bajarilishining ta‘minlanmasligi bank faoliyatini xavflilik darajasini oshiradi. Bank boshqaruvi normativlarga rioya etilishi yuzasidan tezkor ma‘lumotlarga ega bo‘lishi va uni, ta‘minlash uchun chora-tadbirlar belgilash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;

– **beshinchidan**, bank aktivlarini tarkibini va sifatini to‘liq nazorat qilib borish.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog‘i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidlili, daromadlili va risklilik darajasi tahlili faoliyat muvaffaqiyatining garovi hisoblandi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta‘minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o‘rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo‘lib qoladi.

Bank faoliyati tahlili bank aksiyadorlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bankning Kuzatuv kengashi tomonidan ham Boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirishda tahlil natijalaridan keng foydalaniladi.

– **oltinchidan**, bank likvidliligi va to‘lov qobiliyatini doimiy ravishda ta‘minlanishiga erishish.

Bankning likvidligi deganda uning majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ravishda bajara olish imkoniyatlari tushuniladi. Bank omonatchilari va kreditorlari oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida hamda to‘la – to‘kis bajarilishi uchun doimiy ravishda, ma‘lum darajada likvid mablag‘larga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu o‘z navbatida mijozlar tomonidan bankka nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

Bankning to‘lov qobiliyati deganda uning mijozlar tomonidan berilgan topshiriqlarni tezkor ravishda ta‘minlash imkoniyatlari tushuniladi. Shunday ekan, bank aktivlarini likvidlilik va to‘lov qobiliyati nuqtai-nazaridan tahlil etilishi faoliyat samaradorligini ta‘minlash asoslaridan bir bo‘lib hisoblanadi.

– **yettinchidan**, bank daromadlari va xarajatlarining optimal miqdorini aniqlash. Har qanday tijorat tashkilotlari kabi banklar faoliyatidan asosiy maqsad ham maksimal miqdorda foyda olishdan iboratdir. Shuning uchun ham bank daromadlari va xarajatlarini tarkibiy jihatdan va uning sof rentabellik darajasini tahlil qilish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qoladi. Yuqori daromad olish uchun olinadigan daromad manbalari, har bir daromad keltiruvchi aktivlar hamda bank xizmatlari turlarini o‘rganish va yuqori daromad keltiruvchi sohalarni aniqlab borish zarur. Shu bilan birga bank xarajatlari tarkibini o‘rganish natijasida ma‘lum xarajatlarni tejash imkoniyatlarini aniqlash ham faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bank faoliyati tahlilining maqsadlaridan hisoblanadi. Ma‘lumki, daromadlilik va bankning likvidliligi bir – birlari bilan qarama – qarshi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Shunday ekan, daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash ham faoliyat tahliliga asoslanadi.

– **sakkizinchidan**, bank qimmatli qog‘ozlarining jozibadorligini ta‘minlashga erishish. Bankning o‘z mablag‘lari ko‘payib borishi asosan uning aksiyalarini sotishdan tushgan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi. Aksiyalarning sotilishi esa uning jozibadorligiga bog‘liqdir. Qaysi bankning aksiyalari uning sohiblariga ko‘p daromad keltirsa, unga bo‘lgan talab ortib boradi. Bu hol o‘z navbatida ushbu aksiyalarning jozibadorligini ta‘minlaydi.

– **to‘qqizinchidan**, bank imijini oshirishdan iborat. Bank imidji, uning jamiyatdagi, mamlakatdagi obro‘yi, erishilgan muvaffaqiyatlar bilan chambarchas ravishda bog‘liqdir. Erishilgan obro‘ – e‘tibor albatta uning faoliyat barqarorligi, mijozlarga ko‘rsatilgan xizmat turlarining sifati, tezkorligi va to‘laqonligi bilan belgilanadi. Bular esa o‘z navbatida bank faoliyatini doimiy ravishda to‘liq tahlil etish va undan to‘g‘ri xulosalar chiqarish bilan bog‘liqdir.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish bank faoliyati tahlilining quyidagi vazifalariga bog‘liqdir.

1. Butun bank faoliyati va uning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat tahlilining natijalarini to‘la – to‘kis ravishda yoritish;
2. Bank faoliyati to‘g‘ri tahlil etilishi natijasida bank faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’siri natijalarini chuqur o‘rganish;
3. Erishilgan natijalarni baholash va ular to‘g‘risida to‘g‘ri xulosalar tayyorlab kelgusida optimal qarorlarni qabul qilish uchun bankning boshqaruv organlariga taqdim etish.


### 3. Tijorat banklari faoliyati tahlilining shakllari

Tijorat banklari faoliyati tahlilining turlari asosan belgilangan maqsad va vazifalarga bog‘liqdir. Bundan tashqari, tahlil amalga oshirilayotgan zamon va makon, tahlil obykti va subyektlari masalalari ham inobatga olinmog‘i zarur.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil etish subyektlari nuqtai-nazaridan ular ikki turga bo‘linadi. Bular birinchidan tashqi va ikkinchidan ichki tahlilga bo‘linadi. Banklarning tashqi tahlili asosan Markaziy bank, tashqi auditor tashkiloti va soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki tahlil odatda bankning ichki audit guruhi, tegishli departament va boshqarmalar hamda har bir bank xodimining funksional vazifalari yuzasidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyati tahlili tashqi va ichki subyektlar tomonidan amalga oshirilishini quyidagi rasmda aks ettirish mumkin.



1-rasm. Tijorat banklari faoliyati tahlilining amalga oshiruvchi subyektlar bo‘yicha turlari

Tashqi moliyaviy tahlil kompleks ravishda amalga oshiriladi, lekin u tahlil etuvchining maqsadiga muvofiq farqlanadi. Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan kompleks tahlilning asosiy maqsadi bank barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Banklar tomonidan Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga rioya qilish darajasi o'rganiladi. Buning uchun Markaziy bankning maxsus inspeksiyasi tomonidan banklarining o'z mablag'lari tarkibi, uning monandligi bank aktivlarining likvidligi va risklilik darajasi, kredit va investitsiyalarning tasniflanishi hamda muammoli kredit va investitsiyalarni qoplash uchun zarur bo'lgan zaxiralarning haqiqatda tashkil etilganligi o'rganiladi. Haqiqiy holat iqtisodiy normativlar bilan taqqoslanadi va undan CHEKInishlar mavjud bo'lgan taqdirda harakatdagi qonun–qoidalar doirasida chora-tadbirlar belgilanadi hamda qonunga muvofiq zaruriy jazolar ko'rilishi mumkin.

Harakatdagi qoidalarga muvofiq har bir bank har yili bir marta tashqi auditdan o'tish va uning tegishli xulosalariga ega bo'lmog'i kerak. Tashqi audit tashkiloti bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida tanlanadi. Yirik banklar o'zining imijini oshirish maqsadida xalqaro audit tashkilotlarini tanlashlari mumkin.

Tashqi audit tashkilotlari ham banklar faoliyatini kompleks tarzda tahlilini amalga oshiradi. Audit jarayonida bank faoliyati natijalarining xalqaro andozalarga mos kelish darajasi o'rganiladi. Audit xulosasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiflar hamda xalqaro bank faoliyatiga mos ravishda hisobot yili natijasi baholanadi.

2018 yil natijalari bo'yicha umumiy aktivlari mamlakat bank tizimi aktivining 90 foizidan ortig'ini tashkil qiladigan barcha banklar "Fitch Ratings", "Moody's" va "Standard and Poor's" kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining "barqaror" degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi.

Soliq inspeksiyasi tomonidan ham bank faoliyati tahlili kompleks ravishda amalga oshiriladi. Ushbu kompleks tahlildan maqsad albatta bank tomonidan davlat budjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini nazorat qilishdan iboratdir. Buning uchun inspeksiya tomonidan dastlab bank daromadlarining hisobotlarda o'z vaqtida va to'liq aks ettirilishi, soliqqa tortiladigan daromad miqdorining to'g'ri hisoblanganligi, xarajatlar tarkibi va ularning haqiqiyligiga hamda daromaddan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning haqiqiyligi, to'liq va o'z vaqtida budjet hisob raqamlariga o'tkazilganligi tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, soliq inspeksiyasi bank tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa soliq turlari, mol – mulk solig'i, yer solig'i va boshqa to'lovlar kabilarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishiga ham e'tibor qaratadi. Shu bilan birga,

bank tomonidan harakatdagi to'lovlar ketma – ketligiga rioya etish darajasi ham o'rganiladi.


Ichki tahlilning asosiy maqsadi, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Bunda faoliyatdagi qonun va qoidadan chetlashishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, bankning har bir operatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanishi lozim. Tahlil natijasida Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga zarur informatsiyalar taqdim etish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr mulohazalar bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bank faoliyatini yoki ayrim regionlar doirasida kompleks ravishda tahlil qilish bank ichki audit xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim faoliyat turlari bo'yicha tahlil asosan ushbu faoliyatni tashkil etish uchun tashkil etilgan departament yoki boshqarmalar xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bankning har bir operatsiyasi yuzasidan asosiy tahlil esa joriy ravishda ushbu operatsiyani amalga oshirish uchun mas'ul hisoblangan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bu uning funksional vazifalari sirasiga kiradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, tashqi tahlil ma'lumotlaridan foydalanuvchilar bo'lib, kreditorlar, investorlar, omonatchilar, auditorlar va boshqa bank faoliyati bilan qiziquvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ichki tahlil natijalaridan foydalanuvchilar esa, faqat bank bo'linmalari hisoblanadi. Bu ma'lumotlaridan bank rahbariyati ya'ni Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashi tomonidan operativ qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladi.

Bundan tashqari, bank faoliyati tahlili uning mazmuni jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi.




**2-rasm. Tijorat banklari faoliyati tahlilining mazmuni bo'yicha turlari**

Tahlilning mazmuniga ko'ra amalga oshiriladigan tahlillar uning mazmuni va ko'zlangan maqsadiga ko'ra yuqorida ko'rib o'tilgan tahlil subyektlarining barchasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Lekin, lokal va tematik tahlil asosan ichki tahlil sirasiga kiradi.

Kompleks tahlil asosan bankning ma'lum bir hisobot davridagi faoliyatini o'rganishga qaratilmog'i lozim. Lokal tahlilda bankning ma'lum bir filiali faoliyati yoki ma'lum bir faoliyat turi, masalan, kredit operatsiyalari tahlil qilinadi. Tematik tahlilda faoliyatning ayrim turlari, ularni yanada samaraliroq tashkil etish maqsadida o'rganiladi.

Tahlil qilinayotgan davrga ko'ra bank faoliyati tahlili quyidagicha tasniflanadi.



### 3-rasm. Tijorat banklari faoliyati tahlilining davri bo'yicha turlari

Operativ, joriy va istiqbolli tahlillar bankning ichki tahlili hisoblanadi. Ular asosan amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarini baholash, unga ta'sir etayotgan omillarni aniqlash, kelgusida faoliyat samaradorligini oshirish uchun istiqbolli chora-tadbirlar belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Operativ tahlil odatda har bir operatsiyani bajarish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Joriy va istiqbolli tahlillar bankning ichki apparati tomonidan amalga oshirilib, qaror qabul qilish uchun, bank boshqaruviga taqdim etiladi. Bank boshqaruvi tahlil natijalarini umumlashtirgan holda faoliyat samaradorligini yaxshilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda tahlil boshqaruv obyektiga qarab moliyaviy va boshqaruv tahliliga ajratilgan holda o'rganiladi.

Moliyaviy tahlilda pul mablag'larining harakati, daromadlar tarkibi va miqdori, xarajatlar tarkibi, moliyaviy natijalari, moliyaviy resurslar, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va faoliyat rentabelligi kabilar hisob tizimi va moliyaviy hisobotlar ma'lumotlaridan foydalangan holda o'rganiladi. Boshqaruv tahlilida asosan bankka chetdan jalb etilgan va o'z mablag'larini samarali boshqarish,



passiv va aktiv operatsiyalarini muvofiqlashtirish, kredit portfelini boshqarish, mehnatning tashkil etilishi, asosiy vositalar va yordamchi materiallardan samarali foydalanish, daromad va xarajatlarni boshqarish kabilar nazarda tutiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank faoliyati tahlilining turlari har xil bo'lishiga qaramasdan, ulardan tahlil jarayonida o'rganilayotgan ko'rsatkichning mazmun – mohiyatiga qarab turli usullarni qo'llab, taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar va bu farqlarni keltirib chiqargan omillar aniqlanadi.

Bank faoliyati tahlili jarayonida ma'lum bir bankning faoliyatini boshqa bir bankning faoliyati bilan taqqoslab o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Bir bankning regionlardagi filiallari faoliyatining turli jabhalarini taqqoslash orqali, Bank boshqaruvi ilg'or amaliyot tajribasini ommalashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi banklari assotsiatsiyasi qoshida tashkil etilgan "Axbor Reyting" kompaniyasi tomonidan mavjud barcha banklarining har choraklik va yillik faoliyatlari natijalari xalqaro andozalarga asoslangan holda tahlil qilinadi. Uning natijalariga asosan bank faoliyati baholanadi. Bu o'z navbatida, banklar tomonidan raqobat muhitida uning raqobatbardoshligini oshirish uchun faoliyatining qaysi jihatlarini samarali boshqarish haqida chora-tadbirlar belgilashiga yordam beradi.

Bank faoliyatini har tomonlama chuqur tahlil qilishda statistikada qo'llaniladigan guruhlash, iqtisodiy indekslash, zanjirli almashtirish, balans, korelyasiya, regresiya, matrisa kabi metodlardan har tomonlama foydalaniladi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

- bank;
- balans;
- metod;
- aktivlar;
- majburiyat;
- kapital;
- daromadlar;
- xarajatlar;
- aktiv balans.

## **2 -mavzu: Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish**

### ***R e j a:***

- 1. Tijorat banklari kapitalining tarkibi va mohiyati***
- 2. Bank kapitalining yetarliligi va dinamikasi tahlili***
- 3. Bank kapitali barqarorligi va samaradorligi ko'rsatkichlari***

### **1. Tijorat banklari kapitalining tarkibi va mohiyati**

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliligini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatdan biridir.

Aytish joizki, Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlangan, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan jahon moliyaviy inqirozi natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik va to'lov qobiliyati zaiflashib borayotgan bir paytda, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlashda bank kapitali va uning yetarlilik darajasi birlamchi zaruriy omil bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarning samaradorligini ta'minlashda tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uning muvofiqligini ta'minlashga erishish muhim o'rin tutadi.

Xalqaro bank amaliyotida bank kapitali va uning yetarliligini ta'minlash masalasiga to'xtalishdan oldin bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tish joiz.

Bank kapitali murakkab kategoriya sifatida «bank ishi»da muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u bank faoliyatining boshlang'ich moliyaviy asosi va keyinchalik uning rivojlanishi, barqarorligi hamda xavfsizligini ta'minlovchi manba bo'lib hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, tijorat banki kapitali – bu bank faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir.

Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni yanada to'liqroq u bajaradigan funksiyalarda namoyon bo'ladi.

Bank kapitalining quyidagi ikkita funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Himoya funksiyasi. Bank kreditorlari va omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funksiyasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga shakllantiriladi.

Himoya funksiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, agarda bank tugatilganda omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyatiga keng yo'l ochib beradi.

Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bank operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Bank kapitalining mavjudligi uning ishonchliligi va likvidligining birinchi shartidir.

2. Bank kapitali tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Bank kapitalini tartibga soluvchi funksiyasi bankning ssuda va investitsion operatsiyalarini chegaralashni nazarda tutadi.

Bank kapitali yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishi uchun quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy).

Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aksiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar", deya qayd etilgan.

Demak, tijorat banklari ustav kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatish huquqiga ega.

Bank kapitali majburiy to'lovlarga tobe bo'lmasligi kerak.

Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank kapitali omonatchilar va kreditorlarning huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim.


Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur.

Tijorat banklari kapitali tarkibini oqilona shakllantirilishi bank kapitalining mustahkamligiga va uning yetarliligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda. Xalqaro Bazel qo'mitasining standartlariga asosan bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratiladi. Ushbu standartlar birinchi marta 1988 -yilda ishlab chiqilib, amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan.

Bazel andozalariga ko'ra asosiy kapital elementlari quyidagi rasmda keltirilgan.




#### 4-rasm. Bazel andozalariga ko'ra asosiy kapital elementlari<sup>2</sup>

Shunisi e'tiborga molikki, xorijiy bank amaliyotida banklarda audit tekshiruvini o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

<sup>2</sup> Abdullaeva Sh.Z., Omonov A.A. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 122 b.

Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari quyidagi rasmda berilgan.



**5-rasm. Bazel andozalari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari<sup>3</sup>**

Bazel andozalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarini deganda bank qoshida tashkil etilgan, mustaqil balansga ega bo'lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trust, forfeyting kompaniyalari) ko'zda tutiladi.

Bazel ko'mitasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'zda tutilmagan risklarni qoplash maqsadida 1997-yildan III darajali kapitalni amaliyotga joriy qilish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, uchinchi darajali kapital qisqa muddatli (ikki yildan ortiq bo'lmasligi lozim) subordinar qarzlardan iborat bo'lib birinchi darajali kapitalning 250 foizdan oshib ketmasligi lozim.

Bank kapitali tarkibini shakllantirishga Bazel andozalari asos sifatida olingan bo'lsada, iqtisodchi olimlar unga turlicha yondashadilar. Jumladan, xorijlik olimlardan R.G.Olxova, Yu.P.Savinskiy hamda O'zbekistonlik olimlardan prof. O.O.Olimjonov va i.f.n. B.B.Babaevlarning nomlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Masalan, dotsent R.G. Olxova maxsus zaxiralarni va devalvasiya zaxirasini kapital tarkibiga kiritmagan.

Maxsus zaxiralar bank balansining kontr-aktiv hisobvarafiga aks ettirilib bank xarajatlari hisobidan shakllantiriladi. Bazel ko'mitasining andozalariga ko'ra aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasini riskka tortilgan jami aktivlar summasining 1,25 foizga teng miqdorini II-darajali bank kapitali tarkibiga

<sup>3</sup> Abdullaeva Sh.Z., Omonov A.A. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 122 b.

kiritiladi. Demak, muallifning maxsus zaxiralarni 100 foiz bank kapitali tarkibiga kiritmasligi maqsadga muvofiq emas.

Ayni vaqtda, milliy valyutasining kursi nobarqaror bo'lgan mamlakatlarda devalvasiya zaxirasi miqdorining keskin tebranishi yuz bermoqda. Bu esa devalvasiya zaxirasini nobarqaror moliyalashtirish manbaiga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan taklif qilardikki, xorijiy valyutalar bo'yicha devalvasiya zaxirasini asosiy kapital tarkibidan chiqarib qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

Kapitalning tarkibi xususida mamlakatimiz iqtisodchi olimlar O.O.Olimjonov va B.B.Babaevlar kredit riskini qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdorini to'ligicha kapital tarkibiga kiritmasligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Shuningdek, ular joriy yilning sof foydasini kapital tarkibiga kiritmaganlar.

Respublikamiz tijorat banklarining kapital tarkibi O'zbekiston Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 2015-yil 13-iyundagi 14/3 -sonli «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomda quyidagicha keltirilgan:

– I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo'lmashligi va o'z ichiga quyidagilarni olishi zarur:

a) bankning to'liq to'langan oddiy aksiyalari;

b) qo'shilgan kapital – oddiy aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) taqsimlanmagan foyda:

– bank balansidagi avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan kapital zaxiralar va boshqa zaxiralar (tekinga olingan mulklar (30905) va boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi (30908) bundan mustasno);

– to'lanmagan dividend summasidan tashqari o'tgan yillardan qolgan taqsimlanmagan foyda;

– joriy yil zararlari;

g) ozchilik ulush egalarining bank yig'ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;

d) devalvasiya zaxirasi.

I darajali qo'shimcha kapital o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bunday aksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

– muayyan sotib olish sanasi yoki shartlariga ega emas;

- egasining xohishiga ko‘ra sotib olinishi mumkin emas;
- bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to‘lanmasligi mumkin;
- ular bo‘yicha o‘tgan davrdagi olinmagan dividendlar to‘lanmaydi;
- bank faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan oldindan olingan ruxsati bilan va chiqarilganiga 10 yildan kam bo‘lmagan aksiyalar va sotib olinadigan summani kapitalning o‘sha turi yoki boshqa undan yuqoriroq turiga almashtirgandan so‘ng yoxud bank kapitalining monandligi kapitalga qo‘yilgan minimal talabdan yuqori ekanligini ko‘rsatgandan so‘ng, ularni sotib olishi mumkin bo‘lgan.

b) qo‘shilgan kapital — imtiyozli aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to‘langan summa;

v) I darajali qo‘shimcha kapitalga qo‘shilish shartlariga javob beruvchi sho‘ba korxonalarining ishtirok etish ulushi (sho‘ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo‘lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar)

Agar dividend stavkalari o‘zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar I darajali kapital hisob-kitobiga kiritilmasligi aytilgan.

## 1-jadval

### Tijorat banklarining I darajali kapital tarkibi

I darajali asosiy kapital:		I darajali qo‘shimcha kapital:	
1	Bankning to‘liq to‘langan <b>oddiy aksiyalari</b>	1	Nokumulyativ muddatsiz <b>imtiyozli aksiyalar</b>
2	<b>Qo‘shilgan kapital</b> — oddiy aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to‘langan summa;	2	<b>Qo‘shilgan kapital</b> — imtiyozli aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to‘langan summa;
3	Ozchilik ulush egalarining bank yig‘ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho‘ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;	3	I darajali qo‘shimcha kapitalga qo‘shilish shartlariga javob beruvchi sho‘ba korxonalarining ishtirok etish ulushi (sho‘ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo‘lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).
4	<b>Taqsimlanmagan foyda</b>		
5	<b>Devalvasiya zaxirasi</b>		

*II darajali* kapital tarkibi esa quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda, bankning oraliq moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tgan bo'lsa — tasdiqlangan moliyaviy natijalaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, aks holda bank hisobotidagi sof foydaning 50 foizi;

b) chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo'lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;

v) chegirmalardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidanoshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo'lgan vositalar). Aralash turdagi majburiyatlar, shuningdek I darajali kapitalga kiritilmagan imtiyozli aksiyalar, agar ular quyidagi shartlarga javob bersa, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to'liq to'langan;
- garov bilan ta'minlanmagan;
- bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari va bank boshqa kreditorlari talablari bajarilgandan so'ng qondiriladigan;
- aksiya egasining tashabbusi bilan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oldindan berilgan roziligisiz to'lanishi mumkin bo'lmagan;
- bankning barcha zaxiralarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermaydigan;
- agar bank oxirgi 3 ta chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa yoxud oddiy yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lamaslik to'g'risidagi qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to'lash muddati emitent xohishiga ko'ra kechiktirilishi mumkin bo'lgan aksiyalar;

g) **subordinar qarz** — bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- garov ta'minotiga ega bo'lmasligi;
- bank tugatilyotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar va bankning boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi;
- boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan keyin bo'lishi;
- qarzdor bank yoki unga aloqador shaxslar tomonidan boshqa aktivlarga kafolat va ta'minot sifatida qo'yilmagan, shuningdek bank tugatilgan taqdirda hech qanday shartnoma bilan uning to'lash navbati (subordinatsiyasi) o'zgartirilmagan, ya'ni bank depozitorlari va kreditorlari talablariga tenglashtirilmagan bo'lishi;



- muddatidan avval O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan qaytarilishi.
- Subordinar qarzni bankning II darajali kapitali sifatida tan olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
  - boshlang‘ich to‘lov muddati etib kelgunga qadar 5 yildan oshgan muddatda — to‘liq hajmda;
  - boshlang‘ich to‘lov muddatidan oldingi 5 yil davomida:
    - 1-yilda — subordinar qarz qoldig‘ining 80 foizi;
    - 2-yilda — subordinar qarz qoldig‘ining 60 foizi;
    - 3-yilda — subordinar qarz qoldig‘ining 40 foizi;
    - 4-yilda — subordinar qarz qoldig‘ining 20 foizi;
    - 5-yilda — 0.
- d) aktivlarning boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

## 2-jadval

### Tijorat banklarining II darajali kapital tarkibi

№	Ko‘rsatkichlar
1	Joriy yildagi sof foydasi
2	Chegirmalardan so‘ng tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo‘lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;
3	Chegirmalardan so‘ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo‘lgan vositalar).
4	Subordinar qarz
5	Aktivlarning boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

Bank kapitalining bosh maqsadi – riskni kamaytirish, «himoya devori» sifatida zararlarni qoplab, bank to‘lovga qobilligini saqlash imkonini berishdir. Shu bilan birga kapital bankni likvidlilik muammosidan himoya qiladi va moliyaviy resurslar bozoriga kirish imkonini ta’minlaydi.

Zero, yirik kapital bankka barqaror obro‘, omonatchilar ishonchini beradi. Bank kapitali mijozlarning bankka ishonchini mustahkamlaydi va kreditorlarni uning moliyaviy kuchiga ishontiradi. Bank kapitali bankning har qanday holatda mijozlarning kreditga bo‘lgan talabini qondira olishiga ishontirish uchun yetarlicha katta bo‘lishi kerak.

Tijorat banklari kapital miqdori (Markaziy bank talabidan oshgan qismi) ularning o‘zi tomonidan mustaqil belgilansada, u ko‘p omillarga bog‘liq:

•**birinchidan**, bank uchun zarur boʻlgan kapital miqdori uning mijozlari xususiyatlariga bogʻliq. Yaʼni mijozlar ichida yirik kreditga muhtoj korxonalar koʻp boʻlishi bank kapitali miqdorining koʻp boʻlishini talab qiladi.

•**ikkinchidan**, tijorat banki kapitali miqdori uning aktiv operatsiyalariga bogʻliq. Bank operatsiyalari koʻproq yuqori tavakkalchilik operatsiyalariga bogʻliq boʻlsa, u holda bankning kapitali ham koʻp boʻlishi kerak.


•**uchinchidan**, bank kapitali miqdori Markaziy bank yuritayotgan pul – kredit siyosati va kredit resurslari bozori rivojlanishiga bogʻliq boʻladi.

Bank kapitali bankning uzoq vaqt samarali va barqaror faoliyat koʻrsatishining asosiy omili hisoblanadi. Chunki:

•**birinchidan**, bank kapitali “Qora kun” uchun asosiy resurs hisoblanadi, bank joriy yoʻqotishlarni kapital hisobidan qoplash yoʻli bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, bankni bankrotlikdan saqlab qolishi mumkin.

•**ikkinchidan**, bank kapitali, bank oʻz faoliyatini keng qamrovli olib borib mablagʻlarni jalb qilish, resurs bazasini tashkil qilguncha uning faoliyatini asosiy manbasi hisoblanadi.

•**uchinchidan**, bank kapitali bank faoliyatining muhim koʻrsatkichi boʻlib, bankning obroʻsini oshirib, mijozlarning bankka boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi.



6-rasm. Tijorat banklari asosiy kapitalining elementlari<sup>4</sup>

Bank kapitali bankning uzoq muddatdagi kelajagini, hayotiyiligini va oʻsishini bir maromga keltirib turuvchi regulyator boʻlib, bank barqarorligini taʼminlash, havf – risklarli qoʻyilmalarni sugʻurtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bank kapitali muhim asosni tashkil qiladi.

Shuningdek, bank kapitali bank balansining passivida joylashgan boʻlib, bank bankrot holatga tushganda daʼvolarni qoplashning muhim qoplash (zaxira) fondi hamda bank operatsiyalarini rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbasi,

<sup>4</sup> Omonov A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya, 2-nashri-T. “Iqtisod-Moliya-2010-y. 142-bet

likvidlikning kafolatlangan manbasi hisoblanib, u maksimal jalb qilish mumkin bo'lgan resurslarni aniqlaydi va kredit operatsiyalarini bajarishda maksimum qo'yish mumkin bo'lgan riskni belgilaydi.

Bazel andozalari bo'yicha qo'shimcha kapital tarkibida ko'zda tutilgan barcha kapital elementlari ikkinchi darajali kapital tarkibiga kiritilishi lozim.

Tijorat banklarining kapitali ular faoliyatini moliyalash–tirishning barqaror manbai bo'lib bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir. Ayni vaqtda, bank kapitalining sifat darajasi uning yetarlilik va manbalarining tarkibi darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali – bu bank tijorat faoliyatining asosi bo'lib, uning mustaqilligini ta'minlaydi va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi hamda bank risklarining salbiy oqibatlarini yengillashtiradi.

Bank kapitali bank balansining passivida joylashgan bo'lib, bank bankrot holatiga tushganda da'volarni qoplashning muhim qoplash (zaxira) fondi hamda bank operatsiyalarini rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbasi bo'lib hisoblanadi.

Bank barqarorligini ta'minlash, xavf–risklarli qo'yilmalarni sug'urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bank kapitali muhim asos hisoblanadi.

Bank kapitali likvidlikning kafolatlangan manbasi bo'lib, u maksimal jalb qilish mumkin bo'lgan resurslarni aniqlaydi va kredit operatsiyalarini bajarishda maksimum qo'yish mumkin bo'lgan riskni belgilaydi.

## **2. Bank kapitalining yetarliligi va dinamikasi tahlili**

Banklarining o'z mablag'lari bank balansining uchinchi bo'limida aks ettiriladi. Odatda ularni bank kapitali deb ham atashadi.

Bank kapitali tarkibi quyidagilardan iboratdir:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- zaxira kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;

Bankning ustav kapitali asosan uning oddiy va imtiyozli aksiyalarini sotishdan kelib tushgan mablag'lardan tashkil topadi. Qo'shilgan kapital bank aksiyalarining real va nominal qiymatlari o'rtasidagi farqlardan tashkil topadi.

Zaxira kapitali bank daromadi hisobidan turli riskli aktivlarni qoplash uchun tashkil etilgan jamg'armalar, kichik korxonalarni imtiyozli kreditlash jamg'armasi,

asosiy vositalar bahosi boshlang'ich qiymatidan o'sgan qismi kabilardan tashkil topadi.

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, bank kreditlari va omonatchilari manfaatlarini himoyalash, banklarning likvidligi va to'lov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtai-nazaridan, dastavval bank faoliyatini boshlash uchun Markaziy bank tomonidan bank kapitalining minimal miqdoriga talablar o'rnatilgan.

Kapitalning minimal miqdoriga qo'yiladigan talabning summasi mamlakat iqtisodiyoti holati, inflyatsiya darajasi, xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'magi kabi bir necha ko'rsatkichlar inobatga olingan holda o'zgarib turishi mumkin.

Quyida biz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari uchun kapitalning minimal miqdoriga qo'yilgan talablar miqdorini keltirib o'tmoqchimiz.

### 3-jadval

#### Bank ustav kapitalining minimal miqdoriga quyilgan talablar

Yillar	Aksiyadorlik tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1 yanvar 1998	1,5 mln. AQSh dol. ekv. So'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 1999	2,0 mln. AQSh dol. ekv. So'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2000	2,5 mln. AQSh dol. ekv. So'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2002	2,5 mln. AQSh dol. ekv. So'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	1,25 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2005	5,0 mln. AQSh dol. ekv. So'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	2,5 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2008	5,0 mln. Evro ekv. so'mda	5,0 mln. Evro ekv. so'mda	2,5 mln. Evro ekv. so'mda
1 yanvar 2009	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	5,0 mln. Evro ekv. so'mda
1 yanvar 2010	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	5,0 mln. Evro ekv. so'mda
1 yanvar 2011	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	10,0 mln. Evro ekv. so'mda	5,0 mln. Evro ekv. so'mda
1 oktabr 2017	100 mlrd. so'm		

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2017 yil 1 oktabrga qadar banklar va chet el kapitali ishtirokida tashkil etiladigan banklar ish boshlashlari uchun 10,0 mln. evro ekvivalentidagi so'm mablag'lariga xususiy banklar esa 5,0 mln. evro ekvivalentidagi so'm o'z mablag'lariga ega bo'lmog'i


lozim edi. 2017-yil 1-oktabrdan boshlab mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha banklar o'z ustav kapitalini 100 mlrd.so'mga yyetkazib qo'yishlari shart bo'ldi.

Banklar kapitali ularning o'ziga "himoya yostiqchasi" vazifasini bajarish bilan birga, bugungi kunda ular tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish va uzoq muddatli kreditlar ajratishning manbai bo'lib qoladi.

Tijorat banklari o'z mablag'lari tarkibida asosiy rol ni bank kapitali bajaradi. Bank kapitali likvid moliyaviy, lekin daromad keltirmaydigan yoki juda kam daromad keltiruvchi aktivlarga xizmat qiladi. Bank o'z mablag'larining xususiyati shundan iboratki, uning salmog'i bank resurslarida kichik bo'lishiga qaramasdan, u zarur funksiyalarni bajaradi.

Bank tizimi faoliyatining o'tgan yilgi ko'rsatkichlari nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuqori darajalarga erishildi.

Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 23,4 foizni tashkil etib, u xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan talabdan 3 barobar yuqori bo'ldi. 2017 yilning 1 aprel holatiga ko'ra, banklarning umumiy kapitali 9,9 trln. so'mdan oshib ketdi.



#### **7-rasm. Tijorat banklari jami kapitali(yil oxiriga)<sup>5</sup>(mlrd. so'm)**

Bank balansining passivida o'z aksini topgan resurslar kredit berish, qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish va boshqa turdagi bankka daromad keltiradigan operatsiyalarni bajarish orqali yuqori foyda olish maqsadida bank tomonidan yig'iladi.

Biz oldingi paragraflarda ko'rib chiqqanimizdek, bank resurslarining ichida bankning o'z kapitali va unga tenglashtirilgan mablag'lari alohida o'rinni egallaydi.

<sup>5</sup> <https://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Biz quyidagi jadval orqali mamlakatimiz tijorat banklari passivlarining tarkibi va holatini o‘rgangan holda ularga baho berishimiz mumkin.

**4-jadval**

**Mamlakatimiz tijorat banklari passivlarining tahlili<sup>6</sup>**

**(mlrd.so‘m)**

Nomlanishi	Summa (mlrd so‘m)			O‘shish, %
	2015	2016	2017	2017/2015
<b>Jami passivlar</b>	49 213	63 384	115158,5	234,00%
O‘z mablag‘lari	5 800	7 064	15869,1	273,61%
Jamidagi ulushi, %	12%	11%	14%	x
Jalb qilingan mablag‘lar	43 413	56 320	99289,1	228,71%
Jamidagi ulushi, %	88%	89%	86%	X

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki mamlakatimizda tijorat banklarining jami passivlari 2018 yil 1 yanvar holatiga 115158,5 mlrd so‘mni tashkil etib shundan 15869,1 mlrd. so‘mi yoki 14 foizi o‘z mablag‘lari va 99289,1 mlrd. so‘mi yoki 86 foizi jalb qilingan mablag‘lar hissasiga to‘g‘ri keladi. Jalb qilingan mablag‘lar va o‘z mablag‘larining jami passivlardagi ulushi 88 foiz va 12 foiz mutanosiblik 2015 yildan 2017 yilgacha o‘zgarmasdan kelgan bo‘lib, 2017 yil 1 yanvar holatiga 89 va 11 foizga o‘zgargan. 2018 yil 1 yanvarga kelib esa 86 va 14 %ni tashkil etishi banklarning o‘z mablag‘lari hisobiga yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinadiki bank kapitali va jalb qilingan mablag‘lariga nisbatan oxirgi yilda sezilarli oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Banklarning o‘z mablag‘lari ichida asosiy o‘rinni bankning o‘z kapitali egallaydi Bundan tashqari, banklarning o‘z mablag‘lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning o‘z kapitali hissasining kamayishi ba’zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Odatda banklar o‘z kapitali va rezervlari hisobiga mablag‘larga bo‘lgan umumiy ehtiyojning 10 foizidan kamroq qismini qoplaydi.

**5-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining bank kapitali tarkibi tahlili<sup>7</sup>**

**(mln.so‘m)**

<sup>6</sup> “Ahbor-Reyting” reyting agentligining bank sektori bo‘yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: 2016-2018 yillar, fevral.

<sup>7</sup> “Ahbor-Reyting” reyting agentligining bank sektori bo‘yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: 2016-2018 yillar, fevral.

№	Moddalar	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yilga nisbatan o'zgarishi (+/-)	
					Summada	Foizda
1	Odiy aksiyalar	3537028	3923797	10382600	6845572	193,54
2	Imtiyozli aksiyalar	28872	43490	44700	15828	54,82
	<b>Jami aksiyadorlik sarmoyasi</b>	<b>3565900</b>	<b>3967287</b>	<b>10427300</b>	<b>6861400</b>	<b>192,42</b>
3	Qo'shimcha kapital	37025	40667	68400	31375	84,74
4	Devalvasiya zaxirasi	1213940	1670392	3411400	2197460	181,02
5	Taqismlanmagan foyda	982899	1385523	1962400	979501	99,65
	<b>Jami o'z sarmoyasi</b>	<b>5799764</b>	<b>7063869</b>	<b>15869500</b>	<b>10069736</b>	<b>173,62</b>

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining bank kapitalini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda jami o'z sarmoyasi 173,62 foizga yoki 10069736 mln so'mga oshib, 2017 yilda 15869500 mln so'mni tashkil etgan.

Taqismlanmagan foyda 99,65 foizga oshgan va 979501 mln so'mni tashkil etgan. Taqismlanmagan foydaning oshishi bankning samarali faoliyat yuritganligidan dalolat beradi. Bankning aksiyadorlik kapitali va unga tenglashtirilgan moddalar muhim bir funksiyasi sifatida bank barqarorligini va faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'lib, unda bank mablag'lari tarkibi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlangan sari turli mulk shakliga asoslangan tijorat banklari shakllandi va ko'paydi. Tijorat banklarining aksariyati aksiyador banklardir. Ularning ustav sarmoyasi ta'sischi qo'shgan mablag'lardan tashkil topgan. Bunday tijorat banklari aksiya chiqargan bo'lib, ta'sischi aksiyadorlarning katta qismini tashkil etadi.

Davlat tijorat banklari ustav fondining asosiy qismi davlat budjetidan ajratilgan bo'ladi. Xususiy banklar ustav fondining asosiy qismini bu bankni tashkil etgan xususiy shaxs mablag'i tashkil etadi.

**6-jadval**  
**Tijorat banklarining xususiy kapitali to'g'risida ma'lumot<sup>8</sup>**  
*(mln. so'mda)*

№	Bank nomi	01.01.2017 yil	01.01.2018 yil	o'tgan yilning shu davriga
---	-----------	----------------	----------------	----------------------------

<sup>8</sup> "Ahbor-Reyting" reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: 2017-2018 yillar, fevral

		holatiga	holatiga	nisbatan	
				(+;-)	%
1	Milliy bank	2 752 390	4 806 800	2 054 410	74,64%
2	Asaka bank	1 023 761	3 083 200	2 059 439	201,16%
3	O'zsanoatqurilish bank	962 505	2 241 300	1 278 795	132,86%
4	Agrobank	531 834	1 373 900	842 066	158,33%
5	Xalq banki	554 927	1 351 400	796 473	143,53%
6	Qishloq qurilish bank	495 194	1 168 400	673 206	135,95%
7	Ipoteka bank	460 148	1 257 800	797 652	173,35%
8	Hankor bank	432 902	573 000	140 098	32,36%
9	Mikrokredit bank	282 647	545 800	263 153	93,10%
10	KDB Bank Uzbekistan	292 532	527 900	235 368	80,46%
11	Aloqabank	215 420	473 900	258 480	119,99%
12	Aziya Alyans bank	201 925	242 900	40 975	20,29%
13	Ipak Yo'li bank	229 568	365 800	136 232	59,34%
14	Kapital bank	286 943	339 000	52 057	18,14%
15	Trastbank	163 625	219 900	56 275	34,39%
16	Orient-finans bank	193 610	473 900	280 290	144,77%
17	Infinbank	149 878	332 800	182 922	122,05%
18	Turon bank	129 094	368 900	239 806	185,76%
19	Caderat	104 133	272 900	168 767	162,07%
20	Ziraat Bank Uzbekistan (UT bank)	95 459	215 500	120 041	125,75%
21	Savdogar bank	86 734	168 100	81 366	93,81%
22	Davr bank	60 905	92 600	31 695	52,04%
23	Turkiston bank	129 094	40 000	-89 094	-69,01%
24	Universal bank	29 357	33 900	4 543	15,48%
25	Hi-tech bank	23 167	46 900	23 733	102,44%
26	Ravnaq bank	26 962	37 200	10 238	37,97%
27	Madad Invest Bank	13 024	22 200	9 176	70,45%
28	O'zagroeksportbank	0	75 800	75 800	0,00%
	<b>Jami</b>	<b>9927 739</b>	<b>20751 700</b>	<b>10823 961</b>	<b>109,03%</b>

Tijorat banklarining xususiy kapitali o'tgan yilga nisbatan 2655791 mln. so'mga oshgan. Bu tijorat banklari uchun ijobiy holat hisoblanadi. Tijorat banklari xususiy kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmagan, lekin banklar faoliyatini barqaror ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab qo'yiladi.

U bank faoliyati boshlang'ich bosqichida qator birinchi navbatdagi xarajatlar amalga oshirilayotganda nihoyatda zarurdir. Keyingi bosqichlarda ham, bank operatsiyalarini kengaytirishda, bankning o'z kapitali muhim rol o'ynaydi.



Bankning o‘z kapitali hisobiga turli xildagi rezervlar tashkil qilinadi. Chet elda garchi bank operatsiyalari ko‘lamini kengaytirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar manbasi bank foydasi bo‘lsada, ba‘zan yangi aksiyalarni va uzoq muddatli zayomlarni muomalaga chiqarish orqali yirik strukturaviy xarakterdagi tadbirlar (bo‘limlarni kengaytirish, qo‘shib yuborish va boshqalar) amalga oshiriladi.

Bank kapitalining o‘shib borishi banklarni bozor iqtisodiyotining yetakchi subyekti sifatida faoliyat olib borishga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ–2344-sonli qaroriga asosan bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan tijorat banklariga nisbatan qo‘yiladigan me‘yoriy talabalarni yanada takomillashtirishni, jumladan, kapitalning etarligi va likvidlilik ko‘rsatkichi bo‘yicha yangi talablarni nazarda tutgan yangi standartlar va tavsiyalar (Bazel–III standartlari) ishlab chiqilgan. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining standart va tavsiyalarini (Bazel–III standartlari) 2015–2019 yillarda bosqichma-bosqich joriy etilishini ta‘minlashi e‘tirof etilgan<sup>9</sup>.

**7-jadval**

**Respublikamiz tijorat banklari ustav kapitalining o‘z mablag‘lariga nisbati<sup>10</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar		
		2015	2016	2017
1	Banklar ustav kapitali, mlrd. so‘m	3602,90	4007,90	10427,30
2	Banklarning o‘z mablag‘lari, mlrd. so‘m	5799,80	7064,00	15869,50
3	Ustav kapitalining banklarning o‘z mablag‘lariga nisbati, %	62,12%	56,73%	65,71%

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlari orqali shuni ko‘rish mumkinki, tijorat banklari ustav kapitalining o‘z mablag‘lariga nisbati oxirgi yillarda pasayish tendensiyani ko‘rsatmoqda edi. 2012 yildan so‘ng esa, bu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Tijorat banklari ustav kapitali va o‘z mablag‘lari miqdor jihatdan yillar mobaynida oshib borgan. Xalqaro bank amaliyotida bank balansining passividagi ustav kapitali salmog‘ining ijobiy o‘zgarishi bankning

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2344-sonli Qarori.

<sup>10</sup> “Ahbor-Reyting” reyting agentligining bank sektori bo‘yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: - 2014-2018 yillar, fevral.

to'lovga qobilligining mustahkamligini belgilovchi birlamchi omil hisoblanadi. Tijorat banklari ustav kapitali nisbatan yuqori barqarorlikka ega bo'lib, banklar qiyin moliyaviy holatga tushganda undan asosiy himoya vositasi sifatida foydalanadilar. Tijorat banklari ustav kapitali salmog'ini bank passivlari tarkibidagi ulushining barqaror miqdorini ta'minlashga erishish ularning moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi.

#### 8-jadval

#### Respublikamiz tijorat banklarining jami kapitali tarkibi va dinamikasi (mlrd.so'm)<sup>11</sup>

Ko'rsatkichlar	Davlat ulushiga ega banklar			Kapitalida davlat ulushi bo'lmagan banklar			Jami		
	2016 y.	2017 y.	foizda	2016 y.	2017 y.	foizda	2016 y.	2017 y.	foizda
<b>Jami kapital</b>	<b>6 573</b>	<b>16 672</b>	<b>253,6</b>	<b>2 408</b>	<b>4 005</b>	<b>166,3</b>	<b>8 981</b>	<b>20 676</b>	<b>230,2</b>
Ustav kapitali	4 616	14 195	307,5	1 189	2 111	177,5	5 805	16 307	280,9
Zaxira kapitali	12	14	116,7	29	54	186,2	41	68	165,9
Taqsimlanmagan foyda	1 062	1 269	119,5	406	524	129,1	1 468	1 793	122,1

Valyuta siyosatining liberallashtirilishi sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning kreditga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq davlat ulushiga ega banklar kapitaliga Hukumat tomonidan 670 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar yo'naltirildi.

Bundan tashqari, hisobot yili davomida kapitalida davlat ulushi bo'lmagan tijorat banklari umumiy kapitali 1,6 trln. so'mga oshirilgan bo'lib, shundan 1 trln. so'mi qo'shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog'ozlarni joylashtirish orqali shakllantirildi. Bularning natijasida, banklarning jami kapitali 2016 yilga 130,2 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta bank tizimi uchun ijobiy holatdir.

#### 9-jadval

#### “A” Bankining kapitali tarkibi va dinamikasi<sup>12</sup>

(yil boshiga)

<sup>11</sup> <https://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

<sup>12</sup> “A” banki shartli ravishda olingan.

№	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	
		qoldig'i mln. so'm	Sal-mog'i %	qoldig'i mln. so'm	Sal-mog'i %	mln. so'm	Sal-moqda %
1.	Chiqarilgan imtiyozli aksiyalar (30315)	130	1,8	130	1,6	0	0
2.	Chiqarilgan oddiy aksiyalar (30318)	3800	51,9	4100	50,9	300	7,9
3.	Zaxira fondi (30903)	1000	13,7	1200	14,9	200	20,0
4.	Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash fondi (30904)	750	10,2	810	10,1	60	8,0
5.	Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan qismi (30908)	798	10,9	798	9,9	0	0,0
6.	Taqsimlanmagan foyda (31203)	607	8,3	705	8,7	98	16,1
7.	Sof foyda (31206)	234	3,2	315	3,9	81	34,6
	<b>JAMI 30000</b>	7319	100	8058	100	739	10,1

Tahlil qilinayotgan davrda "A" bankning kapitali 739,0 mln.so'm ya'ni 10,1 foizga o'sgan. O'sish asosan muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan. Ular tahlil yili davomida 300,0 mln. so'mga (7,9%) oshgan. Yil davomida kapitalning o'sgan qismining 40,6 foizini aynan chiqarilgan oddiy aksiyalar tashkil etgan. Bank daromadlari hisobidan tashkil topadigan kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash fondining mablag'lari tahlil davrida 750,0 mln. so'mdan 810,0 mln. so'mga ya'ni 8,0 foizga oshgan. Bundan tashqari yana asosan bank daromadlari hisobidan tashkil etiladigan zaxira fondi mablag'lari esa 200,0 mln so'mga o'sgan Zaxira mablag'larining o'sishi bank faoliyatida muammoli kreditlar, risk darajasi yuqori bo'lgan boshqa aktivlar va valyuta devalvasiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning mavjudligini bildiradi.

Tahlil natijalari yana shu narsani yaqqol ko'rsatmoqdagi bankda o'tgan yillardan taqsimlanmasdan qolgan foyda miqdori joriy yilning sof foydasidan 2,5 barobardan ortiq summani tashkil etadi.

Chiqarilgan imtiyozli aksiyalar va boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan qismi tahlil davrida o'zgarmasdan qolgan. Bu o'z navbatida bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida o'tgan yilda muomalaga imtiyozli aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror chiqarilmaganligi va asosiy vositalar qayta baholanmaganligini bildiradi.

Bank kapitalining barqarorlik darajasi tahlil qilinganda, uning tarkibida uzoq muddatga foydalanish imkoniyati bo'lgan mablag'lar salmog'iga asosiy e'tibor qaratiladi. Chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar barqaror bo'lgan bankning o'z mablag'larini tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan bankda joriy yil boshida barqaror o'z mablag'lari bank kapitali tarkibida 52,5 foizni tashkil etgan.  $(130 \times 4100 / 8058 \times 100)$ . Ushbu ko'rsatkich o'tgan yil boshiga 53,7 foizni  $(130 \times 3800 / 7313 \times 100)$  tashkil etgan. Demak, bank kapitalining barqarorlik darajasi biroz pasaygan. Bunga esa asosiy sabab bank kapitali tarkibida zaxira fondlari mablag'larining ortib borishi hisoblanadi. O'tgan yil boshiga zarixa fondi bank kapitalining 13,7 foizini  $(1000 / 7319 \times 100)$  tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yil boshiga kelib qariyb 20,0 foizni  $(1200 / 8058 \times 100)$  tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgani kabi bank kapitali tarkibida zaxira kapitali salmog'ining ortib borishi, bank faoliyatida yo'qotilishi mumkin bo'lgan aktivlar salmog'ining ham ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Bank kapitali tarkibida hisobot yili sof foydasi ulushining o'tgan davrlarda olingan sof foydaning taqsimlanmagan qismidan kam bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham hisobot yilida olingan daromaddan maxsus zaxiralar tashkil etish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdorining oshib borishi bilan ham izohlanadi.

Bank kapitalini tahlil etishda asosiy e'tiborlardan biri uning etarlilik darajasini kuzatishga qaratiladi. Markaziy bank tomonidan banklar barqarorligini ta'minlash maqsadida uning kapitalining yetarliligini belgilovchi normativ o'rnatilgan. Kapitalning yetarliligi,  $K_1$  I-darajali kapitalning yetarliligi ( $K_2$ ), I-darajali kapitalning umumiy etarliligi ( $K_3$ ) ko'rsatkichlar orqali hisoblanadi. Mamlakatimizda 2017-yilning 1-oktabridan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 100,0 mlrd. so'mni tashkil etishi lozim. Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari 2019-yilning 1-yanvariga qadar ustav kapitalini ushbu miqdorga etkazishlari lozim.<sup>13</sup>

Bank I darajali kapitalining miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Bunda bank I darajali kapitalining miqdorini aniqlash uchun bank ustav kapitalining milliy valyutadagi ekvivalenti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hisobot oyining oxirgi kuniga valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarni yuritish maqsadida belgilangan valyutalar kursi bo'yicha aniqlanadi.

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 2693-sonli Nizom. 2015-yil 6-iyul

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi hollarda banklarga nisbatan regulyativ kapital miqdorini oshirish to‘g‘risidagi talablarni qo‘yishga haqli:

- xavfsiz bo‘lmagan va nosog‘lom bank faoliyatining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qoniqarsiz moliyaviy holat;
- bank foydasining qoniqarsiz prognozi;
- yuqori darajadagi bank tavakkalchiligi va balansdan tashqari moddalar mavjudligi holatlari aniqlanganda.

Har bir bankning regulyativ kapitali uning monandligini aniqlash maqsadida 2693-sonli Nizom talablariga muvofiq hisoblab chiqilishi lozim.

Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti  $K_1$  quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K_1 = \frac{RK}{TAUS}^{14} \quad (1)$$

$K_1$  – koeffitsient ko‘rsatkichi;

$RK$  – regulyativ kapital;

$TAUS$  – tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi.

$K_1$  ning minimal darajasi 0,1 (100%) ga teng

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 12,5 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi ( $TAUS$ ) chegirmalar ajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2015-yil 1–sentabridan boshlab tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy miqdori ( $TAUS$ ) quyidagi tarzda hisoblanadi:

$TAUS =$  *Chegirmalar chiqarilgan tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar summasi + Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) + Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT);*

$OT = (100 / \text{belgilangan } K_1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Bankning oxirgi uch-yildagi yalpi daromadining o‘rtacha summasi} \times 15 \text{ foiz}) \quad (2)$

Yalpi daromad = (foizli daromadlar — foizli xarajatlar) + boshqa daromadlar.

Agar yalpi daromad qaysidir-yilda nolga teng yoki salbiy ko‘rinishda bo‘lganda, o‘rtacha ko‘rsatkichni hisoblashda u maxrajdan va sur‘atdan chiqarib tashlanishi lozim.

---

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari kapitali monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi 2693-sonli Nizom. 2015-yil 6-iyul

***BT = (100/belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 10 foiz) (3)***

Ochiq valyuta pozitsiyalarining umumiy summasini hisoblashda xorijiy valyutalarning umumiy uzun yoki umumiy qisqa ko'rsatkichlari yig'indisining mutloq ko'rsatkichining eng kattasi olinadi.

2019-yil 1–yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,13 (13,0 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart.<sup>15</sup> Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Bunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

**I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti<sup>16</sup>:**

$$K_2 = \frac{\text{I darajali kapital}}{TAUS} \quad (4)$$

Banklar 2015 — 2018-yillarda soliqlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni oshirish bo'yicha barcha choralarni ko'rishlari lozim.

Kapitalning monandlik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar I darajali kapitalni nomoddiy aktivlarni chegirib tashlangan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2015-yil 6–iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2693-sonli "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi" Nizomning 5 va 6–boblarda nazarda tutilgan aktivlar qo'shilgan umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak<sup>17</sup>:

$$K_3 = \frac{\text{I darajali kapital}}{\text{Umumiy aktivlar} - \text{Nomoddiy aktivlar (Goodvil)}} \quad (5)$$

Leveraj koeffitsientining eng kichik darajasi 0,06 (6 foiz)ga teng.

Leveraj koeffitsientini hisoblashda kelgusida balans aktivlarida aks etishi ehtimoli bo'lgan bank balansining «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlaridagi aktivlar ham hisobga olinadi. Bularga kapitalni monandligini hisoblashda qo'llaniladigan aktivlar kiradi.

<sup>15</sup> Bazel III talablariga ko'ra respublikamiz amal qiladi.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 2693-sonli Nizom. 2015-yil 6-iyul

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 2693-sonli Nizom. 2015-yil 6-iyul

Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asosalangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

2010 yil sentyabr oyida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar banklar kapitali yetarliliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013 yildan boshlab o'tilishi hamda 2019 yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirishlari kutilmoqda.

Birinchidan, yangi talablarga ko'ra, I -darajali kapitalning yetarlilik darajasi 6 foizni (shu va kapitalga oid boshqa ko'rsatkichlar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan hisoblanadi), shu jumladan, to'langan oddiy aksiyalar yoki I – darajali asosiy kapital ko'rsatkichi (chegirmalardan keyin) 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozim. Bunda I – darajali asosiy kapital ko'rsatkichi 2013 yilgacha 2 foiz, 2013 yildan 3,5 foiz, 2014 yildan 4 foiz va 2015 yildan 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozimligi belgilangan.

Ikkinchidan, Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrtsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o'ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda. Kontrtsiklik kapital har bir mamlakat shart – sharoitidan kelib chiqqan holda, 0–2,5 foiz doirasida belgilanadi.

Banklar kontrtsiklik kapitalga 2016 yildan boshlab ega bo'lishlari va uning miqdori 2016 yildan 0,625 foiz, 2017 yildan 1,25 foiz, 2018 yildan 1,875 foiz va 2019 yildan 2,5 foiz bo'lishi talab qilinmoqda. Ushbu talabni 2,5 foizga etkazmagan banklarga dividendlar to'lash, o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish hamda bonuslar to'lashga cheklovlar o'rnatiladi.

Yana bir yangi tushuncha – bu tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablardir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy o'zaro bog'langanligi sababli ularning tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab bo'ladigan banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi to'g'risida umumiy kelishuvga kelingan.

Demak, Bazel III ga ko‘ra, banklar regulyativ kapitali ko‘rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrtsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo‘shimcha talablar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

## 10-jadval

### Bank kapitali tarkibining (Bazel III talablariga ko‘ra) yangi ko‘rinishi<sup>18</sup>

*(tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)*

	Jami to‘langan (oddiy) aksiyalar (chegirmalardan keyin)	Birinchi darajali bank kapitali	Jami regulyativ kapital
<b>Minimal talab</b>	4,5	6,0	8,0
<b>Konservatsion bufer kapitali</b>	2,5		
<b>Minimal talab+ Konservatsion bufer kapitali</b>	7,0	8,5	10,5
<b>Kontrtsiklik bufer kapitali</b>	0–2,5		

Tijorat banklarida risk boshqaruvini takomillashtirish lozim. Xalqaro amaliyotda bank menejmentining markaziy bo‘g‘ini risk boshqaruvi ekanligi allaqachon isbotlangan. Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarining asl mohiyati ham risk va kapital o‘rtasidagi bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Bazel III kelishuvining bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel III bilan banklar likvidligiga ham ikkita yangi talab kiritilmoqda. Birinchisi — bu 30 kungacha bo‘lgan joriy majburiyatlarning likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishini nazarda tutuvchi talab. Ushbu normativni hisoblashda inobatga olinadigan aktivlar sifatiga bo‘lgan talablar kuchaytiriladi. Jumladan, likvid aktivlar sifatida baholanadigan qimmatli qog‘ozlar reytingiga yanada yuqori talablar belgilanadi.

Ikkinchi normativ — uzoq muddatli likvidlik normatividir. Bankning normal faoliyati doirasida uning bir yilgacha bo‘lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100 foizga ta’minlangan bo‘lishi shart.

Kapitalning etarliligi tahlili asosan kunlik, un kunlik, oylik, choraklik va yillik hisobotlar asosida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham biz «A» bank kapitali yetarliligini choraklik hisobotlar asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

## 11-jadval

### «A» bank kapitalining yetarliligi tahlili

<sup>18</sup> Qoraliev Sh. Tijorat banklari kapitali etarliligini ta’minlash. // Bozor, Pul va Kredit. №2. 2013. – 13-14 b.



№	Ko'rsatkichlar	01.01. 2017y.	01.04. 2017y.	01.07. 2017y.	01.10. 2017y.	01.01. 2018y.
1.	Bank kapitali qoldig'i (mln.so'm)	7319	7365	7570	7810	8058
2.	I-darajali kapital (mln.so'm)	5287	5325	5480	5865	5898
3.	II-darajali kapital (mln.so'm)	2032	2040	2090	2145	2160
4.	Aktivlar qoldig'i (mln. so'm)	62015	63128	63212	63220	63190
5.	Aktivlarning risklilik darajasi hisobga olingan qoldig'i (mln. so'm)	17084	19870	20510	21480	22390
6.	Nomoddiy aktivlar (mln.so'm)	162	185	185	190	195
7.	Umumiy kapitalning yetarliligi (K1-koeffitsient, 0,1)	0,42	0,37	0,36	0,36	0,35
8.	I-darajali kapitalning yetarliligi (K2-koeffitsienti,0,05)	0,31	0,26	0,26	0,26	0,26
9.	I-darajali kapitalning umumiy yetarliligi (K3-koeffitsienti, 0,06)	0,11	0,11	0,11	0,12	0,12

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «A» Bankining umumiy kapitalining yetarliligi 2018 yil boshida 0,35 va 2017 yil boshida 0,42 koeffitsientlar oralig'ida tebrangan 2017 yil davomida umumiy kapitalning yetarlilik darajasi Markaziy bank talabidan 3,5–4,2 barobargacha ko'p bo'lgan. I-darajali kapitalning yetarlilik koeffitsientlari ham yil davomida 0,26 dan 0,31 gachani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ham yil davomida qo'yilgan talabdan 5–6 barobar ko'p bo'lgan. Birinchi darajali kapitalning umumiy yetarlilik koeffitsienti ham yil davomida talab darjasidan 2 barobar ortiq miqdorda ekanligi ko'rilmogda.

Demak «A» –bank 2017 yil davomida talab etilganidan ko'p miqdorda o'z kapitalining tashkil etilishini ta'minlangan.

### 3. Bank kapitali barqarorligi va samaradorligi ko'rsatkichlari

Bazel qo'mitasi a'zolari «Bazel III» borasida ilk bor 2009 yilning sentyabr oyida kelishib olgan bo'lib, qo'mita tomonidan o'sha yilning dekabriga kelib aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, Bazel qo'mitasining 2009 yil 8–9 dekabrda yig'ilishida qator tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan hujjatlar («Bank sektori barqarorligini oshirish», «Likvidlik riskini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar») ma'qullandi.

Banklarning kapital koeffitsientlariga ekzogen shoklardan so'ng, ushbu banklar kreditlar, qarz majburiyatlari va dividend to'lashdan, ularning sarmoya nisbatlarini ta'mirlash va ularning likvidlik pozitsiyalarini kuchaytiradigan harakatlaridan uzoqlashdi. Buyuk banklarda bunday xatti-harakatlar juda kam. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kapitalning minimal cheklanishi tabiiy ravishda

banklardagi likvidlik riskini kamaytiradi va bu banklarni Bazel III likvidligi standartlaridan ozod qilishni oqlayapti<sup>19</sup>.

Xususan, yangi tartibga asosan bank balansi aktivlari tavakkalchilik darajasi besh guruhga bo‘linib, 150 foizlik tavakkalchilik koeffitsienti qo‘shimcha joriy qilindi.

Yangi talablarga asosan, 2015 yil 1 yanvardan boshlab bank kapitali etarligining eng kam darajasi bankning kredit tavakkalchiligi summasi bilan birga bankning operatsion va bozor tavakkalchiliklarini ham hisobga oladi.

2016 yil 1 yanvardan boshlab regulyativ kapitalning etarlilik koeffitsienti (K<sub>1</sub>)ning eng kam darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida o‘rnatildi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K<sub>1</sub> ning eng kichik darajasini 0,13 (13,0 foiz) miqdorida ta‘minlashlari shart.

## 12-jadval.

### Kapitalning monandligiga qo‘yilgan minimal talablar (%)<sup>20</sup>


Talab kuchga kirish sanasi	Regulyativ kapitalga, (K <sub>1</sub> )	I darajali kapitalga, (K <sub>2</sub> )	I darajali asosiy kapitalga
01.01.2017	12,5	9,5	7,5
01.01.2019	13	10	8

Konservatsiyalangan kapital buferi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxira hisoblanadi. Ushbu zaxirani tashkil etishdan maqsad, banklar moliyaviy va iqtisodiy tanglik davrida yo‘qotishlarni amortizatsiyalash uchun foydalaniladigan zaxira kapitali mavjudligining kafolatidir.

Tijorat banklari kapitali miqdoriga va etarligiga bo‘lgan talabni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011–2015 yillarda respublika moliya–bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ–1438-sonli Qarorida ham ko‘rish mumkin. Qarorga asosan 2011–2015 yillarda tijorat banklarining umumiy kapitali 2,1 martaga oshirilishi belgilab qo‘yilgan edi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida belgialangan reja ko‘rsatkichlari muddatdan oldin ortig‘i bilan bajarilganini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.


<sup>19</sup> <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1042957318300123> - Robert De Young, Isabelle Distinguin, Amine Tarazi. The joint regulation of bank liquidity and bank capital Journal of Financial Intermediation Volume 34, April 2018, Pages 32-46

<sup>20</sup> Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 23 oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2693-2



**8-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklarida birinchi darajali kapitalning etarliligi (foizda)<sup>21</sup>**

Rasm ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarining birinchi darajali kapital yetarliligi 2011 yil 1 yanvar holatiga 21,93 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yil 1 yanvar holatiga 12,04 foizgacha tushgan bo'lsa, 2018 yil 1 yanvar holatiga kelib 17,30 foizgacha ko'tarilgan. Bunga sabab sifatida respublikamiz bank tizimida tijorat banklarining barqaror manbalar hisobidan kapitallashuviga e'tibor qaratilgan. Tijorat banklari birinchi darajali kapital yetarliligining bu darajasi ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish istiqboli mavjud ekanligini belgilaydi.



**9-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklari asosiy kapitalining etarliligi (foizda)<sup>22</sup>.**

Rasm ma'lumotlari orqali umumiy kapitali yetarliligi tahlili 2010–2017 yillar oralig'ida bu ko'rsatkich Bazel talablaridan 2–3 barovar yuqori bo'lgan

<sup>21</sup> "Ahbor-Reyting" reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: - 2011-2018 yillar, fevral.

<sup>22</sup> "Ahbor-Reyting" reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik hisobot materiallari. – Toshkent: - 2011-2018 yillar, fevral.

holda 13,66%–20,07 % atrofida bo‘lgan. 2010 yil davomida eng yuqori ko‘rsatkichga erishilgan. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklarida kapital yetarliligiga qo‘yilgan talablar yuqori darajada ta‘minlangan.

Regulyativ kapitalning yetarlilik koeffitsienti tijorat banklarining to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

### 13–jadval

#### Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi tahlili<sup>23</sup>

<i>Ko‘rsatkichlar nomi</i>	<i>01.01.2017 y.</i>		<i>01.01.2018 y.</i>		<i>O‘zgarishi (+/-)</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>ulushi, foizda</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>ulushi, foizda</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>ulushi, foizda</i>
<b>I darajali kapital</b>	<b>7 179,40</b>	<b>84,90%</b>	<b>17 627,10</b>	<b>88,20%</b>	<b>10 447,70</b>	<b>145,52</b>
<i>Asosiy kapital</i>	<i>7 133,70</i>	<i>84,30%</i>	<i>17 580,30</i>	<i>87,90%</i>	<i>10 446,60</i>	<i>146,44</i>
<i>Qo‘shimcha kapital</i>	<i>45,6</i>	<i>0,50%</i>	<i>46,8</i>	<i>0,20%</i>	<i>1,20</i>	<i>2,63</i>
<b>II darajali kapital</b>	<b>1 280,70</b>	<b>15,10%</b>	<b>2 365,70</b>	<b>11,80%</b>	<b>1 085,00</b>	<b>84,72</b>
<b>Jami regulyativ kapital</b>	<b>8 460,10</b>	<b>100%</b>	<b>19 992,80</b>	<b>100%</b>	<b>11 532,70</b>	<b>136,32</b>
<i>Kapital monandlilik darjasi</i>	<i>14,70%</i>		<i>18,80%</i>		<i>4,10%</i>	
<i>I darajali kapital monandlilik darajasi</i>	<i>12,50%</i>		<i>16,50%</i>		<i>4,00%</i>	

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, respublikamiz tijorat banklarining jami regulyativ kapitali miqdori 2016 yilda 8460,1 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilda esa 19992,8 mlrd.so‘mgacha oshib, o‘tgan yilga nisbatan 11532,7 mlrd.so‘mga ko‘paygan.

Bunga mos ravishda banklarning kapital monandlilik darajasi ko‘rsatkichi ham sezilarli oshib (4,1%ga), 2017 yilda 18,80 foizni tashkil qilgan. Bu bank tizimi uchun ijobiy holat hisoblanadi.

### 14-jadval

#### O‘z kapitali rentabelligi bo‘yicha top–5 banklar<sup>24</sup>

<sup>23</sup> www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti ma‘lumotlari (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2017 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti)

<b>Banklar</b>	<b>2016 yil</b>	<b>2017 yil</b>	<b>O'zgarish</b>
"Orient Finans" XATB	37,05%	54,69%	17,64%
"O'zagroeksportbank" ATB	0,00%	49,86%	49,86%
"Davr-bank" XATB	24,61%	38,02%	13,41%
"Trastbank" XAB	22,63%	25,45%	2,82%
"Ipak yo'li" XATB	24,31%	25,07%	0,76%
<b>Banklar bo'yicha o'rtacha</b>	<b>11,74%</b>	<b>10,27%</b>	<b>-1,47%</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki kapital rentabelligi bo'yicha "Orient Finans" XATBda 2017 yil bo'yicha 54,69% ni tashkil etgan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkichdan deyarli 5,5 baravar yuqori bo'lgan, o'tgan yilga nisbatan 17,64% oshgan. Ushbu olingan 5 ta bankning barchasida daromadlilik o'rtacha ko'rsatkichdan kamida 2,5 baravar ortiq bo'lib chiqmoqda.

Tijorat banklari o'z mablag'lari manbaiga ustav kapitali va rezerv kapitalidan tashqari turli maqsadlar uchun tuzilgan jamg'armalar (fondlar) va taqsimlanmagan foyda kiradi. Tijorat banklari o'z faoliyatini nazorat qilishda turli xil tizimli ko'rsatkichlardan, "Fitch Retying's", "Moody's" va "Standard & Poor's" kabi xalqaro reyting agentliklari xizmatlaridan hamda bank tizimini muvofiqlashtiruvchi "Basel Committee", "CAMELS" kabi tashkilotlar tavsiyalaridan foydalanishlari mumkin. Eng e'tiborlisi shundaki barcha moliyaviy holatni baholovchi ko'rsatkichlarda yoki baholovchi tashkilotlarning baholash tizimida asosiy o'rinda kapital va u bilan bog'liq ko'rsatkichlar turadi.

Bank kapitalining etarliligini aniqlashga ikki xil usulda yondashish mumkin:

- Bazel qo'mitasi tavsiyasi;
- CAMELS – tizimi tavsiyasi.

Bazel kelishuviga asosan kapitalning etarlilik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi:

1. I-darajali kapital (asosiy) bilan II-darajali (qo'shimcha) kapital o'rtasidagi nisbat;
2. Bank asosiy va umumiy kapitalining risklilik darajasi bo'yicha tortilgan aktivlarga nisbatini belgilaydigan kapital etarlilik me'yorlari;

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan talablardan kelib chiqqan holda bank kapitalining ikki tomonini ko'rsatib o'tish kerak:

1. Statistik;
2. Dinamik.

<sup>24</sup> "Ahbor-Reyting" reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik hisobot materiallari. –Toshkent. 2017 yil fevral

Kapitalning etarlilik darajasining statistik tomonini juda oddiy tushuntirsa bo‘ladi. Bunga asosan har qanday depozit oluvchi va kredit beruvchi tijorat bank 10 mln. evro ekvivalentidagi mablag‘dan kam bo‘lmagan ustav kapitalga ega bo‘lishi kerak. Mazkur talabni bajarmagan birorta bank bu talabni bajarmasdan turib ishga tushishi mumkin emas. Kapital etarlilik darajasining dinamik tomoni esa bir muncha murakkabdir. U Bazel kelishuvi me‘yorlarining majburiy rioya qilinishi, kapital etarlilik ko‘rsatkichlarini oshirib borish bilan bog‘liqdir.

Bank kapitalining etarliligi masalasini hal qilishda AQShning federal rezervlar tizimi tomonidan taklif qilingan «CAMELS» reyting tizimi alohida o‘rin egallaydi.

«CAMELS» reyting tizimining xususiyatlari shundan iboratki, bu tizim orqali tijorat bankining reytingi bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi ko‘rsatkichlarni hisobga oladi va har bir ko‘rsatkich bo‘yicha baho beradi.

«CAMELS» so‘zidagi birinchi “C” harfi kapital yetarliligi (Capital adequacy) ma’nosini bildirgan holda, uni baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanadi:

1. Birinchi va ikkinchi darajali kapital o‘rtasidagi nisbat;
2. Kapitalning etarlilik koeffitsienti asosiy va qo‘shimcha kapitallarning risk darajasi bo‘yicha tortilgan aktivlarga nisbati;
3. Moliyaviy leveraj koeffitsienti, bank jami kapitalining balans aktivlarining o‘rtacha summasiga nisbatan teng.

Bank kapitalining etarliligini baholash tizimi 5 ballik sistema bo‘yicha o‘lchanadi. Banklarning olgan ball ko‘rsatkichi qanchalik katta bo‘lsa, bank shunchalik kuchsiz hisoblanadi. Olingan baholar quyidagicha hisoblanadi:

- 1 – kuchli;
- 2 – qoniqarli;
- 3 – o‘rtacha;
- 4 – kritik;
- 5 – qoniqarsiz.

Kapitalni baholash quyidagilarga nisbatan aniqlanadi:

1. Riskli aktivlarning hajmiga nisbatan aniqlanadi;
2. Kritik va qoniqarsiz aktivlarning hajmiga nisbatan;
3. Kutilayotgan bankning o‘shishiga, rejalarga va kelajagiga nisbatan;
4. Bank aktivlarini boshqarish sifatiga nisbatan.

Shu sababli bank kapitalini yakuniy baholashda aktivlar sifati katta o‘rin tutadi.

Agar bank kapitalining o‘lchami katta bo‘lsa ham, uning aktivlari qoniqarli bo‘lmasa, bank kuchli hisoblanmaydi. Jami kapital, asosiy kapital va aktivlar sifati

koeffitsienti o‘lchamlaridan kelib chiqqan holda bank faoliyatini baholashning reytingi keltiriladi:

**15-jadval**

**Kapital yetarliligini baholash<sup>25</sup>**

<b>Baho</b>	<b>Asosiy kapital koeffitsienti <math>K_1</math></b>	<b>Jami kapital koeffitsienti <math>K_2</math></b>	<b>Cheklovlar</b>
<b>1</b>	4% dan ancha yuqori	8% dan ancha yuqori	Aktivlar sifati 2 dan kam bo‘lmasligi, riskli aktivlar koeffitsienti 11%dan katta bo‘lmasligi kerak
<b>2</b>	4% dan bir muncha yuqori	8% dan bir muncha yuqori	Aktivlar sifati 3, riskli aktivlar koeffitsienti chegaralanmagan
<b>3</b>	4% ga teng	8% ga teng	Aktivlar sifati 4, riskli aktivlar koeffitsienti chegaralanmagan
<b>4</b>	4% dan bir muncha past	8% dan bir muncha past	Sudalar bo‘yicha ehtimolli zararlarni qoplash zaxirasi dastlabki kapitaldan ortiq
<b>5</b>	4% dan ancha kam	8% dan ancha kam	Zararlar klassifikatsiyasi dastlabki kapitaldan ortiq

Jadvaldan shuni aytish mumkinki banklarning kapitali yetarliligidan tashqari ularning aktivlari ham banklarning kapitali bo‘yicha reytingini aniqlashda e‘tibor qaratiladi.

1 baho kapital o‘lchami 1–guruh normativlarga to‘g‘ri keladigan va aktivlari a‘lo yoki yaxshi deb baholangan banklarga beriladi;

2 baho kapital yetarlilik darajasi 2–guruh normativlarga to‘g‘ri keladigan va aktivlar sifati 3dan kam bo‘lmagan banklarga beriladi;

3 baho kapital yetarlilik darajasi 3–guruh normativlarga to‘g‘ri keladigan va aktivlar sifati 4 dan kam bo‘lmagan banklarga beriladi;

4 baho umumiy kapitalning yetarliligi 8% dan bir muncha kam qiymatga ega bo‘lsa va bank aktivlari sifati past bo‘lsa, bank aktivlari bo‘yicha yo‘qotishlar aksiyador kapitalga ziyon keltirishi mumkin bo‘lgan banklarga beriladi;

5 baho kapital yetarlilik darajasi minimal me‘yordan kichik bo‘lsa va aktivlari yo‘qotishlar kabi klassifikatsiya qilinib, aksiyador kapitaliga zarar keltirayotgan banklarga beriladi.

Oxirgi turdagi kredit bo‘yicha yo‘qotishlar rezervi bank uchun o‘ta muhim, chunki u qarzlarni to‘lanmaganda bankning joriy faoliyatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan uzilishlarning oldini olishga imkon yaratishi. Ushbu rezervga o‘tkazilgan

<sup>25</sup> Лаврушин О.И. “Управление деятельностью коммерческого банка” (Банковский менеджмент)/ Под редакцией. Москва. Юрист 2013 год

mablag‘lar soliqqa tortilmaydi, shuning uchun ham banklar mazkur rezervga ko‘prok mablag‘larni o‘tkazishga harakat qiladilar.

Biroq banklar nazorat qiluvchi organlar ushbu rezerv summasini cheklashga harakat qiladilar. Masalan: ilgari AQShda 6 yilda yo‘qotilgan summalarning 6 tachasini yoki berilgan kredit umumiy qiymatning ma‘lum foizlash (0,6%) rezervga hisoblash ruxsat berilgan edi. Hozirgi kunda esa faqat bir yil mobaynida haqiqatda ham yuz bergan umidsiz qarzlarning summasinigina rezervga o‘tkazish ruxsat berilgan. Bankning ishonchligi avvalom bor uning moliyaviy holati bilan belgilanadi. Uning kapitalining yetarliligi, aktivlarining sifati, balans likvidligi, faoliyati va boshqaruvining samaradorligi bilan belgilanadi.

Rivojlangan davlatlarda ko‘pgina banklari bank kapitalining bank aktivlariga bo‘lgan nisbatini yaxshilash uchun aktivlarni sotish usulidan foydalanishmoqda. Bu usulga asosan bank tomonidan riskliligi yuqori bo‘lgan bank aktivlarining o‘sishi sekinlashtiriladi, yani sekin asta ular risklilik darajasi past aktivlarga (davlat qimmatli qog‘ozlari, davlat tomonidan taminlangan kreditlarga) almashtiriladi. Bu bilan kapital va risklilik darajasi bo‘yicha tortilgan aktivlar o‘rtasidagi nisbat bank uchun ijobiy tomonga siljiydi.

Bank kapitali tahlili jarayonida yuqorida ta‘kidlab o‘tganimiz kabi bank o‘z mablag‘laridan foydalanishi ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratmog‘imiz zarur. Kapitalning samaradorligi (N) ko‘rsatkichi ma‘lum bir sanada olingan sof foydaning, ushbu sanadagi kapital qoldig‘iga nisbati bilan o‘lchanadi.  $N = \text{sof foyda} / \text{kapital}$  hosil bo‘lgan samaradorlik ko‘rsatkichi bir so‘mlik kapitalga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdorini bildiradi.

## 16-jadval

### «A» bank kapitalining samaradorlik ko‘rsatkichlari

(yil boshiga)

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil boshiga	Joriy yil boshiga	Farqi (+;-)
1.	Bank kapitali qoldig‘i (mln.so‘m)	7319	8058	739
2.	I-darajali kapital (mln.so‘m)	5287	5898	611
3.	II-darajali kapital (mln.so‘m)	2032	2160	128
4.	Sof foyda (mln. so‘m)	234	315	81
5.	Kapitalning samaradorligi (N)	3,2	3,9	0,7
6.	I-darajali kapital samaradorligi(N <sub>1</sub> )	4,4	5,9	1,5
7.	II-darajali kapital samaradorligi(N <sub>2</sub> )	11,5	14,5	3

Tahlil natijalari bank kapitali samaradorligi joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 0,7 punktga oshganligini ko‘rsatmoqda. O‘tgan yil olingan sof foydaning bank



kapitaliga nisbati 3,2 ni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil etgan.

O'tgan yilda har bir so'mlik kapitalga 3,2 tiyinlik sof foyda to'g'ri kelgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 3,9 tiyinni tashkil etgan. Kapital samaradorligi ko'rsatkichining o'sishiga asosiy sabab olingan sof foydaning o'sishi darajasi, kapitalning o'sishi darajasidan yuqori sur'atlarni tashkil etganligi hisoblanadi. Joriy yilda bank kapitali o'tgan yilga nisbatan 10,1 foizga o'sgan bo'lsa, ushbu davrlarda olingan sof foydaning o'sish sur'ati 34,7 foizni tashkil etgan.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- ◆ regulyativ kapital;
- ◆ bank kapitali va uning tarkibi;
- ◆ bank kapitali holati;
- ◆ tijorat banklarining birinchi darajali kapitali;
- ◆ tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali.

### 3 -mavzu: Bank majburiyatlari tahlili

#### *R e j a:*

- 1. Tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi tahlili*
- 2. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili.*
- 3. Bank majburiyatlari samaradorligi tahlili*

#### **1. Tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi tahlili**

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 -sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini ishlab chiqilishi aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni rivojlantirishga, aholi turmush darajasi va sifatini, uning moddiy farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish borasida bank tizimining barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish ishlari tijorat banklari uchun ustuvoar vazifa sifatida qaralmoqda.

So‘ngi yillarda bank tizimida olib borilayotgan islohatlar natijasida ularning daromadlari yildan yilga o‘shishi kuzatilmoqda. Albatta ularning samarali faoliyati natijasi ortida bank passivlari tarkibidagi depozit bazasining o‘shishi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tijorat banklari resurslarining tarkibida depozitli manbalar muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, biz quyidagi jadval ma’lumotlari orqali O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlarining tarkibini tahlil qilamiz.

#### **17-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlari tarkibi<sup>26</sup> (mln.so‘mda)**

<b>№</b>	<b>Depozit turi</b>	<b>01.01.2015</b>	<b>01.01.2016</b>	<b>01.01.2017</b>	<b>01.01.2018</b>
1	<b>TQOD</b>	10 382 414	14 832 020	19 195 426	30 734 100
2	<b>Jamg‘arma</b>	2 155 435	2 873 914	3 580 038	5 279 900
3	<b>Muddatli</b>	5 732 461	7 643 282	9 512 512	11 928 500
<b>Jami</b>		18 270 310	25 349 216	32 287 976	47 942 400

Mamlakatimiz tijorat banklarida so‘ngi to‘rt yil mobaynida depozit bazasi

<sup>26</sup> Axbor-reyting ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2015-2018-yil, fevral).

tarkibida o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, oldingi yilga nisbatan talab qilib olinguncha depozitlar tarkibi 2017-yil va 2018-yil yanvar holatiga ko‘ra qariyb 30% va 60 % ga o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, muddatli depozitlar va jamg‘arma depozitlar tarkibidagi o‘shish tendensiyasi ko‘rsatkichi 25% tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin (17 -jadval).

Tijorat banklari bilan birgalikda depozit operatsiyalarni amalga oshiruvchi subyektlar yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lsa, obyekt bo‘lib pul mablag‘lari, ya’ni milliy va xorijiy valyutalar hisoblanadi. Mamlakatimiz miqyosidagi barcha tijorat banklarning oxirgi ikki yil mobaynidagi jalb qilingan depozitlari manbai tarkibini, ya’ni valyuta turini va mijoz qatlamlarini quyida berilgan 18-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqamiz.

**18-jadval**  
**Tijorat banklari depozitlarining shakllanishiga ko‘ra tasnifi<sup>27</sup>**

Depozitlar manbasi	31.12.2016		31.12.2017		Farqi (+/-)	
	Summa mln.so‘m	Ulush %	Summa mln.so‘m	Ulush %	Summa mln.so‘m	Ulush %
<b>1.Jami depozitlar:</b>	<b>32287976</b>	<b>100</b>	<b>47942400</b>	<b>100</b>	<b>15654424</b>	<b>x</b>
–milliy valyutada	24038265	74,45	25515200	53,22	1476935	–21,23
–xorijiy valyutada	8249712	25,55	22427200	46,78	14177488	21,23
<b>2.Yuridik shaxslar depoziti</b>	<b>23031543</b>	<b>71,33</b>	<b>35937600</b>	<b>74,96</b>	<b>12906057</b>	<b>3,63</b>
–milliy valyutada	16364518	50,68	17639800	36,79	1275282	–13,89
–xorijiy valyutada	6667025	20,65	18297800	38,17	11630775	17,52
<b>3.Jismoniy shaxslar depoziti</b>	<b>9256434</b>	<b>28,67</b>	<b>12004800</b>	<b>25,04</b>	<b>2748366</b>	<b>–3,63</b>
–milliy valyutada	7673747	23,77	7875400	16,43	201653	–7,34
–xorijiy valyutada	1582687	4,9	4129400	8,61	2546713	3,71

2016–2017-yillar mobaynida mamlakatimiz tijorat banklariga jalb qilingan depozitlarning asosiy qismi, ya’ni mos ravishda jami depozitning 71,33 va 53,22 foizlari bilan milliy valyutada depozitlar, 25,55 va 46,78 foizlari xorijiy valyutada jalb qilingan mablag‘lar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bank depozitlarining yuridik va jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelishi o‘rtacha 70/30 nisbatda tashkil etgan bo‘lsa, oxirgi ikki yil davomida yuridik shaxslardan jalb qilingan mablag‘lar miqdori sezilarli darajda o‘sgan hamda jismoniy shaxslarda esa bu holatning aksi. Yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qilingan mablag‘lar hajmida yuridik shaxslarning milliy valyutada joylashtirgan depozitlari jami depozitlar hajmida 36 %dan yuqoriligi bilan yetakchilik qilgan.

Tijorat banklarida depozitlarning ortishi bankning aktiv operatsiyalari

<sup>27</sup> Ahbor-reyting ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2015-2018-yil, fevral).

o'shishiga olib keladi, chunki bank resurslari oshganda uning aktiv operatsiyalarini o'sishiga imkon beradi.

**19-jadval**

**Tijorat banklari depoziti qoldig'i<sup>28</sup> (1-yanvar holatiga)**

№	Bank nomi	Jalb qilingan depozitlar, mlrd.so'm			2015 yilga nisbatan 2017 yildagi o'zgarishi
		2016	2017	2018	
1	TIF Milliy bank	4 702,18	10 103,57	11 496,20	6 794,02
2	Asaka bank ATB	4 616,18	5 960,87	8 252,70	3 636,52
3	AT Xalq bank	2 953,78	3 583,82	3 613,40	659,62
4	CHEKI Hamkorbank	1 861,80	2 795,50	3 287,20	1 425,40
5	ATIB Ipoteka bank	2 074,14	2 675,23	5 506,40	3 432,26
6	ATB O'zsanoatqurilishbank	2 070,61	2 286,16	3 296,80	1 226,19
7	AJ KDB bank Uzbekistan	1 949,57	2 246,30	5 118,30	3 168,73
8	ATB Agrobank	1 671,36	1 893,32	1 794,70	123,34
9	ATB Kapitalbank	1 293,28	1 782,91	2 842,00	1 548,72
10	ATIB Ipak yo'li	966,34	1 217,98	1 717,10	750,76
11	XAB Trastbank	779,1	1 147,23	1 482,40	703,30
12	ATB Qishloq qurilish bank	879,26	1 101,10	1 297,00	417,74
13	ATB Mikrokreditbank	675,3	950,42	1 022,00	346,70
14	AT Aloqabank	644,76	919,81	1 940,20	1 295,44
15	XATB Orient finans	564,86	805,38	2 254,70	1 689,84
16	ATB Asia Alliance bank	724,23	697,14	1 040,60	316,37
17	ATB InFinBank	446,91	650,34	1 005,00	558,09
18	ATB Turonbank	486,75	543,85	904,40	417,65
19	ATB Savdogar	223,37	333,51	303,50	80,13
20	XATB Davr bank	157,94	233,37	422,30	264,36
21	XATB Ravnaq bank	67,32	171,13	275,50	208,18
22	XATB Universal bank	80,92	91,89	168,30	87,38
23	AJ Ziraat bank Uzbekiston	65,54	89,59	108,00	42,46
24	XATB Turkiston	77,62	80,74	143,90	66,28
25	XATB HI-TECH Bank	3,6	13,05	54,50	50,90
26	Saderot bank	8,68	9,47	22,50	13,82
27	XATB Madad Invest Bank	x	5,62	62,60	62,60
28	ATB O'zagroeksportbank	x	x	6,20	6,20
	<b>Jami</b>	<b>30 045,40</b>	<b>42 389,30</b>	<b>59 438,40</b>	<b>29 393,00</b>


O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlari tarkibini tahlil qilish jarayonida mamlakatimizdagi har bir tijorat banklarining hissasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ikki yil mobaynida TIF Milliy bank yetakchilik qilgan. Xususan, bankning 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 4702,18 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, barcha tijorat banklarning jami depozitlari tarkibida 15,65%

<sup>28</sup> Ahbor-reyting ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2015-2018-yil, fevral).

ulushni tashkil etgan va 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mazkur ko'rsatkich keskin ortgan, shuningdek 10103,57 milliard so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan ikki martadan ko'proq hajmga o'sganini ko'rishimiz mumkin. 2018-yil 11496,2 mlrd.so'mga oshgan.

Depozitlarning umumiy miqdori bo'yicha keyingi o'rinlarni 2015-yil davomida 4616,18 mlrd. so'm va 2953,78 mlrd. so'm bilan hamda 2016-yil davomida 5960,87 mlrd. so'm va 3583,82 mlrd. so'm, 2018 yil davomida 8252,7 mlrd. so'm va 3613,4 mlrd. so'm bilan mos ravishda Asaka bank ATB va AT Xalq banklari egallagan. Shuningdek, 2015-yil yakunlariga ko'ra, depozitlar miqdori jihatidan yirik hajmdagi depozitlarni jalb qilish bo'yicha bir trln.so'mdan ortiq mablag'larni bankka resurs sifatida jalb qilgan banklar: CHEKI Hamkorbank 1861,8 mlrd. so'm, ATIB Ipoteka bank 2074,14 mlrd. so'm, ATB O'zsanoatqurilishbank 2070,61 mlrd. so'm, AJ KDB Bank Uzbekistan 1949,57 mlrd. so'm, ATB Agrobank 1671,36 mlrd. so'm hamda ATB Kapitalbank 1293,28 mlrd. so'm.

2016-yil yakunlariga ko'ra esa yirik hajmdagi, ya'ni bir trln.so'mdan ortiq depozit mablag'larini jalb qilgan banklar soni yuqorida keltirib o'tgan banklarimiz hamda yana uchta banklar: ATIB Ipak yo'li, XAB Trastbank va ATB Qishloq qurilish banklar bilan birgalikda o'n ikkitaga yetdi. Jumladan, o'tgan yilga nisbatan TIF Milliy bank 114,87%, CHEKI Hamkorbank 50,15%, ATB Kapitalbank 37,86%, XAB Trastbank 47,25%, Asaka bank ATB 29,13%, ATIB Ipoteka bank 28,98% bilan depozitlari hajmini oshirishga erishgan. Bu davr mobaynida ham yetakchi depozit jalb qiluvchi bank sifatida TIF Milliy bank hamda Asaka bank ATB faoliyat olib borgan.



**8-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami depozitlarining o'sish dinamikasi<sup>29</sup>(mlrd.so'mda)**

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi besh yil davomida aholi tomonidan qo'yilgan depozitlar hajmi oshib kelgan. 2013-yil holatida O'zbekiston

<sup>29</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Respublikasidagi jami depozitlar qoldig'i 26,1 trillion so'mni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2014-yil boshiga qariyb 30 %ga va qolgan davrlar mobaynida ham nobarqaror holatda o'sgan.

Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish 2017-yil mobaynida mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. 2017-yil yakuniga ko'ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2016-yilga nisbatan 31,6 foizga oshib, 58,7 trln. so'mni tashkil etdi.

Bundan tashqari, tijorat banklari resurs bazasini barqaror manbalar hisobidan yanada kengaytirib borish maqsadida banklar tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, tijorat banklarining muomaladagi qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2017-yil 1-yanvar holatiga 1054,1 mlrd. so'mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 216,3 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 837,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda<sup>30</sup>.

Tijorat banklarining kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga, aktivlar va kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 4,1 barobarga o'sib 166632 milliard so'mni tashkil etdi (01.01.2018 holatiga), iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 4,7 barobarga ko'payib 110.6 trillion so'mni tashkil etdi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

## **2. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili**

Banklarning roli iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, uy-joylar qurilishini, transport va infratuzilmaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'z investitsion siyosatida, ayniqsa ahamiyatlidir.

Zamonaviy iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimizda bank ishining samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi.

Ushbu savolni ko'rib chiqishda majburiyatlarning mazmunini o'rgansak. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida majburiyatga quyidagicha ta'rif berilgan: majburiyat — fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir

<sup>30</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol–mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa — qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.<sup>31</sup>

Ushbu ta‘rifga mos ravishda “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartida ham ta‘rif berilgan.

Majburiyatlar – shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.<sup>32</sup>

MHXSlarda majburiyatlarni «oldin bo‘lgan xo‘jalik muomalalari yoki faktlar natijasida kelib chiqqan, tartibga solinishi aktivlarning o‘tkazilishi yoki ishlatilishiga, xizmatlar ko‘rsatilishi yoki kelgusida iqtisodiy manfaatlarning boshqa yo‘l bilan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan korxonaning majburiyatlaridir» deb ta‘riflaydi<sup>33</sup>.

Shunday qilib, majburiyatlar uchta asosiy xususiyatga ega:

- majburiyat boshqa subyektga faqat aktivlarni o‘tkazish yoki xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan qondirilishi mumkin;
- majburiyat munozarali bo‘lmasligi kerak;
- majburiyatni keltirib chiqargan voqea o‘rinli bo‘lishi kerak.

Majburiyat berilgan ta‘rifga muvofiq qabul qilinganda, u darhol tan olinishi va yozuvlarga kiritilishi kerak. Majburiyatning buxgalteriyada tan olinishi, majburiyat paydo bo‘lgan kunda amalga oshirilishi kerak. Majburiyatni keltirib chiqargan xo‘jalik muomalasi odatda majburiyatning paydo bo‘lish sanasini aniqlab beradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tijorat banklari resurslari va ularning manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasi, makroiqtisodiy omil sifatida ularning likvidligini ta‘minlashga va to‘lov qobiliyatini mustahkamlashga bevosita ta‘sir qiladi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazdan turib rejalashtirish tizimida mijozlarning banklarga biriktirib qo‘yilishi, banklarning esa hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirishda monopol huquqqa egaligi, ularning xarajat va daromadlari miqdorining yuqoridan belgilab

---

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi

<sup>32</sup> “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 14.08.1998 y. N 475

<sup>33</sup> Палий В. Ф. Международный стандарты учета и финансовой отчетности. Учебник. М.: Инфра-М.: 2004. - 275стр

berilganligi tufayli banklar moliyaviy resurslarni jalb qilish, bank xizmatlari hajmini kengaytirish va ularni takomillashtirib borishdan manfaatdor emas edi.

O'zbekistonda bozor mexanizmlarining tobora keng joriy etilishi sababli bank resurslarini jalb qilishni markazdan rejalashtirish sharoitida qo'llanilgan reljali usullar amalda o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Natijada, tijorat banklarida moliyaviy jihatdan barqaror va arzon resurs bazasini yaratish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital esa bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi.

Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil etib, ular 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

## 20-jadval

### Respublikamiz tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari tahlili<sup>34</sup> (mln.so'mda)

Majburiyatlar	2013	2014	2015	2016	2017	2013 yilga nisbatan o'zgarishi
Talab qilib olinguncha depozitlar	11220168	11716495	14832020	19195426	30734100	19513932
Jamg'arma depozitlari	1724928	2093411	2873914	3580038	5279900	3554972
Muddatli depozitlar	4845601	5898309	7643282	9512512	11928500	7082899
Boshqa banklarga to'lovlar	1512039	2034345	2852525	2443875	4209100	2697061
To'lovlanadigan ssudalar	6905140	8938304	11423184	16623570	43454600	36549460
Subordinar qarzlar	91274	93631	92988	84346	120900	29626
To'lov uchun hisoblangan foizlar	125395	148375	171767	272828	773800	648405
Boshqa majburiyatlar	2444419	3026519	3523167	4607279	2788300	343881
<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>28868964</b>	<b>33949389</b>	<b>43412847</b>	<b>56319874</b>	<b>99289200</b>	<b>70420236</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarning jalb qilingan mablag'lari yildan yilga oshib bormoqda. 2017-yilda bu ko'rsatkich 99289200 mln.so'mni tashkil etib 2013-yilga nisbatan 70420236 mln.so'mga oshgan. Bu albatta ijobiy hola hisoblanadi chunki bankning majburiyatlari oshishi uning resurs bazasini oshirib undan samarali foydalansa natijada bankning daromadi oshadi.

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.



**Bank majburiyatlari** ularning o‘ziga xos xususiyatlari, manbalari va muddatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- talab qilib olinguncha depozitlar;
- jamg‘arma depozitlari;
- muddatli depozitlar;
- boshqa banklarga to‘lovlar;
- to‘lovlanadigan ssudalar;
- subordinar qarzlari;
- to‘lov uchun hisoblangan foizlar;
- boshqa majburiyatlar.

## 21-jadval

### Tijorat banklari jami majburiyatlari tarkibi<sup>35</sup>

Ko‘rsatkich nomi	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>75 094</b>	<b>100%</b>	<b>145 956</b>	<b>100%</b>	<b>94,4%</b>
Jalb qilingan kreditlar	26 786	36	72 819	50	172
Jami depozitlar	36 341	48	58 668	40	61
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	1 058	1	1 100	0,8	4
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	375	0,5	1 049	0,7	180
Boshqa banklar mablag‘lari	3 995	5	5 763	4	44
Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i	263	0,4	537	0,4	104
Boshqa majburiyatlar	6 250	8	6 019	4,1	-4,1

2017-yil davomida tijorat banklari jami majburiyatlari 70,9 trln. so‘mga yoki 1,9 barobarga (2016 -yilda 1,3 barobarga) o‘sib, 2018-yilning 1-yanvar holatiga 146 trln. so‘mni tashkil etdi. Bunda jami majburiyatlar o‘shining 71 foizi yoki 50 trln. so‘mi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi natijasida chet el valyutasida jalb qilingan kreditlar va depozitlarning milliy valyutadagi qiymatining oshishi hisobiga ro‘y berdi.

Tijorat banklari jami majburiyatlarining 82 foizini ichki majburiyatlar, shu jumladan, 31,7 foizini O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi resurslari hamda 18 foizini chet el banklari va xalqaro moliya tashkilotlari kredit liniyalari mablag‘lari tashkil etadi.

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari

Bunda hisobot yilida valyuta siyosatining liberallashtirilishi doirasida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursining qariyb 2,5 barobarga pasayishi natijasida xorijiy kredit mablag‘larining banklar jami majburiyatlaridagi ulushi 2017-yil davomida 36 foizdan 50 foizgacha oshdi.

Shu bilan birga, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jalb qilingan depozitlarning banklar jami majburiyatlaridagi ulushi 2017-yil davomida 48,4 foizdan 40,2 foizgacha pasaydi.

2017-yil davomida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi yil boshiga nisbatan 61,4 foizga (2016-yilda 24 foiz) oshib, hisobot sanasiga 58,7 trln. so‘mni tashkil qildi, shundan 51 foizi milliy valyutadagi va 49 foizi xorijiy valyutadagi depozitlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Depozit operatsiyalar** – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga oid operatsiyalardir<sup>36</sup>.

Tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larning asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma‘lum vaqtgacha saqlanadigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Bank amaliyotida qo‘llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘lari tushuniladi<sup>37</sup>.

E.M.Rode depozitlar o‘z ichiga, jamg‘arma sertifikatlardan tashqari-barcha muddatli va muddatsiz omonatlarni oladi, deb ta’kidlaydi.

Depozit mijozlarning bankka vaqtincha foydalanish uchun bergan mablag‘lari bo‘yicha bank va mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni aks ettiradi.

Depozitlarning guruhlanishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim manbalarda ular asosan, uchta guruhga ajratilsa, ba’zi adabiyotlarda 4 ta guruhga ajralishi ta’kidlanadi, Markaziy bankning depozitlar to‘g‘risidagi nizomida esa 5 ta guruhga bo‘lingan.

Bizning nazarimizda, banklarning depozit operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va muddatiga qarab 4 ta guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Ushbu guruhga talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlar, muddatli depozitlar, jamg‘arma depozit (sertifikat)lar va boshqa depozitlar kiradi.

---

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya: hisobini yuritishga oid qonchilik hujjatlari to‘plami – T.: «O‘zbekiston» 2003. 86-bet

<sup>37</sup> Мицек С. А. «Экономика финансовых институтов» Екатеринбург. 1996 с. 42

Depozit mablag‘larini moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror va nobarqaror mablag‘larga hamda to‘lovliligi jihatidan nisbatan qimmat va arzon depozit mablag‘larga ajratish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy jihatdan barqaror mablag‘lar tijorat banklarining asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda vujudga keladigan zararlardan himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Ushbu mablag‘larga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, banklarning ustav kapitalini, joriy yil va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini, joriy yilning sof foydasi hamda muddatli va jamg‘arma (sertifikat) depozitlarini kiritishimiz mumkin. Muddatli va jamg‘arma (sertifikat) depozitlar banklar uchun muddati jihatidan ham barqaror moliyaviy manba hisoblanadi. Zero banklar, ushbu mablag‘larni likvidsizlikka tushib qolish muammosini o‘ylamasdan ma’lum muddatga kredit resurslari sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Moliyaviy jihatdan nobarqaror mablag‘lar turkumiga tijorat banklarining kapitali tarkibidagi devalvasiya zaxirasini kiritishimiz lozim. Chunki ushbu mablag‘lar milliy valyutaning kursi xorijiy valyutaga nisbatan o‘zgarishi natijasida vujudga kelib, bankning real mablag‘larini ko‘paytirmaydi. Shuningdek, tijorat banklari mazkur zaxiradan resurs sifatida foydalanish imkoniyatiga ega emas.

## 22-jadval

### Bank depozitlaridagi mablag‘lar qoldig‘i<sup>38</sup> (mlrd. so‘m)

Sana	Jami	muddat bo‘yicha:				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	30 kundan 180 kungacha	180 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
01.01.2017 y.	37 183	20 459	1 997	6 252	3 776	4 699
<i>ulushi, foizda</i>	100,0	55,0	5,4	16,8	10,2	12,6
01.01.2018 y.	59 579	31 368	3 231	10 292	9 283	5 404
<i>ulushi, foizda</i>	100,0	52,6	5,4	17,3	15,6	9,1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklarning jami depozit mablag‘lari qoldig‘ida talab qilib olinguncha depozitlarning ulishi 53–55 %ni tashkil etishi salbiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklari resurslarining muddati jihatidan nobarqaror mablag‘lari qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlardagi mablag‘larni kiritishimiz mumkin. Banklar mazkur turkumga kiruvchi mablag‘lardan kredit resursi sifatida foydalanganda ularning likvidsizlik holatiga tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Chunki mijoz ushbu hisobvaraqlardagi

<sup>38</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari

mablagʻlarni bank kutmagan paytda qisman yoki toʻligʻicha koʻchirish haqida bankka topshiriq berishi yoki naqd pul shaklda berishni talab qilish huquqiga ega. Shu jihatdan, ushbu hisobvaraqlarda saqlanadigan mablagʻlar muddat jihatidan nisbatan nobarqaror resurslar turkumiga kiritiladi. Bank tomonidan mazkur mablagʻlar kredit resurslari sifatida ishlatilishi uni kutilmagan paytda likvidsizlik holatiga olib kelishiga sabab boʻladi.

Mablagʻlarni tashkil topish manbalari jihatidan qimmatli yoki arzon mablagʻlar guruhiga ajratish mumkin. Bu erda asosiy eʼtibor depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablagʻlarga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablagʻlar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon resurs mablagʻlari turkumiga esa oʻz-oʻzidan aniqki nisbatan nobarqaror mablagʻlar kiradi.

Tijorat banklarining talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlarga korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqa xoʻjalik yurituvchi subektlarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqlarida saqlanadigan pul mablagʻlari kiradi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlarga bank nisbatan kichik miqdorda, ayrim hollarda esa umuman foiz toʻlovlarini toʻlamaydi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu depozit transaksion va chekli (chekoviy) depozit deb ham yuritiladi.

Muddatli depozitlarga qoʻyiladigan mablagʻlarni qaytarib olish muddati oldindan kelishiladi. Ushbu depozit turining nomidan ham maʼlumki, depozit mablagʻlar nisbatan uzoqroq muddatga qoʻyilib ularning muddati kamida bir oyni tashkil etishi lozim. Oʻz navbatida banklar, ushbu depozit turi boʻyicha nisbatan yuqori foiz toʻlovlarini toʻlaydi. Bank mazkur depozitga muddati tugaguncha saqlash uchun va oldindan ogohlantirish yoʻli bilan muddati tugamasdan qaytarib berish haqida omonatchi bilan depozit shartnomasini tuzishi mumkin.

Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablagʻini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz toʻlovlarini toʻlamaslik huquqiga ega boʻladi.

Jismoniy shaxslar oʻrtasida omonatlarning eng rivojlangan turi bu jamgʻarma depozitlar hisoblanadi. Jamgʻarmaning ushbu turida bank omonatchiga uning mablagʻining harakati, qoldigʻi va unga hisoblangan foizlar haqidagi maʼlumotni aks etiruvchi jamgʻarma daftarchasini beradi. Jamgʻarma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qoʻllanilayotgan depozit sertifikatlarini koʻrsatish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklari amaliyotida ham depozit sertifikatlari joriy etilib bank resurslarining manbalarini shakllantirishda foydalanilmokda. Ushbu koʻrsatkich 2006 yil 1 yanvar holatiga jami 21,3 mlrd

so‘m yoki jami aktivlar tarkibida 0,3 foizni tashkil etgan. Depozit sertifikatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular bankning haqiqatda ham ma’lum miqdordagi mablag‘ni bankka qo‘yganligi haqida mijozga bergan yozma tasdiqnomasini anglatadi. Eng asosiysi depozit sertifikatlari garov sifatida banklar tomonidan qabul qilinadi. Depozit sertifikatlari bo‘yicha foizlar miqdori depozit summasining hajmi, muddati, shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasiga bog‘liq.

Boshqa depozitlar guruhiga banklarning yuqorida qayd etilgan depozitlaridan tashqari mijozlarning akkreditiv bo‘yicha talab qilib olinguncha bo‘lgan davrdan foizsiz depozitlar, shuningdek, amaldagi qoidalarga muvofiq turli ishonchli mablag‘lar va shunga o‘xshash boshqa moliyaviy operatsiyalar va majburiyatlar bo‘yicha depozit hisobvaraqlarini ochishi mumkin.

Tijorat banklarining resurslarga bo‘lgan ehtiyoji depozit operatsiyalari natijasida to‘liq qondirilmaganda ular mamlakat yoki xalqaro moliya bozoriga, Markaziy bankka va banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida moliya bozori va banklararo pul resurslari bozorlari orqali banklarning katta miqdorda moliyaviy resurslarni jalb etishi amaliyotda o‘zining ijobiy natijasini topgan. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining resurslari tarkibida qimmatli qog‘ozlarning ulushi 20-25 foizni tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarida ushbu ko‘rsatkich 2013-2014-yillarda 10-12 foizni tashkil etgan, O‘zbekiston tijorat banklarida shu davrda 0,3-1,0 foizdan iborat bo‘lgan.

Tijorat banklarining qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini Markaziy bankning kreditlari orqali qondirishida qayta moliyalash stavkasining miqdori bevosita ta’sir etadi. Chunki, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi uning pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy usullaridan biri bo‘lib, uning darajasining past yoki yuqori bo‘lishi muomaladagi tovar massasi va pul massasi o‘rtasidagi mutanosiblikka bog‘liq. Agar muomalada pul massasining miqdori tovar massasiga nisbatan mo‘ljaldagidan oshadigan bo‘lsa, unday holda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini oshirish orqali tijorat banklarining markazlashgan kredit resurslarini olishga bo‘lgan manfaatini cheklab qo‘yadi va aksincha.

Demak, tijorat banklari doimo ham Markaziy bankning kreditlarini olishdan iqtisodiy manfaat ko‘rmaydi. Chunki Markaziy bank hisob stavkasini banklararo pul resurslari bozorining ishtirokchilari kabi resurslarni foyda olish yoki vaqtinchalik bo‘sh bo‘lgani uchun tijorat banklariga taklif etmaydi. Uning tijorat banklariga kredit resurslarni taklif qilish yoki qayta moliyalash stavkasining past yoki yuqori darajada o‘rnatishidan asosiy maqsad milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga qaratilgandir. Lekin, shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati milliy valyutaning barqarorligini oshirishdagi ahamiyati juda ham zaif bo‘lib qolmoqda.

Banklararo pul resurslari bozori moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblanib, tijorat banklariga vaqtincha bo‘sh mablag‘laridan samarali foydalanish va qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini zudlik bilan qondirishga imkoniyat yaratadi. Banklararo pul resurslari bozorida qisqa muddatli kredit resurslar sifatida ishtirok etayotgan mablag‘lar butun bank tizimidagi mavjud bo‘sh mablag‘lar hajmiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Chunki tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar birinchisidan ikkinchisiga o‘tish orqali ularning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘ining umumiy hajmi o‘zgarishsiz qoladi.

### 3. Bank majburiyatlari samaradorligi tahlili

Avvalambor shuni yana bir bor eslatib o‘tishni lozim topdikki, bankning resurslarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalari – passiv operatsiyalar deyiladi.

Passiv operatsiyalar bank oborotiga chetdan mablag‘lar jalb etish va o‘z mablag‘larini tashkil etish bilan bog‘liq operatsiyalardan iboratdir. Bank resurslari uning majburiyatlari va o‘zining kapitalidan tashkil topadi.

Bank faoliyatining yana bir asosiy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning resurslari asosan chetdan jalb etilgan majburiyatlaridan tashkil topadi.

23-jadval

“A” bankining chetdan jalb etilgan va o‘z mablag‘lari tarkibi<sup>39</sup>

(yil boshiga)

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Joriy yil o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	
		Summa mln so‘m	Salmog‘i %	Summa mln so‘m	Salmog‘i %	Summada mln so‘m	Salmoqda %
1.	O‘z mablag‘lari	3910	8,8	4100	9,1	190	4,9
2.	Chetdan jalb etilgan mablag‘lar	40510	91,2	41000	90,9	490	1,5
<b>3.</b>	<b>JAMI:</b>	<b>44420</b>	<b>100</b>	<b>45100</b>	<b>100,0</b>	<b>680</b>	

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “A” bank passivining asosiy qismi, 40510 mln so‘m ya‘ni 91,2 foizi 1-yanvar o‘tgan yil holatiga va 41000 mln so‘m, ya‘ni 90,9 foizi, 1-yanvar joriy yil holatiga chetdan jalb etilgan mablag‘lar, qolgan qismi esa (8,9% va 9,1%) o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan. Tahlil

<sup>39</sup> “A” tijorat banki shartli ravishda olingan.

etilayotgan davrda o'z mablag'lari 1900 mln so'm ya'ni 4,9 foizga, chetdan jalb qilingan mablag'lar esa 490,0 mln. so'm ya'ni 1,5 foizga o'sgan. Bank majburiyatlari qoldig'i bank balansining ikkinchi bo'limida aks ettiriladi.

Bank majburiyatlari ularning o'ziga xos xususiyatlari, manbalari va muddatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar;
- jamg'arma depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- boshqa banklarning hisobraqamlari;
- olingan qisqa muddatli kreditlar;
- olingan uzoq muddatli kreditlar;
- mijozlarning boshqa depozitlari.

Ushbu guruhlariga hisobvaraqlar, ularning manbalari nuqtai-nazaridan yana bir necha hisobraqamlardan tashkil topadi.

Shuning uchun ham har bir hisobvara qoldiqlari alohida tahlil etilishi lozim bo'lgan taqdirda ularning tarkibi ushbu hisobvara q tarkibiga kiruvchi hisobraqamlar qoldiqlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bank majburiyatlarini tahlil etishda asosiy e'tibor ularning tarkibi, dinamikasi va barqarorlik darajasiga qaratiladi.

## 24-jadval

### «A» Bankning chetdan jalb etilgan mablag'lari tarkibi va dinamikasi

(yil boshiga)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		O'zgarishi	
		Qoldig'i mln. so'm.	Salmog'i %	Qoldig'i mln.so'm.	Salmog'i %	Miq- dori (+,-)	Sal- moqda %
1.	Talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar	6100	15,1	6100	14,9	-	-
2.	Jamg'arma depozitlar	1140	2,8	1000	2,4	-140	-12,3
3.	Muddatli depozitlar	7900	19,5	7700	18,8	200	-2,5
4.	Boshqa banklarning hisobraqamlari	4400	10,9	4100	10,0	-300	-6,8
5.	Olingan qisqa muddatli kreditlar	3600	8,9	3900	9,5	300	8,3
6.	Olingan uzoq muddatli kreditlar	15100	37,3	14600	35,6	-500	-3,3
7.	Mijozlarning boshqa depozitlari	2270	5,5	3600	8,8	1330	58,6
	<b>JAMI:</b>	40510	100,0	41000	100,0	490	1,2

Yuqoridagi ma'lumotlarga qaraganda bankning talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlari miqdori tahlil qilinayotgan davrda deyarli o'zgarishsiz qolgan. Lekin jamg'arma depozitlari miqdori 140 mln.so'm ya'ni 12,3 foizga, muddatli depozitlar esa 200 mln so'm, ya'ni 2,5 foizga kamayib ketgan. Shu bilan birga, boshqa banklarning hisobraqamlaridagi mablag'lar 300 mln so'm 6,8 foizga va olingan uzoq muddatli kreditlar ham 500 mln so'm 3,3 foizga kamayganligi kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda mijozlarning boshqa depozitlari miqdori 1330 mln so'm ya'ni 58,6 foizga o'sgan.

Bankning jamg'arma va muddatli depozitlarining kamayib ketishi, uning depozit siyosatida kamchiliklar mavjudligini bildiradi.

Jamg'arma va muddatli depozitlar bank uchun eng barqaror resurslardan hisoblanadi. Ularning barcha depozitlar hajmida salmog'ining qisqarishi bank depozit bazasining barqarorlik darajasining pasayib borishidan dalolat beradi. Bank tomonidan jamg'arma va muddatli depozitlarni jalb etish borasida muhim chora va tadbirlar belgilanishini talab etiladi. Boshqa banklar hisobraqamlarida pul mablag'larining kamayishi, ushbu bankning boshqa banklar bilan korrespondentlik munosabatlarining qisqarib borishini bildiradi.

Olingan uzoq muddatli kreditlar salmog'ining kamayishi ularning o'z muddatlarida qaytarilganligini bildiradi. Lekin bank uning likvidligini ta'minlash, oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda Markaziy bank va boshqa banklardan uzoq muddatli kreditlarga doimo ehtiyoj sezadi.

Talab qilib olinadigan depozit mablag'larining o'zgarmasligi ko'p hollarda uning mijozlari tarkibi va ular faoliyatida sezilarli darjada rivojlanish bo'lmaganligini bildiradi. Bank o'zining mijozlari tarkibini son va sifat jihatidan yaxshilab borishiga e'tibor qaratmog'i lozim bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan davrda bank mijozlarining boshqa depozitlari miqdorining 58,6 foizga oshganligi kuzatilgan. Uning sabablarini aniqlash uchun bank balansida 22600-mijozlarning boshqa depozitlari, 22800-forvard, opsiya, fyuchers, svop operatsiyalarida realizatsiya qilinmagan zararlar, 23200-kliring transaksiyalari, 23400-hukumat hisobraqamlari daromad va boshqa tushumlari, 23600-bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, 29800-boshqa majburiyatlar tarkibi o'rganilmog'i lozim bo'ladi.

Biz tahlil qilayotgan bankda mijozlarning boshqa depozitlari mablag'larining o'sishi asosan 22618- jismoniy shaxslar plastik kartochoyklari bo'yicha majburiyat, 22600-korporativ plastik kartochoyklari bo'yicha majburiyatlar, 23218-Moliya vazirligi Fondidan ajratilgan maqsadli mablag'lar, 23220-Moliya vazirligi maxsus fondidan olingan mablag'lar, 23222-Moliya vazirligining maqsadli mablag'lari hisobiga tashkil topgan . Bu holat hisobot davrida plastik kartochoyklari muammosi yo'lga qo'yilganligi va bank mijozlari orasida Moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan qishloq xo'jaligini



moliyalashtirish fondi mablag‘laridan foydalanuvchi paxta va g‘alla etishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining ko‘payganligini bildiradi.

Bank majburiyatlari tarkibida olingan qisqa muddatli kreditlarning o‘shishi, asosan bankning joriy likvidligi holatini yaxshilashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, bank keyingi yil uchun o‘zining depozit siyosatini ishlab chiqishda mijozlari tarkibini barqarorlashtirishga, jamg‘arma va muddatli depozitlar jozibadorligini oshirishga hamda uzoq muddat foydalanishi mumkin bo‘lgan muomalaga chiqariladigan obligatsiya va depozit sertifikatlarining jozibadorligini oshirishga e‘tibor qaratmog‘i lozim.

Bank majburiyatlarini tahlil qilishda ularning tarkibi, dinamikasi va barqarorlik darajasini o‘rganish bilan birga, majburiyatlar samaradorligi tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda majburiyatlar samaradorligi faoliyat natijasida olingan sof foydaning majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko‘rsatkich ko‘p hollarda majburiyatlar rentabelligi deb ham ataladi.

Bank majburiyatlaridan daromad olish maqsadida daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladi. Shuning uchun ham biz majburiyatlar samaradorligini olingan foizli sof foyda (foizli daromadlar–foizli xarajatlar)ning majburiyatlar summasiga nisbatini olishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Shunday ekan, majburiyatlar samaradorligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$S_m = \frac{\text{foizli sof foyda}}{\text{chetdan jalb etilgan mablag'lar}} * 100 \quad (6)$$

## 25-jadval

### «A» bankning chetdan jalb etilgan mablag‘lari samaradorligi

(yil boshiga foizda)

№	Ko‘rsatkichlari	O‘tgan yil	Joriy yil	Jori yilda o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	
				summa (mln.so‘m)	Foizda %
1.	Foizli daromadlar (mln.so‘m)	6880	7200	320	4,7
2.	Foizli xarajatlar (mln.so‘m)	5630	5840	210	3,7
3.	Foizli sof foyda (mln.so‘m)	1250	1360	110	8,8
4.	Chetdan jalb etilgan mablag‘lar (mln.so‘m)	40510	41000	490	1,2
5.	Chetdan jalb etilgan mablag‘lar samaradorligi	3,1	3,3	0,2	6,5

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarga asosan “A” bank majburiyatlari samaradorligi ko‘rsatkichi joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 0,2 punktga ya‘ni 6,5 foizga o‘sgan. Ushbu o‘shish foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan tez sur‘atlar bilan o‘shishi (o‘shish mos ravishda 4,7 va 3,7 foizni tashkil etgan) evaziga va

majburiyatlarning o‘shish darajasi ham sof foizli daromadlar (1,2 va 8,8 foiz) o‘shishdan ancha kam ekanligi evaziga erishilgan.

Majburiyatlar samaradorligining o‘shishi foizli daromadlar va foizli xarajatlar o‘rtasidagi marjaning yetarliligini va jalb etilgan mablag‘lar imkon darajasida daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarga jalb etilganligini ifodalaydi.

Bank majburiyatlari tahlili oldiga qo‘yilgan aniq maqsadlarga muvofiq ko‘nlik, o‘n kunlik, oylik, choraklik bank balansiga va hattoki bankning kun davomidagi majburiyatlari ular hisobi olib boriladigan hisobraqamlar oboroti ma’lumotlariga asoslangan ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, bank majburiyatlarini yanada oshirish uchun birinchidan, majburiyatlar barqarorligini oshirish, ikkinchidan, foizli daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq (marja)ni oshirishga harakat qilish va uchinchidan, likvidlilikga ta’sir etmagan holda majburiyatlarni imkon qadar ko‘proq daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirilmog‘i lozim.

#### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- bank majburiyatlari.
- passiv.
- kontr-passiv;
- kontr-aktiv;
- depozit;
- muddatli depozit;
- dividend;
- sof foyda;
- taqsimlanmagan foyda;
- ehtimoliy yuqotishlarni baholash;
- emitent.

#### **4-mavzu: Tijorat banklari holati va ulardan foydalanish tahlili**

##### *R e j a:*

- 1. Bank aktivlari holati va dinamikasi tahlili.*
- 2. Bank aktivlari daromadlilik tahlili.*
- 3. Bank aktivlari risklilik darajasi tahlili.*
- 4. Bank aktivlari likvidiligining tahlili.*
- 5. Bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlili.*

#### **1. Bank aktivlari holati va dinamikasi tahlili**

Bank aktivlari – bu bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo‘lgan qiymatliklar: naqd mablag‘lar, qarzga berilgan mablag‘lar, binolar va asbob-uskunalaridan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo‘lib, bular o‘zlarining moddiy shakliga ega bo‘lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bank aktivlari tarkibining to‘g‘ri belgilab olinishi va ulardan maqsadli foydalanishi banklarning samarali faoliyat olib borishiga asos hisoblanadi.

Bank aktivlari tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmog‘i tushuniladi.

Tijorat banklari aktivlarini asosan to‘rt kategoriyaga bo‘lib o‘rganish mumkin:

- kassadagi pul mablag‘lari va ularga tenglashtirilgan mablag‘lar;
- investitsiya va qimmatli qog‘ozlar;
- ssudalar;
- binolar va asbob-uskunalar.

Kassadagi pul mablag‘lari – bankning kassasidagi saqlanayotgan va bank kunlik hisobvaraqlar bo‘yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to‘lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo‘lgan qog‘oz pullar va tangalar hisoblanadi. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirish uchun beriladigan qog‘oz pullarga va tangalarga ega bo‘lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig‘iga bir nechta omillar ta’sir qiladi, Jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi va boshqalar. Odatda jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo‘limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar qo‘shiladi, chunki bu mablag‘lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu

mablag'larni bankda "birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, chunki mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank aktivlarini samarali boshqarish, shakllantirish va sifatini oshirishning nazariy-kontseptual asoslari chuqur tadqiq qilingan.

Iqtisodchi olim V.Usoskin o'zining «Современный коммерческий банк: управление и операции» nomli monografiyasida tijorat banklari aktivlarining asosiy turlari bo'lgan kreditlar va kassali aktivlarning sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor bergan. V.Usoskin kredit portfelini sifatini oshirish maqsadida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini takomillashtirishni, kredit portfelini shakllantirishda diversifikatsiya printsipligiga qattiq rioya etishni taklif qiladi<sup>40</sup>.

N.Sokolinskaya aktivlarni boshqarish va sifatini oshirishda asosiy e'tibor ularning daromadlilikiga va likvidlilikiga qaratilishi lozim deb hisoblaydi<sup>41</sup>.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlarini ikki guruhga ajratadi<sup>42</sup>.

1. Kassali aktivlar.
2. Ikkilamchi zaxiralar.

E.Dolan kassali aktivlar tarkibiga tijorat banklarining kassasidagi naqd pullarni, ularning Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining qoldig'ini, tijorat banklarining boshqa tijorat banklaridagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlarini va inkassasiya jarayonidagi pul mablag'larini kiritadi.

Bizning fikrizimcha, E.Dolanning kassali aktivlarning yuqori darajadagi likvidlilikiga xususidagi firqi juda o'rinli, ammo inkassasiya jarayonidagi pul mablag'larini yuqorli likvidli aktivlar sifatida e'tirof etish masalasida, tabaqaviy yondashuv bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki, tijorat banki tomonidan qabul qilib olingan va boshqa tijorat banklariga to'lov uchun jo'natilgan pullik hujjatlar yuz foiz to'lanmaydi. Ularning ayrimlari hatto umuman to'lanmasligi mumkin. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, floutni yuqori likvidli aktiv sifatida baholash uchun pullik hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradigan tijorat banking to'lovga layoqatlilik reytingidan kelib chiqish zarur. Reyting ballari yuqori bo'lgan tijorat banklariga jo'natilgan pullik hujjatlar summasinigina yuqori likvidli aktiv sifatida baholash maqsadga muvofiq. Agar pullik hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradigan bank xorijiy bank bo'lsa, u holda, "Fitch Ratings", "Moody's" va "Standard and Poor's" kabi taniqli reyting kompaniyalarning yuqori reyting

<sup>40</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.

<sup>41</sup> Лаврушина О.И. Банковское дело. – Москва: ФиС, 2005. – С. 101-102.

<sup>42</sup> Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: "Санкт-Петербург Оркестр", 1994. – С. 90-93.

ballariga ega bo'lgan tijorat banklariga jo'natilgan pullik hujjatlar summasini, ya'ni flout summasini yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kiritish lozim. Pullik hujjatlar bo'yicha to'lovsizlik muammosi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida ham cheklar bo'yicha to'lovsizlik muammosi mavjud edi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki limitlashtirilgan chek daftarchalari vositasida amalga oshiriladigan to'lovlarni to'xtishga olib keldi.

E. Dolan ikkilamchi zaxiralarning quyidagi to'rt shaklini ajratib ko'rsatdi:

- a) hukumatning qimmatli qog'ozlari;
- b) boshqa banklarning depozit sertifikatlari;
- v) tijorat qimmatli qog'ozlari;
- g) federal fondlar.

K.Barltrop va D.Maknotonlar yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kassali aktivlardan tashqari tijorat banklarining balansidagi Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalarni ham kiritadi<sup>43</sup>.

Bizning fikrimizcha, Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalarni yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, Markaziy bankning trattalar bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga shubha yo'q. Germaniya Federal bankining, AQSh Federal zaxira tizimining trattalarni qayta hisobga olish amaliyoti bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan, shu jumladan, K.Baynke, E.Dolan, E.Ridlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning mazkur masala xususidagi qarashlarini o'rganish natijasida trattalarni Markaziy bankda qayta hisobga olish borasida muammolarni va cheklovlarni mavjud emasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Prof. O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining likvidli aktivlari o'z ichiga kassadagi naqd pullarni, tijorat bankining Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining qoldig'ini, tijorat bankining boshqa banklardagi "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlarini va yo'ldagi pullarni oladi<sup>44</sup>.

O.I.Lavrushin tijorat banklarining likvidli aktivlari depozitlarning nobarqaror qismi bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonini berishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, har uchala shakldagi bank depozitlarining, ya'ni joriy depozitlar, jamg'arma depozitlari va muddatli depozitlarning barqaror qismi mavjud bo'lib, ular jami depozitlarning 75 foizidan kam bo'lmagan qismini tashkil etishi lozim. Likvidli aktivlar esa, jami depozitlarning 25 foizi miqdoridagi majburiyatlarni bajarishga etadigan miqdorda mavjud bo'lishi lozim.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va ularning sifatini oshirish

<sup>43</sup> Барлтрон К. и Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся рынках.-Всемирный банк, Вашингтон, 1993.-с. 53-54.

<sup>44</sup> Лаврушин О. Управление деятельностью коммерческого банка.-М.:ЮРИСТЪ, 2003 г.-с. 228

masalasining alohida nazariy va amaliy jihatlari O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Berdiyarov, U.Ro‘zuqulovlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, B.Berdiyarov o‘zining nomzodlik Bitiruv malakaviy ishida aktivlarning sifati ulardan olinadigan daromadlarning barqaror darajasini ta‘minlashda o‘z ifodasini topadi deb hisoblaydi<sup>45</sup>.

U.Ro‘zuqulov o‘zining «Анализ надёжности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости» mavzusidagi nomzodlik ishida aktivlar sifatining yomonlashishi ular bilan bog‘liq xarajatlarning o‘shishida va aktivlardan olinadigan daromadlarni pasayish tendensiyasining yuzaga kelishida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi<sup>46</sup>.

Umumiy holda, tijorat banklarining aktivlari o‘ziga xos belgilariga ko‘ra *likvidlik va tavakkalchilik darajasiga* qarab hamda *daromad keltirishiga* qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog‘i lozim.

Shu bilan birga aktivlarning likvidligi, daromadligi va risklilik darajasi tahlili faoliyat muvaffaqiyatining garovi hisoblandi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta‘minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o‘rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo‘lib qoladi.

Har qanday bank ham aktivlarining tarkibini samarali shakllantirishda ma‘lum bir muammolarga uchraydilar. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishiga, likvidligi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog‘i va aktivlarning o‘zgaruvchanlik sifatlariga bog‘liq.

**26-jadval**

**Bank tizimining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi ulushi<sup>47</sup>**

(mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2017 y.	01.01.2018 y.	Farqi
<b>YaIM</b>	199 325,1	249 136,4	49811,3
<b>Bank aktivlari, jami</b>	84 075,0	166 631,8	82556,8
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	42,2%	66,9%	24,7%

<sup>45</sup> Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disseratsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2002. – 19 b.

<sup>46</sup> Розукулов У.У. Анализ надёжности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.

<sup>47</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma‘lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2016 yilga nisbatan bank tizimining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi ulushi katta miqdorda o'zgargan. Bu albatta ijobiy holat hisoblanadi.

Shuningdek mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlarini rivojlantirishga ushbu tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asosni va erishilgan natijalarni misol qilib keltirish mumkin.

2017-yil yakuniga ko'ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2016-yilga nisbatan 61,2 foizga oshib, 58,7 trln. so'mni tashkil etdi.


## 27-jadval

### Bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari tahlili<sup>48</sup> (mlrd. so'm)

	01.01.2017 y.			01.01.2018 y.		
	Jami	<i>shundan:</i>		Jami	<i>shundan:</i>	
		Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar		Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar
<b>Aktivlarning majburiyatlarga nisbati</b>	<b>112,0%</b>	<b>111,3%</b>	<b>114,4%</b>	<b>114,2%</b>	<b>113,9%</b>	<b>115,3%</b>
Aktivlar	84 075	64 982	19 093	166 632	136 505	30 127
Majburiyatlar	75 094	58 409	16 685	145 956	119 833	26 122
<b>Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati</b>	<b>144,8%</b>	<b>183,4%</b>	<b>68,3%</b>	<b>188,5%</b>	<b>253,4%</b>	<b>63,7%</b>
Kreditlar	52 611	44 282	8 329	110 572	97 778	12 794
Depozitlar	36 341	24 149	12 192	58 668	38 589	20 079

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, barcha tijorat banklarning jami aktivlari majburiyatlariga nisbatan yuqori bo'lsa, shunga mos ravishda jami kreditlar depozitlarga nisbatan ham ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari davlat ulushi mavjud banklarimizning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Shu bilan birga, aholi daromadlarining barqaror o'sib borayotganligi, aholiga xizmat ko'rsatishning uslub va mexanizmlarining takomillashishi, omonatlarning ishonchli saqlanishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda aholi omonatlari to'liq qaytarilishining davlat tomonidan kafolatlanganligi tijorat banklari resurs bazasining muntazam ravishda oshib borishini ta'minlamoqda.

<sup>48</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari



**9-rasm. Tijorat banklarining aktivlari dinamikasi (mlrd.so'm)<sup>49</sup>**

Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 107,4 foizga oshib, 2018-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 166,6 trln. so'mga etdi. 2017-yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 82,6 trln. so'mga yoki 98,2 foizga (2016-yilda – 29 foiz) o'sib, 2018-yilning 1-yanvar holatiga 166,6 trln. so'mni tashkil etdi.

Jami aktivlar o'sishining 64 foizi yoki 52,8 trln. so'mi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi hisobiga ro'y berdi. Mazkur omillar ta'sirida banklar aktivlarining YaIMga nisbati 2017-yil yakuni bo'yicha 67 foizga (2016-yilda – 42,2 foiz) etdi.

Bank aktivlarini tahlil qilganda quyidagilarni aniqlash lozim:

- bank aktivlarining umumiy qoldig'i hisobot davrida qancha o'zgarganligini;
- aktivlarning tarkibini – bank mablag'lari asosan qaysi aktivlarga sarflanganini;
- bank aktivlari tarkibining hisobot davrida (tahlil qilinayotgan davrda) qanchalik o'zgarganligini va ularning o'zgarish sabablarini;
- bank aktivlarining likvidligini;
- bank aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlarini hamda ularning hisobot va o'tgan davrdagi tafovutlarini;
- bank aktivlaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni (ijobiy va salbiy) hamda foydalanish samadorligini oshirish yo'llarini.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlab tahlil qilib, bank aktivlaridan foydalanish samadorligini oshirish yo'llarini belgilash lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish,

<sup>49</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari



ilmiy xulosalarni shakllantirish aktivlarning amaldagi tarkibini ularning likvidligi, daromadligi va riskligi jihatidan baholashni taqozo etadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibiga baho beramiz. Bunda bank aktivlari tarkibida katta ulushga ega bo'lganlariga alohida e'tibor qaratish zarurdir.

**28-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi<sup>50</sup>, (foiz hisobida)**

AKTIVLAR		Yillar					
		2012	2013	2014	2015	2016	2017
1.	Naqd pullar va boshqa xil kassa hujjatlari	2,99	2,42	3,02	2,05	1,91	3,60
2.	O'zR MBdagi pul mablag'lari	16,69	14,42	11,51	15,38	14,88	10,37
3.	Boshqa banklardagi mablag'lar	17,99	16,31	13,46	11,43	11,55	13,95
4.	Qimmatli qog'ozlar, sof holda	0,10	0,14	0,08	0,09	0,07	0,07
5.	Investitsiyalar	2,44	2,49	2,29	1,73	1,57	0,80
6.	Qayta sotish sharti bilan sotib olingan qimmatli qog'ozlar	0,02	0	0	0,00	0,00	0,00
7.	Ssuda i lizing operatsiyalari, sof holda	50,28	56,22	61,20	59,58	61,64	64,82
8.	Moliyaviy instrumentlar bo'yicha mijozlarning majburiyatlari	1,55	1,11	1,88	3,17	1,78	2,14
9.	Asosiy vositalar, sof holda	3,28	3,07	3,08	2,60	2,55	1,83
10.	Hisoblangan foizlar bo'yicha mablag'lar	0,62	0,59	0,61	0,62	0,71	0,96
11.	Boshqa aktivlar	4,04	2,47	2,11	3,35	3,34	1,46
<b>Jami aktivlar</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012–2017 yillarda respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibida salmog'iga ko'ra kreditlar birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa, kreditlash banklar uchun asosiy faoliyat turi ekanligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibida ta'kidlab o'tganimizdek, ssuda va lizing operatsiyalari salmog'i katta bo'lib, 2012-yilda bu ko'rsatkich 50,28 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 56,22%, 2014-yilda 61,20 foizni, 2015-yilda 59,58 foizni hamda 2016-yilda esa 61,64 foizni, 2017-yilda esa 64,82 %ni tashkil etmoqda. Ushbu operatsiyalar miqdori 2012 yilga nisbatan 2017-yilda 14,54%ga o'sgan.

<sup>50</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiing ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Tahlilda birinchi navbatda bank aktivlarining umumiy summasi hisobot davrida qanchalik o'zgarganligini (ko'paygan yoki kamayganligini) aniqlash, undan keyin esa o'zgarish sabablarini aniqlash lozim.

## 29-jadval.

### «A» Bankning aktivlari holati va dinamikasi

(yil boshiga)

№	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Farqi		O'zgarishi %
		qoldig'i mln. so'm	ulushi %	qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	%	
1.	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari <sup>51</sup>	1728	3,89	1560	3,46	-168	-0,43	-9,7
2.	Bankning O'zRMB hisobvaraqlari	2037	4,59	2150	4,77	113	0,18	5,5
3.	Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga	593	1,33	593	1,31	0	-0,02	0
4.	Davlat obligatsiyalari	55	0,12	55	0,12	0	-0,01	0
5.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	342	0,77	320	0,71	-22	-0,06	-6,2
6.	Sotib olingan debitorlik qarzlari – faktoring	18	0,04	0	0	-18	-0,04	0
7.	Kreditlar	28895	65,05	28240	62,62	-655	-2,43	-2,3
8.	Lizing	2021	4,55	2860	6,34	839	1,79	41,5
9.	Asosiy vositalar	5059	11,39	5280	11,71	221	0,32	4,4
10.	Nomoddiy aktivlar	162	0,36	162	0,36	0	-0,01	0
11.	Boshqa aktivlar	3510	7,901	3880	8,603	370	0,70	10,5
	<b>JAMI:</b>	<b>44420</b>	<b>100</b>	<b>45100</b>	<b>100</b>	<b>680</b>	<b>0</b>	<b>1,5</b>

Bankning aktivlari holatini tahlil qiladigan bo'lsak, eng likvid sanalgan kassadagi naqd pullar yil davomida 1,7 mlrd so'mdan 1,6 mlrd so'mgacha kamaygan, ya'ni yil davomida kassadagi naqd pul qoldigi 168 mln so'mga kamaygan. Markaziy bankdagi mablag'lar esa aksincha o'sish sur'ati bo'lgan, natijada yil davomida 2,03 mlrd so'mdan 2,15 mlrd so'm (yoki 105,55%)ga oshgan, bu bankning likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bankning boshqa banklardagi pul mablag'lari o'zgarishsiz qolgan ammo uning aktivlardagi tutgan ulushi biroz kamaygan xolos, bu bankda boshqa banklar bilan pul mablag'larini oldi-sotdisi yil davomida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini ko'rish mumkin.

Daromad keltiruvchi aktivlarning faqat lizingdan tashqari barchasi kamayish tendensiyasini qayd qilgan. Jumladan, davlat obligatsiyalari bilan savdo hajmi yil davomida o'zgarishsiz qolgan, demak, yil davomida davlatning budget mablag'lari

<sup>51</sup> Qavsda balans hisobraqlar aks ettirilgan.

profisit bilan chiqqan hamda bank keyinchalik ham foyda olish maqsadida bu aktivlarni sotmagan. Faktoring operatsiyalarini tahlilni ko'radigan bo'lsak, bank yil boshida 18 mln so'm miqdorida debitorlik qarzlarni sotib olgan, yil davomida bu miqdor o'smagan, fikrimizcha bank xodimlari sotib olingan debitorlik qarzini yil davomida undirishga qiynalgan, shuning uchun yil oxiriga kelib bu aktivdan zo'rg'a qutilgan va yil oxiriga hech qanday vositachilik mablag'larisiz yopgan. Kredit operatsiyalari bo'yicha ham shu holat ya'ni yil davomida kredit hajmi 28,9 mlrd so'mdan 28,6 mlrd so'mga kamaygan, kredit operatsiyalarning kamayishi bankning to'lovga qodirligi hamda likvidlik masalalariga ehtiyotkorlik bilan yondoshganligidan bilish mumkin. Lizing operatsiyalari esa aksincha, yil davomida o'sish sur'atlarini tashkil qilgan. Yil boshida 2 mlrd so'm miqdorda lizing operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 2,8 mlrd so'mni tashkil qildi, ya'ni o'sish sur'atlari deyarli 1,5 marta yoki 839 mln so'm bo'lgan. Demak, korxonada yil davomida daromad keltiruvchi aktivlardan lizing operatsiyalarini riski pastroq va ko'proq daromad olish manbasi sifatida ko'rgan.

Umuman olganda, bank aktivlari yil boshida 44,4 mlrd so'm bo'lib, yil oxiriga borib bu 45,1 mlrd. so'mni tashkil qilgani holda 101,5 %ga o'sgan. Bunga salmoqli ta'sir qilgan lizing operatsiyalari (839 mln. so'm), boshqa aktivlar (370 mln so'm), asosiy vositalar (221 mln. so'm) va Markaziy bankdan olish kerak bo'lgan pul mablag'lari o'sishini (113 mln so'm) keltirish mumkin. Kassadagi naqd pullar (-168 mln. so'm) hamda kredit operatsiyalari (-655 mln. so'm) jami aktivlarning miqdorini o'sishiga salbiy ta'sir o'tkazgan. Eng asosiysi, bank mutloq likvid mablag'lar hamda eng ko'p daromad keltiruvchi aktivlarning keskin kamayishi bankni daromadligini pasaytirgan, ammo likvidligini saqlab qolishiga harakat qilgan, demak, yil davomida bank qandaydir yo'qotish yoki zararlarni qoplash bilan shug'ullangan, ikkinchi holda esa bank noto'g'ri strategiya tanlovi asosida harakat qilgan.

Bank aktivlarining holati uning faoliyati davomida o'zgarib turadi. Bank aktivlarining holati ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Bank aktivlarining qanday o'zgarishi aktivlarni boshqarishga va to'g'ri yo'naltirishga bog'liq. Shuning uchun ham bank aktivlarining holatini muntazam ravishda o'rganib, ularning o'zgarishini tahlil qilib borish lozim.

Bank aktivlari miqdorining tarkibi va dinamikasini o'rgangan holda, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlar belgilanmog'i lozim.

Markaziy bankning «Tijorat banklarida aktivlarni sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga to'g'risida»gi nizomda quyidagilar ifodalangan. Mazkur Tartibga muvofiq barcha tijorat banklari o'z aktivlarini tasniflash hamda

shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yetarli bo'lgan zaxirani tashkil etishi shart.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, ushbu tizim orqali boshqa bank aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik riski mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

1. Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra "*standart*", "*substandart*", "*qoniqarsiz*", "*shubhali*" va "*umidsiz*" toifalarga tasniflanadi.

1. "Standart" aktivlar. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatbardoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsuloti bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi. Ta'minot "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi. Ta'minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo'lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-mulkiga doir huquqlari to'g'risidagi yozuv garov reestrada aks ettirilishi lozim. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovlarsiz va erkin ravishda uni ta'minot hisobidan undirib olishga haqli. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.

2. Sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. Bunda asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o'tgan yoki shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o'tgan va shartlari qayta ko'rilgan aktivlar sifati "standart" deb tasniflanishi mumkin emas.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan sof foyda hisobidan, hisobot sanasiga sifati "standart" deb tasniflangan aktivlar qoldig'idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy

holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo'lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki qarzdorning aktivni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar sifati "substandart" deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lgan, kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmagan "standart" deb tasniflangan aktivlarning sifati ham "substandart" deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifati "substandart" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

3. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati "qoniqarsiz" deb tasniflanadi:

- asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli bo'lmasa, ta'minotga qo'yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topish talab etiladigan bo'lsa;

- qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa;

- qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo'lmasa;

- ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollar barqaror bo'lmasa;

- ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa;

- asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa.

Tijorat banki sifati "qoniqarsiz" deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Sifati "qoniqarsiz" deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo'yadigan aktivlar sifati "shubhali" deb tasniflanadi. Bunda yo'qotishlar ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha "umidsiz" deb tasniflanmaydi.

4. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati "shubhali" deb tasniflanadi:

- "qoniqarsiz" aktivlarning hech bo'lmaganda birorta ko'rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

- yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzдорlik mavjud bo‘lsa.

Tijorat banki sifati “shubhali” deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

5. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati “umidsiz” deb tasniflanadi:

- aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo‘lsa;
- qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo‘yilgan mol–mulkka bo‘lgan huquqlardan foydalanish yo‘li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo‘yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo‘lsa;
- aktivlarning to‘lash muddati uzaytirilgan bo‘lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

Tijorat banki sifati “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agar tijorat bankida bitta qarzdorga berilgan bir necha aktivlar mavjud bo‘lsa, qarzdor tomonidan tijorat bankiga qaytariladigan barcha aktivlar sifati ulardan eng past toifada tasniflangan aktivlar sifatidek tasniflanishi lozim.

### 30 -jadval

#### Kreditlarning sifati bo‘yicha shakllantirilishi lozim bo‘lgan zaxiralar me‘yori <sup>16</sup>

№	Kreditlarning sifati bo‘yicha Sinflari	Ehtimoliy yo‘qotishlar bo‘yicha zaxiralar ajratish me‘yori
1	Standart	1%
2	Substandart	10%
3	Qoniqarsiz	25%
4	Shubhali	50%
5	Umidsiz	100%

Agar qarzdorning bir nechta tijorat banklari oldida qarzi mavjud bo‘lib, ularning birida qaytarilishi lozim bo‘lgan aktivlar sifati eng past toifada

<sup>16</sup> “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 2015 yil 13 iyundagi 14/3-sonli qarori

tasniflangan bo'lsa, boshqa tijorat banklari ham ushbu qarzdorga berilgan aktivlar sifatini mazkur toifada tasniflashlari shart. Bunda tijorat banklari qarzdorga boshqa tijorat banklari tomonidan berilgan aktivlar sifatining tasnifini aniqlash uchun kredit axboroti ma'lumotlar bazasidan foydalanishlari lozim.

**31-jadval**

**CHEKI Hamkorbank ATBning aktivlari sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (31 dekabr holatiga)<sup>52</sup>**

Yillar	Yaxshi	Standart	Substandart	Qoniqarsiz	Shubxali	Umidsiz
2011	87,18	8,48	1,13	x	2,2	1,01
2012	86,83	9,63	1,59	x	1,29	0,66
2013	80,07	15,71	1,31	x	2,75	0,16
2014	82,33	16,46	0,83	x	0,35	0,03
2015	X	86,57	9,01	3,72	0,66	0,04
2016	X	86,71	12,59	0,37	0,23	0,11

CHEKI Hamkorbank ATBning aktivlari tarkibida standart aktivlar katta ulushga ega. Bankda shubhali va umidsiz aktivlarning turli xildagi o'zgarish dinamikasini ko'radigan bo'lsak, ular 2011–2016 yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilganligini ko'rish mumkin bo'ladi. Bankda 2016-yilda shubhali aktivlar 0,23 %ni tashkil etgan bo'lsa, umidsiz aktivlar 0,11 %ga teng bo'lgan. Bu ijobiy holat bo'lib, bankning aktiv opeartsiyalari samaradorligidan dalolat beradi.

**2. Bank aktivlarining daromadliligi tahlili**

Bank faoliyatining asosiy pirovard maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iboratdir. Shu nuqtai-nazardan olganda, bank aktivlarining daromadliligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank aktivlari faoliyat natijasida daromad keltirishiga qarab; daromad keltiradigan aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

*Daromad keltirishga* qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

*Daromad keltiruvchi aktivlar:*

- daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi.

- daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga


<sup>52</sup> CHEKI Hamkorbank ATB hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ko‘proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustaqilligiga bog‘liqdir. Bankning daromadi asosan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi, kredit qo‘yilmalari hajmi va bank likvidligiga bog‘liq.

•tjorat banki aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga berilgan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi.

*Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:*

1. Qisqa va uzoq muddatli ssudalar (aholiga, mijozlarga, boshqa banklarga);
2. Muddati o‘tib ketgan ssudalar bo‘yicha qarzlilar va foizlar;
3. Faktoring, lizing, forfeyteng, trast operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
4. Qimmatli qog‘ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
5. Berilgan kafolat va topshiriqnomalar keltiradigan daromadlar.



**10-rasm. Tijorat banklari daromad keltiruvchi aktivlari va ularni tahlil qilish yo‘nalishlari<sup>53</sup>**

<sup>53</sup> Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.: ЮРИСТЪ, 2013,-С.228



10-rasmdan ko‘rinib turibdiki tijorat banklari daromad keltiruvchi aktivlarini o‘rganishning muhim usuli joylashtirilgan aktiv operatsiyalari bo‘yicha mablag‘larni tasniflanganligini o‘rganib borishdir.

Fikrimizcha, tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlarni daromadlilikini samarasini baholash va tahlil qilish uchun quyidagi hisob-kitoblardan foydalanishni tavsiya etamiz<sup>54</sup>

1) Kredit tavakkalchiligini hisobga olgan holdagi sof foiz marjasi;

$$\mathbf{Sfm}_{kt} = \frac{F_d - F_x - K_y}{K} \quad (7)$$

bu erda,

$\mathbf{Sfm}_{kt}$  – kredit tavakkalchiligini hisobga olgan holdagi sof foiz marjasi;

$F_d$  – foiz daromadlari;

$F_x$  – foiz xarajatlari;

$K_y$  – kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlar;

$K$  – jami kredit qo‘yilmalari.

2) Kredit qo‘yilmalarining daromadlilik darajasi

$$\mathbf{K}_d = \frac{F_d}{K_k} * 100\% \quad (8)$$

Bu erda,

$K_d$  – Kredit qo‘yilmalarining daromadlilik darajasi;

$K_k$  – berilgan kreditlar hajmi.

#### *Daromad keltirmaydigan aktivlar*

• bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog‘ yuqori bo‘lishi bankning resurslar bazasida samarasiz aktivlarni mavjudligini izohlaydi va likvidlik darajasiga ta‘sir qiladi.

• bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalarini iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda aktivlarni tarkibini o‘zgartirib turish kerakligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Agar tijorat banklari o‘zlarining balanslari tarkibini o‘zgartirmasa, bu so‘zsiz yangi inqirozga olib keladi.


Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilar kiradi:

- 1) pul aktivlari guruh;
- 2) asosiy vositalar;
- 3) kapital xarajatlar;
- 4) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar;

---

<sup>54</sup>Платонова В., Хиггинса М. Банковское дело: стратегическое руководство. 2-е изд. – М. : “Консалтбанкир”, 2001. -432с.

5) nomoddiy aktivlar kiradi.



**11-rasm. Tijorat banklari daromad keltirmaydigan aktivlari va ularni tahlil qilish yo'nalishlari<sup>55</sup>**

Daromad keltirmaydigan aktivlar tarkibida asosiy vositalar salmoqli o'rin egallaydi. Tahlillarning ko'rsatishicha, ko'pgina banklar balansida boshqa aktivlar miqdori hisobot davri oxirida yillik summani tashkil etib kelmoqda.

Bu holat esa o'z navbatida bankning debitorlik qarzlarini oshishiga,

<sup>55</sup> Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.: ЮРИСТЪ, 2013,-С.228

shuningdek, bankda daromad keltirmaydigan aktivlar ulushini ortishiga olib kelmoqda.

Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni kreditlar, ikkinchi o'rinni kassali aktivlar, uchinchi o'rinni asosiy vositalar, so'nggi, to'rtinchi o'rinni esa, qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, kreditlardan keyingi ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi, kassali aktivlar esa, aktivlarning tarkibida uchinchi o'rinda turadi.

2 guruh aktivlariga bank faoliyatida katta e'tibor berilishi lozim. Chunki bu guruhda aktivlarni sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich – daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari – mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Muddati o'tgan aktivlarning salmog'i umumiy aktivlar hajmidan 3 foizdan oshmasligi lozim. Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlar qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida jalb qilingan mablag'lar ham mavjud. Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i qancha ko'p bo'lsa, bu holat bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion institut sifatida faol ishtirok etadilar. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida broker va diller sifatida ishtirok etadilar. Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar sifatida o'zin namoyon eta oladilar.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kompaniya aktivlarining 40-80 % bank kapitali hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari o'z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo'shimcha daromad olish va balansining likvidligini

ta'minlash maqsadida DQMO dan keng foydalanadilar. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromad kafolatlangan va ular yuqori likvidlilikka egadir.

Daromad keltirmaydigan aktivlar guruhiga kassa, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ini yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasida samarasiz likvidlilik darajasini ko'rsatadi.

Bankda daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalari iqtisodiy sharoitga bog'liq holda ularning tarkibini o'zgartirib turish kerakligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyatsiz aktivlarning ko'pgina qismi faoliyat qilayotgan aktivlarning elementlariga aylanadi, ko'pincha bu valyuta va harakatsiz aktivlarga tegishlidir.

Agar tijorat banklar o'zlarining balanslari tarkibi o'zgartirmasa, bu bank faoliyatida muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklar ichida kredit operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklar asosiy o'rinni egallaydi. Bu aktiv operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu tavakkalchiliklarga berilgan kreditlar, hamda to'lov muddati kechiktirilgan ssudalar bo'yicha tavakkalchiliklar kiradi.

Kredit tavakkalchiligi nafaqat kredit obyektiga, balki kredit subyektiga yangicha yondashishi orqali ham o'sib boradi. Bu tavakkalchilik to'g'ri mijozning moliyaviy ahvoli og'irlashganda, ularning faoliyatida ko'zda tutilmagan qiyinchilik va muammolar yuzaga kelganda, bozorda noqulay sharoit yuzaga kelgani sababli paydo bo'lishi mumkin.

Bu masalani aktivlarni to'g'ri diversifikatsiya qilish yo'li bilan hal qilish mumkin. Chunki ba'zi bir aktivlar bo'yicha ular qiymatini pasayishi boshqa aktivlar qiymatini o'sishi bilan qoplanishi va natijada bank aktivlarining umumiy qiymatlarini saqlab qolishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bank aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob– kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi.

Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potentsialini mustahkamlash uning mustahkamligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidligiga bog'liq.

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit obyektini bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki bankning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida kreditlardan tashqari, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasiga jalb qilingan mablag'lari ham mavjud. Albatta ushbu aktivlarning ham tarkibini o'rganib chiqish muhimdir. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich bu daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Bankning daromad keltiruvchi asosiy aktivlari bu mijozlarga berilgan kreditlardir. Bankning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi bu davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga yo'naltirilgan aktivlardir. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Bankning aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash muhim ahamiyat kasb etadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir.

Foizli daromad manbai kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish kerak.

Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirish kerak.

Bankning faoliyatida aktivlarning tutgan rolini yana ham mukammalroq o'rganish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash muhimdir:

- tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va banklarga berilgan kreditlar bo'yicha umumiy kredit qoldig'ini hisoblash;
- berilgan kreditlarni ularning muddatlari, tarmoqlarga berilishi va ularning umumiy qarzdagi salmog'i bo'yicha hisoblash;
- ssudalarning o'rtacha foiz stavkalarini hisoblash;
- umumiy ssudalarning ichida muddati o'tgan qarzlarning salmog'i bo'yicha hisoblash.
- bank tomonidan berilgan eng katta kreditlarning hajmini hisoblash;
- berilgan turli darajadagi kreditlarning Markaziy bank yo'riqnomalariga javob berishini hisoblash;
- bulardan tashqari quyidagi koeffitsientlar ham borki, bularni ham hisoblash foydadan holi bo'lmaydi:

- aktivlardan foydalanish samaradorligi;

32-jadval.

«A» bankning daromad keltiruvchi aktivlari tarkibi va dinamikasi

(yil boshiga)

№	Daromad keltiruvchi aktivlar	O'tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Farqi		O'zgarishi %
		qoldig'i mln. so'm	ulushi %	qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	ulushi %	
1.	Davlat obligatsiyalari	55	0,17	55	0,13	0	-0,05	0
2.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	342	1,09	320	0,75	-22	-0,34	-6,4
3.	Sotib olingan debitorlik qarzlari-faktoring	18	0,06	0	0	-18	-0,06	0
4.	Kreditlar- jami:	28895	91,93	20860	48,94	-8035	-42,99	-27,8
	shu jumladan: daromad hisoblanishi to'xtatilgan muommoli kreditlar;	102	0,32	510	1,19	408	0,87	400
	Daromad keltiruvchi kreditlar	28 793	91.6	20 350	47.7	-8 443	-43.9	29,3
5.	Lizing	2021	6,43	20880	48,99	18859	42,56	933,2
	<b>Jami:</b>	31433	100	42625	100	11192	0	35,6

«A» bankning o'tgan yil boshidagi holatiga daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi;

***DKAO'S/JAO'S***

Bu koeffitsient aktivlarning qancha bo'lagi foyda keltirishini ko'rsatadi.

Bu erda:

**DKAO'S**—daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha summasi

**JAO'S**—jami aktivlarning o'rtacha summasi

$$(DKAO'S/JAO'S)_{o'y} = (31229/44420) * 100 = 70,3\%$$

$$(DKAO'S/JAO'S)_{h,y} = (31365/45100) * 100 = 69,5\%$$

Daromad keltiruvchi aktivlarning bank aktivlardagi ulushi yil davomida 0,8 foizgi kamaygan.

Bankning daromad keltiruvchi aktivlardan past daromad keltiruvchi lekin nisbatan past riskga ega bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yil davomida o'zgarmagan. Yil boshida 55 mln so'm so'm qoldig'i bo'lib, yil oxiriga kelib bu qiymat o'zgarmagan. Biroq aktivlarning ulushidagi qiymati 0.05 %ga kamaygan.

Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hajmi esa yil boshidagi 342 mln. so'mdan yil oxiriga borib 22 mln. so'mga kamayib 320 mln. so'mni tashkil

qilgan, buni ikki holat bilan izohlasa bo‘ladi, birinchidan bank yil davomida yo‘lantirilgan investitsiyalarni miqdorini qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni kamaytirish hisobiga kamaytirgan yoki ikkinchidan, qimmatli qog‘ozlarga yo‘lantirish kerak bo‘lgan mablag‘larni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yoki likvidligini ta‘minlash maqsadida vaqtincha saqlab turish hisobiga kamaygan bo‘lishi mumkin.

Sotib olingan debitorlik qarzlari ham yil davomida 18 mln. so‘mdan umuman yo‘qotilgan. Demak, yil davomida bank tomonidan o‘tgan yil qoldig‘i asosida qolgan mablag‘larni undirish bilan shug‘ullangan, ehtimol bank undirish vaqtida kechgan qiyinchiliklarni undan kelgusida kelishi mumkin bo‘lgan daromadga almashtirmagan, demak bank yil davomida debitorlik qarzlarni sotib olmagan.

Bank tomonidan yil boshida berilgan kreditlar qoldig‘i 28,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, o‘sha holatga nisbatan 102 mln so‘m (berilgan kreditlarning 0,4 %) ni muammoli kreditlar bo‘lgan, yil oxiriga kelib berilgan kreditlar miqdori 8 mlrd so‘mga kamaygani holda 20,8 mlrd so‘mni tashkil qilgan, ammo bankning muammoli kreditlari miqdori 510 mln so‘m (yil oxiridagi berilgan kreditlarning 2,4 %) bo‘lgan yoki 5 marta oshgan. Yil boshida daromad keltirayotgan kreditlar jami daromad keltirayotgan aktivlarning 91,6 % ini tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 43,9 %ga kamaygani holda 49,5 ni tashkil qildi, demak, bankning yil boshida daromad keltirayotgan kreditlari yil davomida o‘tkazilgan kredit monitoringi natijasida kreditlarning sifat ko‘rsatkichlari pasaytirilgan, bu yil boshida daromad keltirayotgan kreditlarning keyinchalik daromad keltirmasligi, foiz to‘lovlari to‘lanmayotgandan muammoli kreditlar ko‘paygan bo‘lishi mumkin. Bu salbiy holatdir, bank yil davomida muammoli kreditlari ko‘payotganligi sababli kredit berishni kamaytirgan bo‘lishi mumkin.

Bankning o‘tgan yil davomida aktivlardan olingan daromadlaridan eng salmoqlisi lizing operatsiyalaridan olingan daromad bo‘lgan. Yil boshida lizing operatsiyalari 2 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, yil davomida 10 marta (yoki 18,9 mlrd so‘mga) ko‘payib 20,1 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Ko‘rinib turibdiki lizing operatsiyalaridan olingan daromad barqaror bo‘lganligi sababli bank lizing operatsiyalarini eng asosiy daromad keltiruvchi aktivlar sifatida qaragan.

Bank yil boshida daromad keltiruvchi aktivlarining 91,6 % ini kredit operatsiyalari tashkil qilgan. Ammo yil davomida bank daromad keltiruvchi aktivlarini difersifikatsiya qilgani holda kredit operatsiyalarining ulushini 91,6 %dan 47,7 %ga kamaygan bo‘lsa, buning hisobiga lizing operatsiyalari yil boshida 6,43 %dan yil oxirigacha 48,99 % ga oshgan.

Hisobot yilida bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlarining miqdori, asosan lizing operatsiyalarining rivojlanishi hisobiga to‘g‘ri keladi. Bank

kelgusi davrda kredit operatsiyalari sifatini oshirishga va investitsion operatsiyalarini rivojlantirishga qaratish lozim.

### **3. Bank aktivlari risklilik darajasi tahlili**

Aktiv operatsiyalar uchun risk darajasi muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki ko'pgina banklar katta foyda izidan quvib, likvidlilikni esdan chiqaradi. Bu yo'nalishda ularga o'z mijozlarining moliyaviy holatini chuqur o'rganish va to'lovga qobiliyatlilik darajasini tahlil qilishni tavsiya qilish mumkin.

Bank risklari aktivlarning qiymatini oshishi yoki pasayishiga sabab bo'ladi. Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan aktivlarni riskka tortish tizimi Xalqaro standartlar sifatida qabul qilingan. Aktivlarning shkalasi bo'yicha riskka tortishda ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Risksiz, ya'ni risk darajasi nolga teng bo'lgan aktivlar. Bunday aktivlarga kassadagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob varag'idagi mablag'lar, hukumatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari, Markaziy bankka qayta hisobga olinadigan trattalar kiradi.

2. Risk darajasi 10 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlarga hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalar kiradi.

Ushbu qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lov summasi kafolatlangan. Lekin uzoq muddatli davr mobaynida qimmatli qog'ozlar bozorida kurs oshishi mumkin. Bunday sharoitda hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarining daromadlilik darajasi pasayadi.

3. Risk darajasi 20 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga bankning boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobvarig'ining qoldig'i, inkassasiya jarayoniga qo'yilgan pul mablag'lari kiradi.

4. Risk darajasi 50 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunga ipoteka bilan ta'minlangan ssudalar, boshqa bankning qimmatli qog'ozlari kiradi. Bularga 50 % risk darajasini berilishiga sabab, banklar boshqa tijorat strukturalariga nisbatan yuqori likvidlik va to'lovga qobillikka ega bo'lgan muassasalar hisoblanadi. Shu sababli ularga korxon va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlariga qaraganda past risk beriladi.

5. Risk darajasi 100 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga korxon va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari, mijozlarga berilgan ssudalar, bankning asosiy vositalari kabi aktivlar kiradi.

Mijozlarga berilgan ssudalarga 2 xil risk uchraydi: a) kreditni qaytmaslik riski; b) foiz riski.

Bank aktivlarining barchasi riskga moildir. Ushbu risklarni aniqlash va mavjud bank to'g'risidagi qonunchiligidan hamda har bir bankning o'zining olib



borayotgan siyosatidan kelib chiqib ushbu risklarni me'yorida saqlashni ta'minlash kerak. Bank aktivlarining tarkibini o'rganib olinadigan natijaga qarab turli xil risklarni tahlil qilish mumkin. Foiz riskini aktivlarning tuzilishiga qarab, daromadlilikiga qarab aniqlash mumkin. Ammo bank ishida asosiy risk bu aniq operatsiyalar bo'yicha mablag'larni yo'qotishdir. Shuning uchun ham ushbu risklarni kamaytirish uchun aktivlarning tuzilishini chuqur o'rganishga to'g'ri keladi.

Bank aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog'liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risklarni chegaralashga yo'naltirilgan. Shuning uchun aktivlarni boshqarishning moliyaviy jihatdan asosiy maqsadi:

- uning daromadini oshirish;
- faoliyatidagi risklarni pasaytirish;

Shuningdek, uzoq muddatli strategik rejalashtirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bank aktivlarini tahlil qilish uchun muammoli kreditlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur. Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko'rish hollariga mo'ljallangan zaxiralar yetarliligini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar, naqd pullar va vakillik hisobvaraqlari, ssuda va boshqa aktivlar holatiga e'tibor qaratiladi.

Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risk darajasi, likvidlilik nuqtai-nazaridan amalga oshirilishi kerak.

Bank taraqqiyoti manbalaridan ma'lumki, bank aktivlari daromadlilik va likvidlilik bir-biriga qarama-qarshidir. Likvidlilik va uning daromadlilik o'rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu mezonning ustunligini hisobga olish natijasi ko'rsatilgan qarama-qarshilikni muvofiqlashtirishga va bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishga erishishga olib keladi.

Bank aktivlari tavakkalchilik darajasi bo'yicha tavakkalchilikdan xolis bo'lgan (tavakkalchilik darajasi 0 foiz), minimal tavakkalchilik darajasiga ega (tavakkalchilik darajasi 20 foiz), o'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega (tavakkalchilik darajasi 50 foiz), yuqori tavakkalchilik darajasiga ega (tavakkalchilik darajasi 100 foiz) va o'ta yuqori tavakkalchilik darajasiga ega (tavakkalchilik darajasi 150 foiz) bo'lgan guruhlariga bo'linadi.

Tijorat banklarining aktivlari tavakkalchilik darajasiga ko'ra guruhlanishi<sup>56</sup>

№	Aktivlar guruhlanishi	Tavakkalchilik darajasi
1	Tavakkalchilikdan xolis bo'lgan aktivlar	0 %
2	Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar	20%
3	O'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar	50%
4	Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar	100%
5	O'ta yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar	150%

Aktivning tavakkalchilik darajasi o'z zimmasiga majburiyatlarni qabul qilgan shaxs va garov yoki kafolat tavsifiga bog'liq. Masalan, naqd pul 0 foizli tavakkalchilik darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100 foizli tavakkalchilikli toifasiga kiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalning muayyan summasi bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerakligini anglatadi. Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi har bir aktiv balans summasini unga tegishli tavakkalchilik miqdoriga ko'paytirish va tavakkalchilik bo'yicha aniqlangan aktivlar yig'indisi orqali topiladi. quyida bank aktivlari toifalarining ta'rifi keltirilgan.

*Tavakkalchilikdan xolis bo'lgan* (tavakkalchilik darajasi 0 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bankda va uning filiallarida naqd pul ko'rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quymalar);

b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning vakillik va zaxira hisobvaraqlaridagi mablag'lar;

v) O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

g) tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklariga qo'yiladigan boshqa majburiyatlar;

d) nomoddiy aktivlar, shuningdek birlashmagan korxonalar kapitaliga investitsiyalar.

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3–son qarori "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

*Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar* (tavakkalchilik darajasi 20%) quyidagilardan iborat:

a) mamlakatlar banklariga qo'yilgan barcha talablar, shu jumladan, qarzlilar va pul bozori vositalari;

b) tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ro'yxatga olingan banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan boshqa barcha aktivlar;

v) bankning Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

g) joriy bozor qiymatida baholangan va xalqaro moliya institutlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari;

d) bankning tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarga kirmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, ushbu mamlakatlar Hukumatlari va Markaziy banklariga nisbatan talablari;

e) joriy bozor qiymatida baholangan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlar Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar.

Qimmatli qog'ozlar bank tasarrufida bo'lishi va belgilangan tartibga muvofiq unga berilishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri va hech qanday shartlarsiz, ya'ni ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarni o'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak;

z) o'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (jumladan, yo'ldagi naqd pullar).

*O'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar* (tavakkalchilik darajasi 50 foiz) o'z ichiga jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabgi garov (garov predmetiga egalik qilishning imtiyozli huquqi) sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy bilan ta'minlangan kreditlarni oladi. Bunda kredit miqdorining garov qiymatiga nisbati 60 foizdan oshmasligi kerak.

*Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar* (tavakkalchilik darajasi 100 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, bunda, jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilgan kreditlar bundan mustasno;

b) bankning asosiy vositalari va boshqa xususiy mulklari;

- v) «o‘stirmaslik» maqomi berilgan yoki restrukturizatsiya qilingan kreditlar;
- g) tavakkalchilik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarning depozitar institutlarining kapitali bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar;
- d) milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar;
- e) boshqa barcha aktivlar.

O‘ta yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik darajasi 150 foiz) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) sud jarayonidagi aktivlar va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;
- b) qarzini to‘liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko‘chmas mulk;
- v) ikki yildan ko‘p bo‘lgan muddatda foydalanilmayotgan bankning ko‘chmas mulklari;
- g) shartlari qayta ko‘rib chiqilgan yoki muddati bir marotabadan ortiq uzaytirilgan kreditlar.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezonini bo‘lib tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati maydonga chiqmoqda va shunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholar turkumiga ega.

1. reyting (kuchli). Agar tortilgan aktivlarning aksiyador kapitaliga nisbati 5 foizdan oshmasa, ba’zi hollarda bu nisbat 5 foizlik chegaradan ozroq oshsa ham, agar bankning iqtisodiy sharoiti baquvvat bo‘lsa va boshqaruv organlari o‘zlarining muammoli kreditlar bilan ishlashda bilimdonligini ko‘rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida keltirish mumkin.

2. reyting (qoniqarli). Rezervning o‘rtacha tortilgan miqdori jami kapitalga nisbatan 15 % dan yuqori bo‘lmasligi lozim. Bu holda ham ssudalar bo‘yicha muammolar bo‘lmasa, bankning kredit siyosati talab darajasida olib borilsa shu guruhga kiritish mumkin.

3. reyting (o‘rtacha). Tortilgan aktivlar jami kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak

4. reyting (muammoli). Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

5. reyting (qoniqarsiz). Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo‘llaniladi.

Ushbu ko‘rsatkichlar bankning kredit siyosatining mohiyatini ko‘rsatib, bankning aktivlarining maqsadga muvofiq tuzilishini ko‘rsatadi, ularning risklilik darajasini va bankning likvidligiga, daromadlilikiga, rentabelligiga ta’sirini ko‘rsatadi.

## «A» Bankning riskli aktivlari

(yil boshiga)

№	Ko'rsatkichlari	Risk darajasi %	O'tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Riskka tortilgan aktivlarning o'zgarishi mln. so'm
			qol-dig'i mln. so'm	riskka tortilgan aktivlar, mln.so'm	qol-dig'i mln. so'm	riskka tortilgan aktivlar, mln.so'm	
1.	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari (10100) <sup>57</sup>	0	1728	0	1560	0	0
2.	Bankning O'zRMB hisobvaraqlari (10300)	0	2037	0	2150	0	0
3.	Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (10500)	20	593	118,6	593	118,6	0
4.	Davlat obligatsiyalari (10700)	10	55	5,5	55	5,5	0
5.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar (10800)	50	342	171	320	160	-11
6.	Sotib olingan debitorlik qarzlari – faktoring (11100)	100	18	18	0	0	18
7.	Kreditlar	100	28895	28895	28240	28240	-655
8.	Lizing (15600)	100	2021	2021	2860	2860	839
9.	Asosiy vositalar (16500)	100	5059	5059	5280	5280	221
10.	Nomoddiy aktivlar (16600)	100	162	162	162	162	0
11.	Boshqa aktivlar (19900)	100	3510	3510	3880	3880	370
	<b>JAMI:</b>	<b>x</b>	<b>44420</b>	<b>39960,1</b>	<b>45100</b>	<b>40706,1</b>	<b>746</b>

$$RAO=39960,1/44420*100=89,1\%$$

$$RAO=40706,1/45100*100=90,3\%$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tijorat bankining hisobot yilida riskka tortilgan aktivlar o'tgan yilga nisbatan 476 mln.so'mga ortgan. Bu o'sish tijorat bankining lizing operatsiyalari 839 mln.so'm va boshqa aktivlar 370 mln.so'm oshishi hisobiga ro'y bergan. Chunki bu aktivlar 100% riskka tortiladigan aktivlarga mansubdir.

Tijorat bankida riskka tortilgan aktivlar summasining jami aktivlardagi ulushi, o'tgan yilda 89,4%ni, joriy yilda 90,3%ni tashkil etadi.

<sup>57</sup> Qavsda balans hisobraqlar aks ettirilgan.

Aktivlarni risklilik darajasini inobatga olgan holda amalga oshirilgan tahlil, aktivlar tarkibini boshqarish imkoniyatini beradi, bu esa o'z navbatida bank likvidliligi va to'lovga qobiliyatini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

#### **4. Bank aktivlari likvidliligini tahlili**

Bank likvidliligini saqlash g'oyat muhim hisoblanadi. Bu narsa ikki maqsadga erishish uchun zarurdir: birinchidan, omonatlar olib qo'yilganda bankning o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ta'minlash uchun, ikkinchidan, kreditlarga bo'lgan talabni qondirish uchun.

Likvidlilik deganda – bankning o'z majburiyatlari yuzasidan o'z vaqtida javob bera olish qobiliyati tushuniladi. Likvidlilik bankning kundalik faoliyatida pul mablag'lari mavjudligi yoki o'z aktivlarini likvid mablag'larga aylantira olish qobiliyati bilan ta'minlanadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga:

- yuqori likvidli aktivlar;
- likvidli aktivlar;
- nolikvid (past likvidli) aktivlarga bo'linadi.

1. Yuqori likvidli aktivlar – bu moliyaviy aktivlar, bir necha kun ichida oladigan yoki tezda realizatsiya qilib pul mablag'lariga aylanadigan aktivlar tushiniladi. Bularga kassadagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi korrschyotdagi mablag'lar hamda yyetakchi rivojlangan banklarda vakillik hisobvaraqdagi mablag'lar.

2. Likvidli aktivlar – bunga o'rtacha darajadagi likvid aktivlar kiradi. Bularga – 30 kun ichida realizatsiya qilinadigan va pulga aylanadigan aktivlar kiradi. Qisqa muddatli aktivlarga tez sotiladigan veksellar va boshqa qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar, hukumatning qimmatli qog'ozlari kiradi.

3. Past likvidli aktivlarga – qiyinchilik bilan pulga aylanadigan aktivlar kiradi, bular: uzoq muddatli kreditlar, investitsiyalar, qiyin sotiladigan bino va inshoatlar hamda muddati o'tgan qarzlari kiradi.

1 guruh – yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

a) kassadagi va yo'ldagi naqd pullar, qimmatli toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;

b) vakillik hisobvarag'idagi mablag' qoldiqlari;

v) «Nostro» va «Vostro» schetlardagi qoldiqlar;

g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar qoldig'i;

d) qimmatli qog'ozlar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, O'zR MB ning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

2 guruh – likvid aktivlar. Bularga:

a) berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);

b) o‘z investitsiyalari;

v) boshqa qimmatli qog‘ozlar, muddati 30 kungacha bo‘lgan debitorlar;

3 guruh – nolikvid (past likvidli) aktivlar. Bularga:

a) muddati o‘tgan ssudalar;

b) muddati o‘tgan foizlar;

v) sud aralashuvi bilan o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan ssudalar;

g) tugallanmagan ishlab chiqarish;

d) asosiy vositalar kiradi.

Bank doimiy tarzda o‘zining likvidliligini ma’lum bir darajada saqlashi kerak, ya’ni o‘zining to‘lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Likvidlilikka bo‘lgan talab aktivlardan keladigan daromadni oshirish faoliyatiga ma’lum darajada qarshi turadi. Bankning aktivlari qanchalik darajada likvidli bo‘lsa shunchalik ular bilan bog‘liq tavakkalchilik kichik bo‘ladi, ammo shunga javoban ularga to‘lanadigan foiz ham ya’ni daromad ham shunchalik kam bo‘ladi. Belgilangan to‘lovga qobillik doirasidan chiqmagan holda, aktivlarga joylashtirilgan kapitaldan daromadni oshirish, bankda boshqarish san’atini belgilaydi.

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta’minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon banki materiallariga ko‘ra to‘lovga qobiliyatlilik o‘z kapitalining ijobiy kattaligiga bog‘liqdir. Bank aktivlari tarkibida birinchi darajali likvidli aktivlar hissasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, bank likvidliliigi shuncha yuqori bo‘ladi. Lekin, shuni ham alohida belgilash zarurki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi, shuning uchun bunday tarkibiy aktivlarni har qanday holatda maqsadga muvofiq deb hisoblab bo‘lmaydi.

Bank faoliyati jarayonida o‘zining aktivlarini maqsadga muvofiq joylashtirib bank likvidlilik talablarini bajarishi kerak hamda o‘zining majburiyatlari summasidan, ko‘rinishidan kelib chiqib lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlilik me’yorlarini bajarishi kerak.

Bank doimiy ravishda o‘zining likvidliliğini ma’lum bir darajada saqlashi kerak ya’ni o‘zining to‘lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi lozim. Likvidlilikka bo‘lgan talab aktivlardan keladigan daromadni oshirish faoliyatiga ma’lum darajada qarshi turadi. Ya’ni likvidlilik foydasiga bank daromadliliigi suiste’mol qilinmasligi lozim. Bankning portfelidagi saqlanadigan aktivlari qanchalik darajada likvid bo‘lsa, shunchalik ular bilan bog‘liq, risk kichik bo‘ladi, ammo shunga javoban ularga to‘lanadigan foiz ham shunchalik kam bo‘ladi.

Belgilangan to'lovga qobillik doirasidan chiqmagan holda aktivlarga joylashtirilgan kapitaldan daromadni oshirish, bankda boshqarish san'atini belgilaydi.

Kassadagi naqd pullar – bu bankning kassasida saqlanayotgan va bankning kunlik hisobraqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va tangalardir. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirish uchun beriladigan qog'oz pullarga va tangalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi, jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi. Odatda jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo'limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar qo'shiladi. Sababi bu mablag'lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu mablag'larni bankda "birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, sababi mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

Bank aktivlari strukturasi kelganda, bu erda haqli ravishda ta'kidlash kerakki, qancha birinchi darajali likvidli aktivlar hissasi ko'p bo'lsa, shuncha bank likvidliligi yuqoridir. Lekin esda tutish kerakki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi, shuning uchun bunday strukturali aktivlarni har qanday holatda maqsadga muvofiq, deb hisoblab bo'lmaydi.

Ma'lumki bankning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida jalb qilingan mablag'lar ham mavjud. Albatta ushbu aktivlarning ham tarkibini, tuzilishini o'rganib chiqish muhimdir.

Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i qancha ko'p bo'lsa, bu bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Bank qimmatli qog'ozlar bozorida, investitsion institut sifatida ishtirok qilishadi. Bu fond bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida broker va diller sifatida ishtirok qilishadi. Birinchi funksiyani brokerlik kontoralari orqali amalga oshirsa ikkinchisini fond birjalari orqali amalga oshiradi.

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar ham bo'ladilar. Rivojlangan bozor iqtisodi mamlakatlarida kompaniya aktivlarining 40–80 % bank kapitali hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan



operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bank o‘z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo‘shimcha daromad olish va balansining likvidligini ta‘minlash maqsadida DQMO dan keng foydalanadi.

Bo‘sh turgan resurslarni joylashtirib daromad topishning eng qulay usuli, bu DQMOdir. Bundan tashqari DQMO dan olingan daromadga soliq to‘lanmaydi. DQMolar banklarning aktivlari ichida eng ishonchlisidir, sababi unda davlat kafolati mavjud. DQMolar ham daromadi fiksirlangan qimmatli qog‘ozlar qatoriga kiradi. Ushbu tur qimmatli qog‘ozlar dividend to‘laydigan qimmatli qog‘ozlarga nisbatan likvidli hisoblanadi.

Quyida biz “A” bank joriy likvidligini aniqlash maqsadida uning likvid aktivlarini o‘rganamiz.

### 35-jadval

#### «A» bankning joriy likvidik aktivlari tarkibi

(yil boshiga)

№	Joriy likvid aktivlar	O‘tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		Farqi	
		qoldig‘i mln. so‘m	ulushi %	qoldig‘i mln. so‘m	ulushi %	mln. so‘m	ulushi %
1.	Kassadagi naqd pullar va boshqa to‘lov hujjatlar	1728	24,7	1560	21,2	-168	-9,7
2.	Bankning O‘zRMB hisobvaraqlari (10300)	2037	29,1	2150	29,2	113	5,5
3.	Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (10500)	593	8,5	593	8,0	0	0,0
4.	Davlat obligatsiyalari	55	0,8	55	0,7	0	0,0
5.	30 kun ichida qaytariladigan kreditlar;	2580	36,9	2980	40,4	400	15,5
6.	30 kun ichida qaytariladigan lizing;	0	0,0	30	0,4	30	0,0
	<b>JAMI:</b>	6993	100	7368	100	375	5,4

Bankning yil davomida likvid aktivlaridan mutloq likvid bo‘lgan kassadagi naqd pullar yil boshida 1,7 mlrd so‘mdan yil oxiriga borib 168 mln so‘mga kamaygan, Markaziy bankdagi pul mablag‘lari esa yil boshida 2 mlrd so‘mdan yil oxiriga borib 113 mln so‘m (yoki 5,5 %)ga o‘sib 2,1 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bankning boshqa banklarda hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari yil boshidagi 593 mln so‘mdan yil oxiriga borib umuman o‘zgarmagan, demak bu ikki holatda bo‘lishi mumkin, birinchidan bankka yil davomida boshqa banklar likvidligi va to‘lovga qodirligi pastligi sababli mablag‘larni qaytara olmagan, yoki ikkinchidan bank boshqa banklar bilan operatsiyalari natijasida pul mablag‘lari teng holatda bo‘lib qolgan.

Davlat obligatsiyalari ham yil boshidan yil oxiriga qadar o'zgarmagan. 30 kunda qaytarilishi kerak bo'lgan kreditlar yil boshida 2,5 mlrd so'm bo'lib yil oxirida 2,9 mlrd bo'lgan, bunda o'sish 400 mln so'm yoki 15,5 %ni tashkil qiladi. Demak bank bir oy muddat ichida daromadi oshishini kutmoqda. 30–kun ichida qaytarilishi kerak bo'lgan lizinglar yil boshida yo'q bo'lgan, yil oxiriga kelib esa 30 mln. so'mni tashkil qilgan, bu ikki holatda bo'lishi mumkin, bankning lizing muddatlari yil oxiriga kelib tugashi kerak yoki ikkinchidan bank aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish jarayonida lizing operatsiyalarini ko'paytirgan buning natijasida yil oxiriga kelib ham lizing operatsiyalari oshgan ham to'lov muddati kelgan.

Umumiy holda tahlil qiladigan bo'lsak, bankning yil boshidagi likvid mablag'lari tarkibining 36.9 %ini 30 kunda qaytariladigan kreditlar tashkil qilgan, keyingi o'rinlarda esa kassadagi naqd pullar va vakillik hisobvarag'idagi pullar egallagan. Ammo yil oxiriga kelib o'zgargan salbiy o'zgarish bu kassali aktivlar (asosan naqd pul) ning salmog'i kamayganidir. Lekin umumiy holda bankning likvid mablag'lari yil boshidagi 6,9 mlrd so'mdan yil oxiriga kelib 375 mln so'm (5,36 %)ga oshib 7,3 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bunga ta'sir qilgan asosiy omillar Markaziy bankdagi pul mablag'lari va muddati 30 kun qolgan kreditlar tashkil qilgan.

Bankning joriy likvidligini to'laqonli ravishda baholash uchun uning joriy majburiyatlariga e'tibor qaratmog'imiz lozim.

## **5. Bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlili**

Banklar mavjud aktivlaridan samarali foydalanishlari lozim. Bank aktivlari turli tuman bo'lib, ular har xil faoliyatda ishtirok etadilar. Lekin barcha aktivlarning foydalanishini umumiy ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin. Tahlildan barcha aktivlarning foydalanishidan tashqari, banklar faoliyatida bir xil foydalanishda bo'lgan aktivlar guruhini alohida o'rganish lozim. Masalan, asosiy vositalardan, kreditga berilgan mablag'lardan, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lardan qanday foydalanilmoqda.

Bank barcha aktivlarining samarali foydalanishini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlarga: aktivlarning natijaviyligi (An), aktivlarning daromadliligi (Ad), aktivlarning tejamkorligi (At) va aktivlarning foydaliligi (Af) ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Bank aktivlarining natijaviyligi (An) deganda, bank faoliyatining asosiysi bo'lgan kredit aylanmasini aktivlarining o'rtacha summasiga nisbati tushuniladi. Bu ko'rsatkich banki mavjud aktivlaridan foydalanib, hisobot davrida (oy, kvartal, yil) ularning har bir so'miga necha so'mlik kredit aylanmasiga erishdi degan savolga javob beradi.

$$A_n = \frac{\text{kredit aylanmasi}}{\text{aktivlarning o'rtacha summasi}} \quad (9)$$

Bank kredit aylanmasi deganda tahlil qilinayotgan davrda (chorak, 6 oy, 9 oy, bir yil va hokazo) mijozlarga kredit berib, qaytarib olingan summa tushuniladi.

Masalan, bank hisobot yilida 126,0 mlrd so‘m kredit berib, qaytarib olgan, aktivlarining o‘rtacha summasi esa 41,0 mlrd so‘m. Bank barcha aktivlarining natijaviyligi

$$A_n = \frac{126.0}{41.0} = 3,07 \text{ bo'lgan.}$$

Bank aktivlarining daromadliligi bank kredit va boshqa operatsiyalaridan olingan barcha daromad summalarini ya'ni hisobot davrida olingan barcha daromad summalarini aktivlarining o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi.

$$A_d = \frac{\text{jami daromad}}{\text{aktivlarning o'rtacha summasi}} \quad (10)$$

Bank aktivlari tejamkorligi ( $A_t$ ) deganda, bank mavjud aktivlardan foydalanish uchun, ularning har bir so‘miga qancha xarajat qilayotgan degan savolga javob beradi. Bu ko‘rsatkich  $A_t$  bankning tahlil qilinayotgan davridagi xarajatlarni summasini aktivlar o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi.

$$A_t = \frac{\text{jami xarajatlar}}{\text{aktivlarning o'rtacha summasi}} \quad (11);$$

Aktivlarning foydaliligi ( $A_f$ ) ko‘rsatkichi bank foydasini aktivlarning o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi va bank aktivlaridan foydalanib ularning har bir so‘miga, qancha foyda olayapti degan savolga javob beradi.

$$A_f = \frac{\text{sof foyda}}{\text{aktivlarning o'rtacha summasi}} \quad (12);$$

#### Tayanch so‘z va iboralar:

- bank aktivlari;
- bank aktivlarini daromadliligi;
- bank aktivlarini risklilik darajasi;
- aktivlaridan samarali foydalanish yo‘llari;
- bank aktivlarining samarali foydalanish ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar tahlili;
- moliyaviy koeffitsientlar;
- aktivlar sifati koeffitsientlari;
- foyda;
- zarar.

## 5-mavzu: Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili

### Reja:


1. *Tijorat banklari kredit operatsiyalari tahlilining mazmuni*
2. *Kredit operatsiyalari tahlilining manbalari*
3. *Tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishning amaldagi holati tahlili*
4. *Kredit portfeli sifatining tahlili va muammoli kreditlarni oldini olish tartibi*

### 1. Tijorat banklari kredit operatsiyalari tahlilining mazmuni

Kredit munosabatlari tijorat banklari faoliyatida alohida o‘rin tutuvchi bank tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Yurtimizda faoliyat olib boruvchi banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalaridan biri aynan kredit operatsiyalari hisoblanadi.

Kredit – bu bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash hamda ularni pulga ehtiyoj sezgan yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma’lum muddatga, foiz to‘lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi<sup>58</sup>.

Kredit munosabatlari o‘z ichiga bir qator tarkibiy qismlarni qamrab oladi.



12-rasm. Kredit munosabatlarining tarkibiy qismlari<sup>59</sup>

<sup>58</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) – Vikipediya ma’lumotlar bazasi veb sayti.

<sup>59</sup> Azizov U., Qoraliyev T., Boboqulov T., Abdullayeva Sh. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016-yil, 220-bet.

Kreditlash obyekti – bu qarzga olingan pul yoki tovar shaklidagi moddiy boyliklardan iborat. Kredit subyektlari esa davlat korxonalari va tashkilotlari, kooperativlar, ishlab chiqarish subyektlari, boshqa banklar va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Kredit ta‘minoti esa kredit qaytarilishini kafolatlash maqsadida taqdim etilgan garov predmeti, kafillik yoki kafolat hisoblanadi. Ushbu uch bazaviy element kredit tizimi sifatida harakat qiladi.

Kredit operatsiyalarining samaradorligiga obyektiv va subyektiv omillar ta‘sir qiladi:

- bank joylashgan hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- raqobat darajasi;
- hududda o‘rtacha kredit foizi darajasi;
- bank kreditlash uchun resurslarini sotib olish bahosi;
- jalb qilingan mablag‘lar tarkibi;
- mavjud barqaror kliyentlar bazasi, asosan kreditlanadigan iqtisodiyot tarmoqlari;
- bankning kredit siyosati;
- kredit portfelini boshqarish sifati.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarining daromadlilikining yuqorilik darajasi dinamikasi bir qancha faktorlar orqali aniqlanadi.

- kredit qo‘yilmalari hajmi va boshqa daromad keltiruvchi aktivlar;
- bankning aktiv operatsiyalari foiz stavkasi;
- bankning passiv operatsiyalari foiz stavkasi;
- aktiv va passiv operatsiyalar foiz stavkasi orasidagi farq(spred) ;
- bank kredit portfelida foizsiz ssudalar ulushi;
- olingan foizli daromadlarda riskli aktiv operatsiyalar ulushi;
- xususiy kapital va jalb qilingan resurslar orasidagi farq;
- jalb qilingan resurslar strukturasi;
- foizni hisoblash va undirish qobiliyati;
- daromad va xarajatlarni hisob tizimini shakllantirish;
- inflyatsiya darajasi;

Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini to‘g‘ri tashkil etilishi tufayli bankning asosiy daromadlari shakllantiriladi. Quyidagi jadvalda biz O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari YaIMdagi ulushini tahlil qilamiz.

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit qo‘yimalari YaIMdagi ulushi<sup>60</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2017 yilda 2012 yilga nisbatan o‘zgarishi,%
YaIM trln.so‘m	96,6	119,0	144,9	171,4	199,3	249,1	254,8
Kredit qo‘yimalari umumiy summasi, trln.so‘m	20,4	26,5	34,8	42,7	53,4	110,6	542,2
YaIM ga nisbatan %	21,1	22,3	24,1	24,9	26,7	46,6	25,5 f.p

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklari kredit qo‘yimalari umumiy summasi yillar mobaynida o‘shish tendensiyasiga ega. 2012 yilda banklarning kredit qo‘yimalari salmog‘i 20,4 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 53,4 trln. so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, YaIMni o‘shish dinamikasi ham yuqori sur’atlarda o‘sayotganligini ko‘rish mumkin. Xususan, mamlakatimizda YaIM so‘nggi besh yil ichida 3 barobardan ko‘proq o‘sgan. Shunga mos ravishda banklarning kredit qo‘yimalarining YaIMdagi ulushi ham yildan-yilga o‘shib bormoqda. O‘tgan besh yil ichida YaIMga nisbatan kredit qo‘yimalari salmog‘i qariyb 2,3 barobarga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Lekin rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori darajaga ega. Iqtisodiyotni bank kreditlari bilan ta’minlanganligi YaIMni 60% foizini tashkil etsa bu normal holat hisoblanadi.

Tijorat banking faoliyatiga baho berishda, uning kredit qo‘yimalarining qay darajada to‘g‘ri yo‘naltirilganligi va daromadliligi darajasining me‘yoriy yoki optimal variantlarini aniqlanishi lozim.

Har qanday faoliyatdagidek bank faoliyati ham mavjud mablag‘larni eng kam risk asosida joylashtirib yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lishni ko‘zda tutadi. Yuqori daromad olish esa o‘z navbatida banklar olib boradigan operatsiyalarning risklilik darajasini oshiradi, chunki banklar asosan chetdan jalb qilingan resurslar bilan ishlaydilar. Ular bir tomondan o‘z aksiyadorlari oldida javobgar bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va

<sup>60</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) internet sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar. Shu sababli, tijorat banklari boshqa xo‘jalik subyektlariga qaraganda bir necha barobar yuqori risk bilan faoliyat ko‘rsatadilar.

### 37-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari va kreditlari to‘g‘risida ma’lumot (01.04.2018 holatiga)<sup>61</sup>

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit	
		Summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
<b>Jami</b>		<b>179 670</b>	<b>100%</b>	<b>127 233</b>	<b>100%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>149 639</b>	<b>83%</b>	<b>113 130</b>	<b>89%</b>
1	O‘zmilliybank	50 941	28,4%	36 778	28,9%
2	Asaka bank	26 764	14,9%	19 343	15,2%
3	O‘zsanoatqurilishbanki	25 274	14,1%	21 450	16,9%
4	Ipoteka bank	15 908	8,9%	13 042	10,3%
5	Agrobank	9 540	5,3%	8 115	6,4%
6	Qishloq qurilish bank	7 128	4,0%	6 260	4,9%
7	Xalq banki	6 059	3,4%	3 066	2,4%
8	Aloqa bank	3 585	2,0%	2 341	1,8%
9	Turon bank	2 196	1,2%	1 053	0,8%
10	Mikrokredit bank	2 085	1,2%	1 622	1,3%
11	O‘zagroeksportbank	159	0,1%	60	0,05%
<b>Boshqa banklar</b>		<b>30 031</b>	<b>17%</b>	<b>14 103</b>	<b>11%</b>
12	Hankor bank	5 648	3,1%	3 517	2,8%
13	O‘zKDB bank	4 638	2,6%	335	0,3%
14	Kapital bank	3 773	2,1%	1 372	1,1%
15	Orient Finans bank	3 596	2,0%	2 043	1,6%
16	Ipak yo‘li bank	3 404	1,9%	2 189	1,7%
17	Trast bank	2 392	1,3%	980	0,8%
18	Invest Finans bank	1 715	1,0%	924	0,7%
19	Aziya Alyans bank	1 490	0,8%	808	0,6%
20	Savdogar bank	658	0,4%	469	0,4%
21	Davr bank	608	0,3%	381	0,3%
22	Ziraat bank	586	0,3%	393	0,3%
23	Ravnaq bank	330	0,2%	216	0,2%
24	Turkiston bank	308	0,2%	202	0,2%
25	Eron Soderot bank	302	0,2%	1	0,001%
26	Universal bank	235	0,1%	116	0,1%
27	Madad invest bank	186	0,1%	54	0,04%
28	Xi–Tech bank	161	0,1%	103	0,08%

Tijorat banklari aktivlari yil sayin oshib bormoqda. Aktivlardagi salmog‘i bo‘yicha TIF Milliy bank, Sanoatqurilish banki, Asaka bank, Agro bank, Qishloq qurilish banki va Xalq banklari yetakchilik qilmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga jami aktivlarning 83 foizi to‘g‘ri kelmoqda. Bu bank tizimi

<sup>61</sup><http://www.cbu.uz> -O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti

uchun salbiy holat hisoblanadi, chunki ushbu banklarda yuzaga keladigan har qanday salbiy holat bank tizimiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Kredit portfeli bo'yicha ham aynan ushbu banklar yyetakchilik qilmoqda, chunki bu banklar yirik banklar guruhini tashkil etadi. Ushbu banklar hissasiga jami kredit portfelining 89 foizi to'g'ri keladi.

Boshqa banklarning ulushi esa aktivlar tarkibida 17 foizni tashkil etadi, jami kreditlar tarkibida esa 11 foizni tashkil etadi.

Bank aktivlarining boshqa banklar tarkibida esa Hamkor bank, O'zKDB bank, Kapital bank, Orient Finans bank va Ipak yo'li banklarining ulushi nisbatan katta hisoblanadi.

Bank kreditlarida esa Hamkor bankning ulushi sezilarli darajada va jamiga nisbatan 2,8 foizni tashkil etadi.

Tijorat banklari aktivlarining tarkibida ssuda operatsiyalari salmog'idan keyingi o'rinda Markaziy bankidagi va boshqa tijorat banklaridagi mablag'lar egallashining asosiy sabablari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan majburiy zaxira stavkasi asosida Markaziy bankida zaxiralar ajratib borish lozimligi bo'yicha talablarning mavjudligi hamda bugungi kunda O'zbekistonda banklararo resurslar bozorining rivojlanib borayotganligidir.

Shuningdek, Respublika Markaziy banki tomonidan olib borilgan to'g'ri pul– kredit siyosati asosida qayta moliyalash stavkasining 25 yil ichida 300 foizdan 9 foizga bosqichma-bosqich kamaytirib borilishi, bank kreditlari arzonlashib, talabning oshib borishiga hamohang tarzda ularning resurs bazasi ham mustahkamlanib bordi.

## 2. Kredit operatsiyalari tahlilining manbalari

Tijorat banklari faoliyatida kredit amaliyotining o'rnini tahlil qilishda ularning aktivlari tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyidagi jadval orqali tijorat banklari aktivlari va kredit qo'yilmalari dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

**38-jadval**

### Tijorat banklari kredit qo'yilmalari va bank aktivlari dinamikasi<sup>62</sup> (yil boshiga, mlrd. so'mda)


Ko'rsatkichlar	2015 y.		2016 y		2017 y		2018 y	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
<b>Kredit qo'yilmalari</b>	34808	61,9	42685	65,4	53378,5	66,4	110550	66,3
<b>Bank aktivlari</b>	56223	100	65176	100	80362	100	166632	100

<sup>62</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2015–2017 yillar mobaynida iqtisodiyotga tijorat banklari tomonidan yo'naltirigan kredit qo'yilmalari va bank aktivlarining dinamikasi keltirilgan. Tijorat banklari aktivlari miqdori 2015 yilda 56223 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib esa, 65176 mlrd. so'mni tashkil etgan, 2017 yilda esa 80362 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Biz yildan yilga bank aktivlarini o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil qilingan davr mobaynida bank kreditlarining jami aktivlar hajmidagi salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ya'ni, 2015 yilda jami bank aktivlari tarkibida kreditlarning hajmi 61,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib esa 65,4 foiz 2017 yilda 66,4 foizni tashkil qilgan. Bu o'z navbatida ijobiy holat hisoblanib, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilayotgan kreditlar hajmini oshayotganligidan, buning natijasida ishlab chiqarish hajmini va yangi ish o'rinlarini yaratilayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari daromadlari tarkibida xorijiy valyutadagi daromadlar kamayish tendensiyasiga ega. Bu esa, o'z navbatida bugungi kunda tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini va ularning turlarini ko'paytirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.



**13-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit qo'yilmalari dinamikasi (mlrd.so'm)<sup>63</sup>**

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda umuman, mamlakatimiz bank tizimining yetarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy ta'sirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi.

<sup>63</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

### **3. Tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishning amaldagi holati tahlili**

Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 15-sentabr “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-sentabr “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 11-martdagi PQ–1501-sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 fevral 2017-yildagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 14-iyul 2015 yilda tasdiqlangan 2696-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ssudalar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan tijorat banklari tomonidan foydalanish tartibi» hamda har bir tijorat bankining Boshqaruv Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar va boshqa qonun hujjatlariga zid kelmaydigan qoidalarga asoslanadi.

Ma‘lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e‘tibor beriladi. Chunki, kredit portfelining to‘g‘ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi sifatli kredit portfelini shakllantirishga bog‘liq bo‘ladi.

Kredit portfeli – ma‘lum bir muddatga aktiv kredit operatsiyaalri bo‘yicha jami qoldiq summasi, ya‘ni jami mijozlarga berilgan ssudalar yig‘indisidir.

Tijorat bankining kredit portfeliga kredit portfelining sifati orqali bahxo beriladi. Kredit portfelining sifati – bank balansining likvidligi va mumkin bo‘lgan darajadagi kredit riski sharoitida maksimal daromadni ta‘minlab beradigan kredit portfelining strukturasi ifodalaydi. Kredit portfeli sifatining past bo‘lishi bankning zarar ko‘rib ishlashining asosiy omilidir.

Tijorat bankining maqsadi yirik hajmdagi minimal kredit riskiga ega va maksimal daromad olib keladigan kredit portfeliga ega bo‘lishdir. Jumladan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 16-iyundagi qaroriga ko‘ra, joriy yilda tijorat banklari ustav kapitalidagi davlat ulushini Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan 500 mln. AQSH dollar ekvivalentiga yetkazish

belgilanganligi, tijorat banklarining davlat dasturlarini moliyalashtirishdagi hissasini oshirish vazifasi qo‘yilganligi ularning kredit portfeli hajmining oshishiga olib keladi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining aktivlari va kredit qo‘yilmalari ham yildan yilga oshib kelmoqda.

**39-jadval**

**Tijorat banklari aktivlari va kredit portfelinig 1 yanvar 2017 yil holatiga miqdori <sup>64</sup>**

№	Banklar	Aktivlar (mln.so‘m)		Kredit portfeli (mln.so‘m)	
		Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %
1	TIF Milliybank	20672531,3	24,59	12872237,9	24,73
2	AT Asakabank	10448323,7	12,43	5255449,8	10,1
3	ATB O‘zsanoatqurilishbank	10447513	12,43	8461414,9	16,26
4	ATIB Ipotekabank	5747767,9	6,84	4570720,7	8,78
5	ATB Qishloqqurilishbank	5415976,1	6,44	4674047	8,98
6	AT Xalqbank	4380941,6	5,21	2349967,4	5,52
7	ATB Hamkorbank	4014973,9	4,78	2419575,2	4,65
8	ATB Agrobank	3949374,6	4,70	2995665,4	5,76
9	AJ KDB bank O‘zbekiston	2946775,7	3,5	157019,9	0,3
10	ATB Kapitalbank	2636768,1	3,14	910750,6	1,75
11	AITB Ipak Yo‘li	2308984	2,75	1240167,3	2,38
12	XATB Orient Finance	1721539,5	2,05	688664,7	1,32
13	AT Aloqabank	1574221	1,87	1101517,2	2,12
14	ATB Mikrokreditbank	1427769,6	1,7	1053777,3	2,02
15	XAB Trastbank	1403986,6	1,67	547203,9	1,05
16	ATB Asia Alliance Bank	1132839,2	1,35	693668,8	1,33
17	ATB InFinbank	1025376	1,22	496012,4	0,95
18	ATB Turonbank	916719,6	1,09	509064,4	0,98
19	ATB Savdogar	604333,5	0,72	422798,4	0,81
20	XATB Davr–bank	340587,3	0,41	206570,9	0,4
21	AJ UTBANK	240051,6	0,29	117057,4	0,22
22	XATB Ravnaq–bank	239192,4	0,28	101381,9	0,19
23	XATB Turkiston	152002,8	0,18	84106,7	0,16
24	XATB Universalbank	149190,3	0,18	74738,7	0,14
25	Saderat Bank	117341,2	0,14	404,2	0,0008
26	XATB Hi–Tech Bank	40609,9	0,05	27026,4	0,05
27	XATB Madad Invest Bank	18711,8	0,02	14084	0,03
<b>JAMI</b>		<b>84074986</b>	<b>100</b>	<b>52045093</b>	<b>100</b>

Jami aktivlari va kredit portfelinig hajmi bo‘yicha mamlakat tijorat banklarining ichida TIF Milliybanki deyarli 25%ni tashkil etib, aktivlari 20672531,3 mln. so‘m uning 62,3 foizini kredit qo‘yilmalari tashkil etadi. Keyingi o‘rinda aktivlari bo‘yicha AT Asakabank 10448323,7 mln.so‘m, kredit portfeli bo‘yicha esa, ATB O‘zsanoatqurilishbank aktivlarining 80,9 foizini tashkil etib egalaydi. Bu banklarning top uchlikda bo‘lishining asosiy sabablaridan biri davlat loyihalarida ishtirok etishi, ustav jamg‘atmasida davlat ulushining yuqoriligidir.

<sup>64</sup> Ahbor-reyting reyting agentligining 2016 yil hisobot ma’lumotlari. № 46s. 6 b.

**ATIB Ipoteka–banki kredit portfelida kreditlarning muddati bo‘yicha tuzilmasi  
(mlrd.so‘mda, 31 dekabr holatiga)<sup>65</sup>**

Ko‘rsat- kichlar	2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	Summa	Ulushi (%)	Summa	Ulushi (%)	Summa	Ulushi (%)	Summa	Ulushi (%)
Qisqa muddatli kreditlar	367377	19,3	455951,9	18,2	589949,4	17,5	619697,4	13,4
Uzoq muddatli kreditlar	1527584	80,6	2037618	81,7	2775048	82,5	4017611	86,6

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bankning kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 80 foizdan yuqori va u yil sayin ortib bormoqda. Xususan, 2016 yilda qisqa muddatli kreditlar 619697,4 mlrd.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yili shu davrga nisbatan 105 foiz, 2014-yilga nisbatan 136 foiz, 2013-yilga nisbatan 168 foizga oshgan. Uzoq muddatli kreditlar 2016 yilning oxiriga kelib, o‘tgan yilga nisbatan 145 foiz, 2014-yilga nisbatan 197 foiz va 2013-yilga nisbatan 263 foizga ortganligi, bankning jalb qilingan resurslari tarkibida uzoq muddatli resurlar hajmining ko‘pligi hamda aholini uy-joy bilan ta’minlash borasida faol ishtirok etayotganligidan dalolat beradi. Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlar salmog‘ining ko‘p bo‘lishi bank resursidan uzoq muddat barqaror daromad olishidan dalolat bersa, ikkinchi tarafdin bankning real daromadi

Tijorat banki kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari – bu birinchi navbatda u xizmat ko‘rsatadigan xalq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilot, korxonalar, shuningdek xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari, jumladan kichik biznes subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va aholining barcha qatlamlariga hisob–kredit xizmatlarini ko‘rsatish, kreditlash bo‘yicha yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan iboratdir.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog‘liq masalalar;
- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o‘rinbosari, kredit qo‘mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro‘yxati (eng ko‘p kredit summasi va turlari);
- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo‘yicha jami majburiyatlari;

<sup>65</sup> [www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz) – ATIB Ipoteka-bankining 2017 yil yakunlari bo‘yicha hisoboti ma’lumotlari

- kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;
- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);
- kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;
- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;
- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;
- eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);
- bank xizmat ko'rsatadigan mintqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;
- muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi.

Yurtboshimiz tomonidan bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, banklar hamda ularning mijozlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish, bank aktivlari, shu jumladan, kredit portfelini shakllantirish bilan bog'liq risklarni boshqarish kabi vazifalarni tijorat banki rahbariyati zimmasiga yuklash va uning vakolatiga kiritish ta'kidlab o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, banklar kredit portfelining samarali boshqarilishi, avvalambor bank rahbariyatiga bog'liqdir.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni risk guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit riski, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;
- kredit riskini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zaxiralarni yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadlilikini ta'minlash;

• bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagilarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o'z navbatida, bankning ko'radigan foydasi ham oshadi.

#### 41-jadval

#### Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari<sup>66</sup>

<b>№</b>	<b>Tahlil etish bo'limlari</b>	<b>Ma'lumotlar</b>
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o'tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro'yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikro kreditlar, iste'mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Qayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubhali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zaxiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, kredit portfeli monitoringi mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ta'minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit portfeli sifatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, bank kredit portfelining monitoringini o'tkazish orqali kredit portfelini holatiga baho berish mumkin.

<sup>66</sup> Azizov U., Qaraliyev T.M. va boshqalar "Bank ishi". Iqtisod-moliya: 2016 y.-639 b

Bank kredit portfeli monitoringi – bu kredit resurslarini oqilona joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta’minlashga yo‘naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko‘payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta’minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

Kredit portfelini boshqarish bank tomonidan kredit portfeli tarkibi va uning sifat tarkibi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi.

Tijorat banki tavakkalchilikni boshqarish siyosatini amalga oshirishi va bir necha yirik qarz oluvchilarda kreditlarning me‘yordan oshiqcha miqdorda to‘planishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Bunday siyosat kredit qaytarilmagan holatda jiddiy oqibatlardan saqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari kredit portfeli to‘g‘ri tashkil etish va undan oqilona foydalanish uchun quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

- kreditlar bo‘yicha risk darajasi;
- kreditdan foydalanish muddati;
- kredit qaytarilish muddati uzaytirilishi;
- mamlakat iqtisodiyotidagi shart–sharoitlar o‘zgarishi;
- inflyasiya darajasi.

Mazkur omillarni sinchiklab o‘rganib chiqish va shunga muvofiq ish tutish tijorat banklari uchun o‘z kredit portfelini samarali boshqarish imkonini beradi. Kredit portfelining samarali boshqarilishi kredit riskini kamaytirib banklarning barqarorligini ta’minlaydi.

Olimlarning kredit portfelini boshqarish borasidagi qarashlari tulicha, ba’zi olimlar kredit portfelini boshqarishda regulyativ va riskka yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlashadi. Regulyativ boshqarish Markaziy bank tomonidan aktivlarni sifat jihatdan tasniflash va ular bo‘yicha zaxiralarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Qayd etish lozimki, regulyativ usul ssudalar sifatini baholashni chegaralaydi, kredit portfeli tuzilmasini tahlil qilishni usuli va kredit riskini baholashning yagona usuli yo‘qligi kabi kamchiliklari bor.

Kredit portfelini boshqarishni to‘liqroq ochib beradigan usul bu boshqarishni o‘zaro bog‘liq bir nechta elementlarni o‘z ichiga oluvchi tizim shuningdek, bir

nechta operatsiyalarni o'z ichiga oluvchi jarayon sifatidagi qarashdir. Unga ko'ra, kredit portfelini boshqarish tizimi boshqaruvchi tizim osti, turli parametrlardan iborat boshqarish obyektlaridan iborat.

## 42-jadval

### Kredit portfelini boshqarish mexanizmi elementlari<sup>67</sup>

Tizim osti tizimchalarni boshqarish							
Bankdagi kreditlashni tashkiliy strukturasi	Kreditlash jarayonida ishtirok etuvchi xodimlar bo'limi	Kreditlash operatsiyalari tahlili	Kreditlash jarayonini tashkil etish	Bank kredit faoliyatini rejalashtirish	Kredit operatsiyalari nazorati	Kreditlash jarayonining ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi	Kredit jarayonlarini boshqarishning texnik vositalari
Boshqaruv obyektlari							
Kredit resurslari manbalari			Bankning kredit portfeli			Qarzdor bilan kredit munosabatlari	
Boshqarishning asosiy jihatlari							
Jalb qilingan mablag'lar hajmi, ularning dinamikasi va strukturasi			Portfel qiymati va dinamikasi			Mijozlarni kreditga layoqatligini tashhis qo'yish	
Jalb qilingan mablag'lar qiymati, jumladan strukturasi bo'shliqlar			Ssudaalrning turlari, muddati, qarzdorlari, tarmoqlari, ta'minlanganligi, loyihalarning ko'lami bo'yicha tuzilmasi			Kredit shartnomalari va kredit hujjatlarining tarkibi	
Jalb qilingan mablag'larning muddati			Kredit portfelining daromadliligi, shuningdek tuzilmaviy bo'shliqlar			Kreditlar monitoring, muammoli kreditlar bilan ishlashni chegaralash	

Ushbu elementlarni to'liq tahlil qilib, kredit portfelining sifati va uni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarini oldini olish mumkin. Shuningdek, kredit portfelini boshqarishda konservativ qarash ham bor. Bu qarashni AQSH va Rossiya olimlar guruhi birgalikda ishlab chiqishgan. Ular kredit portfelini boshqarishning bazaviy komponentlarini ajratishadi va ularga: risklarni qabul qilish qoidalari, kreditlashni limitlash, portfelni shakllantirishdagi ustuvorliklar kiradi. Kredit portfelini boshqarishda qaysi yondashuv asosida tashkil etish har bir bankning ixtiyorida.

Banklarning kredit portfelini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- Risk darajasi bo'yicha
- Tarmoqlar bo'yicha

<sup>67</sup> Балакина Р.Т. Теоретические аспекты управления кредитным портфелем банка /// Современные проблемы финансов и кредита. – 2014. – №1.



- Kreditning maqsadi bo'yicha
- Muddati bo'yicha
- Kredit hajmi bo'yicha
- Ta'minlanganlik shakli bo'yicha
- Mulkchilik shakli bo'yicha

#### 43-jadval

#### Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari<sup>68</sup>

<i>No</i>	<i>Tahlil etish bo'limlari</i>	<i>Ma'lumotlar</i>
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o'tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro'yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, savdo, mikro kreditlar, iste'mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Qayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti, aylanma mablag'larni to'ldirish va uzoq muddatli aktivlar uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi (kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zaxiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- kreditlarni risk guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit riski, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;

<sup>68</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

- kredit riskini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli kreditlarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zaxiralarni yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

#### 44-jadval

### Kredit portfeli sifatini yaxshilash uchun risklarni boshqarish usullari sxemasi

Kredit risklarining kelib chiqishini oldini olish	Yuzaga kelgan muammolar yechimi
<i>Qarzdorning kreditga bo'lgan layoqatliligini baholash.</i>	Bu usul mijoz reytingini ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotidagi mavqeidan kelib chiqishi va vaqti–vaqti bilan ko'rib chiqilishi lozim.
<i>Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish.</i>	Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.
<i>Kreditlarni sug'urtalash.</i>	Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar kredit oluvchilar tomonidan to'lanadi.
<i>Etarli ta'minlanishni talab qilish.</i>	Bunday usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoyalashda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan etarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratiladi.

Kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kredit risklarini darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatliligini va uning moliyaviy ahvolini aniqlash, kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chikish;

- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadlilikini ta'minlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib turish;
- kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashdir.

#### **4. Kredit portfeli sifatining tahlili va muammoli kreditlarni oldini olish tartibi**

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlab, korxonalariga beriladigan kredit ularni vaqtinchalik moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi va takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom etishini ta'minlaydi. Pul mablag'lariga ehtiyoj ishlab chiqarishning nafaqat mavsumiy, shuningdek, boshqa sabablariga ham bog'liq. Barcha hollarda kreditni jalb etish asosiy va aylanma fondlarining uzluksiz doiraviy aylanishini, ishlab chiqarish jarayoni va tovarlar muomalasini tezlashtirishni ta'minlaydi.

Boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari kredit mahsulot ishlab chiqarish va muomala sohasini rag'batlantiradi. Shuningdek, kredit ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga, iqtisodiy vazifalarni bajarishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat bankining aktivlar — kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablardan iborat bo'lib, ularni sifat jihatidan guruhlariga ajratilishi Markaziy bankning nizomida belgilangan.

Mamlakatimiz amaliyotida ham bundan foydalanilib, 2015-yil 13-iyunda Markaziy banki "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra amalga oshiriladi. Unga kora qarzdorlar quyidagi holatiga ko'ra maxsus va standart aktivlarga yaratilgan zaxiralar shakllantiriladi. Zaxira summalari Markaziy bankdagi nostro hisobraqamida o'z aksini topadi. Qarzdorlar quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha baholanadi:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshirilishi va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidliligining pasayishi;

- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Ushbu mezonlar asosida baholangan kreditlar bir nechta guruhga ajratiladi. Ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira miqdori kreditning qaytarilmay qolgan jami summasiga nisbatan hisoblanadi. Bu bilan birgalikda regulyativ qarashga ko'ra, banklar tomonidan bir xil ssudalar portfeli shakllantirilishi ham mumkin. Bunda kutilayotgan yo'qotishlar marja yoki ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar hisobiga qoplanadi.

#### 45-jadval

### Aktivlarning sifat jihatdan turlari va ular bo'yicha shakllantiriladigan zaxira miqdori<sup>69</sup>

Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra turlari	Ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira miqdori (foizda)
standart	1
substandart	10
qoniqarsiz	25
shubhali	50
umidsiz	100

Tijorat banklarining hisobotlari ularning aktivlari sifatining haqiqiy holatini aks ettirishi lozim. Hisobotlarning haqqoniy bo'lmashligi tijorat banki omonatchilari, kreditorlari va aksiyadorlari, shuningdek Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalg'itishga va yanglishtirishga urinish deb baholanadi hamda xavfsiz bo'lmagan, nosog'lom bank amaliyoti deb hisoblanadi.

Tijorat banki balansida va balansdan tashqari moddalarda yuritilayotgan muammoli aktivlarning ulushi jami aktivlarning o'n foizidan ortiq bo'lsa, Markaziy bank tomonidan tijorat banki ijro rahbariyatining malakasi Markaziy bank talablariga muvofiq emas deb topishga hamda tijorat banki Kengashi tomonidan bank faoliyati ustidan o'rnatilgan nazoratni yetarli emas deb hisoblanishiga asos bo'ladi. Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi jami aktivlarning yetmish foizidan ortiq bo'lishi bank kredit siyosati, kreditlar ajratish va ularni boshqarish jarayonining bo'shligini bildiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Qarzlarning o'z muddatida to'lanishiga shubha tug'dirmaydigan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanadi. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror

<sup>69</sup> Markaziy bankning 2015 yil 13 iyundagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomi

hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsuloti bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi. Ta'minot «yaxshi ta'minlangan» kredit mezonlariga mos keladi. Ta'minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo'lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-mulkiga doir huquqlari to'g'risidagi yozuv garov reestrda aks ettirilishi lozim. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovlarsiz va erkin ravishda uni ta'minot hisobidan undirib olishga haqli.

Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim. Sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi.

Bunda asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o'tgan yoki shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o'tgan va shartlari qayta ko'rilgan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanishi mumkin emas. Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan sof foyda hisobidan ajratilib, hisobot sanasiga sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qoldig'idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo'lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki qarzdorning aktivni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar sifati «substandart» deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lgan, kredit hujjatlarida yetarlicha axborot bo'lmagan yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmagan «standart» deb tasniflangan aktivlarning sifati ham «substandart» deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifati «substandart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi:

- asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun yetarli bo'lmasa, ta'minotga qo'yilgan mulkni va qarz
- oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni uzaytirishlarni
- hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topish talab etiladigan bo'lsa;
- qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa;
- qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo'lmasa;
- ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollar barqaror bo'lmasa;
- ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa.

Tijorat banki sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo'yadigan aktivlar sifati «shubhali» deb tasniflanadi. Bunda yo'qotishlar ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha «umidsiz» deb tasniflanmaydi. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi:

- ✓ «qoniqarsiz» aktivlarning hech bo'lmaganda birorta ko'rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);
- ✓ yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanish ehtimoli mavjud bo'lsa;
- ✓ asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa.

Tijorat banki sifati «shubhali» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim. Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo'lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati «umidsiz» deb tasniflanadi. Bunday tasniflash aktivlarda umuman hech qanday

tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Biroq, tijorat banklari o'z balanslarida bunday aktivlarning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Tijorat banki tomonidan ta'minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo'llanishi lozim. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «umidsiz» deb tasniflanadi:

- aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo'lsa;
- qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol–mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo'lsa;
- aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Kredit portfelining sifatiga baho berishda olimlar aniq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanishadi. Kredit portfelining sifat koeffitsienti muddati o'tgan kreditlarni foizlarni hisobga olmagan holdagi jami kredit summasiga nisbati orqali aniqlash mumkin.

$$\mathbf{KPS} = \frac{\mathbf{MO'Q}}{\mathbf{SQ}} \quad (13)$$

Bunda MO'Q–muddati o'tgan qarzdorlik  
SQ–ssuda bo'yicha qarzdorlik

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- kredit.
- kreditga layoqatlilik.
- kredit porteli.
- kredit porteli diversifikatsiyasi.
- bank kreditlarining ta'minlanganligi.
- kredit hajmi va uning aylanuvchanligi.
- kreditlar bo'yicha foizlarning hisoblanishi.
- kreditlarning qaytarilishi.
- kredit monitoringi.
- rstrukturizatsiya qilingan muddati o'tgan kreditlar.
- banklarning muammoli kreditlari.

- tijorat banklarining kredit resurslaridan samarali foydalanish.
- diskont;
- mukofot;
- overdraft;
- kontokorent;
- kredit;
- ssuda hisobvarag‘i;
- ehtimoliy zaxiralar hisobvarag‘i;
- ta‘minot;
- kredit yig‘ma jildi;
- foiz stavkasi;
- zaxira fondi;
- biznes reja;
- maqsadlilik;
- muddatlilik;
- qaytarishlilik;
- mikro kreditlar;
- muddati o‘tgan ssudalar;
- kreditga layoqatlilik;
- likvidlilik;
- kreditlar va olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hisobvaraqlari;
- real foiz stavka usuli;
- real foiz stavkasi;
- qadrsizlanishdan ko‘riladigan (yoki ko‘rilishi mumkin bo‘lgan) zarar
- qoplanadigan qiymat.



## **6-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari tahlili**

### **REJA:**

*1. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va ahamiyati*

*2. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion faoliyatining amaliy holati.*


*3. Tijorat banklarining investitsiya portfelini tahlil qilish*

### **1. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va ahamiyati**

Tijorat banklari pul mablag‘larni yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qiladi va ularni daromad olish maqsadida joylashtiradi. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida emitent va investor sifatida ishtirok etadi. Bu esa, qimmatli qog‘ozlar bozori, mablag‘larni joylashtirishda kredit bozoriga raqobatchi risk darajasi past va barqaror daromad keltiruvchi manba ekanligini ko‘rsatadi. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar resurslarni joylashtirish bilan bog‘liq faoliyati aktiv operatsiya hisoblanib, tijorat bankining likvidligi va daromadligini muvofiqlashtirib turadi.

Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini nazariy nuqtai-nazardan ko‘rib chiqishni, bankning o‘ziga ta’rif berishdan boshlaylik. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 1–moddasida shunday ta’rif berilgan. “yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish”. Ushbu mazmundagi ta’rifni boshqa adabiyotlarda ham uchratishimiz mumkin.

Ta’rifda belgilab o‘tilgan – «qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish» ko‘rsatmasi banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar olib borishidagi nazariy hamda huquqiy asos deb ayta olamiz. Chunki bank omonatlarni jalb qilib, uning evaziga omonatchilarga qimmatli qog‘ozlarni topshiradi. Bu aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqalardir. Keyingi ko‘rsatmasi – « ularni qaytarishlik, to‘lashlik va muddatlilik shartlari asosida o‘z nomidan joylashtirish», bu erda banklar qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish evaziga yig‘ilgan mablag‘lardan kreditlar beradi yoki boshqa obyektlarga (boshqa qimmatli qog‘ozlarga bo‘lishi mumkin) investitsiya qiladi. «to‘lovlarni amalga oshirish.», – bu erda ham banklar qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foiz, dividend va boshqa to‘lovlarni amalga oshirishi mumkin.



**14-rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini tasnifi<sup>70</sup>**

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bankka berilgan ta'rifdagi barcha ko'rsatmalar banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan ham emission, ham investitsion, qolaversa to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik operatsiyalarini asosini tashkil qilar ekan. Tijorat banklari universal moliya-kredit institutlari bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari hisoblanadi. Turli mamlakatlarda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni turlichadir. Lekin, shuni aytish kerakki, tijorat banklarining milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorilari bilan o'zaro munosabatlarining amaliy jihatdan bog'liqligi bo'lgandek umumiy nazariy bog'liq tomonlari ham bor.

Har qanday mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning roli oshishi asosiy omili bo'lib – o'sha mamlakat xo'jalik subyektlarining moliyaviy resurslardan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi hamda yuqori innovatsion-investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatiga bo'lgan talabining yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi. Tijorat


<sup>70</sup> Abdullaeva Sh.Z. "Bank ishi" T: 2003 yil. 353 b.

banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat shakllarini kengayishi va diversifikatsiyalanishi tijorat banklari boshchiligidagi yirik moliya-bank gruppalarining tashkil bo'lishiga olib keldi. Ular o'z atrofida investitsion fondlar, brokerlik firmalari, trust kompaniyalar, konsultasion firmalar va hokazolar kabi nisbatan mustaqil tarkibiy bo'linmalarining yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Tijorat banklari xorijiy mamlakatlarda investitsion-bank filiallari va shu'ba korxonalarini tashkil qilib, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqib bormoqda. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari qonun tomonidan tug'ridan-tug'ri chegaralangan mamlakatlarning, aynan usha banklar tomonidan ochilgan xorijiy filiallarining investitsion faoliyati doirasi tobora kengayib bormoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatining yangi shakli sifatida – u yoki bu moliya aktivlariga kapitalni investitsiya qilish bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha konsultatsion xizmatlar ko'rsatish bozorga kirib kelmoqda. Konsultatsion xizmatlar ko'rsatish–turli aktivlarning daromadi va risklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish hamda mijozlar uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish algoritmi va qimmatli qog'ozlar portfelini uning daromad dinamikasini hisobga olgan holda shakllantirish kabilarni amalga oshiruvchi bankning ichki informatsion tizimiga tayanadi.

Aytib o'tganimizdek, tijorat banklari o'z aksiyalari, obligatsiyalari, veksellari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan emitent sifatida, shuningdek o'z hisobidan qimmatli qog'ozlar sotib oluvchi investor sifatida gavdalanadi. Qolaversa, komission rag'batlantirish evaziga qimmatli qog'ozlar bilan vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga egadir. (15-rasm).



**15-rasm. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati yo'nalishlari**<sup>71</sup>

<sup>71</sup> Abdullaeva Sh.Z. "Bank ishi" T: 2003 yil. 353 b.

Tijorat banklari tomonidan o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishi orqali moliyaviy resurslar jalb qilinadi hamda o'z va qarz mablag'lari . shakllantiriladi. Investitsion va vositachilik faoliyatlari resurslarni joylashtirish orqali va vositachilik xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad olishga harakat qiladi.

Tijorat banklarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular fond bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, ushbu bozorda salmoqli investor va eng ishonchli emitent hisoblanadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiya kompaniyalari aktivlarining 40–80 foizi bank kapitallari hisobidan ta'minlanishini hisobga olsak, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkazilgan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa, bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

## **2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion faoliyatining amaliy holati**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida keng islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish yo'liga kirib borishi mamlakat bank tizimini qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirishga kerak bo'lgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Xuddi shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining investitsiya faoliyati banklar uchun yangi imkoniyatlarni va o'z hokimiyati doirasini kengaytirish hamda barqaror daromadni olib, bankni likvidligini ta'minlash istiqbolini ochib berdi.

Bank investitsiyalarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining aktivlar likvidligi, tarkibi va sifatini tartibga soluvchi yo'riqnomalari hamda boshqa qonun osti hujjatlari muhim rol o'ynaydi.

Investitsiyalar tuzilmasining o'z vaqtida va to'liq qilingan tahlili ham o'z navbatida muhim ahamiyatga ega, chunki bu tahlil natijasida investitsiyalardan foydalanishdagi tendensiyalarni aniqlash hamda samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiyalar tuzilmasi asosan xususiy investorlar va tadbirkorlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar natijasida shakllanadi. Biroq davlat bu portfaldan tashqarida bo'lmasligi kerak.

O'z moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida, tijorat banklar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida ham eng yirik brokerlar va dilerlar sifatida ish yuritadi. O'zbekistonda ko'p tijorat banklari o'z mablag'larini turli xildagi moliyaviy dastaklarga qo'yish yo'li bilan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantiradilar. Bunda bank portfelni yuqori likvidli va yuqori daromadli fondlardan shakllantirib, aniq investitsiya siyosatni ishlab chiqadi. Bank tomonidan o'z hisobiga amalga oshiriladigan fond qimmatli qog'ozlari bilan dilerlik

operatsiyalari keng tarqalgan bo‘lib, ularning maqsadi – qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish bahosidagi farqdan foyda olishdir.

Agarda tijorat banki brokerlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, uning operatsiyalari fond birjasi orqali amalga oshirilishi lozim. Buni hisobiga olib, tijorat banklarining brokerlik funksiyasi brokerlik idoralari tarmog‘i orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklar investitsiya faoliyatining faollashuvi shuni ko‘rsatadiki, bu faoliyat tijorat banklari uchun foydalidir va umuman olganda qimmatli qog‘ozlar bozorida raqobatchilik muhitining faollashuviga ko‘maklashadi.

Qonunchilikka ko‘ra, O‘zbekiston tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlar va dilerlar sifatida faoliyat yuritadilar. Birinchi funksiyani ular banklarning brokerlik idoralari tarmog‘i orqali amalga oshiradilar. Bugungi kunda tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarning milliy bozorida o‘z mavqeiga ega.

Investorlarning turli toifalari uchun banklar maslahat xizmatlarining keng ko‘lamini ko‘rsatishlari mumkin: mijozlarni investitsiya strategiyasini shakllantirishga ko‘maklashish, loyihaviy moliyalashdan boshlab, to qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish hamda sotib olingan aksiyalar bo‘yicha dividendlar olishgacha.


O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning investitsiya institutlar sifatida faolligi bu faoliyat tijorat banklari uchun foydali va umuman olganda fond bozorida raqobatchilik muhiti faollashuviga yordam beradi, degan xulosaga olib keladi.

Tijorat banklari o‘z mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishda o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi: foiz ko‘rinishida qo‘shimcha daromad olish, kapitalni saqlash va uning asosidagi qimmatli qog‘ozlarning kurs qiymatini ortishi hisobiga kapitalni oshirish hamda qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha risklarni pasaytirish.

Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishida «Toshkent» Respublika fond birjasi faoliyatini baholab ta’kidlash mumkinki, uning tashkil etilishi va savdo bitimlari zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilishi natijasida barcha investorlar uchun qimmatli qog‘ozlar bozorida qulay va ochiq ishtirok etish imkoniyati paydo bo‘ldi. Quyida fond birja ma’lumotlari tahlilini keltiramiz.

Qimmatli qog‘ozlar bilan umumiy birja aylanmasi 2016-yilda 299,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan 2015-yil (161,0 mlrd.so‘m) bilan solishtirganda 186% ga oshgan. 2016-yil boshidan beri 3080 ta birja bitimi tuzilgan. (2015-yilda 2794 ta bitim). Buning natijasida umumiy summasi 299,8


mlrd. so‘m bo‘lgan 141 ta aksiyadorlik jamiyatining 689,1 mln. dona qimmatli qog‘ozlar savdosi amalga oshirilgan.



**16-rasm. Fond birja aylanmasi dinamikasi<sup>72</sup>**

2016-yilda fond birjaning umumiy aylanmasida 299,8 mlrd. so‘m ko‘rsatkich, ya‘ni 68,5 % ulush bilan qimmatli qog‘ozlarni ikkilamchi joylashtirish bozori ya‘ni ikkilamchi bozor ustunlik qilmoqda. 2015-yilga (88,55 mlrd. so‘m) solishtirganda qimmatli qog‘ozlarni birlamchi joylashtirish 13,5 % ga o‘sgan. Fond birjasida qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozori 94,4 mlrd. so‘mlik natija bilan umumiy bozor aylanmasining 31,5% ini tashkil etgan. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan (72,45 mlrd. so‘m) 10 %ga past bo‘lib, undan 1,25 mlrd. so‘m korporativ obligatsiyalar bilan tuzilgan bitimlar va 1 mlrd. so‘m REPO bitimlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ikkilamchi fond bozorining rivojlanish darajasi mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozori raqobatbardoshligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Quyidagi rasmdan so‘nggi yillarda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori ulushining oxirgi yillarda oshishini ko‘rishimiz mumkin.



**15-rasm. Fond birja aylanmasi dinamikasi<sup>73</sup> (yil boshiga foizda).**

<sup>72</sup> Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>73</sup> Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Qimmatli qogʻozlar ikkilamchi bozorida savdo faolligi oshishining asosiy sabablaridan biri yuqori likvidli, investitsion jozibadorligi bilan ajralib turadigan yirik, moliyaviy barqaror kompaniyalar aksiyalari taklifining etarli darajada mavjudligidir. Ushbu turkumdagi korxonalarining aksiyalari asosan davlat korxonalari hissasiga toʻgʻri keladi va ikkilamchi bozor uchun resurs boʻla oladi. «Toshkent» Respublika fond birjasi respublikamizdagi korporativ obligatsiyalarni joylashtirish va muomalasini taʼminlashga xizmat qiladigan savdo maydonchalaridan biri hisoblanadi. 2016-yilda ushbu savdo maydonchasida ham savdo faolligining sezilarli pasayishini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, qimmatli qogʻozlar bilan birja aylanmasining tarkibi quyidagicha koʻrinish olgan:

- savdo umumiy hajmida davlat aksiya paketlari 22,3 mlrd soʻmlikni, shundan 400 mln.soʻmlik qismi (\$130 ming) xorijiy valyutada sotilgan;
- ikkilamchi bozor sektsiyasida– 205,5 mlrd soʻmlik savdo bitimi tuzilib, shundan 112,6 mlrd.soʻmlik qismi (\$35,9 mln va 45,7 ming evro) xorijiy valyutada sotildi;
- korporativ obligatsiyalar esa – 4 mlrd. soʻmlik sotilgan.

Oʻtgan yil davomida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari kesimida qimmatli qogʻozlar bilan birja aylanmasi quyidagicha koʻrinish oldi:


- birja aylanmasining 51,6 foizi (154,8 mlrd. soʻm) iqtisodiyotning moliyaviy sektor korxonalari hissasiga toʻgʻri keladi, shu jumladan, banklar birja aylanmasining 50,6 % (151,8 mlrd. soʻm), sugʻurta va lizing kompaniyalari mos ravishda 0,9 % (2,5 mlrd. soʻm). 2015 yilda ushbu davrga nisbatan birja aylanmasida moliyaviy sektorning ulushi 88,4 % (142,31 mlrd. soʻm)ni tashkil etgan;
- agrosanoat kompleksining ulushi – 5,3 % yoki 14,9 mlrd. soʻm (2015 yilda – 7,4% yoki 11,8 mlrd. soʻm);
- sanoat sektorining ulushi – birja aylanmasining 24,6 % yoki 73,7 mlrd. soʻm (2015 yilda 0,3% yoki 0,5 mlrd. soʻm);
- qurilish tarmogʻi korxonalarining ulushi 1,2 % yoki 3,5 mlrd. soʻm (2015 yilda – 1,9% yoki 3,1 mlrd. soʻm).

Agar investorlar boʻyicha birja koʻrsatkichlarini koʻrib chiqsak, yuridik shaxslarning investitsiyalari umumiy birja aylanmasining 83,7 %ini yoki 251,2 mlrd.soʻmni, shundan 50,1 %ni yoki 150,2 mlrd.soʻmni chet ellik investorlar tashkil etgan.

2016-yilda yilida jismoniy shaxslarning investitsion faolligi oʻsishi kuzatilib, ularning birja aylanmasidagi ulushi 16,2 %ga oʻsgan va 48,6 mlrd. soʻmni, shundan 3,9 %ni yoki 11,7 mlrd.soʻmni chet ellik investorlar tashkil etgan.

Jumladan: jismoniy shaxslar investitsiyalarining umumiy hajmidan banklar – 93,4% (2015-yilda – 68,3%), sanoat korxonolari – 2,3% (2015-yilda – 3,1%), qurilish tarmog‘i korxonolari – 2,2% (2015 yilda – 2,7%) tashkil etgan.

Yuridik shaxslarning moliya sohasi qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalari 2016-yilda 89,5% (2013-yilda – 86,8%)ni tashkil etdi. Bundan 86,3% (2013-yilda – 80%) – tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlari, 0,3% (2013-yilda – 4,3%) – lizing kompaniyalari aksiyalari va 3 % (2013-yilda 2,5%) – sug‘urta kompaniyalarining aksiyalariga qilingan investitsiyalardir.



**16-rasm. Investorlar bo‘yicha birja aylanmasi tarkibi<sup>74</sup> (yil boshiga foizda)**

Moliyaviy instrumentlarga investitsiya kiritish targ‘ibotini amalga oshirish, jamoatchilik va investorlarni axborot bilan ta‘minlash fond bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, respublika aholisining keng qatlamiga korxonalar va umuman mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

2016-yil davomida fond birjasi umumiy savdo aylanmasida 50,6 foizi, birlamchi joylashtirishga oid savdolarining 78,5 foizi bank qimmatli qog‘ozlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Birja savdolarida eng ko‘p hajmda sotilgan qimmatli qog‘ozlarning 10 ta emitent qatoridan quyidagi banklar o‘rin olgan.

Hamkorbank –17,6 %

Infibank –11,1 %

Trastbank –6,2 %


Ipotekabank –2,99 %

So‘nggi yillarda tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozori aylanmalarida ham yuqori ulushga ega bo‘lib, yurtimiz qimmatli qog‘ozlar bozorining

<sup>74</sup> Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.




rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Buni quyidagi rasmda ko‘rib tahlil qilib o‘tishim mumkin.



**17-rasm. Qimmatli qog‘ozlar birja aylanmasining tarmoqlar bo‘yicha emitentlari tarkibi (%da)<sup>75</sup>, 01.01.2017 y.**

Yuqoridagi rasmda iqtisodiyot tarmoqlarining qimmatli qog‘ozlar bozorida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarining ulushi aks etgan. Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qimmatli qog‘ozlar birja aylanmasida eng yuqori ulush tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Banklarning ulushi jami birja aylanmasining 67 foizini, agrosanoat kompleksi tarmoqlari 17 foizni, qurilish 3 foizni, sanoat sohasi 1 foizni va boshqa tarmoqlar 12 foizni tashkil etgan.

Rasmda 2016 yilning O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozori (Respublika Fond Birja Markazi)da qatnashgan yirik emitentlarning eng yuqori 10 taligini keltirib o‘tilgan..



**18-rasm. Eng katta savdo hajmlari bo‘yicha emitentlarning TOP 10 taligi (mlrd. so‘mda)<sup>76</sup>, 01.01.2017 y.**

<sup>75</sup>Bank axborotnomasi gazetasi. 2017 yil 4 fevral, 5-son.

<sup>76</sup>Bank axborotnomasi gazetasi. 2017 yil 4 fevral, 5-son ma’lumotlari

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining fond birjalarida erkin sotiladigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari hajmi yuqori ulushni egallaydi. Bu usul orqali ushbu tijorat banklari nafaqat yuqori daromadga erishadi, balki likvidligini etarli darajada saqlab turish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### 3. Tijorat banklarining investitsiya portfelini tahlil qilish

Qimmatli qog'ozlarni ochiq va oshkora tarzda birja savdolari orqali joylashtirish va ularning ikkilamchi bozorda muomalada bo'lishligi tijorat banklariga va boshqa fond bozori qatnashchilariga afzalliklarni beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining davlat va o'z-o'zini muvofiqlashtirish institutlari tomonidan tartibga solish tizimining takomillashtirish darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish asosida o'z ustav va aylanma fondlariga qo'shimcha resurslarni jalb qilish ehtiyoji kuchayib borishi ham ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faollashuvida muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar ham banklarning investitsion operatsiyalarini tartibga solish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari aksiyadorlik jamiyatlarning aksiyadorlarni sotib olgandan keyin, u bu jamiyatni moliyaviy holatini barqarorligini saqlab turishga majbur bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun tijorat banklarini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati bo'yicha ma'lum cheklovlar ko'zda tutilgan. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

#### 46-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qilingan investitsiyalarni tartibga solish me'yorlari<sup>77</sup>

Bitta emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Bitta emitentning nodavlat qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	Maks 0,15
	I darajali kapital	
Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar umumiy miqdori	Maks 0,25
	I darajali kapital	
Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar umumiy miqdori	Maks 0,50
	I darajali kapital	

Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va uning sho'ba tashkilotlari tomonidan investitsiya institutlaridan tashqari barcha

<sup>77</sup> Norqobilov S.X. va boshq. "Xalqaro amaliyotda bank nazorati". T.:TMI. 2007.

tashkilotlarning ustav kapitalini 20 foizdan ortiq ulushiga egalik qilish ta'qiqlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki yuqorida ta'kidlab o'tgan cheklovlar tijorat banklari tomonidan kredit garovi uchun qabul qilingan qimmatli qog'ozlarni sotish huquqiga qo'llanilmaydi.

1. Tijorat banki tomonidan bitta korxonaning ustav kapitaliga va shu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qiladigan qo'yilmalar miqdori birinchi darajali tijorat bankining regulyativ kapitalini 15 foizdan ortmasligi kerak;

2. Tijorat banki tomonidan barcha emitentlarning ustav kapitaliga va ularning boshqa qimmatli qog'ozlariga qiladigan investitsiya qo'yilmalari miqdori birinchi darajali tijorat bankining regulyativ kapitalining 50 foizdan ortmasligi kerak;

3. Tijorat banki tomonidan nodavlat qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi uchun qo'yilmalari miqdori birinchi darajali tijorat bankining regulyativ kapitalining 25 foizdan ortmasligi kerak.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida samarali faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar mavjudligiga qaramay, ko'pgina tijorat banklari davlat moliya bozorining eng muhim segmentini intiluvchanliksiz o'zlashtirishmoqda, va holangki, ushbu bozorning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ishga solish milliy iqtisodiyotini jadal rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan bo'lar edi.

**47-jadval**

**“A” bankda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha talablarning bajarilishi <sup>78</sup> (foiz hisobida)**

Belgilangan me'yorlar	aniqlanishi	normasi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Bitta emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Bitta emitentning nodavlat qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	Maks 15 %	1,4	6,5	3,4	1,5	1,1
	I darajali kapital						
Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar umumiy miqdori	Maks 25 %	0	0	0	0	0
	I darajali kapital						
Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar umumiy miqdori	Maks 50 %	5,5	18	12,9	9	7,6
	I darajali kapital						

<sup>78</sup> A bank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Respublikamizda tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorining yetakchi ishtirokchilaridan hisoblanadi. Xususan, A bank ham fond bozorida emitent va investor sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda. Jumladan, bankning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha talablarni bajargan. Bankning oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori yuzasidan belgilangan talablar ko'rsatkichi nol turibdi. Buning sababi, tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari rivojlanmaganligi, mamlakatimizda fond bozorining to'liq taraqqiy etmaganligi bilan izohlanadi.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha kreditorlar yoki sug'urtachilar, depozitariy va kliring – hisob-kitob markazlari roliga qatnashchilari sifatida qatnashishlari mumkin. Jumladan, tijorat banklari qarz oluvchilardan berilayotgan qisqa muddatli kreditlar uchun garov sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilish mumkin. Kreditlarga ko'rsatiladigan ko'pdan–ko'p xizmatlar orasida banklarning veksellar bilan o'tkazadigan operatsiyalari ham bor. Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o'rnatadi shu bilan birga qimmatli qog'ozni bir portfeldan ikkinchisiga o'tkazishni ham.

Odatda qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadni keltirmasa va keltirish kutilmasa, shuningdek u o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarib bo'lsa yoki moliyaviy resurslarni ishlatilishini yaxshiroq yo'llari paydo bo'lsa ular sotiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

- tijorat banki qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining holati;
- banklarning anderrrayting operatsiyalari;
- banklarning brokerlik operatsiyalari;
- moliyalashtirish operatsiyasi sifatida;
- REPO bitimlari;
- qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari sifatida REPO bitimlari;
- tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan olinadigan daromadlari;
- qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar.

## **7-mavzu: Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari tahlili**

### *R e j a:*

- 1. Bank daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili.**
- 2. Bank xarajatlarining tahlili.**

#### **1. Bank daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, barcha tijorat faoliyatining asosiy maqsadi maksimal darajada olinadigan daromadlari miqdorini oshirishdan iborat bo'lgani kabi, tijorat banklari, ham doimiy olinishi mumkin mumkin bo'lgan daromadlarini oshirib borishga harakat qilinadi.

Banklarning klassik vazifalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, banklarning asosiy daromadlari ularning aktiv operatsiyalari hamda vositachilik faoliyati natijasida vujudga keladi.

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda katta ahamiyatga ega bo'lib borayotgan nokredit xarakterdagi mijozlarga bank xizmatini ko'rsatish daromad manbasining muhimligi bo'yicha ikkinchi hisoblanadi. Odatda bu daromadlarni komission daromad deyiladi. Xizmatlarga to'lov, komission mukofot ko'rinishida olinadi. Komission mukofot hamma qilinadigan operatsiya yoki shartnoma summasidan foiz ko'rinishida o'rnatiladi.

Bank xizmatlari juda ham xilma—xildir va doimo har xil yangiliklar bilan to'ldirib boriladi. Bankka komission daromad keltiruvchi asosiy xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob kassa xizmatlari, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar, bank kafolatlarini berish, mijozlarning valyuta shartnomalaridagi bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozoridagi brokerlik xizmatlar va boshqalar.

Rossiyada, shuningdek ko'pgina chet davlatlarda ko'pchilik banklar hisob-kitob, kassa va boshqa xizmatlarini mijozlarga tekinga ko'rsatishardi. Foiz marjasining pasayishi natijasida, ya'ni, resurslarni jalb qilish va joylashtirishning o'rtacha qiymatlari orasidagi farq tufayli banklar bunday amaliyotdan voz kechishlariga to'g'ri keldi. Hozirgi paytda Banklar umumiy daromadlari hajmida komission daromadlarning o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu faqatgina foiz marjasi darajasining qisqargani va moliya bozoridagi daromadlaridan tashqari, komission daromadlarining foizli daromadlarga nisbatan barqarorligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari bank chet el valyutasidagi vositalarni qayta baholash orqali ham daromad olishi mumkin. Agar chet el valyutasi kursining oshishi, shu valyutadagi nominallashtirilgan bank aktivlari passivlarni oshiradi va aksincha, chet el valyutasi kursining pasayishi, shu valyutada nominallashtirilgan aktivlarning oshishiga olib keladi. Valyuta kursining katta tebranishi va bankning valyuta bozoridagi yuqori aktivligi

sharoitida, bu daromadlar bankning operatsion daromadlari tarkibida muhim hissaga ega bo‘lishi mumkin.

Qo‘shimcha faoliyatdan daromadlar bank daromadlari tarkibida unchalik katta ulushga ega emas. Ular o‘z ichiga nobank harakterdagi xizmatlar ko‘rsatishdan, korxonalar va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishdan, ijaraga berish va binoni realizatsiya qilishdan va boshqalardan daromadlar oladi.


Bank yordamchi bo‘limlarning tijorat faoliyatidan qo‘shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, agar bank shaxsiy reklama xizmatiga ega bo‘lsa, o‘z mijozlariga reklama xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, boshqa xizmatlar ham faqatgina bank faoliyatini ta‘minlashga emas, balki mijozlarga pullik xizmat ko‘rsatishlari ham mumkin. Bular yuridik, informatsion, telekommunikatsiya, marketing, auditor, transport va boshqa xizmatlar bo‘lishi mumkin.

Bank asosiy va qo‘shimcha faoliyat daromadlaridan tashqari, boshqa daromadlar kategoriyasiga kiruvchi boshqa daromadlar ham olishi mumkin. Ular:

- jarima, penyalalar, mijozlardan olinadigan jarimalar,
- ortiqcha tushumlarning kassaga tushushi;
- zaxira summasini qayta tiklash;
- hisobot yilida tushgan yoki aniqlangan o‘tgan yilgi daromadlar;
- daromadga soliq ortiqcha to‘laganligi uchun budjetdan mablag‘ qaytarish va boshqalar.

Bu daromadlar mohiyatan tasodifiy yoki bankning hisobot davrida «Ishlab topilmagan» hisoblanadi. Ular odatda kelasi davrga daromad rejasi tuzilganda hisobga olinmaydi.

Odatda bank daromadli foizli va foizsiz daromadlarga ajratilib o‘rganiladi.



### **19-rasm. Tijorat banklarida daromadlarning tarkiblanishi.<sup>79</sup>**

Bank daromadlarini foizli va foizsiz daromadlarga bo‘lib o‘rganishda bank tizimida ularning jami daromaddagi salmog‘ini hamda ularning o‘zgarish dinamikasini quyidagi jadval ma‘lumotlarida ko‘rish mumkin.

Ushbu daromadlarga asosan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, mamlakatda inflyatsiya darajasi bank xizmatlariga bo‘lgan talab va takliflar darajasi kabilar ta‘sir etadi.

<sup>79</sup> Muallif tomonidan tuzildi

Banklar daromadlarini tahlil qilishda dastavval ularning tarkibi va dinamikasi o'rganiladi.

Bu o'z navbatida bank daromadlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu holat o'z navbatida yuqori daromad keltiruvchi xizmatlarini yanada kengaytirish lozimligini aniqlash imkoniyatlarini beradi.

**48-jadval**

**Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari(mlrd. so'm)<sup>80</sup>**

<b>Bank tizimi daromad va xarajatlari</b>	<b>01.04.2017 y.</b>	<b>01.04.2018 y.</b>	<b>Farqi</b>
Foizli daromadlar	1 550,0	2 751,3	1 201,3
Foizli xarajatlar	892,5	1 569,0	676,6
<b>Foizli marja</b>	<b>657,5</b>	<b>1 182,3</b>	<b>524,8</b>
Foizsiz daromadlar	1 146,3	1 636,1	489,8
Foizsiz xarajatlar	228,8	238,7	9,9
Operatsion xarajatlar	802,8	1 128,0	325,2
<b>Foizsiz daromad (zarar)</b>	<b>114,7</b>	<b>269,4</b>	<b>154,7</b>
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	251,0	554,0	303,0
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	7,2	42,6	35,5
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	514,0	855,0	341,1
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	104,4	139,3	34,8
Foyda bo'yicha tuzatishlar	0,0	0,0	0,0
<b>Sof foyda (zarar)</b>	<b>409,5</b>	<b>715,7</b>	<b>306,2</b>

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan tijorat banklarining 2018 yil 1 aprel holatiga olgan sof foydasi 715,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 306,2 mlrd. so'mga ko'pdir. Banklarining daromadlari va xarajatlari ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ham oshganligini ko'rsatadi.

Bank daromadlarini shakllantirish tartibi XATB «UNIVERSAL BANK» misolida ko'rib chiqsak.

<sup>80</sup> www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

## 49-jadval

XATB «UNIVERSAL BANK»ning daromadlari tarkibi<sup>81</sup>

№	Bank daromadlari	2016 yil		2017 yil		O'zgarishi (+/-)	
		mln. so'm	ulushi, % da	mln. so'm	ulushi, % da	mln. so'm	ulushi, % da
1	Foizli daromadlar	10 181	47,2	17 306	51,1	7 125	70,0
2	Foizsiz daromadlar	11406	52,8	16551	48,9	5 145	45,1
<b>3</b>	<b>Jami daromadlar</b>	<b>21 587</b>	<b>100,0</b>	<b>33 857</b>	<b>100,0</b>	<b>12 270</b>	<b>56,8</b>

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki XATB «UNIVERSAL BANK» daromadlari 2017 yilda 33,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 2016 yilga nisbatan 12,3 mlrd. so'mga ko'pdir. Foizli daromadlari 2017 yilda 17,3 mlrd. so'mni ya'ni jami daromadning 51,1 %ini tashkil qilgan. Foizsiz daromadlari 16,5 mlrd. so'mni ya'ni jami daromadning 48,9 % ini tashkil qilgan. Foizli daromadning jami daromaddagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu holat bank uchun ijobiy deb aytish mumkin, chunki bankning foizli daromadi asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib uning ulushi 70–75 foizni tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Endi bank daromadi hisobida uni tashkil qiluvchi foizli daromadlar tarkibi o'rganiladi.

## 50-jadval

XATB «UNIVERSAL BANK»ning foizli daromadlari tarkibi tahlili<sup>82</sup>

Foizli daromad turlari	2016		2017		Farqi (+/-)	
	mln. so'm	% da	mln. so'm	% da	mln. so'm	% da
O'zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromad	203,6	2	190,4	1,1	-13,3	-0,9
Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar bo'yicha foizli daromad	0,0	0	0,0	0	0,0	0,0
Olish va sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromad – nosavdo qog'ozlar	0,0	0	0,0	0	0,0	0,0
Kreditlar bo'yicha foizli daromad	9977,4	98	17115,6	98,9	7138,3	0,9
Jami foizli daromadlar	10181,0	100	17 306	100	7125,0	0,0

XATB «UNIVERSAL BANK»ning foizli daromadlari 2017 yilda 17,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Uning asosiy qismini, ya'ni 17,1 mlrd. so'mni kreditlar bo'yicha foiz daromadi tashkil etadi. Bu bank foizli daromadining 98,9 % ini tashkil qiladi. Qolgan foizli daromadlar: O'zR MB va boshqa banklardagi

<sup>81</sup> XATB «UNIVERSAL BANK» moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>82</sup> XATB «UNIVERSAL BANK» moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



hisobvaraqlar bo'yicha foiz daromadi 1,1 % ni tashkil qiladi. XATB «UNIVERSAL BANK» asosiy faoliyati mijozlarni kreditlashga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin. Lekin bankning moliyaviy bozordagi faoliyati ancha sustligini ko'rinib turibdi. Bank ushbu yo'nalishdagi faoliyatini rivojlantirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklari foizsiz bo'lgan xizmatlar ko'rsatishdan olingan yondosh faoliyat daromadlari, ya'ni noan'anaviy bank xizmatlaridan daromadlari manbai bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, lizing va faktoring operatsiyalari, banklarning kafolatlash faoliyati, trust (ishonch) xizmati ko'rsatish, konsalting xizmatlari va boshqa faoliyat yuritish davomida amalga oshiradigan operatsiyalari hisoblanadi.

### 51-jadval

#### XATB «UNIVERSAL BANK»ning foizsiz daromadlari tarkibi tahlili<sup>83</sup>

Foizsiz daromadlar turlari	2016		2017		Farqi (+/-)	
	mln. so'm	% da	mln. so'm	% da	mln. so'm	% da
Vositachilik va xizmatlar uchun haq to'lashdan olingan daromad	9832,0	86,2	12711,2	76,8	2879,2	-9,4
Valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan foyda	684,4	6	2433,0	14,7	1748,6	8,7
Investitsiyalardan daromad	11,4	0,1	0,0	0	-11,4	-0,1
Dividendlar shaklidagi daromad	11,4	0,1	0,0	0	-11,4	-0,1
Boshqa operatsiya daromadlari	866,9	7,6	1406,8	8,5	540,0	0,9
<b>Jami foizsiz daromad</b>	<b>11406</b>	<b>100</b>	<b>16551</b>	<b>100</b>	<b>5145,0</b>	<b>0,0</b>

5-jadvaldan ham ko'rinib turibdiki foizsiz daromadning asosiy qismini vositachilik va xizmatlar uchun haq to'lashdan olingan daromad tashkil qiladi. 2017 yilda u 2,9 mlrd. so'mni tashkil qilib foizsiz daromadlar tarkibida 76,8 %ni tashkil qilgan. Qolgan foizsiz daromadlar ichida valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan foyda tashkil qiladi (14,7 % ) va boshqa operatsion daromad (8,5%) tashkil qiladi. Vositachilik daromad 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 9,4 mlrd. so'mga ko'paygan bo'lsada jami daromaddagi ulushi 9,4 foizga kamaygan, valyuta operatsiyalaridan tushgan foyda ham 8,7 foizga, boshqa operatsion daromadlar 0,9 foizga ko'paygan.

Xulosa qilib aytganda bank daromadlari tarkibi bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarga bog'liq bo'ladi. Bank foizli daromadlari ichida kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar salmog'i ko'p.

<sup>83</sup> XATB «UNIVERSAL BANK» moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

“A” bankning daromadlari tarkibi va dinamikasi<sup>84</sup>

(yil boshiga)

№	Olingan daromadlar	O‘tgan yil		Joriy yil		Joriy yil o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	
		qol–dig‘i mln. so‘m	sal–mog‘i %	qol–dig‘i mln. so‘m	salmo g‘i %	mln. so‘m	ulushi %
	Kreditlardan olingan foizli daromadlar	5372	45,0	5123	42,5	–249	–4,6
1.	O‘zRMB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha daromadi	0	0,0	0	0,0	0	0,0
2.	Davlat obligatsiyalaridan olingan daromadlar	5,5	0,05	5,5	0,05	0	0,0
3.	Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar	20,7	0,2	26,5	0,2	5,8	28,0
4.	Sotib olingan debitorlik qarzlari– faktring operatsiyasidan olingan daromadlar	3,6	0,03	1,8	0,01	–1,8	–50,0
5.	Lizingdan olingan daromadlar	293,1	2,5	390,4	3,2	97,3	33,2
	<b>Jami foizli daromadlar:</b>	5694,9	47,7	5547,2	46,1	–147,7	–2,6
	Foizsiz daromadlar					0	0,0
7.	Vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar	5680	47,6	5790	48,1	110	1,9
8.	Valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan foyda	543	4,5	680	5,6	137	25,2
9.	Boshqa operatsiyalardan olingan daromadlar	21	0,2	23	0,2	2	9,5
	Jami foizsiz daromadlar	6244	52,3	6493	53,9	249	3,9
	<b>Jami daromadlar:</b>	11938,9	100	12040,2	100,0	101,3	0,8

“A” banki o‘tgan yilda 11938,9 mln.so‘m daromad olgan. Uning 6244,0 mln.so‘mi ya’ni 52,3 foizini foizsiz daromadlar va 5694,9 mln.so‘mini ya’ni 47,7 foizi foizli daromadlar tashkil etgan.

Joriy yilda olingan jami daromad 12040,2 mln. so‘mga teng bo‘lgan. Ushbu yilda bankning daromadlari 101,3 mln.so‘m ya’ni 0,8 foizga o‘sgan.

<sup>84</sup> “V” bank shartli ravishda olingan.

Foizli daromadlarning asosiy qismini berilgan kreditlar uchun olingan foiz daromadlari tashkil etgan bo'lsa foizsiz daromadlar asosan vositachilik va boshqa xizmatlardan kelib tushgan.

Joriy yilda foizli daromadlarning 147,7 mln. so'm (2,6%)ga, kreditlardan olingan daromadlarning 249 mln.so'm (4,6%) ga kamayib ketganligi ushbu bankning kredit siyosatida jiddiy kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Bundan tashqari, ushbu holatga bankning foiz siyosati ham ta'sir etishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan daromad turlarini jadval ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

### 53-jadval

#### Bank faoliyati turi bo'yicha daromadlar guruhi.

Bank faoliyati turlari	Daromad turlari
1	2
Ssuda operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kredit berganlik uchun foiz</li> <li>• veksellar bo'yicha foizli daromad</li> <li>• o'tgan yilgi kredit operatsiyalari bo'yicha daromad</li> </ul>
Diskont operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• faktoring va forfeyting operatsiyalari bo'yicha diskont daromad</li> </ul>
qimmatli qog'ozlar bilan operatsiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>• uzoq muddatli majburiyatlarga qo'yilmalardan daromad</li> <li>• qimmatli qog'ozlarni qayta sotishdan daromad</li> <li>• qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar</li> </ul>
Kafillik faoliyati	<ul style="list-style-type: none"> <li>• berilgan kafolatlar bo'yicha olingan komissiyalar</li> </ul>
Depozit operatsiyalari va mijoz topshirig'i bo'yicha operatsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kassa operatsiyasi;</li> <li>• inkassatsiya operatsiyasi;</li> <li>• hisob-kitob operatsiyalaridan olinadigan komissiya</li> </ul>
Valyuta operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• chet el valyutasida bo'lgan operatsiya bo'yicha daromad</li> <li>• forvard, fyuchers, svop, opsiyon operatsiyalarini o'tkazishdan daromadlar</li> </ul>
Bank faoliyatining boshqa yo'nalishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mulkni ijaraga berishdan daromad</li> <li>• lizing operatsiyalaridan daromad</li> <li>• axborot xizmatlaridan daromad</li> <li>• jarima, penyalalar va boshqalar</li> </ul>

Markaziy va boshqa banklardagi, hisobvaraqlar bo'yicha daromadlarning yo'qligi, ushbu bank tomonidan boshqa banklarga daromad olish maqsadida depozit mablag'lari qo'yilmaganligini bildiradi.

Davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalaridan olgan daromadlari juda kam ulushni tashkil etadi. Bu holat, bank aktivlarida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning juda oz miqdorni tashkil etishi bilan izohlanadi. Keyingi davrda bankning lizing operatsiyalari va ulardan olingan daromadlar miqdorining oshib borishi kuzatiladi. Ushbu operatsiyalardan bankning joriy yilda olgan daromadlari, o'tgan yilga

nisbattan 33,2 foizga oshgan. Foizsiz daromadlarning asosiy qismi ko'rsatilgan xizmatlardan kelib tushgan bo'lib, uning asosiy qismini esa mijozlarga hisob-kitoblarda vositachilik evaziga hosil bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, bank kelgusi davrda o'zining kredit va foiz siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishi, ko'proq daromad keltiradigan faktoring va lizing operatsiyalarini kengaytirishi va investitsion siyosatiga ham o'zgartirishlar kiritishi lozim bo'ladi.

Shuni alohida qayd etib o'tishimiz lozimki, banklarining faoliyati nihoyatda keng qamrovli va xilma-xildir. Yagona bir xolding kompaniyalari ko'rinishida, bank va uning joylardagi filiallari ko'rsatadigan xizmatlarning xilma-xilligiga, mumkin qadar o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishning qulay hamda arzon turli ko'rsatmalar buyruqlar sonini bir qadar cheklangan tartibda qo'llash imkoniyatlari rivojlanmoqda.

So'nggi vaqtlarda bank ishiga kiritilayotgan muhim yangiliklardan biri kredit kartochkalarini qo'llash, ishbilarmonlar firmalarga zamonaviy xalqaro andozalar asosidagi buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatish, faktoring operatsiyalari, ijarani moliyalashtirish, evrodollar bozoridagi operatsiyalarda ishtirok etish favqulotda holatlarda pul hujjatlarini inkassatsiyalash uchun abonent yashiklari tizimidan foydalanish va boshqalar.

Dunyo miqyosda tan olinayotgan eng ilg'or va zamonaviy bank texnologiyalarini O'zbekiston bank tizimiga qo'llash, bu o'z-o'zidan bank daromadlarining ko'lamini kengaytirib bormoqda.

Bank daromadining mohiyati va boshqa moliyaviy institutlaridan farqlanib turuvchi xususiyati – bank pul resurslarini tashkil etib va ularni yuqori daromadli bank portfellarini yaratish layoqati bilan xususiyatlanadi.

Bank resurslarini tashkil qilish imkoniyatlari iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular moslashuvchan kredit tizimini amalga oshirmoqda, qaysiki iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

## **2 Bank xarajatlari tahlili**

Bank daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarini kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

**Xarajat** – bu pul vositasini ishlab chiqarish (bank) va noishlab chiqarish (nobank) faoliyatlariga ishlatish (xarajat qilish) tushuniladi.

Odatda, bank xarajatlarini quyidagicha tasniflanadi:

1. Operatsion xarajatlar:

1.1. foizli xarajatlar

1.2. komission xarajatlar

1.3. moliya bozoridagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlar

1.4. boshqa operatsion xarajatlar.

2. Bank faoliyatini funksionallashtirishni ta'minlashi bo'yicha xarajatlar.

3. Boshqa xarajatlar

Bank operatsiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar operatsion xarajatlar deyiladi. Ularni to'g'ri yoki o'zgaruvchan xarajatlar deyish mumkin. Chunki, xarajatning kattaligi bank amalga oshirgan operatsiya hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bankning xarajatlari strukturasi ishlab chiqarish korxonasinikiga nisbatan boshqacha bo'ladi. Bankda hom-ashyo va materiallarga katta xarajatlar yo'q, eksplutatsiya va asosiy vositalarning xizmatlariga xarajatlar qiyosan unchalik katta emas, hattoki ish haqiga to'lov ham bank xarajatlarning umumiy summasida katta ulushga ega emas. Bank xarajatlari strukturasi ko'proq savdo-vositachilik korxonalarini xarajatlari strukturasi eslatadi. Mablag'larni joylashtirishdan daromad olish uchun, avvalo, bu mablag'larni jalb qilish kerak. Kredit va qo'yilmalarning bir qismi bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, kredit resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil qiladi. Jalb qilingan mablag'larga esa bank foiz to'lashi kerak. Odatda, bank xarajatlarning katta qismini jalb qilingan mablag'larga xarajatlar tashkil qiladi. Bu to'lovlar foiz shaklida amalga oshirilganligi uchun, bu xarajatlar foizli deyiladi.

Kredit faoliyati bilan aktiv ishlaydigan universal bankda foizli xarajatlarning ulushi hamma xarajatlarning deyarli 70%ini tashkil etishi mumkin. Foizli xarajatlarning kattaligi va ularning xarajatlar umumiy hajmidagi ulushi bank passivlari tuzilishiga bog'liq. Aholi omonatlari va banklararo kreditlar bank uchun qimmatli hisoblanadi. Shuningdek, banklar yuridik shaxslar depozitlari va chiqarilgan qarz majburiyatlariga (obligatsiya, foizli veksellar va depozit sertifikatlari) nisbatan katta foizlar to'laydi. Bank uchun eng arzon xarajat bo'lib, yuridik shaxslarning hisob-kitob va joriy hisobraqami, jismoniy shaxslarning talab qilib olingunga hisobraqami mablag'lariga to'lanadigan to'lovlar hisoblanadi.

Bank majburiyatlari strukturasi bu mablag'lar ulushi qancha ko'p bo'lsa, foizli xarajatlar shuncha kam bo'ladi va bank foydasi ko'payadi.

Bank foizli xarajatlarni uning umumiy hajmiga nisbatan o'sishi, bankning kredit resurslarini oladigan bozor kon'yukturasi yaxshimasligidan yoki bankning bu bozorlardagi raqobat mavqeini yomonlashganligidan dalolat beradi. Foizli xarajatlarning o'sishi, foizli daromadlarning adekvat o'sishi bilan yonmayon borsa, bu hol normal hisoblanadi. Foizli daromadlarning o'sish sur'ati foizli xarajatlarning o'sishidan o'zib ketsa, bu hol bank uchun ideal hisoblanadi.

Odatda, moliya bozoridagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlarni alohida guruhga ajratishadi. Bank bu bozorlardan qimmatliklarni realizatsiya qilish bo'yicha daromadlar oladi (qimmatli qog'ozlar, chet el valyutalari, qimmatli metallar va boshqalar) xarajatlarga esa, qimmatliklarni olish uchun ketgan sarflar kiradi. Bank kuponli obligatsiya sotib olayotganida yig'ilgan kuponli daromadlarni to'lashiga to'g'ri keladi. Kuponsiz qimmatli qog'ozlar odatda, diskont bilan sotib olinadi. Moliya bozori kon'yukturasi yomonlashganda, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasi va boshqa mulklarni qayta baholash natijasida, bank anchagina xarajatlar ko'rishiga to'g'ri keladi.

Bevosita aniq bank operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar: oborotdan har xil soliqlar (Masalan: chet el valyutasini sotib olishga soliqlar), mijozlar to'lovlari bo'yicha pochta va telegraf xarajatlar va boshqalar. Bu xarajatlar boshqa operatsion xarajatlar deyishadi.

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar, bankni funksionallashtirishni ta'minlash bilan bog'liq, ammo aniq operatsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri bormaydigan xarajatlar bu guruhga kiradi. Iqtisodiy nazariyada ularni egri yoki shartli–doimiy xarajatlar deyiladi.

Aktivlari hajmi kichik va o'rta bo'lgan banklarda bu xarajatlar summasi unchalik bilinmaydi. Jalb qilingan va joylashtirilgan resurslari hajmi katta bo'lgan yirik banklarda, bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar umumiy xarajatlarning 10–12% ini tashkil etadi.

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Personalga xarajatlar (ish haqi, premiya, moddiy yordam, xodimlarga har xil imtiyozlar berish, komandirovka xarajatlari, personalni izlash va o'qitish bo'yicha xarajatlar, mehnatni muhofazalash xarajatlari va boshqalar);

2. Bino va inshootlarga xarajatlar (ijara, amortizatsiya, binolar remonti va ekspluatatsiyasi, kommunal to'lovlar, er solig'i, mol–mulk solig'i, binoni qo'riqlashga xarajatlar va boshqalar)

3. Ish joyini asbob–anjomlar bilan ta'minlashga xarajatlar (sotib olish, remont, bank uskunalarini xizmati va asranganligi: kompyuter, mebel, qo'riq signalizatsiya, seyf, hisob mashinalari, valyuta detektorlari va boshqalar);

4. Reklamaga xarajatlar;

5. Bank faoliyatini informatsion ta'minlashga xarajatlar (vaqti–vaqti bilan bo'lib turadigan nashrlar, maxsus adabiyotlarni sotib olish va yozilish, informatsion mahsulotlar va tashqi agentlar xizmatiga to'lovlar, marketing izlanishlariga xarajatlar);

6. Aloqa va telekommunikatsiyaga xarajatlar (aloqa kanallarini o'tkazish va ijarasi, telefon va Internet xizmatiga to'lovlar va boshqalar);

7. Transport xarajatlari;

8. Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqa xarajatlar (auditorlik tekshiruvlariga xarajatlar, aksiyadorlar yig'ilishini tashkil etishga, notarial va yuridik xizmatlarga to'lovlar).

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlarni har xil mezonlar bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- joriy xarajatlar va kapital xarakterdagi xarajatlar (asosiy vositalarni sotib olish);
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlar;
- chiqimlarga tegishli xarajatlar va sof foydadan amalga oshirilgan xarajatlar;
- me'yoriy va nome'yoriy xarajatlar.

Me'yoriy xarajatlarga komandirovka, reklama, kadrlarni tayyorlash va boshqa ayrim xarajatlar kiradi. Bu erda qonunda ko'rsatilgan me'yorlar doirasidagi xarajatlar summasi ko'zda tutiladi.


Banklar O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug'urta fondiga qonunlarga muvofiq o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan bank to'lovlarini amalga oshiradilar. Bank nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish davlat majburiyatlarini bajarishlar uchun sarflangan vaqt evaziga haq to'lash kabi xarajatlar qiladi.

Bundan tashqari bankning foizga dahli yo'q xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari kiradi. Bank oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi. Bunda bank nomoddiy aktiv shakllantiradi va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, bank xarajatlarini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'lib keltirish mumkin:



**20-rasm. Bank xarajatlarining tarkibi**

Bevosita bank operatsiyalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar operatsion xarajatlar deyiladi. Ular shuningdek, to‘g‘ri yoki o‘zgaruvchan xarajatlar deyiladi, ularning miqdori bevosita bank bajarayotgan operatsiyalar hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

Bank faoliyatini ta‘minlovchi xarajatlarga bank funksional faoliyatini ta‘minlovchi va aniq biror–bir operatsiyaga tegishli bo‘lmagan xarajatlar kiradi. Buni iqtisodiy nazariyada egri xarajatlar yoki o‘zgarmas xarajatlar deb atashadi. Ushbu xarajatlar kichik banklarda operatsion xarajatlar bilan deyarli teng bo‘ladi, lekin katta banklarda ular operatsion xarajatlarga nisbatan ancha kam bo‘ladi. Sababi ular juda ko‘p jalb qilingan mablag‘lar bilan ishlaydi.



AT «Aloqabank» xarajatlari tarkibi va dinamikasi<sup>85</sup> (mln.so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2016 yil		2017 yil		O‘zgarishi(+,-)	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Foizli xarajatlar	67786,1	37,60	80793,1	30,82	13007	19,19
2	Foizsiz xarajatlar	20065,6	11,13	59136,8	22,56	39071,2	194,72
3	Operatsion xarajatlar	92416,3	51,27	122189,7	46,62	29773,4	32,22
<b>Jami bank xarajatlari</b>		<b>180268</b>	<b>100,00</b>	<b>262119,6</b>	<b>100,00</b>	<b>81851,6</b>	<b>45,41</b>

Yuqoridagi jadvalda biz AT “Aloqabank” ning xarajatlar tarkibi va ular dinamikasini ko‘rishimiz mumkin. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra bankning jami xarajatlari 2016-yilda 180268 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilga kelib 45,41%ga o‘shirib 262119,6 mln.so‘mga etdi. AT “Aloqabank” xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, xarajatlarning katta qismini operatsion va foizli xarajatlar tashkil qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bankning operatsion xarajatlari 2016-yilda 92416,3 mln.so‘mni tashkil qilib, jami xarajatlarning 51,27 %ini egallagan bo‘lsa, 2017-yilga kelib esa 122189,7 mln.so‘mga etdi va u jami xarajatlarning 46,62 % ini egalladi. Foizli xarajatlar esa yil davomida 19,19 %ga kamaygan. Foizsiz xarajatlarga qaraydigan bo‘lsak, ular hisobot yili davomida o‘shirish xarakteriga ega. Ya’ni ular 2017-yilda 59136,8 mln.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 174,2 %ga oshgan. Foizsiz xarajatlar jami xarajatlarning 2016 yilda 11,13 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilda bu anchayin oshib, 22,56 foizga etganini ko‘rishimiz mumkin. Operatsion xarajatlarning o‘shirishini xodimlarni rag‘batlantirish hisobiga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa xarajatlar kategoriyasiga ko‘zga tutilmagan hollarda bo‘ladigan tasodifiy xarajatlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bank faoliyatidagi risklarni qoplashga ketgan **xarajatlar** deyish mumkin. Bu xarajatlar bank tizimi smetasiga qo‘shiladi yoki oldingi davrdagi ko‘zda tutilmagan xarajatlar darajasidan kelib chiqqan holda, smetada aniq bir summa nazarda tutiladi.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- shtraflar, penyalar, jarimalar;
- hisobot davrida chiqqan o‘tgan yilgi xarajatlar;
- bank mulkini realizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar;
- debitorlik qarzlarni yopish bo‘yicha xarajatlar;

<sup>85</sup> AT «Aloqabank» yillik hisoboti ma’lumotlari asosida

- mijoz noroziligi bo'yicha to'langan to'lovlar;
- boshqa xarajatlar.

Bank xarajatlarini tahlil etishda xarajatlar tarkibi, dinamikasi, daromadlarga mosligi va samaradorligi masalalariga e'tibor qaratiladi.

**55-jadval**

**Tijorat banklari xarajatlari va ularning tarkibi<sup>86</sup>**

Ko'rsatkichlar	2016 yil			2017 yil		
	mlrd. so'm	Tarmoq–dagi ulushi % da	Umumiy daromad–dagi ulushi % da	mlrd. so'm	Tarmoq–dagi ulushi % da	Umumiy daromad–dagi ulushi % da
Banklardan jalb qilingan vositalar bo'yicha foizlar	16380	7,6	3,0	18240	6,9	2,8
Ssuda to'lovlari bo'yicha foiz	30040	13,9	5,5	40000	15,2	6,1
Mijozlardan jalb qilingan depozitlr bo'yicha foizlar	82720	38,3	15,1	104550	39,6	15,8
Boshqa foizli xarajatlar	86950	40,2	15,9	101240	38,3	15,3
<b>Jami foizli xarajatlar</b>	<b>216080</b>	<b>100,0</b>	<b>39,5</b>	<b>264030</b>	<b>100,0</b>	<b>40,0</b>
Komission xarajatlar	31450	11,4	5,8	41620	12,8	6,3
Ish haqi xarajatlari	131870	47,7	24,1	155850	47,8	23,6
Boshqa operatsion xarajatlar	113010	40,9	20,7	128520	39,4	19,5
<b>Jami foizsiz xarajatlar</b>	<b>276330</b>	<b>100,0</b>	<b>50,5</b>	<b>325990</b>	<b>100,0</b>	<b>49,4</b>
Ikkinchi darajali xarajatlar						
Ssuda bo'yicha ehtimolli yo'qotishlar bahosi	29180,0	53,3	5,3	35830,0	51,0	5,4
Kredit bn bog'liq bo'lmagan yo'qotishlar bahosi	5130,0	9,4	0,9	7280,0	10,4	1,1
Daromad solig'i	20460,0	37,4	3,7	27250,0	38,8	4,1
SOF tushumga boshqa tuzatishlar	–	0,0	0,0	–110,0	–0,2	0,0
Jami ikkinchi darajali xarajatlar	54770,0	100,0	10,0	70250,0	100,0	10,6
<b>Jami xarajatlar</b>	<b>5471,8</b>			<b>6602,7</b>		

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz bank tizimi xarajatlari tarkibida foizsiz xarajatlar yuqori salmoqqa ega bo'lgani holda 2016 yil jami xarajatlarning 49,4 foizini tashkil qilgan. Bu uning tarkibida

<sup>86</sup> Рейтинговое агентство «Анбор-Рейтинг»/ Аналитический обзор банковского сектора: №46, февраль 2017г. 18 с.

banklarning eng asosiy xarajatlaridan hisoblanadigan ish haqi xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar borligi bilan izohlanadi.

“A” banki xarajatlari tahlilini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz.

**56-jadval**

**“A” bankning xarajatlari tarkibi va dinamikasi**

(yil oxiriga)

№	Joriy likvid aktivlar	O‘tgan yil boshiga		Joriy yil boshiga		O‘zgarishi	
		qoldig‘i mln. so‘m	salmog‘i %	qoldig‘i mln. so‘m	salmog‘i %	mln. so‘m	salmog‘i %
1.	Talab qilib olinadigan depozitlar uchun to‘langan foiz xarajatlar	45,2	0,4	46,4	0,4	1,2	2,7
2.	Jamg‘arma depozitlar bo‘yicha, foiz xarajatlar	148,5	1,4	151,6	1,4	3,1	2,1
3.	Muddatli depozitlar bo‘yicha foiz xarajatlar	1260	12,1	1271	12,1	11	0,9
4.	Depozit sertifikatlari bo‘yicha foiz xarajatlar	0	0,0		0,0	0	0,0
5.	Banklarga to‘langan foiz xarajatlari	520	5,0	515,6	4,9	-4,4	-0,8
6.	Kreditlar bo‘yicha ehtimoliy zaxiralar operatsion xarajatlari	730	6,99	740	7,1	10	1,4
7.	Xodimlarga to‘langan ish haqi va boshqa xarajatlar	4120	39,4	4125	39,4	5	0,1
8.	Ijara xarajatlari	210	2,0	218	2,1	8	3,8
9.	Transport va xizmat safari xarajatlari	51	0,5	55	0,5	4	7,8
10.	Ma‘muriy xarajatlar	580	5,6	585	5,6	5	0,9
11.	Asosiy vosita eskirishi– amortizatsiya	510,9	4,9	529,9	5,1	19	3,7
12.	Sug‘urta, soliq va boshqa to‘lovlar	820,5	7,9	830,8	7,9	10,3	1,3
13.	Boshqa operatsion xarajatlar	218,5	2,1	220,9	2,1	2,4	1,1
14.	Olingan kreditlar uchun to‘lovlar	1230	11,8	1180	11,3	-50	-4,1
	<b>JAMI:</b>	<b>10444,6</b>	<b>100</b>	<b>10469,2</b>	<b>100</b>	<b>24,6</b>	<b>0,2</b>

“A” bankning joriy yil xarajatlari o‘tgan yilga nisbatan 24,6 mln. so‘m yoki 0,2 foizga o‘sgan. Xarajatlar tarkibida asosiy o‘rinni xodimlarga to‘langan ish haqi va boshqa xarajatlar tashkil etgan. Ular hisobiga umumiy xarajatlarning 39,4 foizi to‘g‘ri keladi.

Jamg'arma va muddatli depozitlar uchun to'langan foiz to'lovlarining umumiy xarajatlardagi ulushlari pastligi bank majburiyatlari tarkibida ularning salmog'i kamligi bilan izohlanadi. Foizli daromadlar miqdorini oshirish uchun, bank tomonidan barqaror majburiyatlar jalb etishga va ularni yuqori foizli daromad keltiruvchi kredit, lizing va faktoring operatsiyalariga yo'naltirishni tashkil etmog'i lozim.

Olingan kreditlar uchun to'lovlar va kreditlar bo'yicha **ehtimolli** zaxiralar operatsion xarajatlar ham yil boshiga 18 foizdan oshib ketgan. Bu holat bank tomonidan yil davomida boshqa yil davomida boshqa banklar va yuridik tashkilotlardan mablag'lar jalb etishga ehtiyoj sezganligi va muammoli kreditlari salmog'i biroz miqdorda ortib borganligini bildiradi.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Odatda, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxalarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

Xarajatlarni minimallashtirish, bank daromadlari va xarajatlarini optimallashtirish masalalari doimiy ravishda bank faoliyati muvofaqqiyatning asosi bo'lmog'i lozim.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- daromad;
- xarajat;
- operatsion xarajat;
- kredit;
- daromad;
- foizli daromad;
- foizsiz daromadlar;
- xarajat;
- foizsiz xarajat;
- foizli xarajat;
- operatsion xarajatlar;
- kambaholi tez eskiruvchi buyumlar;
- inventarizatsiya;
- amortizatsiya;
- davr xarajatlari.

## **8-mavzu: Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlil**

### *R e j a:*

**1 Tijorat banklari likvidligining mohiyati va ahamiyati.**

**2. Tijorat banklari likvidlik ko'rsatkichlari tavsifi.**

**3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari.**

### **1 Tijorat banklari likvidligining mohiyati va ahamiyati**

Banklar – bugunki o'tish davrida muhim moliyaviy institutar hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlab, mablag'larni uzida yig'adi va kerakli sohaga yo'naltiradi. Banklarning boshqa tashkilotlardan farqi va xususiyati shundan iboratki, u asosan o'zgalarning mablag'lari (jalb qilingan mablag'lar) evaziga bank operatsiyalarini amalga oshiradi va shuning uchun mablag'larni saqlash yuzasidan ular zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi.

«*Likvidlik*» termini lotin tilidagi «liquidus» so'zidan olingan bo'lib, suyuq, oqib yuruvchi ma'nosini anglatadi. So'zning ma'nosi jihatidan yondoshadigan bo'lsak ham moddiy qimmatliklarning pul mablag'lariga oson realizatsiya bo'lishini va tez konvertasiya qilinishini anglatadi. Lekin likvidlikga bir tomonlama yondoshib bo'lmaydi

Tijorat banklari likvidligi tushunchasi bu uning barcha kontragentlari oldidagi qarz va moliya majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini anglatadi va bu qobiliyat bankning yetarli o'z kapital mablag'lariga ega bo'lishi, aktivlari tarkibi, muddati jihatidan passivlarning tarkibi va muddatiga mos kelishi bilan aniqlanadi.

Ma'lum davr maboynida naqd pul tushumiga ega bo'lish va bozor talabi noaniq bo'lishi sharoitida mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsion faoliyatini amalga oshirish uchun bank likvidli mablag'larga muhtoj bo'ladi, ya'ni likvidli mablag'lar bu shunday aktivlarki, minimal yuqotish riski bilan yoki umuman yuqotishlarsiz tez pulga aylanadigan aktivlar.

Demak, bank likvidligi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini shakllantiruvchi ularning to'lovga layoqatligini tavsiflovchi asosiy omildir.

Agar tijorat banki o'zining qarz va moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun yetarli darajada naqd pul mablag'lariga, boshqa likvidli aktivlarga va shuningdek boshqa manbalardagi mablag'larini tez realizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lsa u holda bank likvidli hisoblanadi. Bundan tashqari, likvidlik zaxirasini shakllantirish ko'zda tutilmagan ixtiyoriy moliyaviy ehtiyojlar uchun zarurdir. Jumladan: kreditlarga bo'lgan talabning mavsumiy va ko'zda

tutilmagan tebranishlarini kompensasiyalash, omonat qoldig'i to'satdan kamayganda mablag'lar o'rnini to'ldirish va hokazo.

Jahon bank nazariyasida va amaliyotida likvidlik tushunchasiga «zaxira» va «oqim» sifatida qaraladi. Bunda likvidlikka «zaxira» sifatida qaralganda, konkret vaqt ichida ishlatilmagan zaxiralar hisobiga yuqori likvidli aktivlar foydasiga aktivlar tarkibini o'zgartirish yo'li bilan mijoz oldidagi majburiyatlarni bajara olish imkoniyatining hajmini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Likvidlik "oqim" sifatida dinamika nukta-nazaridan tahlil qilinadi, va bunda ma'lum davr ichida likvidlikning yuz bergan noxush darajasini o'zgartirish, aktiv va passivlarning mutanosib bandlarini samarali boshqarish evaziga likvidlikning obyektiv zaruriy darajasiga erishish (uni ushlab turish), qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish, daromadlarni ko'paytirish evaziga bankning moliyaviy holatini mustahkamlash ko'zda tutiladi.

Bank likvidligining funksional mohiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1. Bank likvidligi o'zlarining hisob va joriy raqamlaridan to'lovlarni amalga oshiruvchi va kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarning, shuningdek depozitlardan o'z mablag'larini tasarruf qilayotgan omonatchilarning pulga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan.

2. Bank likvidligi bankning obrusi bilan o'zaro bogliq bo'ladi, ya'ni bankda likvidlik bo'yicha muammolar bo'lmasa u holda, kredit tashkilotining moliyaviy nobarqarorlik riskidan uzoqda yuruvchi mijoz uchun shu bank jozibali hisoblanadi.

3. Bank likvidligi zararli va foydasiz bo'lgan operatsiyalarni bajarilishini oldini olish maqsadida aktivlarni noo'rin sotmaslik imkoniyatini beradi.

Amaliyotda va nazariyada bank likvidligi uning daromadliligi bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Aktivlarni boshqarish jarayonida banklar doimiy ravishda «daromadlilik–likvidlik» ko'rinishdagi qarama–qarshilikka duch keladilar. Bu erda gap bitimlarni tuzish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, daromad va risk o'rtasidagi mutanosiblikni tanlash jarayonida har–bir iqtisodiy agent (xususan banklar) hal qilishi kerak bo'lgan asosiy muammo to'g'risida bormoqda.

Likvidlik holati ikki pozisiya tomonidan xarakterlanadi:

- Defitsit;
- Ortiqcha.

Likvidlik krizisi haqida gapirilganda aynan unga bo'lgan defitsit nazarda tutiladi. Ammo, haddan tashqari bank likvidligining mavjud bo'lishi ham bank uchun yaxshi holat hisoblanmaydi, chunki bunda o'tkazilayotgan operatsiyalar samarasizligi yoki faoliyat amalga oshirilmalik holati yuz beradi.

Taniqli rossiyalik olim professor, i.f.d O.I. Lavrushinning o'quv qo'llanmasida likvidlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Likvidlik – bu bank faoliyatining umumlashtirilgan jihatlaridan biri bo'lib, uning ishonchliligini anglatadi. Bank likvidligi – bankning omonatchilari va kreditorlari oldidagi uz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini anglatadi».<sup>87</sup> Mazkur o'quv qo'llanmaning avtorlari tijorat banklari likvidli ekanligini bildiruvchi ikki belgilarning (ya'ni majburiyatlarni o'z vaqtida va yuqotishsiz bajarish) mavjud bo'lishi bank faoliyati sifatini aniqlab beruvchi ko'pgina ichki va tashqi tartibdagi omillar bilan asoslanadi deb hisoblaydilar.

*Ichki tartibdagi omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:*

- bankning mustahkam kapital bazasi, aktivlarning sifati;
- depozitlar sifati, me'yoriy darajada tashqi manbalarga bog'liq bo'lish;
- aktiv va passivlarning muddati bo'yicha mutanosibligi;
- to'g'ri yo'lga qo'yilgan menejment;
- birinchi darajali bank imiji.

Bankning mustahkam kapital bazasi deganda aktivlar bo'yicha riskni qoplash va omonatchilar mablag'larini kafolatlash maqsadida o'z kapitalining absolyut qiymatiga ega bo'lishi tushiniladi. Bankning o'z kapitali asosini ustav fondi va har xil maqsadalar, shu jumladan bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga mo'ljallangan boshqa fondlar tashkil qiladi. Shaxsiy kapital qanchalik ko'p bo'lsa bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Bank likvidligiga ta'sir qiluvchi boshqa bir omil bu uning aktivlari sifati. Aktivlar sifati to'rta kriteriy asosida aniqlanadi: likvidlilik, risklilik, daromadlilik va diversifikasiyalanganlik. Likvidli aktivlar deganda aktivlarni realizatsiya qilish yoki qarzdor tomonidan qarzlarni sundirilishi natijasida ularni pul ko'rinishiga tez transformatsiyalanish qobiliyatiga tushiniladi.

Aktivlar likvidligining darajasi ko'p jihatidan ularning nima maqsadda ishlatilishiga bog'liq bo'ladi. Bankda pul ko'rinishida mavjud bo'lgan aktivlar asosan to'lov funksiyasini bajarish uchun ishlatiladi. Ssudalar, qimmatli qog'ozlar va investitsiya qilinadigan pul qo'yilmalari bank mijozining qisqa va uzoq muddatli ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

Bu borada likvidlik darajasi jihatidan bank aktivlari bir qancha guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhni quyidagi yuqori darajali likvidli aktivlar tashkil qiladi: bankning kassa va vakillik hisob raqamidagi pul mablag'lari, bank portfelidagi qimmatli qog'ozlar.

---

<sup>87</sup> (Лаврушин О.И. и др. Банковское дело Изд. 2-е перераб. И дополн. –М.: Финансы и статистика, 2005 г. –С. 140).

Birinchi guruh aktivlar hajmini ushlab turish bank likvidligini ta'minlashning ajralmas va zaruriy sharti hisoblanadi.

Likvidlik darajasi bo'yicha aktivlarning ikkinchi guruhini jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan qisqa muddatli sudalar, banklararo kreditlar, faktoring operatsiyalari, aksiyadorlik jamiatlarning tijorat qimmatli qog'ozlari tashkil qiladi. Bu aktivlarni pul shakliga keltirish uchun nisbatan kuproq muddat kerak bo'ladi.

Likvidlik darajasi jihatidan aktivlarning uchunchi guruhi uzoq muddatli qo'yilmalar va investitsiyalar, uzoq muddatli ssudalar, lizing operatsiyalari, qimmatli qog'ozlarga q uzoq muddatli investitsiyalarni o'z ichiga oladi va nihoyat aktivlarning likvidlik darajasi bo'yicha turtinchi guruhi ham mavjudki, bunda ular nolikvid aktivlar hisoblanib muddati o'tgan ssudalar, ba'zi-bir turdagi qimmatli qog'ozlar, bino va inshootlar ko'rinishda bo'ladi.

Aktivlar sifati kriteriysi bo'lgan risklilik – bu aktivlarni pul shakliga aylantirish jarayonida zarar ko'rish mumkinligini bildiradi.

Aktivlar riskining darajasi ularning ma'lum bir turlariga xos bo'lgan ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Masalan, ssudalar riski qarz oluvchining moliyaviy holati, kreditlash obyektlarning maqsadi, ssuda hajmi, kreditni berish tartibi va uni so'ndirish va hokazolar bilan asoslangan.

Qimmatli qog'ozlarga qilingan qo'yilmalar riski emitentlarning moliyaviy barqarorligi, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish mexanizmi, birjada kotirovka qilinishi qobiliyati va boshqalarga bog'liq.

Aktivlar risklilik darajasining turkumlanishi har-xil mamlakatlar va har-xil maqsadlar uchun bir xil bo'lmaydi.

Tizimlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi jahon amaliyotida kapitalning etarligini baholash uchun Bazel' kelishuvining tavsiyalaridan foydalaniladi va bunga ko'ra riskka tortilgan aktivlar to'rt guruhga ajratiladi. O'zbekiston Respublikasining hozirgi bank amaliyotida Markaziy bankning 2015-yildagi 2696-sonli Tartibiga asosan aktivlar risklilik darajasi bo'yicha 4 guruhga bo'linadi (0%,20%,50%, 100% va 150%). Mamlakatimiz bank tizimi kredit portfelini baholash maqsadida riskning har xil darajalarini aniqlash yo'li bilan kreditlar 5 ta guruhga ajratiladi.

Aktivlarni mazkur kriteriy bo'yicha turkumlanishi yuzasidan har xil mamlakatlarning konkret amaliyotiga bog'liq bo'lmagan yagona printsiptial tartib borki, bunda bank likvidligining aktivlar riskiga bog'liqligini o'rnatish imkonini beradi. Bank aktivlarining yalpi riski qancha yuqori bo'lsa, bank likvidligi shuncha past bo'ladi.

Aktivlar daromadlilik ular sifatining kriteriysi hisoblanib, aktivlarning ishga layoqatliligini va effektivligini bildiradi, ya'ni bunda daromad topish qobiliyati



mavjud bo'lib, bankni rivojlantirish va kapital bazasini mustahkamlash uchun imkoniyat mavjud bo'ladi.

Daromadlilik jihatidan bank aktivlari ikki guruhga bo'linadi: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlar. Daromad keltiruvchi aktivlar ulushi qancha yuqori bo'lsa daromad hajmi ham shuncha ko'p bo'ladi va bu o'rinda bankning o'z kapital bazani mustahkamlash imkoniyati kengayadi. Bu esa bank tomonidan o'z zimmasiga olgan risklarga shiddat bilan bardosh bera olish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, bank aktivlari tarkibini daromadlik darajasi jihatdan tartibga solishda ehtiyot bo'lish kerak, chunki haddan tashqari daromadlikka intilish aktivlarini yuqotilishiga va likvidlikni pasayishiga olib keladi.

Bank resurslarni har xil sohalarga joylashtirilganlik darajasini ko'rsatuvchi diversifikatsiya ham aktivlar sifatining kriteriysi hisoblanadi. Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalangan bo'lsa bank shunchalik likvidli hisoblanadi.

Bank depozit bazasining sifati ham bank likvidlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini bank tomonidan vakillik hisob raqamlariga, muddatli va jamg'arma omonatlariga jalb qilish orqali depozit bazasi shakllantiriladi. Depozitlar (talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli) barkarorligi ular sifatining kriteriyasini belgilab beradi. Depozitlarning barqaror qismi qancha ko'p bo'lsa bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi, chunki aynan shu qismda resurslar bankdan chiqib ketmaydi. Depozitlar barqaror qismining ko'payishi bankning likvidli aktivlarga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi, ya'ni bunda majburiyatlar tiklanishi yuz beradi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tahlillar talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar ko'proq barqarorlikka ega emasligini ko'rsatgan. Depozitning mazkur turi foiz stavkasiga bog'liq emas. Uning u yoki bu banka tegishli bo'lishi ko'p jihatdan quyidagi faktorlarga bog'liq bo'ladi: mijozlarga taklif qilinadigan xizmatlarning turli xil bo'lishi va bankning mijozga yaqin joylashishi. Shuning uchun mijoz bankda yuqoridagi talablarni qanoatlantiruvchi hisob raqamlarni ochish bilan bir qatorda doimiy ravishda mablag'larni tassaruf qilish va to'ldirish yo'li bilan bank bilan uzoq muddatli aloqa o'rnatadi.

Xorij tadqiqotchilarning tahliliga ko'ra jamg'ariluvchi va muddatli depozitlar yuqori darajadagi barqarorlikka ega bo'lishi ko'rsatilgan. Bu turdagi depozitlarning ma'lum bir bankda mavjud bo'lishiga foiz stavkasining miqdori katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu depozitlar har-xil banklar tomonidan o'rnatiladigan foiz stavkalarining ma'lum bir tebranishlari yuz bergan holda, migratsiya ta'siri ostida bo'ladi.

Shu bilan birga bank likvidligi banklararo kreditlardan tashkil topgan tashqi manbalardan bog'liq bo'lishi bilan ham asoslaniladi. Banklararo kreditning

belgilangan miqdorda mavjud bo'lishi bank likvidligini xavf-risk ostiga qo'yamaydi, balki likvid aktivlarga bo'lgan qisqa muddatli tanqisliklarni bartaraf qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin banklararo kreditlar jalb qilingan resurslar tarkibida asosiy o'rinni egallasa banklararo bozordagi salbiy konyuktora bankni inqirozga uchratishi mumkin.

Aktivlarning passivlar bilan miqdori va mudati bo'yicha mos kelishi bank likvidligiga jidiy ta'sir qiladi. Bank, o'z mijozi oldidagi majburiyatlarini bajarishda, omonatchilar tomonidan taqdim qilingan mablag'larning muddati, shu mablag'larni investitsiya qilish muddatiga mutanosib bo'lishi lozimligi yuzasidan kelishib olganligini anglashi lozim. Jalb qilingan resurslar hisobiga ishlayotgan banklar tomonidan bu qoidani inkor qilinishi kreditorlari oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olmaslik holatiga olib keladi. Albatta, barcha depozitlar birdaniga tassaruf qilinmaydi, ularning ma'lum bir qismi boshqa omonatlar tushumi hisobiga tiklanadi, ammo aktiv va passivlarning asosiy ulushi uchun bu qoidaga rioya qilinishi zaruriy hisoblanadi.

Bank likvidlik darajasi bog'liq bo'lgan ichki faktorlardan biri bu menejment, ya'ni bank faoliyati, shu jumladan likvidlikni boshqarish tizimi. Bankni boshqarish sifati bank siyosati mavjudligi va uning mohiyatida; strategik va joriy muammolarni yuqori darajada hal qilish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmaning mavjud bo'lishida; bankning aktiv va passivlarini boshqarishning munosib mexanizmini shakllantirishda; muhim qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning mohiyatini to'g'ri anglashda o'z ifodasini topadi.

Menedjment yuqori darajada bo'lishi uchun yuqori toifali mutaxassislariga ega bo'lish, kerakli ma'lumotlar bazasini yaratish lozimligi va eng asosiysi bank faoliyatini boshqarishning ilmiy tizimini tashkil qilish muhimligi bank rahbariyati tomonidan to'g'ri anglab olinishi lozim.

Bank likvidligini ta'minlovchi faktorlardan yani biri bu bank imidji. Agar bank yaxshi imijga ega bo'lsa mablag'larni jalb qilish borasida boshqa banklarga nisbatan afzalliklarga ega bo'ladi va bu bilan likvid mablag'larga bo'lgan tanqisligini bartaraf qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Bir holatda bank likvidligi muammosini depozitlar bazasining tarkibi va sifati, ikkinchi holatda aktivlar sifati va uchinchi holatda menejment hal qilsa, boshqa holatlarda bir qancha faktorlar majmuasi hal qilish mumkin. Shuning uchun bank likvidligi muammosi ko'p faktorli ekanligini tan olish bilan bir qatorda, uning individualligini va ma'lum bir banklar uchun muhim hisoblangan nozik tomonlarini aniqlab olishni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bank likvidlik holati bank faoliyatidan tashqarida yotuvchi bir qator tashqi faktorlarga ham bog'liq.

*Bu omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:*

- mamlakatning umum iqtisodiy va siyosiy holati;
- qimmatli qog‘ozlar bozori va banklararo bozorning rivojlanganligi;
- qayta moliyalash tizimini tashkil qilinishi;
- mamlakatimiz Markaziy bankining nazorat funksiyalari effektivligi.

Mamlakatning umum siyosiy va iqtisodiy holati bank tizimning muvoffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi va bank operatsiyalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratib beradi, bank faoliyati iqtisodiy asoslarining barqarorligini ta‘minlaydi, mahalliy va xorij investorlarning banka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Sanab o‘tilgan shart-sharoitlarsiz banklar muqobil depozit bazasini shakllantirish, operatsiyalarning rentabelligiga erishish, instrumentlar majmuasini rivojlantirish, aktivlar sifatini oshirish va boshqarish tizimini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish natijasida banklarda daromadlilikda yuqotishlarsiz sharti bilan likvidli aktivlarni shakllantirishning eng qulay usuli ta‘minlanadi. Chunki ko‘pchilik xorij mamlakatlarda bank aktivlarini pul mablag‘lariga aylantirishning eng qisqa yo‘li fond bozorlarining faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq.


Banklararo bozorning rivojlanishi bo‘sh pul resusrlarini banklar o‘rtasida tez qayta taqsimlash imkonini beradi. Bank o‘zining likvidligini ta‘minlash uchun banklararo bozordan har xil muddatga, shu jumladan bir kunga mablag‘larni jalb qilishi mumkin. Banklararo bozordan manbalarni olish tezligi umumiy moliyaviy konyukturadan, banklararo bozorning tashkil qilinishiga va bank obrusiga bog‘liq bo‘ladi.

Demak bank likvidligi bu doimiy ravishda xarakterda bo‘luvchi ko‘pgina faktorlarga bog‘liq bo‘lgan bank faoliyatining sifat xarakteristikasidir. Shuning uchun bank likvidligi o‘zining xususiyati jihatidan muqobil faktorlar va tendensiyalarning ta‘siri ostida xarakterlanuvchi va sekinlik bilan vujudga keluvchi dinamik holatni ifodalaydi.

## **2. Tijorat banklari likvidlik ko‘rsatkichlari tavsifi**

Likvid mablag‘lar darajasini baholashda avvalo bank aktivlarining moliyaviy bozordagi holati o‘rganilishi lozim bo‘ladi. Hech qaysi bank resurslar bozoridagi raqobat tekshiruvlaridan o‘tmasdan turib, yuqori likvid mablag‘larga ega bo‘lavermaydi. Shuning uchun, bank rahbariyati likvidlik strategiyasini belgilab olishi va uni doimiy ravishda nazorat qilib borishi lozim.

Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash uchun uning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil amalga oshiriladi. Tijorat banklari likvidlilik tahlilining asosiy bosqichlari navbatdagi rasmda aks etgan (21-rasm).



**21-rasm. Tijorat banki likvidlilik tahlilining asosiy bosqichlari<sup>88</sup>.**

Tijorat banklari likvidlikni oshirishda avvalo balansining aktiv qismida bank likvidligini boshqarish uchun sotilishi oson bo'lgan yuqori likvidli aktivlarni, masalan DQMO ni xarid qilish yoki ularga egalik qilish yoxud zaxiralarni ko'proq tashkil qilish va sotilishi qiyinchilik tug'dirmaydigan pul mablag'lariga aylantirish ko'p vaqtni olmaydigan qisqa muddatli qo'yilmalarni amalga oshirish yo'li bilan erishishlari mumkin.

Har bir bank nazorat qiluvchi organning tavsiyalari va konkret bankning likvidligiga ta'sir qiluvchi spetsifik omillarni hisobga olishdan kelib chiqib likvidlik ko'rsatkichlar tarkibini o'zi belgilab oladi.

Ikki pog'onli bank tizimi tashkil qilinishi bilan tijorat banklari likvidligini baholash mexanizmi shakllantirildi. Bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida, yangi tashkil qilinayotgan banklar likvidligi davlat tomonidan tartibga solinishi muhimligi belgilab olindi. 1989 yilda sobiq ittifoq Davlat banki tomonidan ijro qilinishi majburiy bo'lgan tijorat va kooperativ banklar uchun bir qator me'yoriy ko'rsatkichlar o'rnatib berildi. Bu ko'rsatkichlar guruhini quydagilar tashkil qilar edi: bank majburiyatlarini cheklash (K1); fuqarolar omonatlarini cheklash (K2); bank balansining joriy likvidligi (K4); bank balansining o'rta muddatli likvidligi (K5); bir qarzdorga bo'lgan riskning maksimal miqdori (K3).

<sup>88</sup> Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidligini boshqarish. Monografiya. Toshkent-2010y.

Bank majburiyatlarini cheklash K1 ko'rsatkichi bankning barcha majburiyalarning yig'indisi va uning o'z mablag'lari o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi. Mazkur bog'lanish bank o'z majburiyatlarini cheksiz oshirib borishi mumkin emasligini, ya'ni mablag'larni jalb qilishda bank doimiy ravishda mazkur majburiyatlarni bajarilishga kafolat beruvchi o'z mablag'lariga asoslanishi lozimligini anglatadi. K1 ko'rsatkichi qiymati bank majburiyatlari umumiy yig'indisining uning o'z mablag'lari hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Bank majburiyatlari tarkibiga korxonalar, tashkilotlar va muassasalar hisob-kitob va joriy hisob raqamlari, yuridik shaxslarning omonat va depozitlari, aholi omonatlari, boshqa banklardan olingan qarzarlar, kafolat va kafilliklarning 50% miqdori kiritiladi.

Bankning zaxira va boshqa jamg'armalari, belgilangan ajratmalardan keyingi foyda, bino va inshootlar qiymati, debitorlik qarzarlar, boshqa tashkilotlar ustav kapitalidagi ulushlarning yig'indisi yordamida bankning o'z mablag'lari miqdori aniqlanadi.

Har xil toifadagi banklar uchun K1 ko'rsatkichining differentsional miqdori, ya'ni tijorat banklari uchun uning miqdori 1/20 va kooperativ banklari uchun 1/12dan kam bo'lmasligi belgilangan.

K2 ko'rsatkichi fuqarolar omonatlari bo'yicha bank majburiyatlariga ma'lum bir chegaralarni o'rnatadi. Mazkur ko'rsatkichning miqdori fuqarolar omonatlarining bank o'z mablag'lariga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning me'yoriy qiymati 1 qilib belgilanib, har bir bank o'z mablag'lari hajmi miqdorida aholidan mablag'lar jalb qilishi mumkinligini bildirgan.

Keyingi K4 va K5 ko'rsatkichlari muddat bo'yicha tasniflangan aktivlar va passivlarni taqqoslash asosida joriy va o'rta muddatli likvidligini tartibga solish uchun mo'ljallangan. K4 ko'rsatkichi likvidli aktivlarning 30 kun muddatgacha bo'lgan majburiyatlarga nisbati orqali aniqlangan. Bunda, likvidli aktivlar tarkibiga kassa va yo'ldagi pul mablag'lari, kredit muassasalari bo'yicha hisob-kitob hisob raqamlaridagi qoldiqlar, davlat obligatsiyalariga qilingan qo'yilmalar, 30 kun muddatga berilgan kreditlar kiritilgan.

Joriy majburiyatlarni talab qilib olinguncha depozitlar, 30 kungacha bo'lgan aholining muddatli omonatlari, bank tomonidan 30 kun muddatga berilgan kafillik va kafolatlar tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichning me'yoriy miqdori 0,3 dan kam bo'lmasligi belgilab berilgan. Belgilangan bu me'yorga asosan har bir bank joriy to'lovlar uchun qisqa muddatli majburiyatlarning 30% dan kam bo'lmagan likvidli aktivlariga ega bo'lishi lozim bo'lgan.

K5 ko'rsatkichi muddati bir yildan ortiq bo'lgan aktivlarning shu muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlangan. Davlat Banki aktiv va passivlarning bu

tarkiblari bo'yicha to'liq mutanosiblikka rioya qilishni, ya'ni banklarning K5 ko'rsatkichi miqdori birdan oshib ketmasligini talab qilgan.

Shu davr maboytida tijorat banklarining likvidligi K3 ko'rsatkichi, ya'ni bir qarzdorga bo'lgan maksimal riskni cheklash orqali ham tartibga solingan.

K3 ko'rsatkichi bir qarzdor ssudalari bo'yicha yalpi majburiyatlarning (shu qarzdor bo'yicha berilgan balansdan tashqari majburiyatlarning 50%ni hisobga olgan holda) bankning o'z mablag'lariga nisbatini ifodalagan. Bu ko'rsatkichning me'yoriy miqdori 0,5 dan oshib ketmasligi lozim bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tijorat banklari o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida likvidlikni optimal darajada ushlab turilishini ta'minlashlari lozim.

Likvidlik muammosi, uni davlat tomonidan tartibga solinishi va banklar tomonidan boshqarish banklar paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan va hozirgi kunda milliy bank tizimiga ega bo'lgan har bir mamlakatda mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida asosiy qiziqish kasb etgan banklarning barcha aktiv faoliyatlari, ya'ni barcha bank operatsiyalaridan pul mablag'larini topish, bank likvidligi talablarini bajarish, shuningdek ishonchlilik va barqarorlikka erishish maqsadida likvidlikni ta'minlash usullari muhim ahamiyatga ega.

Makroiqtisodiyot nuqtai-nazaridan banklarning likvidligini boshqarilishi davlat tomonidan tartibga solish orqali to'ldirib boriladi. Markaziy bank tomonidan likvidlik me'yorlari va ko'rsatkichlarini belgilab berilishi, ularning bajarilishi ustidan nazorat qilishi va banklarning faoliyat ustidan umumiy nazorat qilish orqali davlat bank tizimi barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qiladi, ya'ni pul-kredit siyosatini amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati sohasidagi vakolati, tijorat banklari ustidan nazorat qilish va tartibga solish funksiyalaridan kelib chiqib tijorat banklari uchun quyidagi likvidlikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab berdi.

Bank likvidligi tahlil qilinganda ma'lum bir muddat oralig'ida (oylik, chorak, yillik) likvidlik koeffitsientlarining o'zgarish dinamikasiga e'tibor berish kerak. Bunda likvidlik koeffitsientlari o'zgarishining qonuniyatini aniqlash va ularning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning majburiy tartibda nazorat qilish pozitsiyasidan qaralganda  $K_1$  ko'rsatkichining minimal qiymatini ushlab turish bu omonatchilar manfaatini bevosita davlat tomonidan himoyalash shakli hisoblanadi.

2. *Lahzali likvidlik* ( $K_2$ ) koeffitsienti bankning yuqori likvidli aktivlar yig'indisining, bankning talab qilib olinguncha hisob raqamlari bo'yicha majburiyatlar yig'indisiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_2 = \frac{L_2}{M_{t_2}} * 100 \quad (15)$$

Bu erda, L – yuqori likvidli aktivlar (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali aniqlanadi),

$M_{t_2}$ – talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar.

Mazkur majburiyatlarning asosiy summasi Markaziy bank metodikasi orqali aniqlanadi va bunga bank tomonidan chiqarilgan talab qilib olinguncha veksellar ham kiritiladi.

$K_2$  koeffitsientining miqdori 20%dan kam bo'lmasligi kerak.

Iqtisodiy mohiyati jihatidan mazkur ko'rsatkich bankning joriy daqiqalarda omonatchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini bildiradi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida birinchi bor tatbiq qilinmoqda, shuning uchun uni joriy qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

3. Uzoq muddatli likvidlik ( $K_3$ ) koeffitsienti bank tomonidan bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar yig'indisining bank kaptaliga, shuningdek bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlariga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_3 = \frac{K_{yo}}{K+M_{yo}} * 100 \quad (16)$$

bu erda,  $K_{yo}$  – milliy va xorij valyutasida bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar, shuningdek bir yildan ortiq muddatga bank tomonidan berilgan kafillik va kafolatlarning 50%;

$M_{yo}$  – bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlari;

K– bank kapitali.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2015 yil 26 apreldagi 2693-sonli «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yilgan talablar to'g'risida»gi Tartibiga muvofiq majburiy bo'lgan ko'pgina iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda foydalaniladi. Kapitalning qiymati ustav fondi, bankning fondlari, taqsimlanmagan foyda, kapital xarajat bilan bog'liq bo'lgan kamaytirishlar, zararlar, qayta sotib olingan xususiy aksiyalari va 30 kundan ortiq bo'lgan debitorlik qarzlarini yig'indisidan tashkil topadi.

Ustav fondi balansning passiv qismida bo'lib, bank tomonidan qarz majburiyatlarni bajarilishini kafolatlaydi va uning likvidligini va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

$K_3$  ko'rsatkichining maksimal qiymati 120% miqdorida belgilangan.

$K_3$  koeffitsientning iqtisodiy mohiyati  $K_1$  va  $K_2$  ko'rsatkichlarnikiga uxshash bo'lib, bank faoliyatini uni likvidlik bilan ta'minlashi yuzasidan tartibga solib turadi.

4. *Likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati* ( $K_4$ ) koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_4 = \frac{LA}{A} * 100 \quad (17),$$

Bu erda, A – bank balansining barcha aktivlari yig'indisi, Markaziy bank metodikasi asosida aniqlanadi.

$K_4$  ko'rsatkichining minimal qiymati 20% miqdorida belgilanadi.

Iqtisodiy mohiyati jihatidan mazkur ko'rsatkich bankning aktiv operatsiyalari bo'yicha daromadlilik yuqori va likvidlik kerakli darajada bo'lishi uchun aktivlar tarkibini iqtisodiy muvofiq bo'lgan qanday proporsiyalarda ushlab turish lozimligini bildiradi.  $K_4$  ko'rsatkichi 20%dan kam bo'lishi, likvidlik boshqarilishi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va o'z faoliyatini samarali amalga oshirilmayotganligidan darak beruvchi bankning aktiv operatsiyalaridan daromad olishda yuqotishlarga yo'l qo'yilishini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan bir-talay huquqiy va me'yoriy hujjatlar tizimi mamlakatimiz tijorat banklarining faoliyatini amalga oshirishda va likvidligini tartibga solishda yetarlicha kuchli baza shakllantirilganligidan dalolat beradi.

**57-jadval**

**Bank tizimining likvidlilik ko'rsatichlari<sup>89</sup>**

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2017 y.	01.01.2018 y.
<b>Yuqori likvidli aktivlar, mlrd. co'm</b>	<b>18 606,3</b>	<b>37 775,5</b>
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda	22,1	22,7
Joriy likvidlilik me'yori ( <i>minimal talab – 30 foiz</i> )	64,4	56,1
Likvidlilikni qoplash me'yori ( <i>minimal talab – 90 foiz</i> )	177,2	225,2
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori ( <i>minimal talab – 100 foiz</i> )	102,6	110,6
Lahzali likvidlilik me'yori ( <i>minimal talab – 15 foiz</i> )	x	40,1

<sup>89</sup> <https://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Tijorat banklari ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlarga asoslangan holda o'zlarining ichki me'yoriy hujjatlarini joriy qilish orqali bankning likvidligini tartibga solish, mablag'larni jalb qilish va joylashtirish va boshqa faoliyatlari doirasini, imkoniyatlarini va rejalarini belgilab oladilar. Bunda, tijorat banklari bank likvidligini boshqarishda hukumat va Markaziy bank tomonidan belgilab berilgan ma'lum bir iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarga rioya qilishlari shartligi va bankning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda ichki siyosatini belgilab olishi lozim bo'ladi.

Rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan ko'pchilik mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham tijorat banklari likvidligini boshqarilishining huquqiy va me'yoriy bazasini shakllantirishda Xalqaro Bazel Qo'mitasi talablari va tavsiyalaridan keng ko'lamda foydalanilgan. Mamlakatda huquqiy bazani bunday tartibda shakllantirish milliy bank tizimini xalqaro andozalarga yanada yaqinlashtirishga qilingan harakat deb baholash mumkin.

2010 yil sentabr oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar banklar kapitali yetarliliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga "G-20" – katta yigirmalik davlatlarida 2013-yildan boshlab o'tilishi hamda 2019-yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini va likvidlik me'yorlarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirishlari kutilmoqda<sup>90</sup>.

Bazel–III tavsiyalarini qo'llashdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlar:

- bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;
  - risk–menejment va boshqaruv sifatini oshirish;
  - banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.
- Bazel–III negizidagi asosiy yangi talablar:
    - kapital etarliligiga nisbatan yangi talablar (oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish, qo'shimcha maxsus zaxira kapitalini shakllantirish);
    - 2 ta likvidlilik koeffitsientiga (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) nisbatan me'yoriy talablarni joriy etish;
    - leveraj koeffitsientini joriy qilish (Bunda koeffitsientning o'rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me'yoriy darajasi 3

<sup>90</sup> [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com) veb-sayti ma'lumotlari asosida.

foiz etib belgilanadi).

Bazel–III ning yangi tavsiyalariga ko‘ra tijorat banklari likvidligiga nisbatan ham yangi talablar beligalanadi<sup>91</sup>:

1. Joriy likvidlilik koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio (LCR)) – 2015-yil 1-yanvardan boshlab:

$$\text{LCR} = \frac{\text{Yuqori likvid aktivlar}}{\text{30 kun mobaynida sof pul chiqimlari}} \geq 100 \quad (18)$$

2. Sof barqaror manbalar koeffitsienti (The Net Stable Funding Ratio (NSFR)) – 2018-yil 1-yanvardan boshlab:

$$\text{NSFR} = \frac{\text{Mavjud barqaror manbalar}}{\text{Talab qilingan barqaror manbalarning foydalanilishi}} \geq 100 \quad (19)$$

Yuqoridagi yangi talablar bank tizimida joriy etilishida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- oddiy aksiyalar salmog‘ini oshirish uchun qo‘shimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish va investorlarni jalb etish, aksiyalar taklifining ortishi hisobiga aksiya bahosining pasayishi;
- taqsimlanmagan foyda salmog‘ini oshirish borasida aksiyadorlar o‘rtasida manfaatlar kelishmovchiligining yuzaga kelishi;
- yangi likvidlilik talabini joriy etish hisobiga daromadlilikning pasayishi;
- banklarning kreditlash ko‘lamining qisqarishi va h.k.

Ko‘plab davlatlarda banklar likvidlik ko‘rsatkichlari muddatlari bo‘yicha guruhlangan, balansning aktiv va passiv moddalari nisbati asosida hisoblanadi. Masalan, Fransiyada bunday muddat 3 oy hisoblanadi. Frantsiyada banklar likvidligini ta‘minlash uchun bank majburiyatlarini jalb qilganda aynan ana shu muddatga ularni joylashtirgan. Tijorat banklari bu hisob-kitob natijalarini nazorat organlariga xar chorakda taqdim etishlari shart. Mazkur ko‘rsatkichlarning minimal darajasi 60% dan kam bo‘lmasligi kerak.

Germaniya tijorat banklari ham har oy Germaniya Federal banki oldida balans likvidligi to‘g‘risida hisobot beradi. Germaniyada me‘yor bilan tijorat banklariga quyidagi nisbatlarga amal qilish majburiyati belgilangan. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- qisqa muddatli va o‘rta muddatli qo‘yilmalarning (4 yilgacha) shunga teng muddatli jalb qilingan resurslar va omonatlarga nisbati;
- uzoq muddatli qo‘yilmalarning (4 yil va undan ortiq muddatga) xuddi shu muddatga jalb qilingan resurslarga nisbati.

<sup>91</sup> [www.bis.org](http://www.bis.org) – xalqaro Bazel qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.

### 3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatligi tahlilining ahamiyati va vazifalari

Bank likvidligini tahlil qilish quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- bank likvidligining koeffitsientlarini hisoblash tizimi to'g'riligini va to'liqligini tasdiqlash;
- bank holati bo'yicha xulosalarni shakllantirish;
- bank balansi likvidligining yomon holatga kelayotganligidan darak beruvchi real va salbiy potentsial tendensiyalarni aniqlash;
- salbiy tendensiyalarni vujudga keltirgan omillarni tahlil qilish;
- bank balansi likvidligini tahlil qilish va tekshirish natijalariga ko'ra bank uchun takliflarni belgilab olish.

Yangi tashkil qilinayotgan tijorat banklari uchun ustav kapitalning minimal miqdori va tashkil qilingan banklar uchun kapitaldagi shaxsiy mablag'larining minimal miqdori;

- kapitalning yetarlilik normativlari;
- likvidlik normativlari;
- bir qarzdorga yoki qarzdorlar guruhiga bo'lgan riskning maksimal miqdori;
- yirik kreditlar riskining maksimal miqdori;
- bitta kreditorga (omonatchiga) bo'lgan riskning maksimal miqdori;
- aholidan jalb qilingan mablag'larning maksimal miqdori va hokazo.

Bu ko'rsatkichlar orasida likvidlik normativlari muhim ahamiyatga ega, chunki ularning miqdori ko'p jihatdan bankning depozit va kredit siyosatining samarali yuritilishiga bog'liq bo'ladi.

Banklar likvidlik ko'rsatkichlarining minimal miqdorini ushlab turishga xarakat qiladilar, chunki bunda likvidlik va yuqori daromadlilik ko'rinishdagi qarama-qarshilik sharoitida optimal qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"da likvidlik normativlari berilgan (joriy, lahzalik va o'zoq muddatli likvidlik). Mazkur ko'rsatkichlar tizimidan likvidlik normativining *joriy likvidlik* ko'rsatkichini o'tgan oxirgi besh yil davr mobaynida mamlakatimizning yirik va kichik tijorat banklari misolida ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasida joriy likvidlik ko'rsatkichining minimal miqdori 30% miqdorida belgilangan.

Tijorat bankining likvidlilik darajasini tahlil qilish uchun ATIB "Ipotekabank"ning balans ko'rsatkichlariga nazar tashlaylik

## 58-jadval

ATIB "Ipotekabank"i joriy likvid aktivlari tarkibi, mln. so'mda<sup>92</sup>

№	Aktivlar	balans hisob varaqlari	muddatsiz	1 oydan 3oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan 5 yilgacha	5 yildan ortiq	Jami
1	Naqd pullar va Markaziy bankdan olish uchun	10100 10300	581845,7	0	0	0	0	581845,7
2	Boshqa banklardan olish uchun	10500	100000	89106,3	49404	74378,2	13216,6	326105,1
3	Investitsiya	10700, 10900	5535,6	0	0	0	0	5535,6
4	Mijozlarga taqdim etilgan ssudalar:	12100– 15500		48713,2	318663,8	820211,6	707372,6	1894961,2
5	Boshqa moliyaviy aktivlar	17000	298,4	0	0			298,4
6	<b>Jami</b>		<b>687679,7</b>	<b>137819,5</b>	<b>368067,8</b>	<b>894589,8</b>	<b>720589,2</b>	<b>2808746</b>

ATIB "Ipotekabank"i jami muddatsiz aktivlari 687679,5 mln so'mni, 1 oydan 3 oygacha aktivlar esa 137819,5 mln so'mni tashkil etsa, 3 oydan 1 yilgacha 368067,8 mln so'mni va 1 yildan ortiq aktivlar esa 894589,8 mln so'mni tashkil qilmoqda.

Umumiy holda, joriy aktivlarning tarkibida mijozlarga taqdim etilgan ssudalarning katta ulushni tashkil etganligi bankning likvidlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## 59-jadval

## ATIB "Ipotekabank"ijoriy majburiyatlari tarkibi

mln. so'mda<sup>93</sup>

№	Passivlar	balans hisob varaqlari	Muddatsiz	1 oydan 3oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan 5 yilgacha	5 yildan ortiq	jami
1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	20200	700000	0	0	0	0	700000
2	Jamg'arma va muddatli depozitlar	20400, 20600	0	584906,8	192454,8	386691,2	2176,5	1166229
3	Boshqa banklarga to'lash uchun	21000	0	335,8	45572	30236	21656,8	97800,6
4	Boshqa jalb qilingan mablag'lar	22100		506,3	3800	18000		22306,3
5	Sug'urta majburiyatlar	22100	0	20844,5	71138,8	464102,9	176539,6	732626
6	Boshqa majburiyatlar	29800	0	2604,7	0	0	0	2604,7
7	<b>Jami</b>		<b>700000</b>	<b>609198,1</b>	<b>312965,6</b>	<b>899030,1</b>	<b>200372,9</b>	<b>2721567</b>

<sup>92</sup> ATIB «Ipoteka bank» ning 2017 yil ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>93</sup> ATIB «Ipoteka bank» ning 2017 yil ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

ATIB “Ipotekabank”i jami jamg‘arma va muddatli depozitlar 1166229 mln so‘mni va boshqa banklarga to‘lash uchun mablag‘lar 97800,6 mln so‘mni tashkil qilib, jami joriy majburiyatlarning 70–75 %ini tashkil etgan. Bundan tashqari muddatlar bo‘yicha tahlil qilsak, talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari muddatsiz bo‘lib, uning summasi 700000 mln so‘mni tashkil qilgan. Jamg‘arma va muddatli depozitlar 1 oydan 3 oygachasi 584906,8 mln so‘mni tashkil qilgani bankning resurslar bazasi mustahkam emasligidan dalolat beradi.

Umumiy holda, joriy majburiyatlarining tahliliga salbiy baho beramiz. 58,59-jadvallardan kelib chiqib, likvidlilik tahlilini 60 -jadvalda aks etaylik.

**60-jadval**

**ATIB “Ipotekabank” ning likvidlilik darajasi tahlili  
31.12.2017 yil holatiga<sup>94</sup>**

<b>№</b>	<b>Likvidlilik tahlili</b>	<b>ming so‘mda</b>
<b>1–qism. Likvid aktivlar</b>		
<b>1</b>	Naqd pullar va Markaziy Bankdan olish uchun	<b>581845,7</b>
<b>2</b>	Boshqa banklardan olish uchun	<b>326105,1</b>
<b>3</b>	<b>Jami likvid aktivlar</b>	<b>907950,8</b>
<b>6</b>	(+) 30 kunda so‘ndiriladigan aktivlar	<b>137819,5</b>
<b>7</b>	(–) Muddati o‘tgan kreditlar	0
<b>8</b>	<b>Joriy aktivlar</b>	<b>1045770,3</b>
<b>2–qism. Likvidlilik koeffitsientlari</b>		
<b>1</b>	<b>Joriy likvidlilik (min 30%)</b>	<b>min 30%</b>
	Muddatsiz va muddati 30 kungacha aktivlar / muddatsiz va muddati 30 kungacha majburiyatlar	76,0
<b>2</b>	<b>Lahzali likvidlilik (min 25%)</b>	
	Muddatsiz likvid aktivlar / muddatsiz joriy majburiyatlar	98,2
<b>3</b>	<b>Qisqa muddatli likvidlilik (100%)</b>	
	Muddati 30 kundan 1 yilgacha aktivlar / (muddati 30 kundan 1 yilgacha majburiyatlar + bank kapitali)	47,6
<b>3–qism. Boshqa likvidlilik ko‘rsatkichlari</b>		
<b>1</b>	Jami likvid aktivlar / jami aktivlar	31,1
<b>2</b>	Doimiy bo‘lmagan majburiyatlar / jami aktivlar	43,1
<b>3</b>	Likvid aktivlar / doimiy bo‘lmagan majburiyatlar	71,8
<b>4</b>	Kreditlar / depozitlar	101,5

60-jadvaldagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank joriy va lahzali likvidlilik darajalari me‘yor talablariga javob berib, mos ravishda 76,0 va 98,2 foizni tashkil etgan. Demak, tijorat banki berilgan muddat ichida ortiqcha likvid mablag‘lariga ega va bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qoplashga etarli. Qisqa muddatli likvidlilik darajasi esa 47,6 foizni

<sup>94</sup> ATIB “Ipotekabank” ning 2017 yil ma‘lumotlari asosida

tashkil etib me'yordan sal kamroq. Ammo, bu ko'rsatkich ham yomon emas, chunki ko'rsatkichning bir yil mobaynida o'zgarish ehtimoli mavjud. Boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha likvidlilik darajasi ijobiy, ular bankning resurslar barqaror bo'lmagan manbalarga tayanmaganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvidli aktivlar ulushining oshganligini anglatadi. Ko'rsatkichning juda yuqori qiymati dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzarlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi. Umumiy olganda, tijorat bankining likvidlilik darajasi ijobiy holatda.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- tijorat banklarining likvidliliigi;
- bank likvidliliigiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar;
- tijorat banklarining likvidliliigi koeffitsientlari;
- tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi;
- tijorat banklarining iqtisodiy normativlarga rioya qilishi.

## 9-mavzu: Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili

### *R e j a:*

- 1. Bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlil vazifalari*
- 2. Tijorat banklari foydasining tahlili*
- 3. Tijorat banklari (foydalilik) rentabellik ko'rsatkichlari tahlili*

### **1. Bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlil vaziflari**

Tijorat banklarining moliyaviy natijasi boshqa barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijasi singari aniqlanadi.

Faoliyatning yakuniy natijasi foyda yoki zararni hisob-kitob qilishning an'anaviy shakli quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Foyda (zarar)} = \text{daromad} - \text{xarajat} \quad (20)$$

Yakuniy moliyaviy natijani ushbu formula bo'yicha hisob-kitob qilish boshqaruvchi, ta'sischi, moliyaviy boshqaruv, tahlil bilan shug'ullanuvchi shaxslar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotni bermaydi. Shuning uchun moliyaviy natijani hisob-kitob qilish uchun manfaatdor shaxslar o'z tartib-qoidalarini belgilaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy natijani asosan soliq qonunchiligidan va buxgalteriya hisobi standartlaridan foydalangan holda hisob-kitob qiladi. Shuningdek, moliyaviy natija moliyaviy boshqaruv va iqtisodiy tahlil maqsadlaridan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi.

Bank daromadlari va xarajatlarini bunday guruhlashtirish ularning asosiy bank operatsiyalarini o'tkazishda qay darajada bog'liqligini, shuningdek, oraliq bosqichlarda olinayotgan foydani aniqlash imkonini beradi. Ko'rib chiqilgan modellar yakuniy natija ya'ni, bank sof foydasini o'zgartirmaydi. Sof foydani shakllantirish modellari faqat hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi bilan farqlanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimida moliyaviy natijalar bank faoliyati turlariga bog'langan, unda yalpi foyda, asosiy faoliyat bo'yicha foyda, umumxo'jalik faoliyati natijasi, moliyaviy faoliyat natijasi, ko'zda tutilmagan favkulotdagi foyda, soliq to'langunga qadar bo'lgan natija, sof foyda (zarar), taqsimlanmagan foyda kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Lekin, bank faoliyatini tahlil qilish uchun ushbu ma'lumotlar mos kelmaydi, chunki olingan daromadlar va qilingan xarajatlarni solishtirganda ular o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Masalan, yalpi foyda ko'rsatkichini aniqlash uchun berilgan kreditdan olingan foizlardan depozitlar bo'yicha to'langan foizlarni chegirib tashlagan. Bank depozitlarga jalb qilgan mablag'larni faqat kredit operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatmaydi, undan

boshqa bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun ham foydalanadi. Masalan, investitsiya, lizing va boshqa operatsiyalar uchun.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tijorat banklarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini shakllantirish algoritmi Markaziy bank tomonidan belgilangan moliyaviy hisobot shakllari va buxgalteriya hisobi standartlariga asoslanadi. Jumladan, Markaziy bank tomonidan 2004 yil 6 noyabrda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank nazorati bo'yicha taqdim etiladigan tijorat banklari hisobotlarini to'ldirish tavsiyalari» to'g'risidagi № 584 yo'riqnomasi bo'yicha 0204IS «Foyda va zararlar to'g'risida hisobot» shaklini to'ldirish to'g'risidagi metodik ko'rsatmalar asos bo'lib hisoblanadi.

Bank faoliyatining tahlilining asosiy manbai hisoblangan moliyaviy hisobotlar quyidagi hisobotlarni o'z ichiga oladi:

- a) balans hisoboti yoki moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- b) foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
- v) pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- g) xususiy kapital haqida hisobot;
- d) izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar

Moliyaviy hisobotning maqsadi bankning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo'lgan butun axborotni o'z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiradi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qabul qiladigan iqtisodiy qarorlar tijorat bankining pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholashni talab qiladi. Bunday qobiliyat pirovard natijada masalan, tijorat banki o'z xodimlari va mahsulot yetkazib beruvchilariga haq to'lay oladimi, foizlarni to'lab turadimi, kreditlarni uza oladimi va daromadni (foydani) taqsimlay oladimi yoki yo'qmi ekanini aniqlaydi. Demak bank faoliyatining tahlil qilishda moliyaviy hisobotlardagi yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi, baholanadi, xulosa qilinadi.

Umuman olganda banklarning daromadlari, xarajatlari aktivlari, passivlari bank faoliyatiga baho berishda, tahlil qilishda eng zaruriy tahlil manbai hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy natijalar bir-biri bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir va ular tijorat banklarida daromad va xarajatlarni bir-biriga solishtirish orqali aniqlanadi. Moliyaviy natijani bank faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan daromad, xarajat, foyda va zarar ko'rinishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida talqin qilish, uni hisobga olishda va tahlil qilishda ma'lum bir ketma-ketlikka asoslanishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu ketma-ketlik



moliyaviy natijalarni aniqlashda qaysi maqsadlardan va kim tomonidan belgilangan tartib-qoidalaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinayotganiga bog'liq bo'ladi.

Xullas, tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili, ularning daromad va xarajatlari tahlili bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi lozim ekan.

Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni asosan, banklar buxgalteriya balansi, «Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot»lardan, hamda audit tekshiruvi, yig'ilishlar bayonnomalaridan, zaruriyat tug'ilganda buxgalteriya hisobining analitik yozuvlaridan olishlari mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlilining asosiy vazifalari bo'lib:

- faoliyat moliyaviy natijalarini (foyda yoki zarar) aniqlash;
- foydaning belgilangan reja, o'tgan davrlardan farqini o'rganish;
- foydaning tarkibi: daromadlar, xarajatlar qanday o'zgariganligini o'rganish hamda bu o'zgarish sabablarini aniqlash;
- faoliyat davomida tejamkorlikka rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning qanday o'zgarayotganliklarini o'rganish;
- xarajatlarini kamaytirib, daromadlarini ko'paytirib, foydasini ko'paytirish ichki imkoniyatlarini aniqlash va shu kabilar hisoblanadi.

Ushbu vazifalarga erishish esa o'z nabatida faoliyat natijalarini chuqur o'rganish jaryoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi usullarni aniqlash va salbiy ta'sir etuvchi elementlarni bartaraf etish omillarini aniqlash masalalari muhim ahamiyat kab etadi.

Bankning daromad va xarajatlarini tekshirishda oxirgi sanaga bank kunlik balansi olinib, daromad va xarajatlar ahvoli tahlil qilinadi. Bularni tekshirishda daromad va xarajatlar smetasi tuzilishi va unga amal qilinishi taqqoslangan holda tekshirilib, zaruriy izohlar berib o'tiladi.

Daromadlarning o'z vaqtida tegishli hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilishi, daromad va xarajatlarning har bir moddasining jami daromadlardagi hissasi birma-bir tahlil qilinadi. Bundan tashqari daromad va xarajatlarni o'tgan davr bilan taqqoslagan holda ham tahlil qilinadi. Bank daromadlarining qonuniyligini tekshirish audit tekshiruvlarning asosini tashkil qiladi. Bank daromadlarining har bir hisobi alohida tekshirilib, natijalari hisobotda aks ettirilishi kerak.

Bank daromadlarini hisoblashning bir necha yo'llari mavjud. Ya'ni har bir operatsiya bo'yicha daromad o'ziga xos tarzda keladi. Daromadlarni foizli va foizsiz qismlarga bo'lib, ularning hissasi aniqlanib, har biri alohida tekshiriladi. Kreditlar bo'yicha foizli daromadlarni tekshirishda kreditlar uchun foizlar qayta hisoblanib ko'riladi. Ularning stavkalari kredit shartnomalari bilan solishtiriladi. Komission daromadlar (debet oborot) ham qayta hisoblab chiqiladi (tanlov

asosida), ularning shartnomalar asosida undirilayotganligiga ishonch hosil qilish maqsadida shartnomalarning tuzilishi, ularning shartnomada ko'rsatilgan foizlar bo'yicha undirilganligi tekshiriladi. Yuqoridagi tartibda bank daromadi barcha moddalarining har biri alohida tekshirilib, hisobotda aks ettiriladi.

Daromadning tarkibiy tahlili daromad har bir turining ulushini va uning tendensiyasini aniqlashga yordam beradi. Tarkibiy tahlilning maqsadi:

- bank daromadligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- daromadning asosiy manbalarini yaratish va kelajakda shu daromadlarning o'lovini saqlash maqsadida bank xizmatlari bozorini o'rganish;
- daromadning barqarorlik darajasini aniqlash.

Vertikal va gorizontal tahlil asosida bank daromadlarini o'rganish bank faoliyati daromadligini oshirishga erishishga imkon beradi. Foizli daromadning bir maromda o'sishi tijorat banklarining yaxshi faoliyat yuritayotganliklaridan, boshqa guruh daromadlarining o'sishi esa pullik bank xizmatlarining va noan'anaviy operatsiyalar (lizing, faktoring, trast va boshqa operatsiyalar) kengayotganligidan dalolat beradi.

#### 61.-jadval

#### O'zbekiston bank tizimi moliyaviy natijalari tahlili<sup>95</sup> (mlrd. co'mda)

Ko'rsatkichlar	01.01.2017	01.01.2018	O'zgarishi(+/-)
Foizli daromadlar	5 293,10	7 960,40	2 667,30
Foizli xarajatlar	3 075,40	4 623,10	1 547,70
<b>Foizli marja</b>	<b>2 217,70</b>	<b>3 337,30</b>	<b>1 119,60</b>
Foizsiz daromadlar	3 403,80	6 916,80	3 513,00
Foizsiz xarajatlar	629,3	1 942,70	1 313,40
Operatsion xarajatlar	3 014,40	4 137,70	1 123,30
<b>Foizsiz daromad (zarar)</b>	<b>-239,9</b>	<b>836,5</b>	<b>1 076,40</b>
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	438,9	1 631,70	1 192,80
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	73,7	279	205,30
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	1 465,20	2 263,00	797,80
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	311,3	379,7	68,40
Foyda bo'yicha tuzatishlar	1,1	2,3	1,20
<b>Sof foyda (zarar)</b>	<b>1 152,80</b>	<b>1 881,00</b>	<b>728,20</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bank tizimi moliyaviy natijalari sof foyda bilan chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Banklarimizning sof foydasi 2017 yilda 1881 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 728,2 mlrd

<sup>95</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti ma'lumotlari

soʻmga oshgan. Bunga asosiy sabab sifatida banklarning foizli va foizsiz daromadlarini koʻpayishi hisobiga boʻlgan. Bunga mos ravishda bank xarajatlari ham oshgan. Umuman banklarning moliyaviy natijalari tahlilini ijobiy baholaymiz.

Tahlil davomida shuni ham eʼtiborga olish kerakki, daromad bankning umumiy faoliyatiga bogʻliq. Bu shuni bildiradiki, daromadni oshishi uchun daromad keltiruvchi aktivlarning ulushini oshirish kerak. Daromad keltiruvchi aktivlar jami aktivlar tarkibida 85% dan kam boʻlmagan qismni tashkil qilishi kerak. Shuningdek, foyda olish maqsadida aktivlarni joylashtirishda shuni ham hisobga olish kerakki, har qanday moliyaviy operatsiyalar foyda bilan bir qatorda, zarar ham keltirishi mumkin. Foydalilik qanchalik yuqori boʻlsa, u bilan bogʻliq moliyaviy risk ham shunchalik yuqori boʻladi. Shunga bogʻliq holda, aktivlar tarkibi kutilayotgan foyda va yuz berishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlar oʻrtasida ham risk borligini koʻrsatadi.

## **2. Tijorat banklari foydasining tahlili**

Tijorat banklari foydasini tahlil qilganda, daromadlari xarajatlari turlarining tarkibini tahlil qilamiz. Eng avvalo hisobot davridagi olingan haqiqiy foyda summasi reja bilan taqqoslanib, undan koʻp yoki kam ekanligi aniqlanadi va farqlar sabablari oʻrganiladi. Bank foydasini shakllantiruvchi daromad, xarajatlar tarkibi oʻtgan yillar bilan taqqoslanadi.

Kelgusida bankning sof daromadini oshirish uchun foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan yuqori surʼatlar oʻsishini taʼminlashga erishilmogʻi lozim. Buning uchun albatta foiz toʻlanib jalb qilinadigan majburiyatlarni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yoʻnaltirish kerak.

Shu bilan birga, bank yil sayin foizsiz daromadlarining oʻsib borishini taʼminlovchi siyosat ishlab chiqilishi kerak boʻladi. Bank strategiyasiga koʻra doimiy ravishda daromadlarning oʻsish surʼati xarajatlar va soliq toʻlovlari oʻsish surʼatlaridan yuqori darajada boʻlishiga xarakat qilmogʻi kerak boʻladi. Tijorat banklari ixtiyorida qoladigan foyda ikki asosiy tarkibiy qismga bogʻliq: daromadlar va xarajatlar summasiga bogʻliq.

Foydani har bir yil boʻyicha oʻzgarishini tahlil qilishdan oldin, yuqoridagi 2 koʻrsatkichni taqqoslash kerak va shu orqali ulardan qaysi biri foydaga ijobiy yoki salbiy taʼsir qilganligini aniqlashimiz mumkin. Shuni ham eʼtiborga olish kerakki, foydaning yillar boʻyicha oʻsishi inflyatsiyaning oʻsishidan orqada qolishi kerak emas, aks holda bankning haqiqiy daromadlari qisqarib, albatta bank kapitalining qadrsizlanishiga olib keladi.

## 62-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining foydasi dinamikasi<sup>96</sup>

Ko‘rsatkichlar	Foydalarning umumiy hajmi (mln.so‘m)		Umumiy banklar soni		Bir bankka to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha daromad summasi (mln.so‘m)	
	2016 yil	2017 yil	2016 yil	2017yil	2016 yil	2017 yil
Jami	1152845	2122600	27	28	42698	78615
Foyda ko‘rgan banklar	1152845	2210800	27	27	42698	78957
<b>Zarar ko‘rgan banklar</b>	<b>0</b>	<b>-88200</b>	<b>0</b>	<b>1</b>	<b>0</b>	<b>-88200</b>

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan banklarning deyarli barchasi 2016–2017 yillarda daromad ko‘rishgan. 2017 yilda ATB “Mikrokreditbank” 88,2 mlrd.so‘m zarar bilan chiqqan. Bu bank uchun muammoli holat sifatida qarashimiz kerak. Jadvaldan ko‘rinadiki, banklarimizning o‘rtacha daromadi 2016 yilda 42698 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilda o‘rtacha daromad 78957 mln.so‘mga etgan.

2016 yilga nisbatan banklarimizning o‘rtacha daromadlari 36259 mln. so‘mga oshgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, banklarimiz tomonidan yuqori daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarning hajmi va sifati oshib bormoqda.

## 63-jadval

Respublikamiz tijorat banklari sof foydasi dinamikasi<sup>97</sup> (mln.so‘m.)

№	Bank nomi	Sof foyda (mln.so‘m)		O‘zgarishi (+/-)
		2016	2017	
1	Milliy bank	157 997	595900	437 903
2	Xalq banki	151 781	169100	17 319
3	Hamkor bank	124 064	138600	14 536
4	Asaka bank	95 399	51000	-44 399
5	Ipoteka bank	77 115	278900	201 785
6	Orient–finans bank	71 732	259200	187 468
7	Sanoatqurilish bank	71 263	85700	14 437
8	Ipak Yo‘li bank	55 804	91700	35 896
9	Kapital bank	51 756	52000	244
10	Qishloq qurilish bank	45 203	30100	-15 103
11	KDB Bank Uzbekistan	39 317	87400	48 083
12	Aziya Alyans bank	39 138	60200	21 062
13	Trastbank	37 021	56000	18 979
14	Aloqabank	32773	65107	32334

<sup>96</sup> «Ahbor-Reyting» reyting agentligi ma’lumotlari. Fevral. 2018 y.

<sup>97</sup> Tijorat banklari balans ma’lumotlari asosida tuzildi


15	Invest Finans Bank	17 558	23200	5 642
16	Turon bank	16 332	16600	268
17	Savdogar bank	15 301	17400	2 099
18	Davr bank	14 988	35200	20 212
19	Agrobank	14 070	2700	-11 370
20	UT bank/ Ziraat bank	9 569	26000	16 431
21	Turkiston bank	4 560	5100	540
22	Universal bank	3 008	4800	1 792
23	Caderat	1 921	9200	7 279
24	Ravnaq bank	1 821	3000	1 179
25	Mikrokredit bank	533	-88200	-88 733
26	Hi-tech bank	526	1300	774
27	Madad invest bank	0	2000	2 000
28	O'zagroesportbank	0	37800	37 800
<b>Jami</b>		<b>1154793</b>	<b>2124617</b>	<b>969 824</b>

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklarning barchasi sof foydaga erishgan. Jumladan, Milliy bank, Ipoteka banki, Oriant Finans banklarning sof foydasi banklarning jami foydasini 44 %ga yaqinini tashkil qilmoqda.

Bu bir tomondan ijobiy baholansa, boshqa tomondan banklari faoliyati samaradorligi o'rtasida katta tafovut yuzaga kelayotganligini ko'rsatadi.

Ya'ni banklarning rentabellik darajasini pasayib borishi banklarga nisbatan ishonchni pasayishiga va banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyida biz respublikamizning ayrim banklarining foydasi haqida to'xtalib o'tamiz.




**22-rasm. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB foydasi dinamikasi, (mlrd. so‘m<sup>98</sup>)**

<sup>98</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATB yillik hisobot ma'lumotlari

So‘nggi 6 yil davomida foyda hajmi barqaror ravishda o‘shib, 2012-yildagi 31,8 mlrd. so‘mdan 2017-yilda 85,7 mlrd. so‘mga etdi. Avvalgi yilga nisbatan esa foyda 20,2% o‘shish sur‘atiga ega bo‘ldi.

Keyingi rasmda esa AT “Aloqa bank”ning 2012–2018-yillar mobaynida yillik sof foydasining o‘shish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joziki, bankning yillik sof foydasining ko‘payishi ular faoliyatining barqaror ekanligidan dalolat beradi.



**23-rasm. AT “Aloqa bank”yillik sof foydasining o‘shish dinamikasi (mln.so‘mda)<sup>99</sup>**

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, AT “Aloqa bank” ning jami daromadlari o‘shish tendensiyasiga ega. 2012-yilda bankning jami sof foydasi 13126191 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2014-yilga kelib jami sof foyda 2032200 ming so‘mni tashkil qilgan. 2017-yilda esa 65107000 ming so‘mga oshgan.

Sof foyda bank moliyaviy holatining yakuniy natijasi ekanligini hisobga olib aytadigan bo‘lsak 2012–2017-yillar davomida sof foyda hajmi 51980800 ming so‘mga oshgan. Demak, bankning sof foydasi 2017-yilda 2012-yilga nisbatan deyarli 5 barobarga oshgan.

Shuni alohida ta’kidlash joziki, bankning sof foydasi tahlil etilayotgan yillar oralig‘ida o‘shib borgan. Bank har bir moliya yili davomida o‘zining provard maqsadi bo‘lgan foydani o‘stirishga erishgan. Foyda ko‘rsatkichining o‘shishi bank, uning aksiyadorlari va mijozlari uchun ham ijobiy holat hisoblanadi.

<sup>99</sup> Bank axborotnomasi. N#10 (1038), 2016-yil 14-aprel.

Kelgusida bankning sof daromadini oshirish uchun foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan yuqori sur'atlar o'sishini ta'minlashga erishilmog'i lozim.

Buning uchun albatta foiz to'lanib jalb qilinadigan majburiyatlarni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirish kerak.

Shu bilan birga, bank yil sayin foizsiz daromadlarining o'sib borishini ta'minlovchi siyosat ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

Bank strategiyasiga ko'ra doimiy ravishda daromadlarning o'sish sur'ati xarajatlar va soliq to'lovlari o'sish sur'atlaridan yuqori darajada bo'lishiga xarakat qilmog'i kerak bo'ladi.

### **3. Tijorat banklari rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili**

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati iqtisodiy samarasi uning foyda ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Tijorat banklarining faoliyatining iqtisodiy samaradorligi bankning foydaliligi (daromadlilik) yoki rentabellik ko'rsatkichlari tizimi kabi nisbiy ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Foyda muhim baholovchi ko'rsatkichlarning biri hisoblansada, har doim ham bank faoliyatining samaradorlik darajasi, joylashtirilgan yoki investitsiya qilingan resurslarning foyda keltira olishi to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmaydi<sup>100</sup>.

Rentabellik yoki foydalilik ko'rsatkichi foyda bilan bog'liq natija va undan keladigan mablag'ni ifodalaydi, ko'p hollarda bank ishining samaradorligini tavsiflaydi. Iqtisodiy jihatdan esa qiyosiy ko'rsatkichlar ko'p hollarda bank tomonidan yo'naltirilgan qo'yilmalardan olinadigan har bir so'mni, foydani ifodalaydi.

Shunday qilib, rentabellik – bu tashkilot faoliyatidagi foydalilikni (daromadlilik) aniqlab beruvchi iqtisodiy samaradorligining qiyosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari bankning moliyaviy holatini umumiy baholash asosi hisoblanadi.

Umuman bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarida bank faoliyatidagi rentabellik tahlili va tavsifi uchun dekompozitsion yo'l yoki "Dyupon" firmasi usuli (*birinchi bo'lib ishlab chiqqan va faoliyatida ko'llagan korxonalar nomi bilan atalgan*) ko'p qo'llaniladi.

Mazkur metodni mohiyati shundaki, bir birlik shaxsiy kapitaliga to'g'ri keluvchi, foyda hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy faktorlarni aniqlashdan iboratdir.

---

<sup>100</sup> Щербакова Г.Н. "Анализ и оценка банковской деятельности" Москва -2007г.

Tahlil jarayonida:

- bosqichma-bosqich rentabellik ko'rsatkichlari bazasini uning tarkibiy qismlariga bo'lishni amalga oshirish;
- mazkur bo'linishning har bir bosqichida batafsil o'rganishni amalga oshirish;
- jahon bank faoliyatiga xos bo'lgan, ahamiyat darajasi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar hajmini taqqoslashni amalga oshirish;
- tijorat bank faoliyati natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tafovutlarni aniqlash va sabablarni ochib berish amalga oshiriladi.

Bank rentabelligini aniqlovchi yana bir mashhur usullardan biri "Gordon" modeli deb ataladi. Mazkur rentabellik usuliga muvofiq joriy muddatda yoki yil oxirida bank tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarning daromadlilik stavkasi aniqlanadi.

U quyidagicha formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Umumiy rentabellik} = \frac{D_i}{P_0} + \frac{P_i - P_0}{P_0} \quad (21)$$

Bu erda:  $D_i$  – yil oxiridagi dividendlar;

$R_0$  – qimmatli qog'ozlarning sotib olish bahosi;

$P_i$  – aksiyaning sotish bahosi.

Shunday qilib, qimmatli qog'ozlarining daromadliliği ko'rinishidagi bankning umumiy rentabelligi aksiyaning dividendli daromadi va ularni sotishdagi daromadligidan iboratdir.

Chet-el mamlakatlari bank faoliyatida qo'llaniladigan rentabellikni hisoblashning yana bir usuli Sharp modeli deb ataladi. Mazkur metod yordamida hisobot yilining boshida qimmatli qog'ozlari daromadliliğining kutilayotgan darajasi kabi bank rentabelligi hisoblanadi:

$$E(R) = R_f + (E(R_m) - R_f) * B \quad (22)$$

Bu erda,  $E(R)$  – kutilayotgan daromad stavkasi (hisob-kitobli o'lcham);

$R_f$  – tavakkalsiz foiz stavkasi (misol uchun, davlat qimmatli qog'ozlari);

$(E(R_m) - R_f)$  – tavakkal premiya;

$E(R_m)$  – tavakkalli premiyalar va tavakkalsiz stavkalardan jamlangan kutilayotgan bozor stavkasi;

$B$  – bozor riskining to'g'rilangan koeffitsient.

Tijorat banklari foyda summolari bo'yicha sifatiiy (reyting) baho berib bo'lmaydi.



Chunki kichik, o'rtta va yirik banklar mavjud. Misol: bir yilda bir bank 640 000,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, ikkinchi bank esa 680 000,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, ikkinchi bankni foydali ishlayapti deb baho berib bo'lmaydi. Chunki birinchi bank faoliyati jihatidan kichik, ikkinchi bank esa juda katta faoliyat yurituvchi bank bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham banklarning rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil qilinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari – nisbiy ko'rsatkich bo'lib, foyda summasini barcha aktivlari, o'z sarmoyasi summalariga bo'lish bilan aniqlanadi.

Banklarning rentabellik ko'rsatkichlari hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Faoliyat rentabelligi ko'rsatkichlari bankning likvidlilik aktivlari va passivlar tarkibi kabi ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashgan holatda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bank foydalilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasini aniqlab olmog'i lozim.

Rentabellik ko'rsatkichlari tahlilini quyidagi tartibda amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- hisobotlarga asosan rentabellik koeffitsientlarini aniqlash;
- hisoblangan rentabellik koeffitsientlari dinamikasi tahlilini amalga oshirish;
- aniqlangan koeffitsientlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Ushbu omillarni bank likvidlili va faoliyat risklari bilan bog'liq ravishda baholash.

Tijorat banklari rentabelligini tahlil qilishda dastavval quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

1. Aktivlarning rentabellik (K1). Bu ko'rsatkich foydaning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi, va u aktivlar rentabelligi darajasini ifodalaydi.

2. Daromad keltiruvchi aktivlar rentabelligi (K2). Ushbu ko'rsatkich sof foydaning daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi.

3. Bank o'z kapitali qiymati multiplikatori (K3) o'rtacha aktivlar qiymatining o'rtacha bank kapitali qiymatiga nisbati bilan o'lchanadi.

4. Kapitalning rentabelligi (K4), bank foydasining kapitalga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich 1 so'mlik bank kapitaliga to'g'ri keladigan qoyda miqdorini bildiradi va u ayniqsa aksiyadorlari bankdagi mablag'laridan qanchalik darajada samarali foydalanilayotganligini bildiradi.

5. Ustav kapitali rentabelligi (K5) foydaning o'rtacha ustav kapitaliga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich bank ta'sischi uchun muhim hisoblanadi va u aksiyalar uchun dividend to'lanishining potentsial asosi hisoblanadi.

Lekin, shunga e'tibor berilishi lozimki, ushbu ko'rsatkich bank kapitalining yetarlilik darajasi pastligi tufayli ham yuqori bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari, bank faoliyatining foydalilik darajasi kredit portfelining sifati, soliq tizimi, xarajatlar tejamkorligi kabi bir necha omillar ham ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bank rentabelligi darajasini aniqlashda (K4) ni hisoblashga e'tibor qaratiladi.

AT "Aloqabank" da ushbu ko'rsatkich natijalariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Bunda albatta har bir ko'rsatkich bo'yicha alohida ko'rib chiqib tegishli qaror qabul qilish uchun tahlillarni aniq qilish kerak bo'ladi.

64-jadval

**AT "Aloqabank" Sof foyda miqdorining o'sish dinamikasi<sup>101</sup>**


Yillar	Sof foyda mln.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (so'mda)	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (foizda)
01.01.2012	10578,70		
01.01.2013	13126,20	2547,50	124%
01.01.2014	16310,90	3184,70	124%
01.01.2015	20322,00	4011,10	125%
01.01.2016	27039,40	6717,40	133%
01.01.2017	32773,00	5733,60	121%
01.01.2018	65107,00	32334	199%

Yuqoridagi jadvaldan ma'lumki, bank foydasi 6 yil davomida o'rtacha 5,0 barobarga oshgan. 2014 yilda o'tgan yilga nisbatan 125%, 2016 yilda esa o'tgan yilga nisbatan 121% foydani oshirishga erishilgan bo'lsa, 2017 yilda bankning foydasi o'tgan yilga nisbatan 199% ga oshgan.. Aloqabankning ishonchliligi va erishayotgan bunday muvaffaqiyatlarining e'tirofi «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi tomonidan berilgan «V-» prognozi «Barqaror» hamda «Axbor-reyting» RA tomonidan «uzA+» prognozi «Barqaror» baholarida ham o'z ifodasini topgan. Reytinglar bankning yuqori likvidligidan va barqarorligidan dalolat berib, bank uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishda qo'shimcha shart-sharoitlar yaratadi.

Tijorat banklariga moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish vazifasi qo'yilayotgan hozirgi sharoitida favqulodda yuzaga keladigan

<sup>101</sup> AT «Aloqabank» hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

kon'yukturaviy o'zgarishlarga moslashish uchun bank barcha operatsiyalarining rentabelligini doimo baholab borishi lozimligini ko'rsatadi.



**24-rasm. AT "Aloqabank"da kapital miqdorining o'sish dinamikasi<sup>102</sup>  
(mln.so'mda)**

Bank kapital miqdorining o'tgan 6 yil davomida 3,9 barobarga oshirib, 2016 yilda bu ko'rsatkich o'rtacha 196959 mln. so'm, 2017 yilda esa 374236,4 mln so'mni tashkil qildi. Hozirda aksiyalarning umumiy hajmi 6 mln. dona, har bir aksiyaning nominal qiymati 1000 so'm etib belgilangan. Qisqa muddatda aksiyalarning muvaffaqiyatli joylashtirishga erishildi.

Bankning yuqori likvidlilik ko'rsatkichlari va ishonchliligi banklararo bozorda raqobat nuqtai-nazaridan qator qulayliklar, xususan, banklararo depozitlarni joylashtirish, qisqa muddatli likvidlilikni tartibga solish va qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratmoqda.

Umumiy olganda Aloqabankning moliyaviy holati tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, bank oxirgi 6 yil davomida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sishini ta'minlay olgan. Xususan, bank kapitali, aktivlari va foydasi hamda mijozlarning depozitlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi qanchalik to'g'ri o'sganligi, uning rentabelligiga qanchalik samara berishini, umuman olganda rentabellik ko'rsatkichlari oxirgi 5 yil

<sup>102</sup>AT «Aloqabank»hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

davomida qaysi tomonga o'zgarganini keyingi rejamizda tahlil qilib chiqib, aniqlaymiz.

Aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun jalb etilgan manbalar tahlilini o'tkazish va mijozga zarur summani berish uchun bank mablag'lari etarli yoki yo'qligiga ishonch hosil qilish zarur.

Bank o'z operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi resurs mablag'lari o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'laridan iborat bo'ladi.

Katta miqdordagi kapital bank operatsiyalari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaruvchi risk darajasini kamaytiradi.

Qayd etish lozimki, kapital evaziga bank past foiz stavkasida boshqa manbalardan resurs jalb qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shubhasizki, qancha katta miqdordagi kapitalga ega bo'lsa bank, uning obro'si shunchalik baland, ya'ni katta miqdordagi kapitalga ega bo'lish bankning barqaror faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

Eng baland kapital rentabellik ko'rsatkichi eng katta banklarda umuman bo'lmasligi kutilgan holat bo'lmoqda. Banklar turli xil imkoniyatlar bilan umuman boshqa natijalarga erishishmoqda va aksincha, kapital rentabelligi bir xil bo'lgan banklarda turli xil vaziyat, ya'ni turli miqdordagi kapital bilan aktivlar daromadligi har xil bo'lishi mumkin.


Banklarda kapital rentabelligini baholash – bu moliyaviy faoliyat yurituvchi, har qanday organizatsiyaning moliyaviy tahlilining muhim qismidir. Bank kapitali rentabelligi tushishi har doim ham uning bankrotlikka olib kelavermaydi. Bu ko'rsatkichni oldingi yillardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslagan holda yoki boshqa bank kapital rentabelligi bilan solishtirgan holda ko'rib chiqish lozim.

1. Kapitalning daromadlilik koeffitsienti jahon amaliyotida ROE deb nomlangan bo'lib, soliqlardan keyin qolgan bank foydasini o'z kapitaliga yoki ustav kapitaliga nisbati teng bo'lib, Aloqabank misolida 2016 yilda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$K_t = \text{Soliqlardan keyingi sof foyda} / \text{Aksiyadorlik kapitali}$$

$$K_{2016} = 32772,9 / 123377,8 = 0,266 = 26,6 \%$$

$$K_{2017} = 65107,0 / 374236,3 = 0,266 = 26,6 \%$$



**25-rasm. AT “Aloqabank”ning kapital rentabellik koeffitsienti dinamikasi<sup>103</sup> (foizda).**

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, AT “Aloqabank” ning kapital rentabellik koeffitsienti yillar davomida oshib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida bankning sof foydasining o‘shish sur’ati bank ustav kapitaliga nisbatan tezroq bo‘lganidir.

Rivojlangan davlatlarda bank kapitalining rentabellikning o‘rtacha normasi 5 foizdan 20 foizgacha bo‘lgan oraliqda tebransada, bankda esa bu ko‘rsatkich yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bankning rentabellik darajasi bankning foydasi kabi bir xil o‘shishda ta’minlanmagan, aksincha pasayish tendensiyaga ega bo‘lgan. Bu esa bankda foydaning o‘shishi bankning kapitali o‘shishi kabi oshib bormagan. Bankda olingan foyda asosan bank kapitalini o‘shishiga yo‘naltirilganligi bilan izohlandi.

2. Boshqa muhim rentabellik ko‘rsatkichlaridan yana biri aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi (ROA) deb nomlanib, bank aktivlari orqali olingan har bir foydani, ya’ni foyda hajmini xarakterlab beradi.

**65-jadval**

**AT “Aloqabank”ning aktivlar rentabellik koeffitsienti<sup>104</sup>.(foizda)**

Yillar	Sof foyda mln.so‘m	Bank jami aktivlari	Aktivlar rentabelligi
2012	13126,20	622688,9	2,11
2013	16310,90	690719,6	2,36
2014	20322,00	1005833,8	2,02
2015	27039,40	1189977,1	2,27
2016	32773,00	1560543,3	2,10
2017	65 107,00	2579912,9	2,52

<sup>103</sup> AT «Aloqabank» hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>104</sup> AT «Aloqabank»hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bankda aktivlarning rentabelligi tebranishlar bilan o'zgargan bo'lib, eng yuqorisi 2017 yilda 2,52 foizni tashkil etgan bo'lsa, eng quyisi esa 2016 yilda 2,1 foizni tashkil etgan. Umuman olganda bank aktivlarning rentabellik darajasi 2013–2016 yillar orasida pasayish tendensiyaga ega bo'lgan bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 6 yillikda eng katta nuqtasini ko'rsatdi.

Shuningdek, bank aktivlarining foydaliligini ko'rsatishda daromad keltiruvchi aktivlar ya'ni, boshqa banklarga joylashtirilgan aktivlar, qimmatli qog'ozlar, kreditlar va lizinglardan foydalanilgan holda aniqlanish lozim bo'ladi.

$$DBA_{2016} = (SA - AND) / SA = APD / SA = 1\,103\,476,00 / 1560543,3 = 0,707 = 70,7\%$$

$$DBA_{2017} = (SA - AND) / SA = APD / SA = 1618838,70 / 2579912,9 = 0,628 = 62,8\%$$

*Bu erda:*

*DBA – aktivlarning daromad bazasi,*

*SA – jami (jamlanma) aktivlar,*

*AND – daromad keltirmayotgan aktivlar,*

*APD – daromad keltirayotgan aktivlar*

**66-jadval**

**AT “Aloqabank” jami aktivlarining tahlili<sup>105</sup>.**

Yillar	Daromad keltiruvchi aktivlar		Daromad keltirmaydigan aktivlar		Bank jami aktivlari	
	Summa, mln.so'm	Jami aktivlardagi salmog'i, %	Summa, mln.so'm	Jami aktivlardagi salmog'i, %	Summa, mln.so'm	Salmog'i, %
<b>2012</b>	413678,20	66,43	209010,70	33,57	622688,9	100
<b>2013</b>	500490,00	72,46	190229,60	27,54	690719,6	100
<b>2014</b>	723808,90	71,96	282024,90	28,04	1005833,8	100
<b>2015</b>	932261,00	78,34	257716,10	21,66	1189977,1	100
<b>2016</b>	1103476,00	70,71	457067,30	29,29	1560543,3	100
<b>2017</b>	1618838,70	62,75	961074,20	37,25	2579912,90	100

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'ldiki, bankda daromad keltiruvchi aktivlar ulushi katta tebranishlar bilan o'zgarib borgan bo'lib, eng yuqorisi 2015 yilda 78,34 foizni tashkil etgan bo'lsa, eng quyisi esa 2012 yilda 66,43 foizni tashkil etgan. Umuman olganda daromad keltiruvchi aktivlar ulushi


<sup>105</sup> AT «Aloqabank» hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

o‘shish tendensiyaga ega bo‘lgan. Faqatgina 2017 yilga kelib solmog‘i 62,75 foizga tushgan.

3. Bankning foyda marjasi bank tomonidan olingan daromadlar tarkibida foyda ulushini aniqlashda foydalanib, Aloqabank misolida quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$K_4 = \text{Foyda} / \text{Daromadlar} = 32773 / 210229,7 = 0,156 = 15,59\%$$

Yukoridagi natijadan ma‘lumki, xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilgan daromadlar ulushi 84,41 foizni va daromadlar tarkibida foyda ulushi esa 15,59 foizni, 2015 yilda esa 16,34 foizni tashkil etgan.



**26-rasm. AT “Aloqabank” ning foyda marjasi<sup>106</sup>.**

Ko‘rinib turibdiki, bankning foyda marjasi 2012 yil boshida 15,36 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilga kelib 16,34 foizga oshgan va 2017 yilda esa 19,90 foizgacha ko‘tarilgan. Bu esa o‘z navbatida, bankda foydaning o‘shishi daromadlar o‘shishi bilan mutanosib ravishda oshib borgan yoki xarajatlarni o‘shishi foydaning o‘shishi bilan mutanosib ravishda oshib borganligini ko‘rsatadi.

Banklar faoliyatida rentabellikni va samaradorlikni oshirish uchun banklar resurs jalb qilishning jahon amaliyotida foydalanayotgan manbalarini o‘z faoliyatiga kiritish hamda resurslardan yuqori samara olish uchun mijozlarga turli–tuman bank xizmatlarini taklif etish kerak. Shuningdek, banklar mijozlarning talablaridan kelib chiqib o‘zining depozit siyosati va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishsa, albatta bank resurslaridan samarali foydalangan holda yuqori foyda olishga erishiladi.

Bank aktivlaridan foydalanish koeffitsienti aktivlardan qaytish darajasi, ya‘ni qo‘yilmalarni boshqarish siyosati samaradorligini ifodalaydi:

$$K_5 = \text{Daromadlar} / \text{Aktivlar} = 1560543,3 / 210229,7 = 13,47\%,$$

2015 yilda 13,91 foizni tashkil etgan.

<sup>106</sup> AT «Aloqabank» hisobot ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

AT «Aloqabank»ning aktivlardan foydalanish koeffitsienti<sup>107</sup>

Yillar	Bank jami daromadlari (mln.so‘m)	Bank jami aktivlari (mln.so‘m)	Aktivlardan foydalanish rentabelligi
2012	85430,8	622688,9	13,72
2013	105447	690719,6	15,27
2014	175284,1	1005833,8	17,43
2015	165470,5	1189977,1	13,91
2016	210229,7	1560543,3	13,47
2017	327 226,70	2 579 912,9	12,68

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra bankda aktivlardan foydalanish koeffitsienti 6 yil davomida o‘shirishga erishgan. Mazkur davrlar davomida bank aktivlari 2012 yilda 13,72 foiz naflik keltirgan bo‘lsa, 2014 yilga kelib bank aktivlaridan samarali foydalanish natijasida foydalanish koeffitsienti 17,43 foiz, 2016 yilda esa 13,47 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib bu ko‘rsatkich 12,68 foizga tushgan.

Yuqorida tijorat banklari faoliyatining rentabelligini baholashning barcha bosqichlarini bank misolida tahlil qilib chiqildi. Bank faoliyatining rentabellik tahlili, har bir operatsiyasining rentabellik tahlili bankning qay darajada ishlayotgani, qolaversa bank qaysi tomonga qarab o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatdi.

Umumiy olganda AT «Aloqabank»ning moliyaviy holati tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, bank oxirgi 6 yil davomida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘shirishini ta‘minlay olgan. Xususan, bank kapitali, aktivlari va foydasi hamda mijozlarning depozitlari barqaror o‘shirish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shirishi uning barcha rentabellik koeffitsientlarining barqaror o‘shirishiga ta‘sir ko‘rsata olmagan.

**Tayanch so‘z va iboralar:**

- buxgalteriya hisobotlari;
- balans hisoboti
- joriy buxgalteriya hisoboti;
- bankning yillik yig‘ma balans hisoboti;
- hisobot yili faoliyat natijalariga oid foyda va zararlar to‘g‘risidagi yig‘ma hisobot;
- pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot;
- yillik hisobot;
- Fitch Reytings;
- aktivlari rentabellik ko‘rsatkichlari.

<sup>107</sup> AT «Aloqabank»hisobot ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

T.M.KARALIEV, R.B.QURBONOV

**«TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI»**

fanidan amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish bo‘yicha

USLUBIY QO‘LLANMA

TOSHKENT

**Bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanidan amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma . Karaliev T.M., Qurbonov R.B. –T.: TMI, 2017. – bet.**

Ushbu uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining bakalariat ta‘lim yo‘nalishlarida “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanini o‘rganuvchi talabalar uchun mo‘ljallangan. Uslubiy qo‘llanmada mavzu yuzasidan savollar, topshiriqlar, amaliy jadvallar va testlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Uslubiy qo‘llanmaga kiritilgan jadvallar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi.

Uslubiy qo‘llanma “Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanini o‘rganuvchi talabalar bilan bir qatorda ushbu fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarini olib boruvchi pedagog xodimlar uchun ham mo‘ljallangan.

Toshkent moliya instituti o‘quv uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2017 yil 28 apreldagi № \_\_/\_\_ son qarori).

**Taqrizchilar:** i.f.n., dots. I.Toymuhammedov.,

i.f.n., dots. D.Saidov

**© Toshkent moliya instituti, 2018**

## **MUNDARIJA:**

### **Kirish**

1. Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining predmeti va vazifalari
2. Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish
3. Bank majburiyatlarining tahlili
4. Tijorat banklari aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili
5. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili
6. Tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar operatsiyalari tahlili.
7. Bank daromadlari va xarajatlarining tahlili
8. Tijorat banklari likvidliligi va uni tahlil qilish
9. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili.

### **Topshiriqlarni bajarish uchun ma'lumotlar**

### **Baholash mezoni**

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

## **Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyatining barqarorligi, uning raqobatbardoshligi va istiqbollari ko'p jihatdan o'tgan davrda erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga bog'liq. Istiqbolni belgilash tahlilga asoslanmog'i lozim.

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fani bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni uzluksiz ravishda o'rganadi. O'rganishda ko'rsatkichlarni guruhlash, taqqoslash, bog'lash, induksiya, deduksiya, sintez, korrelyasion – regression tahlil kabi usullardan foydalaniladi.

Tahlil natijasida erishilgan yutuqlarning sabablari, faoliyatning samarali va samarasiz qirralari o'rganiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatlari yaratiladi. Tahlil jarayoni faoliyatning asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi va u bankning likvidliligi, daromadliligini oshirish va mijozlar ishonchini qozonishga asos bo'ladi.

“Tijorat banklari faoliyati tahlili” fanida o'z va chetdan jalb etilgan mablag'lari tarkibi tuzilmasi, dinamikasi va ular o'rtasidagi mutanosibliklar o'rganiladi.

Bank aktivlari tahliliga keng e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad yuqori foyda olishdan iboratligini inobatga olgan holda bank daromadlari va xarajatlari tarkibini o'rganadi. Foydani tashkil etish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Keyingi yillarda banklar tomonidan to'lanadigan soliqlarning turlari, ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri chuqur talqin qilinadi.

Banklarning raqobatbardoshligini aniqlashda ularning likvidliligi va to'lov qobiliyati muhim ahamiyat kasb yetadli.

Tahlil davomida banklarning likvidliligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'liq o'rganiladi.

Har qanday tahlildan maqsad kamchiliklarni aniqlash va ularni tugatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada aniq olingan shartli “A” bankning yig‘ma balans ma’lumotlariga asoslangan holda bank faoliyatining barcha jihatlari tahlil qilinadi va aniq xulosalar shakllantirilib, ushbu bank faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tahlilga asoslangan chora-tadbirlar shakllantirishi lozim bo‘ladi.

Uslubiy qo‘llanmada jarayonlarni tahlil qilish bo‘yicha aniq jadvallar va topshiriqlar keltirilgan. Bankning hisobotlari yordamida ushbu jadvallarni to‘ldirish, tarkibi va tarkibiy o‘zgarishlar o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

## 1-mavzu. Tijorat banklari faoliyati tahlili fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

### Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 min.)	1.1.O'quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'tiladigan mavzular to'g'risida qisqacha tanishtiradi. 1.2.O'quv kursi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi.	Eshitadi.
2-bosqich Asosiy bosqich. (65 min)	2.1. Talabalarni bilimini oshirish maqsadida yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat etadi: 1. «Tijorat banklari faoliyatini tahlili» fani nimani o'rgatadi, uning qanday vazifalari bor? 2. Tijorat banklari faoliyatini tahlili qilishda bank balansining ahamiyati nimada va tahlilning usullari deganda nimani tushunasiz? Savollarga javob berishlari uchun talabalarni juftlikka ajratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Ekranga 1-slaydni chiqazib «Tijorat banklari faoliyati tahlili» predmeti sxemasiga tushuncha berib o'tib, uning tarkibiy tuzilishi bilan tanishtirib va unga qisqacha yakun yasaydi. 2.3. Ekranga 2-slaydni «Tijorat banklari faoliyati tahlili» fanining tizimi to'g'risidagi chizmani chiqazib, talabalarni bu kurs bo'yicha o'tiladigan mavzular bilan, reytingi bilan, shuningdek, joriy, oraliq va yakuniy ko'rsatkichlari mezonlari bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxati va talabalarga bo'lgan asosiy talablar bilan tanishtiradi. 2.4. Mavzuning rejasi bilan tanishtirib, bunda asosan ko'rgazmali materiallardan va yo'naltiruvchi savollardan foydalanadi: 1. Tijorat banklari faoliyati tahlili qilishning zarurligi nimada? 2. Tijorat banklari faoliyati tahlili qilishda, tahlilning metodlarini ko'rsatib bering. 3. «Tijorat banklari faoliyati tahlili» fanining bank sohasida mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday? Talabalarni mavzuning asosiy maqsadiga qaratadi va yozib olishlarini taklif qilib yakun yasaydi.	Savollarga javob beradi.  1-slayd bilan tanishib, o'zlarini fikrlarini bayon etishadi.  2-slayd bilan tanishib, reyting nazorat talablarini yozib olishadi.  Chizma, jadval va ko'rgazma materiallarni tuzilishi bilan tanishadilar, savollar berib aniqlaydilar.  Asosiy va keraklilarini yozib oladilar.
3-bosqich. (10 min.)	3.1.Talabalarni mavzuni qanday darajada o'zlashtirganliklarini bilish uchun ularga savol bilan murojaat qiladi: Bank faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?». Talabalar bilan blits-so'rov o'tkazadi. Yakuniy xulosa qiladi. 3.2.Talabalarga mustaqil bajarishlari uchun uyga vazifa beradi: jadval tuzing.	Savollarga javob beradilar.  Eshitadilar aniqlaydilar va yozadilar.

### 1-topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping

1. “Metod” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nimadan iborat?
2. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish zaruriyati, predmeti va metodlari.
3. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda bank balansining ahamiyati va uning tahlili.
5. Tijorat banklari faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalari.

### 2-topshiriq. Quyidagi mavzulardan biri bo‘yicha mustaqil ish tayyorlang.

1. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish zaruriyati, predmeti va metodlari.
2. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda bank balansining ahamiyati va uning tahlili.
4. Tijorat banklari faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalari.

### 3-topshiriq. Quyidagi testlarning to‘g‘ri javobini toping.

<b>Tahlil so‘zining mazmuni qaysi tildan olingan va qanday ma‘noni anglatadi?</b>	«Tahlil» so‘zi grek tilidan olinib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma‘nosini anglatadi.	«Tahlil» so‘zi fransuz tilidan olinib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma‘nosini anglatadi.	«Tahlil» so‘zi ingliz tilidan olinib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma‘nosini anglatadi.	«Tahlil» so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma‘nosini anglatadi.
<b>Tahlil qayerda o‘tkazilishiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?</b>	ichki tahlil	tashqi tahlil	global tahlil	lokal tahlil
<b>O‘rganiladigan davriga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang:</b>	joriy, boshqaruv va moliyaviy;	joriy, tezkor va istiqbolli	tezkor, ichki va tashqi;	tezkor, istiqbolli, ichki va tashqi
<b>Qaysi manbalar xo‘jalik moliya faoliyatini tahlil etishda asosiy manbalar bo‘lib hisoblanadi?</b>	Buxgalteriya, statistika	Iqtisodiy va ekologik	Operativ texnik hisob va hisobot, hisobdan tashqari manbalar;	Hisob va huquqiy

<b>Tijorat banklarida tahlil o'tkazishdagi ketma-ketlik qanday ko'rinishga ega?</b>	Ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish	Tahlil o'tkazish rejasini tuzish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash	Tahlil o'tkazish rejasini tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil, o'zgarishlarni aniqlash, takliflar bildirish	Ma'lumot to'plash, tahlil va yechimini aniqlash
<b>Pul oqimi to'g'risidagi hisobot qaysi davrga tuziladi?</b>	Yil bo'yicha	Choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik	Yarim yillik va yillik	To'liq hisobot davri bo'yicha
<b>Tahlil fanining metodi deganda nima tushuniladi?</b>	Materialistik dialektik yondashish tushuniladi	Kompleks yondashish tushuniladi	Xo'jalik faoliyatini o'rganishdagi umumiy yondashish tushuniladi	Ijodiy yondashish tushuniladi
<b>Tizimli tahlil nechta bosqichdan iborat?</b>	Oltita	To'rtta	Ettita	Beshta;
<b>Qaysi usullar iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari bo'lib hisoblanadi?</b>	Taqqoslash va iqtisodiy matematik usullar	Taqqoslash, guruhlashtirish	Taqqoslash, guruhlashtirish va nazariy o'yin	zanjirli bog'lanish va balans
<b>Taqqoslash usulini qo'llashdagi e'tiborga olinadigan talablarni belgilang:</b>	Baho va aniqlanish usuli bir xil	Ixtisoslashuvi bir xil	Hajmi bir xil	noto'g'ri javob yo'q

#### 4-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarga ta'rif bering.

- ◆ Bank;
- ◆ Balans;
- ◆ Metod;
- ◆ Aktivlar;
- ◆ Majburiyat;
- ◆ Kapital;
- ◆ Daromadlar;
- ◆ Xarajatlar;
- ◆ Aktiv balans.



## 2-mavzu. Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish

### Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<b>Keys-stadi usulidan foydalanib amaliy mashg'ulot o'tkazish</b>
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	Mavzuning mazmuniga kirish. savollarni muhokama qilish: <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bank kapitali holatini tahlil qilish ko'rsatkichlari va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar;</li> <li>2. Bank kapitalining barqarorligi tahlili;</li> <li>3. Keysning yechimini topish bo'yicha individual ishlash.</li> <li>3. Keysning yechimi bo'yicha taqdimot.</li> <li>4. Mashg'ulot bo'yicha yakuniy xulosa qilish.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bank kapitali va uni boshqarishning tahlili to'g'risida olgan nazariy bilimlarni masalalar echish (keys-stadi) orqali mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• o'tilgan nazariy savollarni mustahkamlash;</li> <li>• muammoni aniqlash va uni hal qilish bo'yicha individual, guruhlardagi bilim va ko'nikma hosil qilish;</li> <li>• mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;</li> </ul>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: <ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va ularga izoh bera oladi;</li> <li>• muammoni aniqlaydi va uni xal qila oladi;</li> <li>• mantiqiy fikrlay oladi;</li> <li>• mustaqil boshqaruv qarorini qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi va o'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirganlik darajasini baholaydi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari</i>	Keys-stadi usulidan foydalanilgan amaliy mashg'ulot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, tijorat banklarining balansi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tarqatma materiallari, Prezident qarori, topshiriqlar va doska.
<i>O'qitish shakli</i>	Individual va guruhda ishlash usuli.
<i>O'qitish sharti va sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baho</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriq

## Keys-stadili amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni:	
	O‘qituvchi	Talabalar
Tayyorlanish bosqichi	Talabalarni keys-stadi bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazishga tayyorlaydi va ularga tarqatma materiallar beradi. Talabalarni materiallar bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Keysning mazmuni bilan tanishadilar va uning yechimini topadilar.
1-bosqich (8 min)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusini, maqsadini, o‘tkazish tartibini va natijasini e‘lon qiladi. Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta‘sir qiluvchi omillar tahlili bo‘yicha masalalar echish. keys-stadining maqsadi (1-ilova) va ahamiyati tushuntiriladi.	1.1. Eshitadilar.  1.2. Tanishib chiqadilar
2-bosqich Asosiy (62 min)	2.1. Quyidagi blits–savollarga o‘ylab javob berishlarini so‘raydi: (2-ilova) Blits–so‘rov o‘tkazadi, savol-javob jarayonida aniqlashtiriladi va yo‘naltiradi. 2.2. Keys-stadining mazmuni, o‘tkazish shakli va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 2.3. Har bir tinglovchiga mavzu bo‘yicha tarqatma materiallarni tarqatadi va individual ishlash uchun topshiriqlar beradi. 2.4. Tinglovchilarni 4 guruhga xech qanday mezonsiz taqsimlaydi va spikerni tayinlaydi.	2.1. Savollarga javob beradilar.  2.2. Eshitadilar.  2.3. Tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadilar.  2.4. Topshiriqni keys-stadi usulidan foydalanib bajaradi va yoqlaydi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuda qo‘yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o‘qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va yechilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Kelgusi mavzu e‘lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko‘rish uchun mustaqil lozimligi tushuntiriladi.	Eshitishadi va yozib olishadi

## Vaziyatni tahlil qilish varag'i

Tahlil bosqichi nomi	Tahlil bosqichi Mazmuni	Tahlil natijasi	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	
			Ko'rsatkichi	mezonlari, %
<b>1. Vaziyat tahlili</b>	1. Berilgan vaziyatni o'rganish va masalani yechish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash. 2. Keysdagi holatlarni oydinlashtirish: Nima yuz berayapti?		Lo'ndalik	<b>5%</b>
<b>2. Muammoni shakllantirish</b>	Muammo mazmunini so'zlarda aks ettirish		Maksimal darajada qisqa ifodalash, 9-10 ko'p bo'lmagan so'z	<b>10%</b>
<b>3. Bank kapitali va uning tarkibiy tahlili.</b>	Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.		Maksimal darajada qisqalik	<b>10%</b>
<b>4. Bank kapitali holati tahlil qilish ko'rsatkichlari va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.</b>	Tijorat banklarining birinchi darajali kapitali va uning tarkibiy tahlili.		Aniqlik	<b>40%</b>
<b>5. Tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali, uning tarkibiy tahlili.</b>	Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.		Qisqa, lo'nda va aniqlik	<b>15%</b>
<b>6. Yechimni shakllantirish</b>	Bank kapitali va uning tarkibiy tahlili		Aniqlik, qarorning asoslanganligi	<b>20%</b>

**Banklarning umumiy kapitali** – banklarning o‘z faoliyatlarini (bank operatsiyalarini) amalga oshirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy resurslari bo‘lib, u banklar tomonidan turli manbalar orqali jalb etilgan pul kapitalidan iborat. Banklarning umumiy kapitali xususiy kapital bilan bir qatorda undan bir necha barobar ko‘proq bo‘lgan jalb etilgan kapitalni ham o‘z ichiga oladi.

**Banklarning nizom jamg‘armalari** – banklarning doimiy tasarrufida bo‘lgan moddiy va pul mablag‘lari yig‘indisi bo‘lib, ularning miqdori banklar tashkil topgan chog‘da nizomda qat’iy belgilab qo‘yiladi.

3-ilova(3)

**Guruh ishini baholash varag‘i.**

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So‘zlab berishi (aniqlik va tushunarlik, xulosalarning asoslanganligi)				Muammoli topshiriqning bajarilishi (to‘g‘riligi va izchilligi)			
	A‘lo 2,0– ball	Yaxshi 1,5– ball	Qoniqarli 1,0–ball	Qoniqarsiz 0,5–ball	A‘lo 2,0– ball	Yaxshi 1,5– ball	Qoniqarli 1,0–ball	Qoniqarsiz 0,5–ball
1								
2								
3								
4								

## 1-topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping

1. Bank kapitali va uning tarkibi.
2. Bank kapitali holatini tahlil qilish ko'rsatkichlari va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Tijorat banklarining birinchi darajali kapitali va uning tarkibiy qismlarining tahlili.
4. Tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali, uning tarkibi.
5. Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.
6. Tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqirozli holatlar ta'siriga qarshilik ko'rsata olishini ta'minlovchi barqarorlashtirish zaxiralarni tashkil etishni tahlili.

## 2-topshiriq. Ilovadagi tijorat banklari moliyaviy hisobotlari asosida quyidagi jadvalni to'ldiring va tahlil qilib, xulosa yozing.

1-jadval

### «A» tijorat bankining o'z mablag'lari tarkibi va dinamikasi

№	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil		Joriy yil		Farqi	
		qoldiq mln. so'm	%	qoldiq mln. so'm	%	mln. so'm	%
1.	Chiqarilgan imtiyozli aksiyalar (30315)						
2.	Chiqarilgan oddiy aksiyalar (30318)						
3.	Zaxira fondi (30903)						
4.	Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash fondi (30904)						
5.	Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan qismi (30908)						
6.	Taqsimlanmagan foyda (31203)						
7.	Sof foyda (31206)						
	<b>JAMI:(30000)</b>						

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig'ma balans hisoboti.

### 1-jadvalga topshiriqlar:

1. “A” tijorat bankining joriy va o‘tgan yil boshiga o‘z mablag‘lari tarkibi va dinamikasini aniqlang.

2. Ushbu bank bo‘yicha tahlil davrida o‘z mablag‘lari tarkibidagi farqlarni (absolyut summada) va ulushlari o‘zgarishini (foizda) aniqlang.

3. Bank o‘z mablag‘larining yil davomida o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang.

4. Bank o‘z mablag‘larini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha fikrlaringizni bildiring.

5. Bank kapitalini oshirish va tarkibiy tuzilmasini yanada muvofiqlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar shakllantiring.

2-jadval

«A» bank kapitalining etarliligi tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Joriy iyl	Farqi
1.	Bank kapitali qoldig‘i (mln.so‘m)			
2.	I-darajali kapital (mln.so‘m)			
3.	II-darajali kapital (mln.so‘m)			
4.	Aktivlar qoldig‘i (mln. so‘m)			
5.	Aktivlarning risklilik darajasi hisobga olingan qoldig‘i (mln. so‘m)			
6.	Nomoddiy aktivlar (mln.so‘m)			
7.	Umumiy kapitalning yetarliligi (K <sub>1</sub> -koeffitsient, 0,13)			
8.	I-darajali kapitalning yetarliligi (K <sub>2</sub> -koeffitsienti,0,09)			
9.	II-darajali kapitalning umumiy yetarliligi (K <sub>3</sub> -koeffitsienti, 0,06)			

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig‘ma balans hisoboti

**I-darajali kapital.**

A) To‘liq to‘langan oddiy aksiyalar B) Muddatsiz imtiyozli aksiyalar  
V) Qo‘shimcha kapital (nominal,bozor baho farqi) G) Taqsimlanmagan foyda.

**II-darajali kapital.**

A) Joriy yildagi sof foyda  
B) Umumiy zaxira kapitali ( akt. 1,25% da va I-darajali kapitalning 100% miqdoridan oshmagan qismi)

$$K_1 = \frac{\text{Kapital}}{\text{TAUS}} = 13\%; \quad K_2 = \frac{\text{I-darajali kapital}}{\text{TAUS}} = 9\%;$$

$$K_3 = \frac{\text{I-darajali kapital}}{\text{Aktiv-Nomaddiy aktiv}} = 0,06 \text{ yoki } 6\%$$

### 2-jadvalga topshiriqlar:

1. I va II darajali bank kapitali miqdori va ularning o'zgarishini aniqlang
2. Aktivlar miqdori, nomoddiy aktivlar va riskka tortilgan aktivlar miqdori aniqlang
3. I va II darajali hamda umumiy kapitalning yetarliligi koeffitsientlarini aniqlang.
4. Bank kapitali monandligining yetarliligi bo'yicha xulosalar shakllantirish va bank boshqaruviga taqdim eting.

### 3-jadval

#### «A» bank kapitalining samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Joriy yil	Farqi
1.	Bank kapitali qoldig'i (mln.so'm)			
2.	I-darajali kapital (mln.so'm)			
3.	II-darajali kapital (mln.so'm)			
4.	Sof foyda (mln. so'm)			
5.	Kapitalning samaradorligi (N)			
6.	I-darajali kapital samaradorligi(N1)			
7.	II-darajali kapital samaradorligi(N2)			

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig'ma balans hisoboti

### 3-jadvalga topshiriqlar:

1. Bank kapitali va sof foyda qoldiqlari va ularning yil davomidagi farqlarini toping.
2. Umumiy kapital, I darajali va II darajali kapitalning samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlang.
3. Kapital samaradorligini yanada oshirish bo'yicha xulosalaringizni bayon eting.

## 4-jadval.

## “A” passivining strukturasi solishtirma tahlili

№	Ko'rsatkich nomi	01.01.20__ yil		01.01.20__ yil		Farq (+,-)	
		Summa	Salmog'i %	Summa	Salmog'i %	Summa	Salmog'i %
1	Bankning o'z mablag'lari						
2	Bankning jalb etilgan va qarz mablag'lari						
<b>Jami passivlar</b>							

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig'ma balans hisoboti

## 4-jadvalga topshiriqlar:

1. Balans ma'lumotlari asosida joriy va o'tgan davr uchun bank o'z mablag'lari va chetdan jalb etilgan mablag'lar qoldig'i hamda ulushlarini aniqlash.

2. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha xulosalar va ularni yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlari bo'yicha bank boshqaruviga takliflar tayyorlang.

## 5-jadval.

## Bank passivlari tahlili

Ko'rsatkich nomi	01.01.20__ yil		01.01.20__ yil		Farq(+,-)	
	Summa	Salmog'i, %	Summa	Salmog'i, %	Summa	Salmog'i, %
Mijoz h/v mablag'lar						
<i>1-guruh mijoz h/v mablag'lari jami</i>						
Depozit sertifikat						
Banklararo resurs mablag'lari						
Budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari						
Uzoq muddatli zayom						
EBRR bo'yicha kredit liniyasi						



MFK bo'yicha kredit liniyasi						
Jahon banki bo'yicha kredit liniyasi						
Moliya Vazirligi fondlari						
Yuridik shaxslarning depozitlari						
Yuridik shaxslarning jamg'arma depozitlari						
<b>2-guruh jalb etilgan va qarz mablag'lari jami</b>						
Talab qilib olguncha depozitlari						
Jamg'arma depozitlari						
Muddatli depozitlari						
<b>3-guruh aholi jamg'armalari jami</b>						
Aksiyadorlik kapitali						
Zaxira fondi						
Imtiyozli kredit jamg'armasi						
Taqsimlangan foyda						
<b>4-guruh bankning kapitali jami</b>						
<b>Jami passivlar</b>						

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig'ma balans hisoboti.

### **5-jadvalga topshiriqlar:**

1. Tahlil davridagi bankning passivlari tarkibini guruhlar bo'yicha aniqlang.
2. Bank aktivlarining yil davomidagi o'zgarishini aniqlang.
3. Bank passivlariga sifat jihatidan baholang.
4. Bank passivlari tarkibi va sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha takliflar va xulosalar tayyorlang.

**6-jadval.**

**“A” bank mablag‘larini boshqarishda ularning tarkibiy strukturasi tahlili**

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘tgan yil		Joriy yil		Farq (+,-)	
		Summa	Salmog‘i %	Summa	Salmog‘i %	Summa	Salmog‘i %
1	Mijoz hisob varag‘idagi mablag‘lar						
2	Jalb etilgan va qarzi mablag‘lari						
3	Aholi jamg‘armalari						
4	Bank kapitali (O‘z mablag‘lari)						
<b>Jami passivlar</b>							

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig‘ma balans hisoboti.

**6-jadvalga topshiriqlar:**

1. Bank balans ma‘lumotlari yordamida uning passivlari tarkibiy strukturasi aniqlang.
2. Bank passivlari tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlang.
3. Bank o‘z mablag‘lari va chetdan jalb etilgan mablag‘larni ulushini tahlil davridagi o‘zgarishini aniqlash va bu holatni baholang.
4. Chetdan jalb etilgan va o‘z mablag‘larini yanada samarali boshqarish bo‘yicha bank boshqaruviga takliflaringizni kiriting.

**7-jadval.**

**“A” bank kapital tarkibi**

T/r	Ko‘rsatkichlar	20__-yil.		20__-yil		O‘zgarishi (+,-)	
		qoldiq, mln.so‘m	ulush, %	qoldiq, mln.so‘m	ulush, %	qoldiq, mln.so‘m	ulush, %
1	Ustav kapitali						
2	Taqsimlanmagan foyda va boshqalar						
3	Jami xususiy kapital						

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig‘ma balans hisoboti.

### **7-jadvalga topshiriqlar:**

1. Bank balans ma'lumotlari asosida bank ustav kapitali miqdori va uning tahlil davridagi o'zgarishini aniqlang.

2. Balans ma'lumotlari yordamida bankning taqsimlanmagan foydasi qoldig'i va uning tahlil davridagi o'zgarishini aniqlang.

3. Jadval ma'lumotlari asosida bank ustav kapitali va taqsimlanmagan foydasini yanada oshirish bo'yicha xulosalaringizni shakllantiring.

### **4-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarga ta'rif bering.**

- ◆ Bank kapitali va uning tarkibi;
- ◆ Bank kapitali holati;
- ◆ Tijorat banklarining birinchi darajali kapitali;
- ◆ Kapital monandligi;
- ◆ Tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali.

### 3-mavzu: Bank majburiyatlarni tahlili

#### Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (5 min)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini tushuntirib, o'quv mashg'uloti guruh bilan ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e'lon qiladi.</p> <p>1.2 Bank majburiyatlarining tarkibiy jihatdan tahlili qilish bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida savol-javob o'tkazadi. Ularga quyidagi savollar bilan murojaat etadi: bank aktivlarini daromadlilik jihatlarini tahlili, bank aktiv va passivlarini mutanosibligini tahlili, tahlili, bank aktivlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili.</p> <p>1-2 ta talabalarning javobini eshitib, qolgan savol-javoblarni har bir guruh berilgan topshiriqni bajarganidan so'ng, guruhlar taqdimotidan keyin davom etishini e'lon qiladi.</p>	<p>Eshitadilar, yozadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi. Guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. O'quv topshirig'ini tarqatadi.</p> <p>Qanday o'quv natijalariga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>Guruh ishini baholash ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi.</p> <p>Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruzalar matni). Guruhlarda ishlash boshlanganligi haqida e'lon qiladi.</p>	<p>O'quv topshiriqlari shuningdek, baholash ko'rsatkichlar va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Topshiriqni baja-rishga kirishadilar.</p>
3-bosqich Taqdimot (45 min.)	<p>3.1. Taqdimotni tashkillashtiradi.</p> <p>3.2. Guruhlarda ishlash natajalarini guruhdagilarni o'zlari baholashlarini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Bilimlarni birlashtiradi va asosiy e'tiborni ish faoliyatida olingan natijalarga qaratadi.</p>	<p>Umumiy bajarilgan ishning taqdimotida qatnashadilar, to'ldiradilar, baholaydilar.</p>
4-bosqich Yakuniy (10 min)	<p>4.1. Qilingan ishga yakun yasaydi.</p> <p>4.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: quyidagi mavzuga esse yozish kerak «Bank aktiv va passivlarini mutanosibligini tahlili».</p>	<p>4.1. Eshitishadilar, aniqlaydilar.</p> <p>4.2. Topshiriqni yozib oladilar.</p>

1-ilova

### Guruhda ishlash qoidalari.

- Har bir talaba guruhdoshini o‘zining hurmati va e‘tiborliliigi bilan eshita bilishi lozim.
- Har bir talaba faol qatnashib, berilgan topshiriqni birgalikda javobgarlik xissi bilan bajarishi lozim.
- Har bir talaba agar unga yordam kerak bo‘lsa, albatta guruhdoshidan yordam so‘rashi lozim.
- Har bir talaba agar undan guruhdoshi yordam so‘rasa unga albatta yordam berishi kerak.
- Har bir talaba guruhlar bajargan ishni baholash natijalarida qatnashishi lozim.
- Har bir talaba tushunishi kerak: boshqalarga yordam bergan holda, o‘zlari ham o‘rganadilar! Hammamiz bir kemadamiz: birga suzib chiqamiz yoki cho‘kib ketamiz!

3-ilova

«Stol atrofida» berilgan masalani muhokama qilib o‘tkazish uchun ko‘rsatma:

1. So‘zga chiquvchining fikrini e‘tibor bilan, gapini bo‘lmasdan, eshitish.
2. Agar sen uning aytgan fikr-mulhazasiga rozi bo‘lmasang unda, o‘z fikr-mulohazangni aytish uchun ruxsat so‘ra.
3. Agar sen so‘zga chiquvchining fikr-mulohazasi bilan rozi bo‘lsang, ko‘rilayotgan savol bo‘yicha qo‘shimcha qilishni so‘ra.

**Guruh ishini baholash varag'i.**

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	Soʻzlab berishi (aniqlik va tushunarlilik, xulosalarning asoslanganligi)				Topshiriqning bajarilishi (toʻgʻriligi va izchilligi)			
	aʻlo 2,0– ball	yaxshi 1,5– ball	qoniqarli 1,0–ball	qoniqarsiz 0,5–ball	aʻlo 2,0– ball	yaxshi 1,5–ball	qoniqarli 1,0–ball	qoniqarsiz 0,5–ball
1								
2								
3								

**1-topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping**

1. Bank majburiyatlarini tarkibiy tuzilishi tahlili.
2. Bank majburiyatlarining muddatlari jihatidan tahlili.
3. Bank majburiyatlariga taʼsir qiluvchi omillar.
4. Bank majburiyatlarini oʻz vaqtida bajarilishi ustidan nazorat.
5. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi sharoitida majburiyatlar barqarorligini taʼminlash

**2-topshiriq. Ilovadagi tijorat banklari moliyaviy hisobotlari asosida quyidagi jadvalni toʻldiring va tahlil qilib, xulosa yozing.**

8-jadval.

**“A” bank majburiyatlari tarkibi**

T/r	Majburiyatlar	20__-yil		20__-yil		Oʻzgarishi (+,-)	
		qoldiq, mln. soʻm	ulush, %	qoldiq, mln. soʻm	ulush, %	qoldiq, mln.soʻm	ulush, %
1	Boshqa banklardagi depozitlar						
2	Mijozlarning mablagʻlari						
3	Chiqarilgan qarz qimmatli qogʻozlar						
4	Boshqa qarz mablagʻlari						
5	Boshqa majburiyatlar						
<b>Jami majburiyatlar</b>							

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yigʻma balans hisoboti.

**8-jadvalga topshiriqlar:**

1. Bank balansi yordamida yuqoridagi jadvalni to'ldiring.
2. Keltirilgan bank majburiyatlarining umumiy majburiyatlariga nisbatan salmog'ini aniqlang.
3. Jadval bo'yicha xulosalar tayyorlang.
4. Keltirilgan majburiyatlar holatini yaxshilash yuzasidan bank boshqaruviga chora-tadbirlar loyihasini tayyorlang.

9-jadval.

**“A” bank depozitlari tahlili**

(ming.s)

Ko'rsatkich nomi	O'tgan yil		Joriy yil		Farq(+,-)	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Talab qilib olguncha						
Jamg'arma depozitlari						
Muddatli depozitlari						
Depozit sertifikatlar						
Hukumat hisobvaraqlari						
<b>Jami</b>						

*Axborot manbai:* Tijorat bankining moliyaviy yig'ma balans hisoboti.

**9-jadvalga topshiriqlar:**

1. Bankka jalb etilgan depozitlar miqdori va salmog'ini aniqlang.
2. Tahlil davrida depozitlar o'zgarishini aniqlang.
3. Bank depozit bazasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun xulosalar tayyorlang.

10-jadval.

**«A» tijorat bankining chetdan jalb etilgan mablag'lari samaradorligi**

№	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil	Joriy yil	O'tgan yildan joriy yilga nisbati farqi	
				summa (mln.so'm)	%
1.	Foizli daromadlar (mln.so'm)				
2.	Foizli xarajatlar (mln.so'm)				
3.	Foizli sof foyda (mln.so'm)				
4.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar (mln.so'm)				
5.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar samaradorligi				

**Foizli sof foyda**

$$S_k = \frac{\text{Chetdan jalb etilgan mablag'}}{\text{Chetdan jalb etilgan mablag'}} \times 100\%$$

### 10-jadvalga topshiriqlar:

1. Bankning moliyaviy natijalari hisoboti ma'lumotlari asosida, uning tahlil davridagi foizli daromadlar va foizli xarajatlari miqdorini aniqlang.
2. Tahlil davri uchun bankning sof foizli foydasi miqdori va uning o'zgarishini aniqlang.
3. Bank balansi ma'lumotlari asosida bankning hisobot davridagi chetdan jalb etilgan mablag'lari qoldig'i va ularning o'zgarishi aniqlang.
4. Bankning tahlil davridagi chetdan jalb etilgan mablag'laridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlang.
5. Bankning chetdan jalb etilgan mablag'lari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini belgilash.

### 3-topshiriq. Quyidagi testlarning to'g'ri javobini toping.

1. Tashkil qilish manbasiga qarab jalb qilingan resurslar qanday guruhlanadi?	depozitli	Jalb qilingan mablag'lar	O'z mablag'lari	nodepozit
2. Amaliyotda depozitlarning necha shakli mavjud?	5 ta	4 ta	3 ta	2 ta
3. O'z mablag'lari deganda nimani tushunasiz?	Tijorat banklarining o'ziga tegishli mablag'lari	Qarzga olingan (uzoq muddatga) mablag'lar	Mahsulot sotishdan olingan daromadlar	Majburiyatlar qoplanishidagi ortiqcha mablag'lar
4. Ustav kapitali balansning qaysi bo'limida ko'rsatiladi?	Passiv tomon – 1-bo'limda	Passiv tomon – 2-bo'limda	Aktiv tomon – 2-bo'limda	Aktiv tomon – 1-bo'limda
5. Xususiy kapital qatoriga kiruvchi mablag'lar?	Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda	Zaxira kapitali, qo'shilgan kapital	Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar	Ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr bo'yicha to'lovlar zaxirasi
6. Xususiy kapitalni tahlil	1-shakl – «Balans»	2-shakl	4-shakl – «Pul	5-shakl –



<b>qilishda qaysi hisobot shakllari ma'lumotlariga tayaniladi?</b>		«Moliyaviy natijalar» to'g'risidagi hisobot	oqimi» to'g'risidagi hisobot	«Xususiy kapital» to'g'risidagi hisobot
<b>7.Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?</b>	Balans passivi 1-bo'lim bo'yicha tartiblashni berish	Balansning 1-bo'limi passivini tartiblashtirish	Ma'lumotlardan foydalanuvchilar, qiziquvchilarga xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi axborotlar berish	O'z mablag'lari holati to'g'risida axborotlar berish
<b>8.Xususiy kapital nimalardan iborat?</b>	Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalidan	qo'shilgan va rezerv kapital, taqsimlanmagan foydadan	Xususiy kapital bilan qoplanmagan zararlardan	Hissadorlik kapitalining usishidan
<b>9.Qo'shimcha kapital tarkibini aniqlang?</b>	Qayta baholashdan keladigan daromad	Emission daromad	Subordinatsiya-langani majburiyatlar	Devalvasiya zaxirasi
<b>10.Bank kapitalining nechta funksiyasi mavjud?</b>	5 ta	3 ta	2 ta	4 ta
- <http://www.cbu.uz>–(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
- <http://www.gov.uz>–(O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali)
- <http://www.stat.uz>–(O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi)
- <http://www.lex.uz>–(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
- <http://www.psb.uz> – (ATB Sanoatqurilishbankning rasmiy sayti)
- [www.bis.org](http://www.bis.org) – (Bazel qo‘mitasi sayti)
- <https://www.sciencedirect.com> – (ScienceDirect xalqaro ma’lumotlar bazasi)
- <https://www.scopus.com> – (Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasi)
- <http://www.en.wikipedia.org> – (Ma’lumotlar bazasi sayti)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**



**“TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI” fanidan  
2018/2019 o‘quv yili  
uchun mo‘ljallangan**

**MUSTAQIL TA‘LIM  
MASHG‘ULOTLAR**

**Toshkent – 2018**



## MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

### Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

#### O'quv portfoliosi

Hozirgi kunda oliy ta'limda foydalanilayotgan talabalar bilimni baholash test reyting tizimiga asoslangan bo'lib, talaba bilimni baholashda asosiy hal qiluvchi shaxs fan o'qituvchisi hisoblanadi. *Albatta reyting tizimining o'ziga xos ijobiy tomonlari ko'p. Lekin, shu bilan bir qatorda kamchiliklardan ham xolis emas. Ushbu kamchiliklarga asosan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:*

- ✓ talaba bilimi, uquvi va malakasi bir tomonlama, ya'ni faqat fan o'qituvchisi tomonidan baholanadi;
- ✓ baholashda talabaning faqat muayyan fan bo'yicha bilimi hisobga olinadi;
- ✓ talabaning umumiy va kasbiy nutq madaniyatini shakllanishiga to'sqinlik qiladi;
- ✓ bo'lajak kadrda kasbiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini to'liq aniqlash imkoniyati cheklangan;
- ✓ oliy o'quv yurtidagi o'quv davri yakuni bo'yicha aniqlangan umumiy ball ish beruvchilarga tayyorlangan kadrning sifati to'g'risida to'liq xulosa bermaydi;
- ✓ talabaning umumiy reyting balini aniqlashda uning boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini hisobga olish imkoniyati kam;
- ✓ bitiruvchiga tayyor kadr sifatida o'z-o'ziga ishonch, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va kasbiy kompetentlikga tayyorligi to'g'risida o'zi xulosa chiqarishiga asos yaratmaydi;
- ✓ talabada refleksiya qobiliyatini hosil bo'lishiga to'liq sharoit yaratmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, xalqaro ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi ijobiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayangan holda talabalarda umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv, o'quv– uslubiy, ilmiy va o'qishdan tashqari faoliyat natijalarini to'g'ri baholashga yo'naltirilgan nazorat qilish va baholashning innovatsion shakllaridan foydalanish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadiga

muvofiq hisoblanadi.

Talabaning oliy o‘quv yurtidagi barcha turdagi faoliyatlarini nazorat qilish va baholashning innovatsion texnologiyalaridan biri sifatida «Talaba portfoliosi» yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu texnologiya ayniqsa rivojlangan g‘arb davlatlari oliy ta‘lim tizimida keyingi yillarda keng qo‘llanilmoqda. Rossiyada esa 2003 yildan e‘tiboran ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan boshlang‘ich ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, kasbiy ta‘lim va oliy ta‘limda joriy etilgan.

«Portfolio» faoliyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha talabaning shaxsiy yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar majmuidir. Portfolioni yaratish talabaning ijodiy faoliyati hisoblanib, unga turli xil soha (o‘quv, ilmiy—izlanish, sport, ijodiy, ijtimoiy va b.) bo‘yicha faoliyat natijalari oliy o‘quv yurtida o‘qish jarayoni davrida talaba tomonidan kiritiladi.

Portfolioni yaratishdan asosiy maqsad talabaning oliy o‘quv yurtidagi o‘qish jarayoni davrida erishgan yutuqlari to‘g‘risidagi daliliy hujjatlarni to‘plash va saqlashdan iborat. Portfolio nafaqat talabaning ta‘lim sohasidagi faoliyati natijalarini o‘zi tomonidan baholashning samarali shakli bo‘lib qolmasdan, quyidagilarga imkoniyat tug‘diradi:

- ✓ ta‘lim sohasidagi yutuqlarni dalillashtiradi;
- ✓ ish raqobati bo‘yicha tajriba orttiradi;
- ✓ kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun mustaqil ta‘limni amalga oshiradi;
- ✓ o‘zining kasbiy kompetentlik darajasini obyektiv baholash
- ✓ malakasini rivojlantiradi;
- ✓ bo‘lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradi.

Respublikamiz oliy ta‘lim tizimida ushbu texnologiyaning qo‘llanilishi amaldagi talaba bilimini baholashning test reyting tizimini inkor etmaydi, aksincha uni to‘ldiradi. Rivojlantiruvchi ta‘limga, insonparvar pedagogika nuqtai-nazaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tishga, talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha refleksiya hosil qilishga sharoit yaratadi.

Portfolio talabaning turli sohalardagi faoliyati, jumladan o‘quv–tarbiyaviy, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ va boshqalar bo‘yicha erishgan natijalari sifatini baholash imkonini beradi.

**Portfolioning asosiy maqsadi** – talabaning ta’lim jarayonidagi faoliyati bo‘yicha hisobot taqdim etish, uning alohida erishgan ta’lim natijalarini yaqqol tasavvur qilish, ta’lim tizimida o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash, qobiliyatlarini namoyish etish hamda bilim va malakalarini amalda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Portfolio asosida talaba erishgan yutuqlar va bilim olish jarayoni natijalarini sifat jihatidan va soniy baholash mumkin.

Portfolio nafaqat baholashning zamonaviy samarali shakli, balki quyidagi muhim pedagogik vazifalarni echishda foydalanuvchi texnologiya hamdir:

- ✓ talabaning yuqori o‘quv mazmunini qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ talabaning faolligi va mustaqilligini rag‘batlantirish, ta’lim olish va mustaqil ta’lim olishni kengaytirish;
- ✓ reflektiv bilim va o‘z-o‘zini obyektiv baholash faoliyatini rivojlantirish;
- ✓ mustaqil o‘qish malakasini, shaxsiy o‘quv faoliyati maqsadini belgilash, rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatini shakllantirish;
- ✓ talabaning individual ta’limiga ko‘mak berish;
- ✓ bilimlarni ijobiy umumlashtirish uchun qo‘shimcha
- ✓ sharoitlar va imkoniyatlar yaratish.

Portfolioni yuritilishi talabaning bilim olish faolligini, o‘zining maqsad va imkoniyatlarini bilish darajasini oshiradi. Talabada o‘z bilim va imkoniyatlarini, iqtidorini baholash va u asosida maqsadni to‘g‘ri va aniq belgilash, kelajakni o‘ziga ishonib rejalashtirish, olgan bilimlarini hayotda amalda qo‘llashga ishonish hissi paydo bo‘ladi.

**Talaba portfoliosini yaratishdan maqsad** portfolio talabaning ma’lum fan bo‘yicha barcha ishlarini to‘liq yoritishi kerak. U o‘z ichiga fan bo‘yicha barcha turdagi topshiriqlar, loyihalar, ma’ruzalar, yozma ishlarni qamrab olishi, talabaning ushbu fan bo‘yicha muvaffaqiyatlarini, fanga munosabatini, fanni o‘zlashtirishi va

tushunishini, muammoli topshiriqlarni bajarish va kommunikativ qobiliyatini, uning kelajakda ushbu fan bo'yicha intilishlari va o'zlashtirishini, o'zlashtirish usullarini ko'rsatib berishi zarur. Aniqlik va nutq, fikrni bayon qilish madaniyati «portfolio» sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Portfolioni yaratishda asosan quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi:

- talabanning mustaqil fikrlashi;
- «portfolio» yaratishning vaqt oralig'ini belgilash ( semestr, o'quv yili yoki butun o'quv jarayoni bo'yicha);
- fan bo'yicha erishilgan bilimlarning o'zaro bog'liqligi va asoslanganligi;
- taklif etilgan ishlar (loyihalar, mustaqil ishlar, referatlar va b.) bo'yicha talabanning o'z bahosi;
- muammollarni hal etish jarayoni, yo'llari.

«**Talaba portfoliosi**» – talabanning bilish jarayonidagi ijodiy mehnati natijalarini o'zi tomonidan obyektiv baholash instrumenti, shaxsiy faoliyati refleksiyasidir. U hujjatlar to'plami sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ talabaga «portfolio»ga joylashtirish uchun materiallar tanlash bo'yicha topshiriqlar, ko'rsatmalar;
- ✓ talabanning ijodiy faoliyatlari bilan jiddiy tanishib borish, portfelga joylashtirilgan faoliyat turlarini baholash omillari va mezonlari;
- ✓ portfolioni obyektiv baholash uchun ekspertlar guruhi anketasi.

Bunday «portfolio»ni an'anaviy usulda yoki elektron shaklda ta'lim muassasi saytida, oddiy Word formatida yaratish mumkin.

Talaba o'z xohishiga ko'ra yoki o'qituvchi topshirig'i asosida o'zining turli ijodiy sohalardagi mustaqil ishlarini ma'lum ketma-ketlik asosida o'z portfoliosiga joylashtiradi. Materiallar bir semestr bo'yicha, o'quv yili bo'yicha yoki butun o'quv yillari bo'yicha olinishi mumkin. «Portfolio» yoki undagi alohida ishlar talaba tomonidan oldindan izohlanadi, ya'ni nima uchun u aynan ushbu faoliyat turini tanladi, bu faoliyat turi bo'yicha u qanday natijalarga erishdi yoki erisha olmadi, o'qituvchining ushbu ish bo'yicha bergan bahosidan rozimi, ushbu ish natijalari bo'yicha qanday xulosalarga ega. Albatta har qanday bunday ish yo'l

qo'yilgan xatolarni asosli ravishda tahlil qilishni talab etadi. Uqituvchi alohida talabaga yoki talabalar guruhiga o'z fani bo'yicha shunday «portfolio» yaratishni taklif qilishi va uning tarkibini ko'rsatib berishi mumkin. Bunday «portfolio»ning asosiy maqsadi talabaning o'z faoliyatini fikrlab, asoslab va aniq dalillar asosida baholash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Belgilangan vaqt o'tgach (semestr yoki o'quv yili) yoki aniq hajmdagi ishlar tugagach, talabaning xohishi bilan ushbu dastur yoki loyiha bo'yicha talaba o'z portfoliosini taqdimot qilishi mumkin. Dastlab taqdimotni kichik guruhda, keyin esa katta auditoriyada tashkil etish lozim. Agar «portfolio» elektron shaklda yaratilgan bo'lsa, talaba o'z hamkorlariga (talabalarga) yoki o'qituvchiga o'z parolini oshkor qilib, ushbu «portfolio» sahifalariga kirishiga ruxsat beradi va taqdimot tugagach parolni o'zgartiradi. Talaba faoliyatini, ya'ni «portfolio» mazmunini baholash uchun o'qituvchi maxsus ekspertlar belgilaydi. Materiallarni mashg'ulot davrida muhokama qilish mumkin bo'ladi. Agar buning uchun alohida vaqt, o'quv soati ajratilmagan bo'lsa off-line telekonferensiya rejimida yoki darsdan tashqari vaqtda ta'lim muassasi sayti forumida amalga oshirish mumkin. Bunday forumda talaba o'zi tanlagan yoki o'qituvchi tomonidan taklif etilgan bilim sohasi bo'yicha butun kuchini berganligini, uning o'z faoliyatiga bergan bahosi o'qituvchi va ekspertlar guruhi tomonidan berilgan bahoga mos yoki mos emasligini isbotlashi zarur. U baholarni qaysi jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatishi va o'zining kelajakdagi ushbu bilim sohasidagi ijodiy faoliyati rejalari bilan xulosalashi lozim.

Agar talabalar o'qituvchining o'ziga nisbatan yaxshi, ochiq va samimiy munosabatda ekanliklarini his qilishsa, albatta o'z fikrlari, tajribalari va kuzatish natijalari bilan o'rtoqlashadilar. Chunki, har qanday talaba yoki shaxs o'z ijodiy mehnati natijalari bo'yicha boshqalar fikriga bee'tibor bo'lishmaydi. Faqat shu yo'l bilangina shaxsni kamol toptirish, o'stirish mumkin. Agar talabada bunday ishonch bo'lmasa, ochiq muloqat yuzaga kelmaydi. Talaba yuqorida ko'rsatilgan «portfolio»ni yuritganda ham odatdagidek sukut saqlaydi.

Talabalarni bunday texnologiya asosida tarbiyalash va ularga ta'lim berish rivojlangan davlatlarda allaqachon o'z o'rnini topgan, chunki Internet bu

texnologiyani joriy etish uchun bir qancha qulayliklarni yarata oladi.

«Talaba portfoliosi» nafaqat akademik o'zlashtirish, balki talabaning kommunikativ muvaffaqiyatlari, muomula madaniyati, sport va jamoat ishlaridagi faolligi bo'yicha ham yuritilishi mumkin. Bunday «portfolio» muhokamasida (taqdimotida) ota–onalarni ham faol ishtirok etishlarini ta'minlash yanada yaxshi natijalarga olib keladi. Ota–onalar o'z farzandlari faoliyati natijalarini baholashlari uchun o'qituvchi tomonidan yoki ekspert guruh tomonidan taklif etilgan baholash mezonlari va parametrlaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday «portfolio» muallifining o'z fikrlari va o'z-o'zini baholash natijalari muhokamasida ushbu texnologiya prinsiplari va baholash mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Aniq bilim sohasidagi faoliyat bo'yicha o'z-o'zini baholash natijalari quyidagi omillar bilan asoslanadi:

- ✓ ma'lum fan sohasi bo'yicha bilimlarni o'quv dasturiga mos kelishi;
- ✓ bilish jarayonida talabaning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati, o'z qarorlarining oqibatlarini bilish darajasi;
- ✓ talabaning kommunikativ qobiliyatlarini xususiyatlari (bahslarda qatnashish, o'z qarorlarini asoslay olishi, materiallarni ravon va sodda tilda tushuntirib bera olishi).

2. Tizimli va muntazam o'z monitoringini olib borishi. Talaba biror fan bo'yicha o'z yutuqlarini nazorat qilib borishni maqsad qilib olsa, u ushbu fan bo'yicha muhim deb hisoblagan bilimlarini tizimiy ravishda «portfolio»ga joylashtirib boradi. Uning vazifasi– ushbu ishlarni diqqat bilan tahlil qilib borish, kerakli o'zgartirishlar kiritish, unga tushuntirishlar berish, o'z-o'zini baholash bo'yicha qisqa hisobot tayyorlash, ya'ni ushbu bilim sohasi bo'yicha u nimalarni o'zlashtirdi, nimalarni o'zlashtira olmadi yoki tushunmadi, kelajakda nimalarga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek u bu erda o'z bilimlariga o'qituvchi, ekspertlar va ota–onasi tomonidan qo'ygan baholarga ham fikrini bildirishi mumkin.

3. «Portfolio» materiallari tarkibi, barcha yozma tushuntirishlarning mantiqiyliigi va aniqligi.

4. «Portfolio»da keltirilgan materiallarni to'liqligi va mazmunan tugallanganligi.

5. «Portfolio»ni tartib bilan va estetik jihatdan did bilan yaratilganligi.

6. «Talaba portfoliosi» taqdimotini ko'rgazmali, yaqqol va asoslangan holda bo'lishi.

### **Talaba portfoliosining komponentlari**

Portfolio tarkibi talabaning semestr yoki o'quv yili davomidagi mustaqil ishlaridan iborat bo'lmog'i lozim. Talaba ushbu «portfolio» orqali anjumanlarda chiqish qilib, o'zining mustaqil fikrlashga, fan bo'yicha olgan bilimlarini ijodiy amalda tatbiq etishga qodirligini namoyish etgan holda, o'z-o'ziga ushbu bilim doirasi bo'yicha shaxsan bahosini beradi. Bu talabaga o'z yutuqlari, olgan bilimlari va ijodiy ishlarini mustaqil tahlil qilish va unga o'z bahosini berish, uni o'qituvchi yoki hamkorlari bilan baham ko'rish imkonini yaratadi.

Bunday «portfolio» tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ✓ titul;
- ✓ mazmuni;
- ✓ har bir materialning qisqacha mazmuni va talaba uchun tushunchalar;
- ✓ nima uchun ushbu material yoki bilim sohasi olinganlik sababi;
- ✓ portfolio o'qituvchi va talabaning o'zi tomonidan qanday baholanganligi;
- ✓ fan bo'yicha yutuqlari tarixi;
- ✓ « portfolio»ni yaratish muddati va taqdimot vaqti.

Muallifga «portfolio»ni yaratishda to'liq erkinlik beriladi.

Talabaning dunyoqarashlari, fikrlarining mantiqiyliqi, nutq va bayon etish madaniyati, o'z fikrini isbotlay olishi kabi omillar uning faoliyatini baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida foydalaniladi. Ayrim hollarda o'qituvchi «portfolio» tarkibiga o'z talablarini qo'yishi ham mumkin.

Portfolio tarkibi quyidagi materiallardan iborat bo'lishi mumkin:

**Titul varaqa** – «portfolio»ni nomi, talaba f.i.sh., fanning nomi, «portfolio»ni yuritish davri (semestr yoki o'quv yili), boshlanish va tugash sanasi, o'qituvchi

f.i.sh.

**«Portfolio» tarkibi:**

✓ fan bo'yicha talabaning erishgan yutuqlari (shaxsiy faoliyat natijalari tahlili, nimani o'zlashtirish oson, nima qiyin kechyapdi, ushbu qiyinchiliklar mohiyati nimada va b);

✓ yozuvlar, ma'ruzalar, uy vazifalari (fanning turli bo'limlari bo'yicha kamida 8 ta topshiriq beriladi, albatta bunda mustaqil fikrlash qobiliyati, fikrlarning originalligi hisobga olinadi, talaba bitta muammo yoki topshiriq yechimining turli xil yo'llarini ko'rsatishi zarur;

✓ nazorat va mustaqil ishlar (kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5–6 ta mustaqil ish);

✓ testlar;

✓ axborot texnologiyalaridan foydalanish (axborot texnologiyalari foydalanilgan kamida 2 ta misol, dasturiy material);

✓ guruhiy loyihalar (talaba ishtirok etgan har bir loyiha batafsil yoziladi);

✓ sizning sevimli ishingiz;

✓ talaba faoliyati bo'yicha baholar (o'qituvchi va ekspertlar bahosi).

**Portfolio bo'yicha izohlar.** Taqdimotga tavsiya etilayotgan «Portfolio» materiallari puxta o'ylangan, «portfolio»da keltirilgan barcha materiallar bo'yicha muallifning shaxsiy fikrlari yoritilgan bo'lishi zarur. U talabaning ushbu fan bo'yicha olgan bilimlari, bo'sh tomonlari, kelajakdagi rejalarining to'liq mazmunini ko'rsatishi lozim.

### **Talaba portfoliosining turlari**

**1. Hujjatlar portfoliosi** – ta'lim sohasidagi shaxsiy yutuqlar uchun berilgan sertifikatlangan hujjatlar to'plami (sinov daftarchasi, diplomlar, sertifikatlar, guvohnomalar va b.) Bu ma'lumotlar portfolioni sifat va soniy jihatdan obyektiv baholash imkonini beradi. Materiallar jadval ko'rinishida bosqichlarga bo'linib, ball hisobida baholangan holda beriladi. Hujjatlar yoki ularning nusxalari ilova sifatida keltirilishi mumkin.



**Ushbu variantning afzalliklari:** YAkuniy ball tizimi portfolioni talabanning ta'lim faoliyati bo'yicha reytingini aniqlashning asosiy mexanizmi, talaba umumiy reytingining asosiy tashkil etuvchisiga aylantiradi.

**Cheklanishlari, kamchiliklari:** bunday tipdagi portfolio faqat talaba faoliyati natijalari to'g'risida ma'lumot beradi. U talabanning shaxsiy rivojlanish jarayonini, uning turli sohalar bo'yicha ijodiy faolligini, o'qish uslubini va qiziqishlarini aniqlash imkonini bermaydi.

### 1-jadval

#### «Hujjatlar portfoliosi»ning namunaviy tarkibi sxemasi va undagi materiallarni baholash mezonlari

Faoliyat sohalarini	Komponentlar	Natijalar (ballar)
Blok A Olimpiadalar	Viloyat: g'olib, shahar: g'olib, tuman: g'olib, OO'Yu: g'olib	5 4 3 2 1
Blok B Boshqa sertifikatlar	Qo'shimcha ta'lim tizimi muassasalari, OO'YU, jamoat fondlari, madaniy-ta'lim fondlarining tadbirlari va tanlovlari g'olibi. Fanlar bo'yicha kurslar ishtirokchisi, OO'YU yoki oliy o'quv yurtlararo ilmiy	5 4 3 2 1

**2.«Ishlar portfoliosi»** – talabanning turli, jumladan ijodiy, loyihaviy, ilmiy–izlanish va boshqa sohalaridagi ishlari, uning o'quv va ijodiy faoliyatining asosiy shakl va yo'nalishlari, ilmiy anjumanlar, tanlovlar, o'quv o'romgohlari, turli kurslardagi ishtiroki, turli amaliyotlar, sport va badiiy sohalaridagi muvaffaqiyatlari aks etadi. Bunday portfolio talabanning ijodiy kitobi sifatida yuritiladi va talabanning turli sohalaridagi ishlarining namunalari matn ko'rinishida, elektron versiyalar, rasmlar, video yozuvlar shaklida ilova qilinadi.

**Afzalliklari:** Bunday tipdagi portfolio talabanning o'quv va ijodiy faolligi dinamikasi, uning qiziqish yo'nalishi, kasbga tayyorgarlik xarakteri to'g'risida keng tasavvur beradi.

***Cheklanishlari, kamchiliklari:*** Portfolioning sifat jihatidan baholanishi yakuniy attestatsiya natijalarini to'ldiradi, lekin talabanning umumiy ta'lim reytingida asosiy tashkil etuvchi bo'lib hisoblanmaydi.

**«Ishlar portfoliosi»ni to'ldirishning namunaviy varianti**

✓ ***Loyiha ishlari.*** Loyihaning mavzusi, qisqa mazmuni hamda ilova sifatida rasmlar, ishning bosma yoki elektron variantlardagi matnlari keltiriladi.

✓ ***Tadqiqot ishlari va referatlar.*** Referat mavzusi, hajmi (necha bet), illyustratsiyalar va b.

✓ ***Texnik ijod.*** Model, maket, asboblar. Aniq ishlar va ularning mazmuni (tuzilishi, ish prinsipi, texnik tavsifi) bayon etiladi.

✓ ***Ijodiy faollikning boshqa shakllari.***

✓ ***Elektiv kurs va fakultetlardagi ishtiroki.*** Kurs nomi, muddati va o'qish shakli ko'rsatiladi.

✓ ***Turli xil amaliyotlar.*** Mehnat, ijtimoiy, til o'rganish, pedagogik, malakaviy va b. Amaliyot nomi, joyi va davri yoziladi.

✓ ***Qo'shimcha ta'lim muassasalari va turli xil o'quv kurslaridagi mashg'ulotlar.*** Ta'lim muassasasi yoki tashkilot nomi, o'qish muddati va natijalari keltiriladi.

✓ ***Olimpiada va tanlovdagi ishtiroki.*** Tadbir nomi, o'tkazilgan vaqti va talabanning natijasi qayd etiladi.

✓ ***Ilmiy anjuman, seminarlardagi ishtiroki.*** Tadbir mavzusi, tadbirni o'tkazgan tashkilot, o'quv muassasasi nomi va talaba ishtiroki shakli.

✓ ***Sport bo'yicha natijalari.*** Sport musabaqalaridagi ishtiroki, sport razryadining mavjudligi.

✓ ***Boshqa faoliyat turlari.***

**3. Taqrizlar portfoliosi.** Talabanning turli sohadagi faoliyati bo'yicha o'qituvchi, ota-onasi, kursdoshlari, qo'shimcha ta'lim tizimi xodimlari va boshqa shaxslarning xulosalari, taqrizlari hamda talabanning faoliyati va uning natijalari bo'yicha o'z tahlillaridan iborat bo'ladi.

***Afzalliklari:*** Bu portfolio talabani o'quv-tarbiyaviy va kelajakdagi faoliyati

bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni anglash darajasini kuchaytiradi hamda o‘z-o‘zini baholash mexanizmini yaratib beradi.

***Cheklanishlari, kamchiliklari:*** To‘plangan materiallarni bir shaklga keltirish va hisobga olishning murakkabligi.

**Taqrizlar portfoliosining namunaviy tarkibi:**

- ✓ bajarilgan ishlar sifati bo‘yicha taqrizlar;
- ✓ qo‘shimcha ta‘lim muassasasining ijodiy guruhlaridagi ishlari, ilmiy–amaliy anjumanlardagi chiqishlari bo‘yicha taqrizlar.
- ✓ talabaning o‘z faoliyati bo‘yicha xulosalari, baholari;
- ✓ keyingi faoliyati yoki keyingi bosqichdagi o‘qishni qanday tashkil etish bo‘yicha talabaning o‘z xulosalari;
- ✓ amaliyotlar bo‘yicha tavsiya xatlar;
- ✓ boshqa sohalar bo‘yicha taqriz va xulosalar.

Yuqorida taklif etilgan portfolio modellarini tahlil qilgan va chuqur o‘rgangan holda murakkab portfolio, ya’ni barcha modellarni birgalikdagi shaklida yoki oddiy, ushbu portfolioning bittasini yuritish mumkin.

Amalda portfolioning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

**4.«Portfolio-kollektor».** Bu portfolio talaba muallif bo‘lmagan materiallardan iborat bo‘ladi. Bunga o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlar, qo‘llanma va ko‘rsatmalar, elektron o‘quv adabiyotlari, o‘quv–vizual materiallar, maqolalar, lug‘atlar yoki talabaning o‘zi mustaqil topgan adabiyotlar hamda boshqa o‘quv materiallari kiradi.

**5.«Jarayon portfoliosi»** talaba tomonidan o‘quv, uslubiy, ilmiy–izlanish, ijodiy, axborot va ijtimoiy loyihalarni bajarish jarayonida erishgan bilimi va malakalarini mustaqil qo‘llash malakasini namoyish qiladi. Portfolio talabaning loyihalash jarayonidagi barcha bosqichlarni: muammoni aniqlash, loyihani ishlab chiqish, loyiha bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, texnologik bosqich (loyihani amalga oshirish), yakuniy bosqich, taqdimot va loyihani baholashni o‘z ichiga olishi kerak.

**6.«Ko‘rsatkichlar portfoliosi»** talabaning biror bir soha bo‘yicha

mahoratini va ko'rsatkichlarini jamlash hamda ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Unga talabaning o'zi yoki ustoz tomonidan tanlagan eng yaxshi ijodiy ishlaridan namunalar qo'yiladi.

**7.«Baholash portfoliosi»** talabaning olgan bilimlari va malakasini nazorat qilish maqsadida tuziladi va u turli xil nazorat materiallaridan: nazorat ishlari, testlar, sxemalar, krossvordlar va boshqa topshiriqlardan iborat bo'ladi. Baholash portfoliosi o'qituvchi tomonidan mustaqil tuziladi va uni rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan natijaga erishish uchun o'z vaqtida talabalarga taqdim etishi talab etiladi.

**8. «Yutuqlar portfoliosi»** talabaning o'quv–tarbiyaviy jarayondagi eng yaxshi ishlari va yutuqlarini ko'rsatuvchi hujjatlardan tashkil topadi. Bu portfolioga talaba o'z xohishi bilan o'zining eng yaxshi loyihalarini, olgan tashakkurnomalari, maqto'v yorliqlari, diplomlari, taqrizlar va o'z faoliyatini namoyish qiluvchi rasmlarni kiritishi mumkin.

**9. «Talabaning elektron portfoliosi» – e-Portfolio.** Keyinga vaqtlarda rivojlangan davlatlarida **e-Portfolio** deb nomlanuvchi «Talabaning elektron portfoliosi» keng qo'llanilmoqda. Bu oddiy Word formatidagi papka bo'lmasdan, maxsus multimedia tizimida yaratilgan «portfolio» hisoblanadi. Talaba uni osonlik bilan to'ldirishi, tahlil qilishi, yangi materiallarni joylashtirishi, o'zi tanlagan axborotlarni boshqarishi mumkin.

**e-Portfolioning** uch xil shakli tavsiya etiladi:

✓ **Rivojlantirish portfoliosi– *developmental*** (rivojlanishning xususiy kompetensiyasi).

✓ **Erishgan yutuqlar portfoliosi – *assessment*.**

✓ **Namoyish portfoliosi – *showcase*.**

**Rivojlantirish portfoliosi (*developmental*)** – shaxsiy yutuqlar va kamchiliklar refleksiya uchun qo'llaniladi. Bu bosqichda talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro aloqa, munosabat, ta'sir asosiy rol o'ynaydi.

**Erishgan yutuqlar portfoliosi (*assessment*)** – talabaning fan bo'yicha erishgan yutuqlari va bilimni aniq va to'g'ri baholash uchun xizmat qiladi.

**Namoyish portfolisi (showcase)** – o‘quv kursini yakunida yaratiladi va talabaning olgan bilimlarini (tayyor kadr sifatida) potensial ish beruvchiga taqdim qilish yoki o‘qishni davom ettirishga tavsiya etish maqsadida tashkil etiladi. Bu turli ko‘rinishdagi *Curriculum Vitae* hisoblanadi.

**e-Portfolio** yuqorida keltirilgan uch variantning birgalikdagi ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. Bunda multimedia axborotlardan ham foydalaniladi.

**e-Portfolio** talabaning o‘zlashtirishi va turli sohalardagi erishgan yutuqlari monitoringini yuritishning prinsipial yangi, refleksiyaga asoslangan vositasi bo‘lib, talaba bilimi natijalarini ball tizimida emas, balki sifat jihatdan baholash imkonini beradi. **e-Portfolioni** yaratish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, masalan *Angel* qobig‘i.

«**On–line–portfolio**» turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Masalan:

- kursning umumiy saytida buning uchun maxsus ajratilgan bir qancha hujjatlar va materiallarni yuklash orqali talaba tomonidan tuzilishi mumkin;

- talabaning shaxsiy veb–varag‘ini yaratish orqali tuzilishi va unga o‘quv kursi bo‘yicha o‘z tushunchalari asosidagi hisobotlar kiritilishi mumkin.

### **Talaba portfoliosini baholash mezonlari**

Talaba o‘z-o‘zini baholashda o‘z faoliyatiga tanqid nuqtai-nazaridan qarashi, nima uchun aynan ushbu bo‘lim yoki mavzularni tanlaganligini o‘zi mantiqan bilishi, bu uning ushbu fan bo‘yicha umumiy bilimida qanday rol o‘ynashi mumkinligini ifoda etishi kerak. «Portfolio» yaratishdagi eng murakkab masala – taqdimotga loyiq materiallarni tanlash, ushbu materiallarga tushunarli tilda, ravon, mantiqan mazmunga boy va qisqa izoh yozish hisoblanadi. Materiallarni to‘g‘ri tanlash, ularga izoh yozish hamda uni ob‘ektiv baholashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

#### **Talaba faoliyati bo‘yicha savollar:**

- ✓ Portfolioga material tanlashda siz qanday ishlarni amalga oshirdingiz?
- ✓ Nimaga erishdingiz, nimalarda qiynaladingiz?

- ✓ Portfolioda siz qiynalgan biror material bormi?
  - ✓ Sizda portfolio yaratish bo'yicha mos namuna bormi?
  - ✓ Axborotlarni qanday tashkil qildingiz?
  - ✓ Muammolarni qaytadan yorita olasizmi (topshiriqni yanada oddiyroq so'zlar bilan)?
  - ✓ Qaysi so'zlar, iboralar bu erda ahamiyatliroq bo'ldi, nima uchun?
  - ✓ Muammoni qayta yoritish qanchalik rasional bo'ldi?
  - ✓ Bu masala, muammo qanday savollarni keltirib chiqarishi mumkin?
  - ✓ Siz ushbu savollarga yaqinroq savollar tuza olasizmi?
  - ✓ Ushbu masalani yoki muammoni hal etishda siz uchun nimalar eng qiyin kechdi?
  - ✓ Ushbu masalani, muammoni yechish bilan siz qanday yangi bilimlarga erishdingiz?
  - ✓ Hayotda ushbu masala, muammoga o'xshash holatlar bo'lishi mumkinmi?
  - ✓ Siz tavsiya etgan javob ushbu muammo yechimining yagona yo'limi?
  - ✓ Guruhiy ishlashga qanday munosabat bildirasiz?
  - ✓ Mashg'ulotda sizga nimalar yoqadi, nimalar yoqmaydi?
  - ✓ Ushbu masala sizning fan bo'yicha bilimlaringizni yanada ortdirishda foydali bo'ladimi?
  - ✓ Ota-onalar yoki taqrizchilarga savollar bera olasizmi?
  - ✓ «Portfolio»dan sizning birinchi taassurotingiz qanday?
- O'qituvchi faoliyati bo'yicha savollar:**
- ✓ Talabaning «portfolio» materiallarini taqdimot qilishida sizni nimalar hayron qoldirdi, siz kutmagan holatlar bormi?
  - ✓ O'z ishingizdan faxrlanish hissi bormi?
  - ✓ O'z talabangizga kelajakda yordam berish uchun nimalar qilmoqchisiz?
  - ✓ «Portfolio» materiali qanchalik aniq va mantiqan to'g'ri tashkil etilgan?
  - ✓ «Talaba» o'z portfoliosini qanchalik mustaqil yaratdi?
  - ✓ «Portfolio»ni tuzishda sizdan tez-tez maslahat oldimi?
  - ✓ «Portfolio»ni tuzishda o'zi mustaqil qanday materiallar va

texnologiyalardan foydalangan?

Talaba portfoliosini taqrizchi tomonidan baholashda yuqorida keltirilgan savollardan asos sifatida foydalanish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba portfoliosini yaratishning turli xil yo'llari va usullari mavjud. U albatta ta'lim yo'nalishi yoki fanning xususiyatiga hamda portfolioning davomiyligiga (boshlanish va tugash vaqtiga) bog'liq bo'ladi.

Eng muhim va asosiy maqsad, talabani o'zining shaxsiy ishlarini, yutuq va kamchiliklarini o'zi obyektiv tahlil qila olishga, imkoniyat va qobiliyatlarini ko'ra olishga, qiyinchiliklarni yengish va yanada yuqoriroq yutuqlarga erishish yo'llarini mustaqil aniqlay olishga o'rgatishdan iborat. Bunday holda talabanning o'quv jarayondagi o'z faoliyatiga mas'uliyati yanada ongli ravishda kechadi. Bu erda ota-onalar va xolis taqrizchilarning faol ishtirok etishlari juda muhim hisoblanadi. Natijada talabanning ma'lum soha bo'yicha ta'lim olishdagi obyektiv rivojlanishi o'qituvchiga ham, talabanning o'ziga ham yaqqol namoyon bo'ladi. Talabanning fan bo'yicha bilimini, qobiliyatini, intilishlarini va kelajakdagi rejalarini xolisona va to'g'ri baholash sharoiti yaratiladi. Talabada o'ziga ishonch yuzaga keladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLII VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
FAKULTET**

**KURS, GURUH  
TALABASINING O‘QUV**

**P O R T F O L I O S I  
(namuna)**

Boshlanish sanasi      201\_\_ yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

Tamom bo‘lish sanasi      201\_\_ yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**Toshkent – 201\_\_ yil**



## 1.PORTFOLIO EGASI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOTLAR

Familiyasi \_\_\_\_\_

Ismi \_\_\_\_\_

RASM

Sharifi \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan yili \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan joyi \_\_\_\_\_

Yashash manzili \_\_\_\_\_

Aloqa telefoni \_\_\_\_\_

Elektron pochtasi \_\_\_\_\_

Fakultet nomi \_\_\_\_\_

Kurs \_\_\_\_\_ guruh \_\_\_\_\_

M.O‘. **Fakultet dekani** \_\_\_\_\_

imzo

f.i.sh.



## FAN BO‘YICHA TALABANING ERISHGAN YUTUQLARI

**Shaxsiy faoliyat natijalari tahlili:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**Nimani o‘zlashtirish oson kechyapti:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**Nimani o‘zlashtirish qiyin kechyapti:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**Qiyinchiliklar mohiyati nimada:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



## NAZORAT VA MUSTAQIL ISHLAR\*

<b>№</b>	<b>MT mavzusi</b>	<b>Mavzuga oid bo'lim</b>	<b>MTga oid topshiriq va tavsiyalar</b>
1	Tijorat banklari balansi va uning tahlili	Tijorat banklari faoliyati tahlili fanini predmeti va vazifalari	Tijorat banki balansi asosida jadval ishlash
2	Tijorat banklari kapitalining tahlili	Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish	Adabiyotlardan konspekt qilish.
3	Tijorat banklari majburiyatlari tahlili.	Bank majburiyatlarini tahlili	Individual topshiriqlarni bajarish
4	Bank aktivlari daromadliligi va risklilik darajasi bo'yicha tahlili.	Tijorat banklari aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili	Adabiyotlardan konspekt qilish.
5	Banklar likvidligi tahlili	Tijorat banklari likvidliligi va uni tahlil qilish	Individual topshiriqlarni bajarish
6	Tijorat banklarining kredit portfelining tahlili	Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili	Kredit siyosati va bank hisoboti
7	CAMEL tizimi va uning qo'llanilishi	Tijorat banklari likvidliligi va uni tahlil qilish	Internet sayti bank balansi asosida jadval ishlash
8	Tijorat banklarining daromadlari va xarajatlari tahlili	Bank daromadlari va xarajatlarini tahlili	Bank hisoboti
9	Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili	Banklarning moliyaviy natijalari tahlili	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish

\*Kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5–6 ta mustaqil ish tayyorlanadi

## TESTLAR

- birdan-bir to‘g‘ri javobi bo‘lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to‘g‘ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so‘z (yoki so‘zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o‘zaro bog‘liqlikni (muvofiglikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo‘yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo‘yicha topshiriqlari;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o‘zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga oid topshiriqlar;
- analogiya (aynan o‘xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o‘qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko‘rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.









## TALABA FAOLIYATI BO‘YICHA BAHOLAR

№	Potfolio doirasida bajarilgan ishlar	Ballar taqsimoti	O‘qituvchi yoki ekspertlar bahosi
1	Fan bo‘yicha talabaning erishgan yutuqlari	0–4 ball	
2	Yozuvlar, ma‘ruzalar, uy vazifalari	0–4 ball	
3	Nazorat va mustaqil ishlar	0–6 ball	
4	Testlar	0–4 ball	
5	Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi	0–4 ball	
6	Guruhiy loyihalardagi ishtiroki	0–4 ball	
7	Talabaning yoqtirgan mavzusi	0–4 ball	
Jami		0–30 ball	

<b>Baholash mezonlari</b>	
<b>26–30 ball “a’lo”</b>	Fanga oid nazariy bilimlarni to‘la o‘zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo‘lish.
<b>22–25 ball “yaxshi”</b>	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
<b>17–21 ball “qoniqarli”</b>	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma‘lum bir tasavvurga ega bo‘lish.
<b>0–16 ball “qoniqarsiz”</b>	Fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik

**Fan o‘qituvchisi** \_\_\_\_\_  
imzo f.i.sh.

**Kafedra mudiri** \_\_\_\_\_  
imzo f.i.sh.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**



**“TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILI” fanidan  
2018/2019 o‘quv yili  
uchun mo‘ljallangan**

**GLOSSARIY**

**Toshkent–2018**

## GLOSSARIY

№	UZB	RUS	ENG	Mazmuni
1.	<b>Regulyativ kapital</b>	Регулятив капитал	Regulatory capital	bu bank faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy me'yornomalar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali.
2.	<b>Gudvill</b>	Гудвил	Goodvill	bankni uning sof aktivlari (barcha aktivlarning bozor bahosi va barcha majburiyatlarning bozor bahosi o'rtasidagi farq) qiymatidan yuqori narxda sotib olish chog'ida xaridor tomonidan to'lanadigan summa sifatida belgilanadi.
3.	<b>Leveraj</b>	Лeverаж	Leverage	bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. U birinchi darajasi kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.
4.	<b>Bank talablari</b>	Требования банка	Bank requirements	bank oldidagi barcha majburiyatlar, masalan, bank tomonidan berilgan kreditlar va b.
5.	<b>Kapital zaxiralar</b>	Капитальные резервы	Capital reserves	soliqlar va majburiy to'lovlar to'langandan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zaxiralar. Ulardan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashsiz qoplash uchun foydalanilishi mumkin.
6.	<b>Yirik kredit</b>	Крупный кредит	Large Credit	har qanday bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhining balansdan tashqari majburiyatlarini ham hisobga olgan holda, kreditlari jami summasi 1-bosqichli bank regulyativ kapitalining 10 foizdan oshgan holat (yirik yo'qotish ehtimoli) deb hisoblanadi.
7.	<b>Bankka daxldor shaxslar</b>	Лица, связанные с Банком	Individuals affiliated with the Bank	a) rahbar shaxslar, shu jumladan, bank Kengashining raisi va a'zolari, Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, bankning bosh buxgalteri va uning o'rinbosarlari, bank filiali rahbari va bosh buxgalteri, bankning boshqa xodimlari; b) bankning yirik aksiyadori bo'lgan, ya'ni bank ustav kapitalining 10% yoki undan ortig'iga egalik qilgan har qanday jismoniy shaxs; v) ushbu bandning (a) yoki (b) kichik bandlarida ko'rsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari, g) bankning yirik aksiyadori bo'lgan har qanday yuridik shaxs; d) bankning yirik aksiyadorlari bo'lgan har qanday yuridik shaxs; e) yuridik shaxslar rahbariyati (Kengash va Boshqaruv a'zolari), ushbu bandning (g) va (d) kichik bandlarida ko'rsatilgan rahbariyat a'zolarining yaqin qarindoshlari.
8.	<b>Sotib olinishi</b>	Проценты,	Interest to be	qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha har qanday

	<b>lozim bo'lgan foizlar</b>	подлежащие выплаты	paid	hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlar. Ular qimmatli qog'ozni taqdim etuvchiga to'lanishi lozim bo'lib va sotib olish sanasidan boshlab sotib oluvchiga o'tadigan foizlardir.
9.	<b>Umumiy zaxiralar</b>	Общие резервы	Common reserves	bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlar, investitsiyalash va b.) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadi, biroq alohida muayyan operatsiyalar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallanmagan. Masalan, "standart" kreditlar (aktivlar)ga doir yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan zaxiralar.
10.	<b>Maxsus zaxiralar</b>	Специальные резервы	Special Reserves	"qoniqarsiz", "substandart", "dargumon", va "ishonchsiz" sifatida tasniflangan kreditlar va lizing yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralar.
11.	<b>Likvid aktivlar</b>	Ликвидные активы	Liquid assets	ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (yetti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.
12.	<b>Nolikvid aktivlar</b>	ноликвидные активы	Non-Liquid assets	bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'lmagan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo'lgan holda bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.
13.	<b>Moliyaviy aktiv</b>	Финансовые активы	Financial assets	naqd pul mablag'lari, shartnomadan kelib chiqib, boshqa xo'jalik subyektlaridan pul mablag'larini yoki moliyaviy aktivlarni olish va almashtirish huquqi hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektning ulushli vositalari.
14.	<b>Amortizatsiyalana digan qiymati</b>	Амортизационная стоимость	Amortization value	aktivning balans hisobotda dastlabki tan olingandagi baholangan summasi (ya'ni aktivning hisobvaraqdagi aks ettirilgan summasi, plus/minus mukofot/diskont hisobvarag'idagi aks ettirilgan summa, plus aktivning sotib olish uchun ketgan xarajatlarning hisobvaraqdagi summasi, plus har qanday sotib olingan, olinishi lozim bo'lgan va alohida olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar hisobvarag'ida aks ettirilgan

				hisoblangan foizlar), minus to'langan asosiy qarz summasi, plus/minus real foiz stavkasi metodini qo'llash bilan mukofot/diskontlarning yig'ilgan amortizatsiya summasi, va minus sotib olish uchun ketgan xarajatlar amortizatsiyasi, va minus ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi.
15.	<b>Balans qiymati</b>	Балансовый стоимость	Balance value	moliyaviy aktivning haqqoniy qiymatini qaytadan to'g'rilash (korrektirovka o'tkazish) uchun joriy haqqoniy qiymati bilan taqqoslanadigan summa.
16.	<b>Aktiv hisobvaraqlar</b>	Активные счета	Active accounts	turli aktivlar aks ettiriladi va ular faqat debet saldosi ega bo'ladi. Aktivlarning ko'payishi ushbu hisobvaraqlarning debetida aks ettiriladi.
17.	<b>Zaxiralarning ortiqcha qismi</b>	Превышение резервов	Excess reserves	majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar miqdoridan oshadigan bank mablag'lari – bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i.
18.	<b>Nomoddiy aktivlar</b>	Нематериальные активы	assets	bu moddiy va jismoniy shaklga ega bo'lmagan nomonetar, identifikatsiyalanadigan aktivlar (dasturiy ta'minot, foydalanish huquqi, marketing va texnika ma'lumotlari), gudvill va b.).
19.	<b>Olinishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobvaraqlari</b>	Средства, подлежащие изъятию	Funds to be withdrawn	faol bozorda kotirovka qilinmaydigan, ular bo'yicha to'lovlar oldindan belgilangan yoki o'rnatilgan nohosilaviy moliyaviy aktivlar bo'lib, ularga quyidagilar kirmaydi: 1) bank zudlik bilan yoki yaqin kelajakda sotmoqchi bo'lgan, va shu sababli sotishga mo'ljallangan deb tasniflanishi lozim bo'lgan, yoki dastlabki tan olishda sotib olish va sotish uchun deb tasniflangan moliyaviy aktivlar; 2) bank tomonidan dastlabki tan olinishida sotish uchun mavjud deb tasniflangan aktivlar; 3) egasi o'zining boshlang'ich investitsiyasi summasini amalda undirib olmaydigan aktivlar, lekin aktivlar sotish uchun mavjud deb tasniflanishi lozim bo'lgan taqdirda, kreditning qadrsizlanish holatlari bundan istisno.
20.	<b>Real foiz stavka usuli</b>	Метод реальной процентной ставки	Real Interest Rate Method	aktivning (majburiyatning) xizmat muddati davomidagi kechiktirilgan (masalan, har oyda emas, har yilda olinadigan yoki to'lanadigan) foizli to'lovlarga taqsimlash orqali diskont yoki mukofotni foizli daromadga (yoki xarajatga) amortizatsiyalash yo'li bilan doimiy foiz stavkasini tan olinishiga olib keladigan usuldir/
21.	<b>Real foiz stavkasi</b>	Реальной процентной ставки	Real Interest Rate	moliyaviy aktivning mo'ljallangan xizmat muddati davomida yoki maqbul bo'lgan holda, qisqaroq davrda kutilayotgan kelgusi pul to'lovlari yoki tushumlari oqimlarini uning sof balans qiymatigacha aniq diskontlaydigan stavka;
22.	<b>Qoplanadigan qiymat</b>	Ценность, подлежащая выплате	Value to be Paid	kreditning balans qiymati va kreditning dastlabki real foiz stavkasi bo'yicha diskontlashdan kutilayotgan pul oqimlarining joriy qiymatidan eng kattasi.

23.	<b>Bank kafolati</b>	Банковская гарантия	Bank guarantee	bank (kafil) boshqa shaxs (printsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq printsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida printsipalga beradigan yozma majburiyat (keyingi o'rinlarda kafolat deb yuritiladi).
24.	<b>Kafil</b>	поручитель	Guaranteed	o'z mijoz (printsipal)ning yozma arizasiga ko'ra, printsipal benefitsiar oldidagi majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kafolatga muvofiq ushbu majburiyatlarning bajarilishini o'z zimmasiga oluvchi bank.
25.	<b>Kredit</b>	кредит	Credit	jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.
26.	<b>Bank krediti</b>	Банковский кредит	Bank loan	eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni, hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.
27.	<b>Bank depozitlari</b>	Банковские вклады	Bank deposits	jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.
28.	<b>Doimiy bo'lmagan majburiyatlar</b>	Непостоянные обязательства	Non-permanent liabilities	istalgan vaqtda bankdan chiqib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan yirik depozitlar/qarzlardir. Bunday majburiyatlarga odatda quyidagilar xosdir: – nisbatan katta miqdorda bo'lishi; – so'ndirish muddatining qisqaligi; – majburiyatlar egalari bank bilan mazkur majburiyatlardan boshqa hech qanday bitimlar bilan bog'lanmagan bo'ladi.
29.	<b>Moliyaviy resurslar</b>	Финансовые ресурсы	Financial Resources	davlat va korxonalar pul mablag'lari maqsadli fondlarining majmui. Ular o'sishining asosiy sharti milliy daromadning ko'payishidir. Mamlakatning moliyaviy resurslari Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tuziladigan yig'ma moliyaviy balansda o'z ifodasini topadi. U o'z ichiga davlat budjet tizimi, hukumatning nobudjet fondlari va turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining (amortizatsiya va ularning ixtiyoriga qoladigan foyda summasi) resurslarini qamrab oladi.
30.	<b>Moliyaviy bozor</b>	Финансовый рынок	Financial market	– qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar hamda fond qiymatlari, ya'ni, aksiyalar obligatsiyalar va qiymatli qog'ozlarning boshqa ko'rinishlari bozori. Birlamchi moliyaviy bozorda yangi qiymatli qog'ozlar chiqariladi, ikkilamchi moliyaviy bozorda esa, oldin chiqarilgan qiymatli qog'ozlarning qayta sotilishi sodir etiladi.

